ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2025

2-son
(Mart-Aprel)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

	**TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI**	
D. Abdullajonova	4	Konsentrlashtirilgan ta'lim orqali qo'l mehnatini o'rgatishning modernizatsiyalashgan metodik ta'minotini takomillashtirish
L. Ismatillayeva	8	O'quvchilarni intellektual salohiyatini oshirishda darsliklarning ahamiyati
M. Tairova	12	Fasilitator tarbiyachi va oddiy tarbiyachining komparativ tahlili ularning yondashuvi
M. Abduraxmonova	18	Oliy ta'lim muassasalarida "steam" ta'lim texnologiyasini joriy etishning ijtimoiy-pedagigik shart-sharoitlari
Z. Sangirova	23	O'qituvchilarning funksional savodxonligini oshirishda raqamli texnologiyalarning o'rni
	**TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI**	
N. Mamadjanova	26	Boshlangich sinflarda ingliz tilini o'qitishda fonetik-grammatik interferentsiyaga oid qiyinchiliklar va bartaraf etish imkoniyatlari
S. Ismailov	32	Kimyo fanini o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil o'qish va tadqiqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish
H. Tursinboyeva	36	Tabiiy fanlarni o'qitishda laboratoriya mashg'ulotlarini samaradorligi va ularning o'ziga xos xususiyatlari
R. Egamova	39	Sinfdan tashqari ishlarni amalga oshirish – pedagogik muammo sifatida
D. Yaxyayev	42	Rivojlangan mamlakatlarda jismoniy tarbiya fanini o'qitishdagi yondashuvlar
M. Soliyev	46	Urologiya yo'nalishi talabalariga siydik tosh kasalliklarini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash
S. Maxkamova	50	Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qilishga tayyorlash metodikasi
	**TA'LIM SIFATI:MAZMUN VA MOHIYAT**	
M. Hayitova, M. Ermamatova	54	O'quvchilarni xalqaro baholash tizimiga tayyorlashni takomillashtirish
	**ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI**	
U. Kubayev	60	Ta'limda zamonaviy virtual muhitlarning hozirgi holati tahlili
A. Karimov	65	Raqamli ta'lim - raqamli iqtisodiyotning yetakchi harakatlantiruvchi kuchi
V. Shukurov	69	Ta'limga oid raqamli kontent turlari va ulardan foydalanishning ahamiyati
J. Rajabov	73	Kelajak ta'limi uchun sun'iy intellekt usullari va vositalarining ta'siri va oqibatlari
N. Alovddinova	78	Texnologiya fani darslarida fanlararo bog'lanishlar va interdisseplinar yondashuvlarning qo'llanilishi
S. Sultanova	85	Badiiy tarjimani o'rgatishda tizimli va integrativ yondashuvlar

	MILLIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI	
D. Badriddinova	90	Maqollarda odob-axloq va tarbiya tamoyillarining ta’rifi
	TA’LIMDA MENEJMENT	
N. Abdullayeva, M. Maraimova	94	Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorining self-menejment ko‘nikmasini rivojlantirish
	JISMONIY TABIYA VA SPORT	
E. Ochilov	101	Dzyudochilarning musobaqa jarayoniga psixologik tayyorlash
	QIYOSIY PEDAGOGIKA	
Z. Qodirova	104	Ta’limda innovatsion metodlar – milliy va xorij tajribasi
S. Raximov	107	Tibbiyot instituti talabalarining ingliz tilidagi leksik-kompetensiyalarini interaktiv texlogiyalar asosida takomillshtirishda xorijiy tajribalar va innovatsion yondashuvlar
	MAKTABGACHA TA’LIM	
S. Xakimova	112	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarining faoliyat samaradorligi mexanizmini diversifikatsion yondashuv asosida takomillashtirish
Z. Djurayeva	116	Maktabgacha ta’lim sifatini nazorat qilish va boshqarishning mexanizmlarini takomillashtirish omillari
	TA’LIMDA SIHAT-SALOMATLIK VA HAYOTIY HAVFSIZLIK	
A. Muxametov	119	Aholini sog‘lomlashtiruvchi mashqlar kompleksi va to‘g‘ri ovqatlanishni nazorat qilish
	PSIXOLOGIYA	
S. Ruzmetova	123	Bo‘lajak muhandislarda psixologik kompetensiyalarni shakllantirish tamoyillari
	МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ	
Ш. Қодирова	127	Метафоры в произведениях чарльза диккенса: художественное средство для глубокой характеристики общества и человека
Э. Азмиева	131	Детский фольклор – история формирования, определение и его значение в детском узбекском и русском фольклоре
	СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ	
М. Нажмиддинова	137	Метакоммуникация в межличностном взаимодействии: теоретические основы и разрешение конфликтов
	PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS	
M. Dekhkonova	141	Development of volleyball-specific physical qualities through the useof related movement games (Harakatlantiruvchi o‘yinlardan foydalangan holda voleybol bo‘yicha jismoniy sifatlarni rivojlantirish)

Dildoraxon ABDULLAJONOVA,
Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti, p.f.f.d., (PhD)

KONSENTRLASHTIRILGAN TA'LIM ORQALI QO'L MEHNATINI O'RGATISHNING MODERNIZATSIYALASHGAN METODIK TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada konsentrlashtirilgan ta'limning mohiyati, ta'lim muammolariga yanada kompleks yondashish, har bir fan doirasida mavzuga alohida e'tibor qaratish, talabalarda tanqidiy fikrlash, turli sohalardagi ma'lumotlarni integratsiyalash va ularni turli nuqtayi nazardan tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam berish haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so'zlar. Multidisiplinar yondashuv, ma'lumotlarni integratsiyalash, tanqidiy fikrlash, neyrobiologik xususiyatlar, integratsiyalash, motivatsiya.

Эта статья посвящена сущности концентрированного обучения, более комплексному подходу к проблемам образования, уделению особого внимания теме в рамках каждой дисциплины, помогая студентам развивать критическое мышление, способность интегрировать информацию из разных областей и анализировать ее с разных точек зрения.

Ключевые слова. Мультидисциплинарный подход, интеграция данных, критическое мышление, нейробиологические особенности, интеграция, мотивация.

The essence of concentrated education in this article, a more integrated approach to educational problems, with a special focus on the topic within each discipline, is aimed at helping students develop the ability to think critically, integrate information from different fields and analyze it from different points of view.

Key words. Multidisciplinary approach, data integration, critical thinking, neurobiological properties, integration, motivation.

Oliy ta'limda konsentrlashtirilgan ta'lim orqali qo'l mehnatini o'rgatishning modernizatsiyalashgan metodik ta'minotini takomillashtirish dolzarb bo'lib, talabalarni moslashuvchan va zamon talablariga javob beradigan, yangi g'oyalar va rejalarni amalga oshirishga asoslangan kreativ tamoyillar asosida yetuk kadr bo'lishida, kasb-hunar ta'limi egallashdagi salohiyatida muhim ahamiyatga ega.

Konsentrlashtirilgan ta'limning mohiyati – bu talabalarga bir nechta kasbiy sohalarda malakalarni o'zlashtirish imkonini beruvchi o'quv jarayoni. Oliy ta'limda bu yondashuv ko'proq multidisiplinar tizim orqali amalga oshiriladi, ya'ni talaba o'z kasbiy faoliyatini kengroq doirada shakllantiradi. Multidisiplinar yondashuv – har bir fan doirasida mavzuga alohida e'tibor qaratish, so'ng ularni yagona tizimga birlashtirish. Loyiha asosidagi o'qitish demakdir. Pedagogikadagi multidisiplinar tizim ta'lim vazifalarini yanada to'liq va samarali hal etish uchun turli sohalardagi bilim va yondashuvlardan foydalanishni nazarda tutadi. Bu o'rganish va ta'lim jarayonini yaxshilash uchun turli fanlar (psixologiya, sotsiologiya, falsafa, neyrobiologiya va boshqalar)ni birlashtiradigan yondashuvdir.

Bunday yondashuv ta'lim muammolariga yanada kompleks yondashish, talabalarning shaxsini rivojlantirishning turli jihatlarini, uning hissiy va kognitiv holatini, madaniy va ijtimoiy omillarini hisobga olish imkonini beradi. Masalan, psixologlar talabalarning

motivatsiyasini, sotsiologlar ijtimoiy muhitning ta'sirini, neyrobiologiya bo'yicha mutaxassislar miya faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishlari mumkin.

Oliy ta'limda qo'l mehnatini o'rgatishning modernizatsiyalashgan metodik ta'minotini takomillashtirish jarayonini tashkil qilish orqali nafaqat ularni muayyan mehnat malakasi va ko'nikmalari bilan qurollantirishgagina xizmat qilmay, balki talabarning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini o'stirish va ularda mehnatga munosabatini tarbiyalashda ham juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan texnologiya fanlari, bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish, mehnat darslari g'oyat zarurligi haqida fikr yuritiladi.

Yaratilgan mehnat natijalari o'ziga va yon atrofdagilariga foydasi tegishini ko'rgan o'quvchi yoshlar, talabalar mehnatni asrab-avaylashga va mehnat kishilarining mehnat natijalarini ham hurmat-izzat qilishga o'rganadi. Topshirilgan ishga ma'suliyat hissini va mehnatdagi intizomni tarbiyalash, o'qitishni ishlab chiqarish bilan birga olib borilishi salomatlik va yosh uchun foydali, jamiyat uchun kerakli mehnat izchilligini amalga oshiradi. Mehnat madaniyatini tarkib topishi uchun darslarda doimo bolalarning e'tiborini asbob va materiallarni saqlash qoidasi hamda joylashtirish tartibiga, ish joyini to'g'ri jihozlashga, materiallardan tejamkorlik bilan foydalanish usullariga, ish harakatlarining me'yori va sifatiga, ish ko'rsatkichini ta'minlovchi tadbirlarga, ishlov berishda olingan aniqlik va tozalikka rioya qilishga va nihoyat narsani chiroyli qilib bezashga talab qilib borish kerak. Kerakli material va asboblari bilan yetarli ta'minlanmaganlik ham mehnat madaniyatini shakllanishiga salbiy ta'sir etadi. Bu pedagoglarga talabalarning ehtiyojlariga mos keladigan yanada individuallashtirilgan va moslashtirilgan ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Ko'p fanli yondashuv ta'lim jarayonini turli ilmiy sohalarni integratsiyalashtirishni talab qiladigan murakkab tizim sifatida ko'riladi. Ya'ni ta'lim jarayonida bilimlarni integratsiyalash. Pedagogikada ko'p fanli yondashuvning jihatlari ta'lim jarayoniga ta'sir etuvchi ko'plab yo'nalish va omillarni qamrab oladi. Bu yondashuv turli fanlarni integratsiyalashtirish va talabalarning shaxsini rivojlantirishning barcha jihatlarini hisobga olishga qaratilgan. Mana bir nechta asosiy jihatlar:

1. Turli sohalardan bilimlarni integratsiyalash.

Multidisiplinarlik turli ilmiy fanlardan bilimlarni birlashtirishni nazarda tutadi, masalan:

• psixologiya (kognitiv va hissiy jarayonlarni tushunish, shaxsni rivojlantirish, motivatsiya);

• Sotsiologiya (ijtimoiy muhitning ta'siri, oila, madaniyat, jamiyat bilan o'zaro hamkorlik);

• ta'lim falsafasi (pedagogik nazariya va axloq asoslari, tarbiya konsepsiyasi);

• neyrobiologiya (ta'lim oluvchi miyasida sodir bo'ladigan jarayonlarni bilish, neyroplastiklik);

• tibbiyot (talabalarning salomatligi, psixologik farovonligi);

• san'atshunoslik, bolalarni sahnalashtirish va ijodiy qobiliyatga o'rgatish, texnologiya fanlari, jismoniy tarbiya (ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, jismoniy rivojlanish).

Bu integratsiya turli omillar o'quv jarayoniga va talabalarning shaxsiy rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini yanada to'liq tushunish imkonini beradi.

2. Individuallashtirilgan yondashuv.

Har bir talabaning individual xususiyatlariga e'tibor qaratish.

Multidisiplinar yondashuv quyidagilarni hisobga olishga yordam beradi:

• Talabalarning qobiliyatlari, o'qitish uslublari, qiziqishlari va ehtiyojlaridagi farqlar.

• O'qishga xalaqit berishi mumkin bo'lgan psixologik va ijtimoiy to'siqlar.

• Neyrobiologik xususiyatlar (masalan, xotira yoki e'tibor bilan bog'liq muammolar).

Shunday qilib, pedagog har birining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda yanada moslashuvchan va shaxsiylashtirilgan o'qitish usullari va strategiyalarini ishlab chiqishi mumkin.

3. Tanqidiy fikrlash va meta-fanni rivojlantirish.

Konsentrlashtirilgan yondashuv talabalarda tanqidiy fikrlash, turli sohalardagi ma’lumotlarni integratsiyalash va ularni turli nuqtai nazardan tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bu ularning meta-bilimini rivojlantiradi (ularning kognitiv jarayonlarini anglash), shakllanishiga yordam beradi.

4. O‘qitishning faol usullarini qo‘llash.

Qo‘l mehnati orqali tayyorlanadigan katta loyiha ishlari, tadqiqot ishlari, guruh hamkorligi kabi turli yondashuvlarni faollashtirish talabalarga kompleks vazifalarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Bu muhim, chunki zamonaviy ta’lim jarayoni nafaqat bilim olishga, balki amaliy ko‘nikma va jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga ham qaratilishi kerak.

5. Psixologik-pedagogik kuzatuv.

Konsentrlashtirilgan yondashuv doirasida pedagogik kuzatuv talabalarga shaxsiy muammolarni bartaraf etish va o‘qitishdagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradigan psixologik yordamni o‘z ichiga olishi kerak. Psixologlar va pedagoglar qulay ta’lim muhitini yaratish, auditoriyadagi hissiy muhitni yaxshilash, shuningdek, talabalarning ruhiy salomatligini saqlash uchun birgalikda ishlashlari mumkin.

6. Ijtimoiy-madaniy kontekst.

Konsentrlashtirilgan yondashuv ta’lim jarayoniga madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy omillarning ta’sirini hisobga oladi. Masalan, ta’lim usullari o‘qitiladigan hududning madaniy an’analari va xususiyatlariga qarab o‘zgarishi mumkin. Bu esa pedagoglardan bolalar ta’lim olayotgan ijtimoiy kontekstlarni tushunish va moslashuvchanlikni talab etadi.

7. Ta’lim texnologiyalaridagi innovatsiyalar.

O‘qitishda yangi texnologiyalardan foydalanish ham ko‘p tarmoqli yondashuvning muhim jihatidir. Ta’lim platformalari, virtual laboratoriyalar va boshqa interaktiv resurslar kabi zamonaviy vositalar an’anaviy ta’lim usullari bilan integratsiyalashib, bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Baholash va refleksiya.

Standart test va imtihonlar doirasidan chetga chiqadigan talabalarni baholashga yondashish muhim tarkibiy qismdir. Buning o‘rniga ta’lim jarayonini tahlil qilish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, o‘zini o‘zi tartibga solish va refleksiya qobiliyatiga, shuningdek, individual ehtiyojlarga moslashuvchan bo‘lishi mumkin bo‘lgan shakllantiruvchi baholashga e’tibor qaratiladi. Shu tariqa, ko‘p fanli yondashuv ta’lim jarayonining ufqlarini sezilarli darajada kengaytirish va har bir talabaning ehtiyoj va xususiyatlarini inobatga oladigan yanada kompleks va moslashuvchan ta’lim usullarini ishlab chiqish imkonini beradi. Qo‘l mehnatini o‘rgatish: qo‘l mehnatini o‘rgatish oliy ta’lim tizimida muhim rol o‘ynaydi, chunki bu nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham talab qiladi. Shu sababli, qo‘l mehnatiga oid yangi pedagogik metodlarni ishlab chiqish zarur.

Modernizatsiyalashgan metodik ta’minot: zamonaviy metodik ta’minotga ta’lim jarayonini samarali boshqarish uchun zarur bo‘lgan barcha vositalar, texnologiyalar va metodlarni kiritish mumkin. Bu o‘z ichiga interaktiv o‘quv usullari, raqamli ta’lim resurslari, shuningdek, talabalarga real ish muhitiga yaqinlashish imkonini beruvchi amaliyotlar kiradi.

Metodologik yondashuvlar va pedagogik strategiyalar: ta’limda qo‘llaniladigan pedagogik yondashuvlar, jumladan, talabalarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun interaktiv metodlar, masalan, laboratoriya ishlarini amalga oshirish, amaliy mashg‘ulotlar va o‘quv dasturlarining ishlab chiqilishi.

Innovatsion texnologiyalar: oliy ta’limda qo‘l mehnatini o‘rgatishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ham muhim. Onlayn kurslar, simulyatsiyalar va boshqa virtual vositalar orqali o‘quv jarayonini takomillashtirish mumkin.

Oliy ta’limda konsentrlashtirilgan ta’lim orqali qo‘l mehnatiga o‘rgatishda ushbu yo‘nalishlarni batafsil yoritib, turli metodik yondashuvlar va ulardan foydalanishning samaradorligini o‘rganish, shuningdek, zamonaviy ta’lim tizimlarida qo‘l mehnatini o‘rgatishning yangi usullarini ishlab chiqish bo‘yicha tavsiyalar berish mumkin.

Konsentrlashtirilgan ta’lim (ya’ni, intensiv o‘qitish yoki maxsus o‘qish metodlari) yordamida qo‘l mehnatiga o‘rgatish, amaliy ko‘nikmalarni tez va samarali tarzda shakllantirishga qaratilgan yondashuvdir. Bu metodda nazariy bilimlar bilan birga, talabalarni yoki talabalardan tashkil topgan kichik guruhlarning amaliy ishga qiziqishini va malakasini oshirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Qo‘l mehnatiga o‘rgatishda konsentrlashtirilgan ta’limning afzalliklari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Tezkor natijalarga erishish – intensiv treninglar qisqa vaqt ichida ko‘proq ko‘nikmalarni egallash imkonini beradi.

Nazariy va amaliy muvozanat – nazariy bilimlar bilan amaliy mashg‘ulotlar birlashtiriladi, bu esa talabalarning ko‘nikmalarini yanada mustahkamlaydi.

Talabarning ko‘p vaqtni amaliy mashg‘ulotlarga bag‘ishlashi – talabalar yoki kichik guruhlar tomonidan o‘rgatilayotgan ish jarayonlarida ko‘proq amaliy tajriba olish imkoniyatini yaratadi.

Individual yondashuv – har bir talabaga ko‘proq vaqt ajratib, ularning o‘ziga xos ehtiyojlariga moslashish imkoniyatini beradi.

Qo‘l mehnatiga o‘rgatishda, misol uchun, tikuvchilik, qurish-yasash, kashtachilik, applikatsiya usulida yoki mozaika texnikasi orqali bezatish, gazlamadan mavzu asosida ko‘rgazmalar, didaktik materiallar tayyorlash kabi sohalarda konsentrlashtirilgan ta’limdan foydalanish samarali bo‘ladi. Mehnat madaniyati malakalari ko‘p marotaba takrorlanadigan mashqlar natijasida hosil bo‘ladi, bunda mashqlar davomida har bir mashq jarayonida o‘rnatiladigan tartib va ish harakati izchilligini tushuntirib berish zaruriyati bilan birga qo‘shib olib boriladi. Dunyo tajribasida kasbiy ta’limni rivojlantirish kambag‘allikni qisqartirish va yoshlarning munosib kvalifikasiyalarga ega bo‘lishida muhim tizim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi https://uza.uz/uz/posts/.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 27.07.2017-yildagi PQ-3151-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.2019-sanadagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/4676839.

4. “SCIENCE AND EDUCATION” SCIENTIFIC JOURNAL / IMPACT FACTOR 3,848 (SJIF). “ Mehnat darslarida ta’lim jarayonini tashkil etishning pedagogik texnologiyalari” Mohidil Sobirjon qizi Yo‘ldosheva Zarnigor Sobirjon qizi.

5. “Tarbiya fanini o‘qitish metodikasi”. G.B. Saidnazarova “KAMOLOT” nashriyoti. Buxoro-2024.

6. https://lex.uz/uz/docs/.

7. https://yuz.uz/uz/news/tarbiya-buyuk ne’mat.

Latofat ISMATILLAYEVA,
Navoiy viloyati, Uchquduq tumani, 18-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

O‘QUVCHILARNI INTELLEKTUAL SALOHIYATINI OSHIRISHDA DARSLIKLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchilarning intellektual salohiyatini oshirishda darsliklarning ahamiyati va hayot bilan bog‘liqligi haqida fikr va mulohazalar yuritiladi. Shuningdek, darsliklar rasmiy ta’limning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, o‘quvchilarning intellektual salohiyatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynashi va ushbu tuzilgan manbalar nazariy bilimlar va real dunyoda qo‘llash o‘rtasida ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi va o‘quvchilarga tushuncha, qiziqish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishi yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Darsliklarning ahamiyati, intellektual salohiyat, tuzilgan ta’lim, tanqidiy fikrlash, mustaqil ta’lim, amaliy dastur, muammoni hal qilish, intellektual qiziqish, ijodkorlik.

В статье рассматриваются размышления и размышления о важности учебников и их связи с жизнью в повышении интеллектуального потенциала учащихся. Также подчеркивается, что учебники являются важным компонентом формального образования и играют решающую роль в формировании интеллектуального потенциала учащихся, и что эти структурированные ресурсы служат мостом между теоретическими знаниями и реальными приложениями и помогают учащимся развивать понимание, любопытство и критическое мышление.

Ключевые слова. Значение учебников, интеллектуальный потенциал, структурированное обучение, критическое мышление, самостоятельное обучение, практическая программа, решение проблем, интеллектуальный интерес, творчество.

The article reflects and reflects on the importance of textbooks and their relationship with life in increasing the intellectual potential of students. Textbooks are also an important component of formal education, playing a decisive role in shaping the intellectual potential of students, and these structured resources serve as a bridge between theoretical knowledge and application in the real world, and are illuminated to develop understanding, interest, and critical thinking for students.

Key words. The importance of textbooks, intellectual potential, structured learning, critical thinking, independent learning, practical programming, problem-solving, intellectual interest, creativity.

Darsliklar o‘quvchilarga o‘rganishga tizimli yondashuvni taqdim etadi, asta-sekin murakkablikda shakllanadigan mavzularning izchil oqimini taklif qiladi. Ushbu tizimli taqdimot o‘quvchilarga tushunchalarni bosqichma-bosqich tushunishga yordam beradi, bu ularga mantiqiy ravishda asosiy bilimlardan ilg‘or bilimlarga o‘tishga imkon beradi. Aniq progressiyaga rioya qilgan holda, darsliklar talabalar zarur asoslarni o‘zlashtirishdan oldin murakkab g‘oyalar bilan to‘lib-toshmasligini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, darsliklar o‘quv dasturlari bilan mos keladi, bu materialning dolzarbligini va aniq o‘quv maqsadlariga javob berishini ta’minlaydi. Matematika, fan, tarix yoki adabiyotda bo‘lsin, darsliklar o‘qituvchilar va o‘quvchilarni intellektual rivojlanish uchun zarur bo‘lgan muhim mavzular bo‘yicha boshqaradigan yo‘l xaritasi bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tuzilgan ta’lim yo‘lisiz o‘quvchilar asosiy tushunchalarni sog‘inishlari yoki bir nechta manbalardan parchalangan ma’lumotlarni birlashtirish uchun kurashishlari mumkin.

Darsliklarning eng muhim afzalliklaridan biri bu ularning mustaqil ta’limni rivojlantirish qobiliyatidir. O‘qituvchilar bebaho yo‘l-yo‘riq ko‘rsatsalar-da, o‘quvchilar o‘z ta’limlariga egalik qilishlari kerak va darsliklar buning uchun asos yaratadi. O‘quvchilar darsliklar bilan shug‘ullanganda, ular ma’lumotni mustaqil ravishda o‘qish, tahlil qilish va qayta ishlashga da’vat etiladi, shu bilan o‘quv safarlarida avtonomiya hissi rivojlanadi.


Darsliklarda ko‘pincha o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga chorlaydigan o‘ylantiruvchi savollar, mashqlar va hayotiy amaliy tadqiqotlar mavjud. Bu xususiyatlar o‘quvchilarni nafaqat ma’lumotni o‘zlashtirishga, balki u bilan faol shug‘ullanishga undaydi. Muammolarni hal qilish mashqlari yoki munozarali ko‘rsatmalar orqali darsliklar o‘quvchilarni o‘rgangan narsalarini real ssenariylarga tatbiq etishga undaydi, ularning analitik va tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshiradi. Mustaqil ta’lim va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish intellektual o‘sish uchun juda muhimdir va o‘quvchilarni hayotlari davomida foydalanadigan ko‘nikmalar bilan ta’minlaydi.

Darsliklar murakkab va mavhum tushunchalarni o‘quvchilar uchun tushunarli qilish uchun mo‘ljallangan. Diagrammalar, illyustratsiyalar, misollar va amaliy tadqiqotlar yordamida darsliklar qiyin g‘oyalarni hazm bo‘ladigan qismlarga ajratadi. Ushbu vizual va amaliy qo‘llanmalar o‘quvchilarga qiyin materiallarni tushunishga yordam beradi, o‘rganishni yanada qiziqarli va samarali qiladi. Masalan, fan darsligida fizika qonunlari kabi mavhum nazariyalar ko‘pincha samolyotlar qanday uchishi yoki elektr energiyasi uylarni qanday quvvatlantirishi kabi hayotiy ilovalar bilan tasvirlangan. Xuddi shunday, adabiyot darsliklarida o‘quvchilarga klassik romanlar mavzularini sevgi, ziddiyat yoki axloq kabi umuminsoniy tajribalar bilan bog‘lash o‘rgatiladi. Nazariya va hayotiy vaziyatlar o‘rtasidagi ushbu aloqalarni o‘rnatish orqali darsliklar o‘quvchilarga o‘qishlarining atrofdagi dunyo bilan bog‘liqligini tushunishga yordam beradi.

Bu yondashuv nafaqat tushunishni chuqurlashtiradi, balki qiziqishni ham uyg‘otadi. O‘quvchilar darslarining kundalik hayotga qanday tatbiq etilishini ko‘rsalar, ular ko‘proq o‘rganishga intilishadi. Ushbu qiziqish intellektual salohiyatning asosiy omili hisoblanadi, chunki u o‘quvchilarni yodlashdan tashqariga chiqishga va ular o‘rganadigan fanlarni chuqurroq tushunishga intiladi. Darsliklar o‘quvchilarga umrbod ta’lim ko‘nikmalarini singdirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Izchil, uyushgan tarkibni taqdim etish orqali ular o‘quvchilarga intizomli va yo‘naltirilgan tarzda o‘qishga qanday yondashishni o‘rgatadilar. O‘qish, eslatma olish va materiallarni ko‘rib chiqish o‘quvchilarni nafaqat maktabda, balki kasbiy hayotida ham foyda keltiradigan o‘qish odatlarini rivojlantirishga o‘rgatadi.

Darsliklar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan muammolarni hal qilish qobiliyatlari va analitik fikrlash sinfdan tashqarida. Masalan, matematika darsliklarida ko‘pincha o‘quvchilardan mantiqiy va tanqidiy fikrlashni talab qiladigan real muammolar mavjud. Bular moliyani boshqarish, ijtimoiy muammolarni hal qilish bo‘ladimi, kundalik qaror qabul qilishga aylanadigan ko‘nikmalardir. Darsliklar ko‘pincha o‘qish yoki qidirish uchun takliflar beradi. Bu o‘quvchilarni sinfdan tashqariga chiqishga va mustaqil ravishda o‘rganishni davom ettirishga undaydi. Qiziquvchanlik va bilimga chanqoqlikni rivojlantirish orqali darsliklar o‘quvchilarni umrbod o‘quvchi bo‘lishga ilhomlantiradi, bu o‘zgaruvchan dunyoda intellektual o‘sish va moslashuvchanlik uchun zarurdir.

Ushbu amaliy dastur, ayniqsa, fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi sohalarda muhim ahamiyatga ega, bu yerda nazariy bilimlar real muammolarni hal qilish uchun qo‘llanilishi kerak. Ushbu sohalardagi darsliklar ko‘pincha talabalarni o‘z bilimlarini innovatsion usullarda qo‘llashga undaydigan tajribalar, dizayn loyihalari va amaliy tadqiqotlar bilan ta’minlaydi. Bilim va dastur o‘rtasidagi bu bog‘liqlik intellektual salohiyatni rivojlantirish uchun juda muhimdir, chunki u talabalarni dunyoni o‘zgartirish uchun o‘z ta’limidan foydalanishi mumkin bo‘lgan muammolarni hal qiluvchilarga aylantiradi.



1-rasm. Pedagogik mahoratning kompotentligi

Darsliklar ko‘pincha o‘quvchilarni intellektual dunyoqarashini kengaytirib, turli mavzular, g‘oyalar va istiqbollar bilan tanishtiradi. Tarix, adabiyot yoki ijtimoiy fanlar kabi fanlarda darsliklar o‘quvchilarni turli madaniyatlar, falsafalar va dunyoqarashlar bilan tanishtiradi, global xabardorlik tuyg‘usini rivojlantiradi. Ushbu ta’sir empatiya va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun juda muhimdir, chunki talabalar turli xil istiqbollarni qadrlashni va murakkab global muammolarni tushunishni o‘rganadilar. O‘quvchilarni yangi g‘oyalarni o‘rganishga undash orqali darsliklar intellektual qiziqishni tarbiyalaydi. Ushbu qiziqish intellektual o‘sish uchun juda muhimdir, chunki u talabalarni savol berishga, izlanishga va chuqurroq tushunishga intiladi.

O‘quvchilar internetda juda ko‘p miqdordagi ma’lumotlarga ega bo‘lgan asrda darsliklar ishonchli va tekshirilgan bilim manbasini taqdim etadi. Ko‘pgina onlayn manbalardan farqli o‘laroq, darsliklar o‘z sohalari mutaxassislari tomonidan ko‘rib chiqiladi va ko‘rib chiqiladi, bu ma’lumotlarning to‘g‘ri va dolzarb bo‘lishini ta’minlaydi. Ushbu ishonchlilik talabalar bilimining mustahkam poydevorini rivojlantirish uchun ishonchli manbalarga muhtoj bo‘lgan ta’lim sharoitida juda muhimdir. Bundan tashqari, darsliklar ko‘pincha pedagogik tamoyillarni hisobga olgan holda yoziladi, bu materialni tushunish va saqlashni kuchaytiradigan tarzda taqdim etilishini ta’minlaydi. Bu darsliklarni o‘quvchilarni murakkab fanlar bo‘yicha yo‘naltirish va muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan bilimlar bilan ta’minlash uchun bebaho vositaga aylantiradi.

Darslikdagi ilmiy tarkib tegishli ravishda tuzilgan, o‘zgartirilgan va soddalashtirilgan, chunki o‘quvchilar taqdim etilgan tarkib haqida oldindan ma’lumotga ega emaslar. Bundan tashqari, darsliklar kognitiv jarayonning o‘ziga xos qoidalariga amal qiladi, bu yerda tarkib didaktik ravishda qayta ishlanadi va shuning uchun o‘quvchilar uchun tushunarli. Shu sababli, ilmiy mazmun, mantiq va terminologiya taqdim etilgan tarkibni soddalashtiradigan, qisqartiradigan va tanlaydigan didaktik transformatsiyalar yordamida darsliklarga yetkazilishi kerak. Didaktik transformatsiya uchta darajada sodir bo‘ladi:

– maqsadlar darajasi;
– ilmiy tizim darajasi;
– o‘qitish mazmuni darajasi.

Didaktik transformatsiya juda qiyin jarayon, chunki u o‘z foydalanuvchilari uchun funksional va izchil darslik ishlab chiqarishi kerak. Darsliklardagi tafovutlar aniq peda-

gogik maqsad va madaniy-ma'rifiy an'analar asosida ishlab chiqilgan o'quv dasturlarini turli xil tushunishlariga bog'liq.

Amalda biz vaqti-vaqti bilan noto'g'ri ta'riflarga duch kelamiz. Ba'zi o'qituvchilar, shuningdek, o'quvchilar va ularning ota-onalari darslik o'quv dasturining roli va ta'rifiga ega ekanligiga ishonishadi va ko'pincha o'quv dasturi uchun darslikni xato qilishadi. Demak, o'quv darslik mazmuniga ko'pincha qat'iy rioya qilinadi. Biroq, uning barcha afzalliklari va sifatiga qaramay, darslik o'qituvchilarga faqat o'quv dasturlari yoki bilimlar kataloglari bilan belgilanadigan ma'lum bir bilim standartiga erishishda yordam berishi mumkin. Faqat bilim manbalaridan biri bo'lishi kerak. Ammo hech qanday holatda mavzuning butun mazmuni to'plami o'quv dasturida belgilangan ta'lim maqsadlariga erishish uchun o'qituvchilar darsliklardan tashqari boshqa ta'lim vositalaridan ham foydalanadilar.

Darsliklar shunchaki ma'lumot omborlaridan ko'ra ko'proq, ular o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshiradigan kuchli vositalardir. Tizimli o'rganishni ta'minlash, mustaqil fikrlashni rivojlantirish, nazariyani real hayot bilan bog'lash. Intellektual qiziqishni rivojlantirish orqali darsliklar kelajak avlodlar ongini shakllantirishda markaziy rol o'ynaydi. Borgan sari murakkab va tez rivojlanayotgan dunyoda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyatlari va global ongni rivojlantirishda darsliklarning ahamiyatini oshirib bo'lmaydi. O'quvchilar ushbu manbalar bilan shug'ullanar ekan, ular nafaqat bilimga ega bo'lishadi, balki shaxsiy va professional hayotlarida rivojlanish uchun zarur bo'lgan intellektual vositalarni ham olishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2018-yil 29-dekabr.

2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar – Qarshi.: Nasaf, 2000 y.

3. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. – T.: 2005.

4. Shayxova X. Intellektual salohiyat – taraqqiyot mezoni. – T.: "O'zbekiston", 2011 – 12 b.

5. Karimova V. M., Sunnatova R. I., Tojiboeva R. N. Mustaqil fikrlash. "To'p" T: 2000, 50-6et.

6. Hadar L. L. (2017). Opportunities to learn: Mathematics textbooks and students' achievements. Studies in Educational Evaluation, 55, 153–166. https://doi.org/10.1016/j.stueduc.2017.10.002.

7. Herlinda R. (2014). The use of textbook in teaching and learning process: A case study of two EYL teachers. In The 61st TEFLIN International Conference 2014: Proceedings. Book 1(pp. 359–362). UNS Solo. https://pdfs.semanticscholar.org/bbb2/76b93aa1dcfe4b5648a90ddf098b32cdb0e2.pdf.

8. Hung Lau K., Lam T., Hon Kam B., Nkhoma, M., Richards, J., & Thomas S. (2018). The role of textbook learning resources in e-learning: A taxonomic study. Computers & Education, 118. 10. https://doi.org/10.1016/j.compedu.2017.11.005.

Madinabonu TAIROVA,
Andijon davlat pedagogika institute p.f.f.d.,(PhD)., dotsent

FASILITATOR TARBIYACHI VA ODDIY TARBIYACHINING KOMPARATIV TAHLILI ULARNING YONDASHUVI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlashda fasilitator pedagog modeli, fasilitator tarbiyachi va oddiy tarbiyachining komparativ tahlili ularning yondashuvi, vazifalari, uslublaridagi ijobiy va salbiy jihatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ushbu ikki rolning asosiy xususiyatlari, farqlari va ustunliklari tahlil qilinadi.

Tayanch so‘zlar. Bo‘lajak tarbiyachi, fasilitator pedagog modeli, fasilitator tarbiyachi, oddiy tarbiyachi, komparativ tahlili, STEAM yondashuvi, muammoli o‘qitish metodologiyasi (Problem-Based Learning), innovatsion pedagogik texnologiyalar, (Social-Emotional Learning) interaktiv.

В данной статье модель педагога-фасилитатора, сравнительный анализ педагога-фасилитатора и рядового педагога в подготовке будущих педагогов позволяет сопоставить положительные и отрицательные стороны в их подходе, задачах, стилях. В нем также анализируются ключевые характеристики, различия и преимущества этих двух ролей.

Ключевые слова. Педагог будущего, педагогическая модель фасилитатора, педагог-фасилитатор, простой педагог, сравнительный анализ, STEAM-подход, методология проблемно-ориентированного обучения (Problem-Based Learning), инновационные педагогические технологии, (Social-Emotional Learning), интерактив.

In this article, the model of facilitator pedagogue, comparative analysis of facilitator educator and ordinary educator in the preparation of future educators allows to compare the positive and negative aspects in their approach, tasks, styles. The main characteristics, differences, and advantages of these two roles are also analyzed.

Key words. Future educator, facilitator pedagogical model, facilitator educator, simple educator, comparative analysis, STEAM approach, problem-based teaching methodology (Problem-Based Learning), innovative pedagogical technologies, (Social-Emotional Learning), interactive.

Jahonda bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda competency-based education, soft skills rivojlantirish, reflective practice, problem-solving strategies, digital facilitation kabi yondashuvlarni integratsiya qilish orqali ta’lim jarayonining innovatsion modelini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlashda fasilitator pedagog modeli asosida integratsiyalangan STEAM yondashuvi, muammoli o‘qitish metodologiyasi (Problem-Based Learning), innovatsion pedagogik texnologiyalar, va ijtimoiy-emotsional ta’lim (Social-Emotional Learning) singari zamonaviy yondashuvlar orqali interaktiv va talabalar faolligiga yo‘naltirilgan o‘qitish tizimlari joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Fasilitator tarbiyachi va oddiy tarbiyachining komparativ tahlili ularning yondashuvi, vazifalari va uslublaridagi ijobiy va salbiy jihatlarni solishtirish imkonini beradi. Quyida ushbu ikki rolning asosiy xususiyatlari, farqlari va ustunliklari tahlil qilinadi (1-rasmga qarang).

Aspekt	An’anaviy tarbiyachi	Fasilitator tarbiyachi
Yondashuv	Bilimlarni yetkazish va bolalarning xulq-atvorini nazorat qilishga yo‘naltirilgan.	Bolalarning mustaqil o‘rganish va rivojlanish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlaydi.
Vazifalar	Bilimlarni yetkazish, intizomni saqlash va bolalarning faoliyatini nazorat qilish.	Bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlash va mustaqil fikrlashni rag‘batlantirish.
Uslublar	Ma’ruza, ko‘rsatma berish va mashq qildirish kabi uslublardan foydalanadi.	Muammoli ta’lim, loyiha usuli, o‘yin texnologiyalari kabi interaktiv uslublarni qo‘llaydi.
Ijobiy jihatlar	Tartib-intizomni saqlashda samarali, bilimlarni tizimli ravishda yetkazadi.	Bolalarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va qobiliyatlarini rivojlantiradi, o‘rganish jarayoniga qiziqishni oshiradi.
Salbiy jihatlar	Bolalarning passiv bo‘lishiga, ijodkorlik va mustaqil fikrlash qobiliyatlarining cheklanishiga olib kelishi mumkin.	Agar noto‘g‘ri tashkil etilsa, nazoratning yetishmasligi sababli intizom muammolari yuzaga kelishi mumkin.

1-rasm. Fasilitator tarbiyachi va oddiy tarbiyachining komparativ tahlili ularning yondashuvi

Ushbu solishtirishdan ko‘rinib turibdiki, fasilitator tarbiyachi yondashuvi bolalarning shaxsiy rivojlanishi va qobiliyatlarini oshirishda samaraliroq bo‘lsa-da, an’anaviy yondashuvning ham o‘ziga xos afzalliklari mavjud. Eng yaxshi natijalarga erishish uchun bu yondashuvlarni muvozanatli ravishda qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Komparativ tahlil natijasida fasilitator tarbiyachining yondashuvi oddiy tarbiyachiga nisbatan zamonaviy ta’lim talablariga ko‘proq mos kelishi aniqlanadi. Fasilitator tarbiyachi o‘quv jarayonida talabalarning ehtiyojlari va shaxsiy xususiyatlariga moslashadi, bu esa ularning o‘quv jarayoniga faol jalb qilinishini ta’minlaydi. Ta’lim jarayonining interaktiv va qiziqarli shaklda tashkil etilishi bilimlarni samarali o‘zlashtirishga, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga va muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi.

SWOT tahlili	Oddiy tarbiyachi	Fasilitator tarbiyachi
Strengths (Kuchli tomonlari)	- An’anaviy va tizimlashtirilgan ta’limni ta’minlaydi. - Tajribaga asoslangan, sinovdan o‘tgan metodlarni qo‘llaydi. - Intizomni ta’minlashda yuqori darajada samarali. - Muayyan mavzuni chuqur va puxta tushuntirishga qodir.	- Tarbiyalanuvchini o‘quv jarayonida faol ishtirokchi qiladi. - Moslashuvchan va interaktiv ta’lim metodlariga ega. - Tarbiyalanuvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. - Jamoaviy ish va muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Weaknesses (Zaif tomonlari)	- O‘quv jarayoni ko‘pincha passiv yondashuvga asoslanadi. - Tarbiyalanuvchining individual ehtiyojlarini hisobga olish darajasi past. - Tarbiyalanuvchilar faolligini rag‘batlantirish yetarli emas. - Muloqot va o‘zaro aloqa yetarli darajada rivojlanmagan.	- Innovatsion metodlarga o‘rganmagan tarbiyalanuvchining bilan qiyinchilikka duch keladi. - Murakkab holatlarda nazoratni yo‘qotish xavfi yuqori bo‘lishi mumkin. - Yangi texnologiyalarni joriy etishda resurs va vaqt talabi ko‘proq. - Barcha mavzu mashg‘ulotlar faqat interaktiv metod bilan o‘rganish har doim ham samarali emas.
Opportunities (Imkoniyatlar)	- An’anaviy ta’lim tizimida mustahkam asosga ega. - Yagona tizim orqali barcha talabalar bilan ishlash imkoniyati bor. - Qat’iy intizom va standartlashtirilgan jarayon tufayli natijani kafolatlash oson. - Barqaror ta’lim muhitini saqlash imkonini beradi.	- Zamonaviy ta’lim talablariga mos va raqobatbardosh. - Shaxsiylashtirilgan yondashuv orqali har bir talabani rivojlantiradi. - Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali ta’limni qiziqarli qiladi. - Global ta’lim trendlariga mos rivojlanish imkoniyatini beradi.
Threats (Tahdidlar)	- Zamonaviy ta’lim standartlariga moslashish qiyin bo‘lishi mumkin. - Tarbiyalanuvchilar zamonaviy o‘quv jarayonlariga qiziqishlarini yo‘qotishi xavfi mavjud. - Ta’limning ko‘p tomonlama rivojlanishini cheklash ehtimoli. - Standart usullar zamonaviy ish bozorining talablariga javob bermasligi mumkin.	- Innovatsiyalarni qo‘llashda moliyaviy va texnik cheklovlar. - Har bir tarbiyalanuvchini o‘z vaqtida qo‘llab-quvvatlash qiyin bo‘lishi mumkin. - Kadrlarning malakasizligi natijasida innovatsion jarayonlar to‘xtab qolishi xavfi. - Barcha ta’lim muassasalarida qo‘llash uchun universal model ishlab chiqish qiyin.

2-rasm. Fasilitator tarbiyachi va oddiy tarbiyachining SWOT tahlili.

Fasilitator tarbiyachining asosiy ustunligi moslashuvchanlik va talabalar bilan faol hamkorlik qilishda namoyon bo‘ladi. Biroq, innovatsion metodlarni samarali qo‘llashda resurslar va malakali mutaxassislarning yetarli darajada bo‘lishi muhim omil hisoblanadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida fasilitator tarbiyachining roli muhim ahamiyat kasb etadi. U talabalarning shaxsiy ehtiyojlarini inobatga olib, ularning mustaqil fikrlashi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va bilimlarni samarali o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratadi. Shunday qilib, fasilitator tarbiyachi ta’lim jarayonida talabalar faolligini oshirish va ularning shaxsiy rivojlanishini ta’minlashda yetakchi rol o‘ynaydi.

Har ikkala rolni birlashtirgan yondashuv optimal natijalar berishi mumkin, chunki bu yondashuv an’anaviy barqarorlikni va innovatsion rivojlanishni uyg‘unlashtiradi. Ushbu uyg‘unlik ta’lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga yordam beradi. Fasilitator tarbiyachi va oddiy tarbiyachining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari hamda tahdidlarini SWOT tahlili orqali ko‘rish mumkin (2-rasmga qarang).

F.Fanchning fikriga ko‘ra, tarbiyachi-fasilitatorning asosiy xususiyatlari ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga talabalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Kasbiy yo‘nalish tarbiyachi-fasilitatorning faoliyatini professional standartlar va zamonaviy talablar asosida tashkil etishiga yordam beradi. Xolislik va mustaqillik esa har bir talabaning ehtiyojlarini adolatli baholab, ularga mos yondashuvni tanlash imkonini beradi.

Izchillik va ratsionallik ta’lim jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etish va tartibga

solishda muhim rol o‘ynaydi. Bu talabalarning bilimlarni chuqur o‘zlashtirishiga va amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

Vershlovskiyning ta’kidlashicha, zamonaviy jamiyatda o‘qituvchi, tarbiyachi va moderatorlarning vazifalari bilimlarni uzatishdan tashqari, talabalarga resurslarni samarali ishlatish va muammolarni hal qilish yo‘llarini ko‘rsatishda yordam berishni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu mutaxassislarning faoliyati nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishni ham talab qiladi. Maslahat berish qobiliyati va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish tarbiyachilarning muhim fazilatlaridan biri sifatida qayd etiladi.

Ta’lim jarayonida shaxsiy rivojlanishga e’tibor, innovatsion usullarni joriy etish va o‘qituvchi bilan samarali munosabatlarni shakllantirish bo‘lajak tarbiyachilarni zamonaviy ta’lim talablariga javob beruvchi malakali fasilitator sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

Rodos universitetining Ijtimoiy rivojlanish markazida “Erta bolalikni rivojlantirish” kurslarida fasilitatsion ta’lim amaliyoti talabalarni malaka oshirish va akademik savodxonlikni rivojlantirishga yo‘naltirildi. Fasilitator-pedagogning vazifasi nafaqat bilim yetkazish, balki talabalarning mustaqil fikrlashi, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘z-o‘zini takomillashtirishiga yordam berishdan iborat bo‘ldi. Akademik savodxonlikni oshirish maqsadida mavzularni tahlil qilish, fikrni aniq ifoda etish va o‘qish-yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha ko‘mak ko‘rsatildi.

James Paul Gee o‘zining savodxonlikka oid “Social Linguistics and Literacies: Ideology in Discourses” va “Situated Language and Learning: A Critique of Traditional Schooling” nomli asari yondashuvlarida uni faqat o‘qish va yozish emas, balki jamiyatda muloqot qilish va fikrlash qobiliyatini o‘z ichiga oluvchi jarayon sifatida ta’riflaydi. Uning fikriga ko‘ra, nutq va savodxonlik ijtimoiy-lingvistik kontekstga asoslangan bo‘lib, ular madaniy va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu yondashuv ta’limni kengroq kontekstda tashkil etish uchun ilmiy asos yaratadi va fasilitator-pedagogning rolini yanada kengaytiradi.

Akademik savodxonlikni rivojlantirish jarayonida talabalarga akademik matnlar yaratish uchun fasilitatsion vositalar o‘rgatildi. Talabalarning akademik savodxonlikka oid yondashuvlarini aniqlash maqsadida, ularning kursga yozilishdan oldingi o‘qish va yozish tajribalari, kursga kelish sabablari hamda akademik savodxonlikni qo‘llab-quvvatlash haqidagi fikrlari tahlil qilindi. Ushbu tahlil fasilitator-pedagogning ta’lim jarayonidagi muhim rolini yoritib berdi.

Fasilitator pedagogikasida brainstorming, aqliy xaritalar va “Jahon kafesi” kabi interaktiv usullar samarali bo‘lib, ular talabalarning ijodiy va mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Xalqaro ilmiy jurnallarda, jumladan, “International Journal of Educational Research” va “Educational Psychology Review”, bu yondashuvlarning ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati keng yoritilgan. Shuningdek, “Teaching and Teacher Education” jurnali o‘qituvchilarni tayyorlash va trening dasturlarining samaradorligi, “Journal of Learning Design” esa ta’lim jarayonida dizayn fikrlash va boshqa innovatsion usullarning qo‘llanilishiga oid tadqiqotlarni chop etadi.

“Critical Studies in Education” jurnali ta’lim jarayonidagi ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarga innovatsion yondashuvlar, jumladan, fasilitatsiya faoliyatining hissasini yoritadi. “Journal of Educational Change” esa ta’limdagi o‘zgarishlarni boshqarish va fasilitatsiya usullarining samarali tatbiq etilishi haqidagi tadqiqotlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu ilmiy jurnallar fasilitatorlik pedagogikasining nazariy va amaliy asoslarini keng

qamrovda tasdiqlaydi. Ushbu yondashuv orqali fasilitator pedagog faqat jarayonni boshqarish bilan cheklanmay, muloqotni rivojlantiradi va o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ko‘maklashadi. Ta’lim jarayonida konstruktiv fikrlarni shakllantirish va hamkorlik muhitini yaratish orqali o‘quvchilar mustaqil qaror qabul qilish va ijodiy yondashuvga ega bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Ilmiy manbalarda “Forsit usuli” ta’lim tizimida o‘z samarasini ko‘rsatmoqda. James Paul Gee va Lev Vygotskiyning ijtimoiy muloqot va o‘rganish nazariyalari ushbu yondashuvga nazariy asos yaratadi.

K.Rojersning inson markazli yondashuvi zamonaviy fasilitatorlik pedagogikasining nazariy asoslarini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan. Uning “Client-Centered Therapy” va “On Becoming a Person” asarlarida shaxsga hurmat, ishonchli va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish prinsiplari ta’kidlangan. Ushbu prinsiplardan fasilitator pedagog talabani mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish va o‘z qobiliyatlarini ochishga undashda samarali foydalanadi.

Rojersning yondashuvi ta’lim jarayonida pedagogning vazifasini o‘quvchini yo‘naltirish emas, balki uning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratish sifatida belgilaydi. Ushbu tamoyil bo‘lajak tarbiyachilarni o‘qitish jarayonida ham qo‘llanilib, ularni mustaqil savollar shakllantirishga va turli vaziyatlarni tahlil qilishga o‘rgatadi.

Ilmiy jihatdan Norman Triplettning ijtimoiy psixologiyaga oid birinchi eksperimental tadqiqoti ham fasilitatorlik jarayonining psixologik aspektlarini tushunishga hissa qo‘shadi. Triplettning “dynamogenic factors” nazariyasi hamkorlik va raqobatning inson faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Keyinchalik, bu fenomen “ijtimoiy fasilitatsiya” deb nomlanib, odamlarning boshqalar huzurida bo‘lganda oddiy yoki yaxshi o‘rganilgan vazifalarni bajarishda samaradorlik oshishi, murakkab yoki yangi vazifalarda esa samaradorlik pasayishi kuzatilgan. Shunday qilib, Triplettning ishi ijtimoiy fasilitatsiya fenomenini kashf etgan va ijtimoiy psixologiya sohasida muhim ahamiyatga ega. N.Triplettning tadqiqotidan so‘ng o‘tkazilgan eksperimentlarda fasilitatsion effekt ham aniqlandi.

1904-yilda psixolog Ernst Meumann laboratoriya sharoitida shogirdlarning ish faoliyatini kuzatib, boshqalar huzurida ularning samaradorligi oshganini aniqladi. Bu kuzatuv boshqalar ishtirokining ish natijalariga ijobiy ta’sirini ko‘rsatdi. Keyinchalik, 1920-yilda Floyd Allport bu hodisani “ijtimoiy fasilitatsiya” deb atab, uni boshqalar tomonidan kuzatilish natijasida oddiy yoki yaxshi o‘zlashtirilgan vazifalarni bajarishda samaradorlik oshishi, murakkab vazifalarda esa pasayishi sifatida ta’rifladi.

Meumann va Allportning tadqiqotlari ijtimoiy fasilitatsiya fenomenini tushunishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, odamlarning boshqalar huzurida o‘z faoliyatini qanday o‘zgartirishini tahlil qilish uchun nazariy asos yaratdi. Ushbu kuzatuvlar fasilitator pedagogikaning ijtimoiy psixologik aspektlarini tushunishda ham qo‘llaniladi.

Fasilitatsiya faoliyatiga asoslangan samarali o‘zaro harakat qobiliyati quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

Empatiya – boshqalarning hissiyotlarini tushunish va ularga hamdard bo‘lish.

Qabul qilish – turli fikr va qarashlarga ochiq bo‘lish, boshqalarni hurmat qilish.

Reflektivlik – o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish va ulardan xulosa chiqarish.

Ijodkorlik – yangi g‘oyalar yaratish va muammolarni ijodiy hal qilish.

Bag‘rikenglik – turli madaniyat va qarashlarga hurmat bilan yondashish.

Samarali muloqot – mazmunli va qulay psixologik muhit yaratish.

Fasilitator trenerdan farqli o‘laroq, ekspert sifatida emas, balki jarayonni

yo‘naltiruvchi va rivojlantiruvchi sifatida ishlaydi. U ishtirokchilarni o‘qitishdan ko‘ra, ularni faoliyatga jalb qilish va muammolarni hal qilishda yordam beradi. Fasilitator guruh faoliyatini kuzatib, belgilangan qoidalarga rioya etishni ta’minlaydi va natijalarni muvofiqlashtiradi.

Fasilitatorning asosiy vazifasi guruh a’zolarini faoliyatga yo‘naltirish, samarali muloqotni rivojlantirish va ijodiy muhit yaratishga ko‘maklashishdan iborat. Shu yondashuv orqali guruh ishi samaradorligini oshirish va muammolarni hal qilishda ishtirokchilarni o‘zini namoyon qilishga rag‘batlantirish ta’minlanadi.

Fasilitator dars samaradorligini oshirish uchun guruh ishlarini tashkil etuvchi va boshqaruvchi shaxsdir. U reglamentga rioya qilinishini ta’minlab, ishtirokchilarning samarali ishlashi uchun qulay muhit yaratadi. Fasilitator guruh a’zolarini birlashtirib, rivojlanish muhitini shakllantiradi hamda seminar, trening va munozaralar kabi faoliyatlarni boshqaradi. Asosiy vazifasi – guruhni qo‘llab-quvvatlash, vazifalarni bajarishga yo‘naltirish va shaxsiy hamda kasbiy rivojlanish uchun imkoniyat yaratishdir.

Xalqaro fasilitatorlar assosiasiyalari va tashkilotlari, jumladan jahon fasilitatorlar tarmog‘i, zamonaviy tarbiyachilarni rivojlantirish uchun resurslar va imkoniyatlar taqdim etadi. Ularning faoliyati ta’lim tizimida tarbiyachi-fasilitatorning rolini kuchaytirishga qaratilgan. Xalqaro fasilitatorlar uchun tashkilotlar va imkoniyatlardan:

Xalqaro Fasilitatorlar Assotsiatsiyasi (IAF): IAF fasilitatorlarning global hamjamiyatini ta’minlaydi va professional rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi. Treninglar, konferensiyalar va sertifikatlash dasturlari orqali tarbiyachi-fasilitatorlar malakalarini oshirish imkoniyatiga ega. Batafsil ma’lumotni IAFning rasmiy veb-saytida olish mumkin.

Xalqaro Fasilitatsiya Instituti (INIFAC): INIFAC fasilitatsiya sohasida sertifikatlash va trening xizmatlarini taklif etadi. Dasturlari xalqaro miqyosda tan olingan sertifikatlarni olishga yordam beradi. Qo‘shimcha ma’lumot INIFACning rasmiy veb-saytida mavjud.

Jahon Fasilitatorlar Tarmog‘i (GFN): GFN fasilitatorlar o‘rtasida tajriba almashish va hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Onlayn forumlar va vebinarlar orqali global hamjamiyat bilan aloqada bo‘lish va bilimlarini oshirish imkonini beradi. Tadbirlar haqida ma’lumotni GFNning rasmiy veb-saytida topish mumkin.

Ushbu tashkilotlar trening materiallari, qo‘llanmalar va xalqaro tarmoq orqali tarbiyachi-fasilitatorlar uchun qimmatli resurslarni taqdim etadi.

O‘zbekistonda fasilitatsiya va fasilitatorlik faoliyati bo‘yicha “Zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonida fasilitatorning o‘rni” nomli maqolada fasilitatorning ta’lim jarayonidagi roli va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, “Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining fasilitatorlik kompetensiyasi” mavzusidagi fasilitatsiyaning mohiyati va ushbu kompetensiyaning zamonaviy pedagoglar uchun ahamiyati ilmiy maqolalarda o‘z aksini topgan.

Foydalangan adabiyotlar

1. Vershlovskiy S.G.Pedagogik faoliyatda kasbiy moslashuvchanlik muammosi. // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar, 2022.

2. Rojers K. (Carl Rogers, 1902–1987) Shaxsga yo‘naltirilgan terapiya. Psixoterapiya amaliyoti nashriyoti, 1951.

3. Norman Triplett The Dynamogenic Factors in Pacemaking and Competition. // American Journal of Psychology, 1898.

4. Erik Erikson Bolalik va jamiyat. // Norton & Company, 1950.

Muxayohon ABDURAXMONOVA,
“Qo‘qon universiteti” nodavlat oliy ta’lim muassasasi Andijon filiali,
“Klinik fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA “STEAM” TA’LIM TEXNOLOGIYASINI JORIY ETISHNING IJTIMOIY-PEDAGIGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya

Maolada STEAM ta’lim texnologiyasini oliy ta’lim sohasiga joriy etish nafaqat oliy ta’lim tizimida ishlaydigan mutaxassislarga, balki ushbu yo‘nalishda oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarga ham ushbu fan bo‘yicha tanlov fani sifatida o‘qitishni nazarda tutadi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan talabalar STEAM ta’lim texnologiyasi orqali o‘rganib, ta’limga bo‘lgan qarashlarini o‘zgartirishi va oliy ta’lim tashkilotlarining pedagoglari, o‘qituvchilari, talabalari va ularning ota-onalari (yoki qonuniy vakillari) o‘z ta’limiy ehtiyojlariga qarab STEAM texnologiyasidan foydalanishlari haqida fikr yuritilgan. Muallif jahon ta’lim tajribasida STEAM texnologiyasidan foydalanish jarayoni va uning holatini tahlil qilib o‘tgan.

Tayanch so‘zlar. STEAM, ijodkorlik, o‘rganish, kognitiv, o‘yinga asoslangan metod, ta’lim texnologiyasi, faoliyat, rivojlantiruvchi muhit, STEAM o‘qituvchilari, ijodiy fikrlash, estetik zavq, intellektual qobiliyatlar.

Внедрение образовательной технологии STEAM в сферу высшего образования, преподавание в качестве факультативного предмета не только специалистам, работающим в системе высшего образования, но и студентам высших учебных заведений, обучающимся в данной сфере. Студенты, обучающиеся в высших учебных заведениях, учатся по образовательной технологии STEAM, меняя свои взгляды наобразование. Воспитатели, педагоги, обучающиеся и их родители (законные представители) дошкольных образовательных организаций могут использовать технологию STEAM исходя из потребностей образования. Анализируется процесс и статус использования технологии STEAM в мировом образовательном опыте.

Ключевые слова. STEAM, творчество, обучение, познавательный, игровой метод, технология обучения, деятельность, развивающая среда, STEAM-педагоги, творческое мышление, эстетическое удовольствие, интеллектуальные способности.

The introduction of STEAM educational technology into the field of preschool education, teaching as an elective subject not only to specialists working in the preschool education system, but also to students of higher educational institutions studying in this field. Students studying in higher education institutions learn through STEAM educational technology, changing the way they think about education. Educators, teachers, students and their parents (legal representatives) of preschool educational organizations can use STEAM technology based on educational needs. The process and status of using STEAM technology in global educational experience is analyzed.

Key words. STEAM, creativity, learning, cognitive, game method, teaching technology, activity, developmental environment, STEAM teachers, creative thinking, aesthetic pleasure, intellectual abilities.

Bugungi kunda STEAM-ta’lim dunyodagi asosiy tendensiyalardan biri bo‘lib, u fanlararo amaliy yondashuvdan foydalanishga asoslangan. Bu ta’lim modeli tabiiy fanlar (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering),

san’at (Arts) va matematika (Mathematics) fanlarini birlashtirib, o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Ushbu matnda STEAM ta’limining asosiy shartlari va uning qanday amalga oshirilishi haqida gap boradi. Bunday ta’limning muhim sharti – uning uzluksizligi va bolalarning ishchi guruhlarda faol hamkorlik qilishi. Guruhda ular o‘zaro g‘oyalarni yig‘ish, almashish va rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladilar. Yosh avlodning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish maktabgacha ta’lim tashkilotlarining muhim vazifasidir. Bu esa ta’lim jarayonini psixologik qonuniyatlarni hisobga olgan holda doimiy ravishda takomillashtirishni talab qiladi. Umuman olganda, matnda STEAM ta’limining talabalarning ijodiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishdagi o‘rni, jamoaviy faoliyatning ahamiyati va ta’lim jarayonini doimiy yangilab borish zarurligi ta’kidlangan. Bugungi jamiyatdan faol, tashabbuskor, ijodiy fikrlovchi va mehribon fuqarolar kutilyapti. Bunday insonlar jamiyatning rivojlanishi va kelajagi uchun muhim hisoblanadi. Shu sababli maktabgacha ta’lim jarayoniga STEAM-texnologiyasini joriy etish talab etiladi. Bu usul bolalarni erta yoshda ilmiy va texnik ijodga jalb qilib, ularning qiziqishini uyg‘otishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta’lim bolaning kelajak hayotida muvaffaqiyat qozonishi uchun zarur bo‘lgan maxsus intellektual qobiliyatlarni shakllantiradi.

Bu qobiliyatlar ma’lumotlarni olish, ularni qayta ishlash va amaliyotga qo‘llashni o‘z ichiga oladi. STEAM-texnologiyasining markaziy tamoyili – bolaning olingan ma’lumotlarni to‘g‘ri qabul qilish, tahlil qilish va foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. Shu yo‘l bilan, ta’lim jarayoni yanada samarali va interaktiv bo‘ladi. Maqolada STEAM-texnologiyasining maktabgacha ta’lim jarayoniga kiritilishi, bolalarning ijodiy va texnik salohiyatini oshirish, ularni kelajak hayotiga tayyorlashdagi roli ta’kidlangan.

Zamonaviy ta’lim tizimida STEAM konsepsiyasi – ya’ni Science (fan), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Arts (san’at) va Mathematics (matematika) – ajralmas o‘rinni egallaydi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarga nafaqat nazariy bilimlar berish, balki ularni amaliy tajriba orqali sinab ko‘rish, ijodkorlik va innovatsion fikrlash salohiyatini rivojlantirish imkonini yaratadi. STEAM konsepsiyasida dizayn muhim rol o‘ynaydi. Dizayn – bu g‘oyalarni vizual ifoda etish, mahsulotlar va jarayonlarni loyihalash orqali yechimlar topish jarayoni bo‘lib, u texnologiya va muhandislik yondashuvlari bilan uyg‘unlashganda yangi innovatsion mahsulotlar va texnologiyalarni yaratish imkoniyatini beradi. Bu esa o‘quvchilarga real dunyo muammolarini hal qilishda ijodiy va analitik yondashuvni shakllantirishga yordam beradi. Ushbu yondashuv nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki yosh avlodning ijodiy potentsialini ochib berishda va ularni zamonaviy mehnat bozoriga moslashtirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu kirish qismida STEAM texnologiyasi va dizayn yondashuvining mohiyati, ta’lim jarayonidagi roli va yoshlarimizni kelajakda muvaffaqiyatga tayyorlashdagi ahamiyati bayon etilgan[1].

Zamonaviy adabiyotlarda STEAM-ta’limi fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering), san’at (Arts) va matematika (Mathematics) elementlarini integratsiyalashgan tizim sifatida ko‘rsatiladi. Tadqiqotchilar ushbu yondashuvning nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy tajriba, muammolarni hal qilish va ijodiy fikrlash salohiyatini ham rivojlantirishdagi roliga urg‘u berishadi. Adabiyotlarda dizayn yondashuvi kreativ jarayonlar, innovatsion g‘oyalarni shakllantirish va ularni real hayotda sinovdan o‘tkazish imkoniyati sifatida ta’kidlanadi. Dizayn – bu nafaqat estetik ko‘rinishni, balki muhandislik va texnologik yechimlar yaratishda zarur bo‘lgan strategik

[1] Abduqosimovna A.S. (2023). Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida steam texnologiyasi asosida o‘quv jarayonini tashkil etish jarayoni. Innovation in the modern education system, 3(29), 111-118.

fikrlash jarayonidir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, dizayn asosidagi metodologiyalar o‘quvchilarda g‘oyalarni vizualizatsiya qilish va ularni konkret yechimlarga aylantirish qobiliyatini kuchaytiradi. Bir qator ilmiy ishlar STEAM ta’limida dizayn yondashuvining qo‘llanilishi orqali o‘quvchilarning ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini sezilarli darajada oshirishini isbotlaydi. Bu integratsiya orqali o‘quvchilar real dunyo muammolarini hal qilishda, yangi texnologiyalar va mahsulotlar yaratishda faol ishtirok etishlari mumkin. Shuningdek, jamoaviy ish va loyiha asosidagi ta’lim metodlari ham dizayn fikrini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Adabiyotlarda STEAM va dizayn yondashuvlarini joriy etishda yuzaga keladigan metodologik va amaliy qiyinchiliklarga ham e’tibor qaratilgan. O‘qituvchilarning ushbu yondashuvlar bo‘yicha yetarli tayyorgarligi, resurslar yetishmovchiligi va dars jarayonida innovatsion metodlarni tatbiq etishdagi qiyinchiliklar keng muhokama qilinadi. Shu bilan birga, kelajakda STEAM va dizayn integratsiyasini yanada rivojlantirish uchun yangi o‘quv dasturlari, treninglar va metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish istiqbollari ko‘rsatilgan. Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, STEAM ta’limi va dizayn yondashuvi o‘quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Bu yondashuv kelajakda zamonaviy ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, o‘quvchilarga real hayotdagi muammolarni hal qilishda kerakli ko‘nikmalarni berish hamda innovatsion fikrlashni rag‘batlantirishda katta ahamiyatga ega. Ushbu tahlil STEAM texnologiyasi va dizayn yondashuvining nazariy va amaliy asoslarini yoritib beradi hamda zamonaviy ta’lim tizimida ularning integratsiyasining istiqbollari va qiyinchiliklarini ko‘rsatadi.

STEAM ta’limining tarkibiy qismlari sifatida quyidagi modullar keltirilgan:

• “LEGO konstruirovanie” – LEGO yordamida qurilish va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.

• “Математическое развитие” – matematikani qiziqarli shaklda o‘rganish.

• “Фокусникбумага” – qog‘oz yordamida turli faoliyatlarni bajarish.

• “Мультстудия” – multimedia va ijodkorlikni qo‘llash.

• “Мир глазами детей” – bolalarning dunyoni o‘z nazariyasi orqali idrok etish.

STEAM studentlarda turli sohalarda ijodiy faoliyat yuritish imkonini beradi:

• Ixtirochilar va olimlar kabi tadqiqot olib borish.

• Texnologlar kabi modellashtirish.

• Muhandislar kabi loyihalash.

• Rassomlar kabi chizish.

• Matematiklar kabi mantiqiy fikrlash.

• Va oddiy bolalar kabi o‘ynash.

Quyidagi tahlil va natijalar STEAM texnologiyasi va dizayn yondashuvining ta’lim jarayoniga tatbiq etilishidan olingan asosiy xulosalarni aks ettiradi. STEAM ta’limida fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering), san’at (Arts) va matematika (Mathematics) sohalari o‘rtasida chambarchas aloqalar o‘rnatilgan. Dizayn metodikasi orqali o‘quvchilar g‘oyalarni vizualizatsiya qilish va ularni amaliy yechimlarga aylantirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Dizayn yondashuvi yordamida o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifoda etishga, yangi g‘oyalarni ishlab chiqishga va muammolarni innovatsion usullar bilan hal etishga o‘rganadilar. Intervyu, guruh muhokamalari va dars jarayonidagi bevosita kuzatishlar orqali o‘quvchilarning ijodiy va analitik fikrlash jarayonlari tahlil qilindi. So‘rovnomalar va eksperimental tadqiqotlar natijalari asosida STEAM texnologiyasi va dizayn yondashuvining samaradorligi o‘lchandi. Resurslar va zamonaviy uskunalarga bo‘lgan ehtiyoj, o‘qituvchilarning ushbu yondashuvga

moslashuvi va metodik tayyorgarlik darajasi kabi omillar kuzatildi. Dars jarayonida vaqtni samarali boshqarish va loyihaviy ishlarni tashkil etishdagi qiyinchiliklar ham aniqlangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, STEAM texnologiyasi va dizayn yondashuvi orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlash, muammolarni yechish va analitik salohiyati sezilarli darajada oshgan. Dizayn metodlari o‘quvchilarga o‘z fikrlarini vizual tarzda ifodalash va kreativ yechimlar ishlab chiqishda yordam berdi. Guruh bo‘lib bajariladigan loyihalar orqali o‘quvchilar orasida hamkorlik va o‘zaro fikr almashish rivojlandi. Bu esa real dunyo sharoitida muammolarni birgalikda hal etish qobiliyatini mustahkamladi. Eksperimental darslar va dizayn asosidagi loyihalar o‘quvchilarda o‘rganishga bo‘lgan qiziqish va motivatsiyani oshirdi. Ularning dars jarayoniga bo‘lgan ijobiy munosabatlari va faol ishtiroki kuzatildi. STEAM metodologiyasi o‘quvchilarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularni amaliyotda qo‘llash imkonini berdi. Dizayn yondashuvi orqali olingan natijalar o‘quvchilarning real hayotdagi muammolarga innovatsion yechimlar topishida samarali ekanligini ko‘rsatdi. Tahlil va natijalar asosida aytish mumkinki, STEAM texnologiyasi va dizayn yondashuvi ta’lim jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘quvchilarning intellektual, ijodiy va analitik salohiyatini oshirishga, shuningdek, jamoaviy ish va real muammolarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, metodik tayyorgarlik, resurslar va o‘qituvchilarning ushbu yondashuvga moslashuvi kabi omillarni hisobga olgan holda, kelajakda STEAM texnologiyasi va dizayn integratsiyasini yanada rivojlantirish istiqbollari mavjud. Ushbu natijalar zamonaviy ta’lim tizimini yanada innovatsion va samarali shakllantirishda, o‘quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga zamin yaratishda muhim rol o‘ynashi kutilmoqda.

STEAM texnologiyasi va dizayn yondashuvi o‘quvchilarning ijodiy, analitik va texnik salohiyatini oshirishda sezilarli natijalarga erishmoqda. Fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika sohalarining uyg‘unlashuvi orqali o‘quvchilar real dunyo muammolariga innovatsion yechimlar topishga, g‘oyalarni vizual tarzda ifodalashga va ularni amaliyotda sinashga o‘rganmoqda. Guruh bo‘lib bajariladigan loyihalar va dizayn asosidagi faoliyatlar o‘quvchilar orasida hamkorlik ruhini mustahkamlashga, fikr almashish va jamoaviy yechimlar ishlab chiqish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. STEAM yondashuvi o‘quvchilarda o‘rganishga bo‘lgan qiziqish va motivatsiyani oshiradi. Darslarda innovatsion va amaliy usullar qo‘llanilishi natijasida o‘quvchilar faol ishtirok etib, o‘zlarini erkin ifoda eta olishadi. STEAM texnologiyasi va dizayn yondashuvi orqali o‘quv jarayonlari yanada interaktiv va innovatsion shaklga kirib, o‘quvchilarga kelajakda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo‘lgan intellektual va texnik ko‘nikmalarni shakllantirish imkonini beradi.

STEAM texnologiyasi va dizayn yondashuvi asosida yangi o‘quv dasturlari ishlab chiqish, mavjud dasturlarni qayta ko‘rib chiqish va amaliy mashg‘ulotlarga ko‘proq urg‘u berish zarur. Bu orqali o‘quvchilar nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Maxsus treninglar, seminarlar va ustaxonalar tashkil etish orqali o‘qituvchilarni STEAM texnologiyasi va dizayn yondashuvi bilan tanishtirish, ularning metodik tayyorgarligini oshirishga e’tibor qaratish lozim. Shuningdek, tajribali mutaxassislar bilan hamkorlik qilish orqali innovatsion dars uslublarini joriy etish muhimdir. Ta’lim muassasalarida zamonaviy STEAM laboratoriyalari, dizayn studiyalari va interaktiv texnologiyalarni joriy etish orqali amaliy mashg‘ulotlar uchun qulay sharoitlar yaratish talab etiladi. Bu o‘quvchilarga o‘z g‘oyalarini sinab ko‘rish va ularni

rivojlantirish imkonini beradi. Loyihaviy ishlar, guruh bo‘lib bajariladigan vazifalar va real dunyo muammolariga asoslangan mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning hamkorlik, muammolarni yechish va innovatsion fikrlash qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga e’tibor qaratish lozim. STEAM texnologiyasi va dizayn yondashuvining samaradorligini doimiy monitoring qilish, ularning ta’lim jarayoniga ta’sirini kuzatish va statistik tahlillar asosida natijalarni baholash zarur. Ushbu tadqiqotlar natijalariga asosan tizimni yanada takomillashtirish va kelajakdagi innovatsion loyihalarni ishlab chiqish mumkin. Ushbu xulosa va takliflar zamonaviy ta’lim tizimini yanada interaktiv, ijodiy va amaliy asosda shakllantirishda STEAM texnologiyasi va dizayn yondashuvining ahamiyatini ta’kidlaydi. Kelgusida ushbu yondashuvlar orqali o‘quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini oshirish, ularni real hayotdagi muammolarni yechishga tayyorlashda katta imkoniyatlar mavjud bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdumajitova S. A. (2023). Ways of using steam technologies in modern pre-school educational organizations. Educational Research in UNIVERSAL Sciences, 2(6), 349-353.

2. Abdukasimovna A. S. (2023). The need to use steam educational technology in preschool education. Scientific Impulse, 1(9), 1736-1741.

3. Abdukasimovna A. S. (2023). Pedagogical conditions of educational activity in english language teaching. innovation in the modern education system, 3(29), 25-30.

4. Abduqosimovna A. S. (2023). Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida steam texnologiyasi asosida o‘quv jarayonini tashkil etish jarayoni. innovation in the modern education system, 3(29), 111-118.

5. Абдумажитова С. (2023). Steam-технология как инновационная деятельность дошкольной образовательной организации. Innovations in Technology and Science Education, 2(8), 429-442.

6. Abdumajitova S. A. Priority of the person-centered educational model in preschool education //International Academic Research Journal Impact Factor 7.4. – 2022. – Т.: 1. – №. 5. – С. 53-57.

Zamira SANGIROVA,
Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi, “Pedagogik mahoratni rivojlantirish” bo‘limi boshlig‘i, p.f.f.d., (PhD)

O‘QITUVCHILARNING FUNKSIONAL SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada o‘qituvchilarning funksional savodxonligini oshirishda maqsadni aniq qo‘yish va o‘quvchilarga zamonaviy ta’lim berish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish dasturlari haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so‘zlar. O‘qituvchi, funksional savodxonlik, raqamli texnologiyalar, animatsiyalar yoki interaktiv simulyatsiyalar yaratish**.**

В статье рассматриваются программы четкой постановки целей по повышению функциональной грамотности педагогов и использованию цифровых технологий в процессе предоставления современного образования обучающимся.

Ключевые слова. Учитель, функциональная грамотность, цифровые технологии, создание анимации или интерактивных симуляций.

The article discusses programs for clearly setting goals to improve the functional literacy of teachers and the use of digital technologies in the process of providing modern education to students.

Key words. Create teacher, functional literacy, digital technologies, animations or interactive simulations.

Jamiyatning har tomonlama ravnaq topishi, taraqqiy etishi, ta’limning sifat va samadorligini yuksaltirishda o‘qituvchilarning funksional savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu savodxonlik fanning mazmunini tahlil qilish, innovatsiyalarga muvofiq yangilash, o‘qituvchilarning ijodiy va amaliy qobiliyatlarini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga bugungi kunda ta’lim tashkilotlarida ta’lim tarbiya sifatini yuqori bosqichlarga ko‘tarishda innovatsion va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Funksional savodxonlik — bu shaxsning o‘zining kundalik hayotida, ish faoliyatida va ta’lim olish jarayonida turli xil ma’lumotlarni to‘g‘ri va samarali ishlatish, tushunish, tahlil qilish va turli vaziyatlarda qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. Bu tushuncha, an’anaviy savodxonlik (o‘qish, yozish va hisoblash) bilan birga, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish hamda ma’lumotni to‘g‘ri tushunish, tahlil qilish, kerakli ma’lumotlarni ajratib olish va uni turli vaziyatlarda qo‘llay olishni ham o‘z ichiga oladi.

O‘qituvchilarning funksional savodxonligini oshirish bo‘yicha rivojlangan davlatlar tajribasi o‘rganilganda raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’lim samardorligining oshishga imkoniyat yaratilganligini ko‘rish mumkin.

AQShda o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish maqsadida bir nechta dasturlar ishlab chiqilgan, jumladan:

ISTE (International Society for Technology in Education) standartlari asosida o‘qituvchilar uchun maxsus kurslar tashkil etilgan.

Google Classroom, Microsoft Teams kabi platformalar keng qo‘llanilib, o‘qituvchi-

lar uchun maxsus treninglar o‘tkaziladi.

Finlyandiyada o‘qituvchilarni raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ta’lim berishga yo‘naltirish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

O‘qituvchilarga innovatsion ta’lim metodlari bo‘yicha doimiy treninglar beriladi.

Smart taxtalar, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish rag‘batlantiriladi.

Opetushallitus (Finlandiya milliy ta’lim agentligi) tomonidan har yili o‘qituvchilarning raqamli ko‘nikmalarini baholash tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

Janubiy Koreya ta’lim tizimi texnologiyalarni integratsiya qilish bo‘yicha dunyodagi eng ilg‘or tizimlardan biri hisoblanadi. Ularning tajribasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

O‘qituvchilarni Edutech platformalari orqali o‘qitish.

Maktablarda AI va Big Data asosida tahlil qilish tizimlaridan foydalanish.

Ta’lim uchun maxsus Cyber Teacher Training Center tashkil etilgan (1,2).

Shu o‘rinda Andreas Shleyxer OECD ta’lim direktorning so‘zlarini keltirib o‘tish joiz. “Ta’lim texnologiyasiga sarmoya kiritish endi tanlov emas, balki zaruratdir.... Murakkab raqamli landshaftda harakat qila olmaydigan shaxslar endi atrofdagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotda to‘liq ishtirok eta olmaydi”. Shunday ekan, hozirgi kunda raqamli texnologiyadan foydalanishi davr talabidir.

Tadqiqotlardan kelib chiqib, ta’limga raqamli texnologiyalardan foydalanishni joriy qilish uchun aniq maqsadlarni belgilash zarur. O‘quvchilariga raqamli texnologiyalardan ta’lim berishda to‘liq foydalanishlari uchun bu maqsadlarga erishish uchun sharoit yaratish maqsadga muvofiq. Xalqaro tajribalar o‘rganilganda maqsadlar quyidagicha belgilangan:

– o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalardan to‘g‘ri va samarali foydalanish bo‘yicha kasbiy mahoratini uzluksiz oshirish;

– barcha sohalarida asosiy e’tibor raqamli texnologiyalarga qaratilishini ta’minlash;

– barcha o‘quvchilar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini yaxshilash;

– IT mutaxassislar va o‘qituvchilar hamkorligini yo‘lga qo‘yish – pedagoglarni raqamli texnologiyalarga o‘rgatish uchun mutaxassislar bilan hamkorlik qilish;

– o‘rganish va o‘qitishni qo‘llab-quvvatlash uchun raqamli texnologiyalardan(dasturlar) foydalanish.

Yuqorida keltirilgan maqsadlar amalga oshirilsa, ta’limning paydevorini yaratuvchi o‘qituvchilarga quyidagi natijalarga erishish mumkin.

O‘qituvchilarning funksional savodxonligini oshirishda raqamli texnologiyalar bir qator afzalliklarga ega. Bu raqamli vositalar, kompyuterlar, internet va boshqa zamonaviy texnologiyalar yordamida shaxsning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonidir. Raqamli texnologiyalar, turli xil platformalar va dasturlar orqali o‘qish, yozish, tahlil qilish, qarorlar qabul qilish kabi funksional savodxonlikning barcha sohalarini yanada samarali va qulayroq qilishga yordam beradi. Ular ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, yangi pedagogik metodlarni ishlab chiqishga yordam beradi, shuningdek, o‘qituvchilarga o‘z bilimlarini kengaytirish va mustahkamlash imkonini yaratadi.

Raqamli texnologiyalar o‘qituvchilarga yangi ilmiy tadqiqotlarni, o‘quv metodlarini va pedagogik yondashuvlarni tez va samarali ravishda izlash imkonini beradi. Internet, onlayn kutubxonalar, ilmiy maqolalar va jurnallar kabi resurslar o‘qituvchilarga ta’lim sohasida va jamiyatda yuz berayotgan yangiliklardan xabardor bo‘lish imkoniyatini

yaratadi. Shuningdek, o‘qituvchilar onlayn kurslar orqali pedagogik bilimlarni, kasbiy mahoratini rivojlantirish va yangi metodlarni o‘rganishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Raqamli texnologiyalar yordamida o‘qituvchilar darslarda interaktiv vositalardan foydalanish imkoniyatiga ega. Masalan, taqdimotlar yaratish uchun PowerPoint, Google Slides, Prezi kabi dasturlarni ishlatish, o‘quvchilarni qiziqtirish va ular bilan samarali aloqada bo‘lish imkonini beradi. Shuningdek, onlayn kurslar va ta’lim platformalari (masalan, Coursera, Khan Academy) orqali turli sohalarda bilim olishi mumkin. Bu platformalar interaktiv materiallar, video darslar, testlar va vazifalar yordamida o‘quvchilarga har qanday mavzuda chuqurroq o‘qitish, onlayn testlar va viktorinalar yordamida o‘quvchilarning bilim darajasini tezda baholanishlari uchun qulayliklar yaratadi.

O‘qituvchilar raqamli texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning qobiliyatlariga moslashtirilgan darslarni ham o‘tishlari mumkin. Masalan, o‘quvchilar uchun video darslar, animatsiyalar yoki interaktiv simulyatsiyalar yaratish o‘qituvchiga har bir o‘quvchining qobiliyatiga mos o‘quv materiallarini taqdim etish mumkin. Shu bilan birga, o‘qituvchi uchun darslarni individual tarzda va har bir o‘quvchining o‘ziga xos ehtiyojlariga mos ravishda olib borish imkoniyatlari mavjud bo‘ladi.

Raqamli texnologiyalar o‘qituvchilarga o‘zaro fikr almashish va tajribalarini o‘rtoqlashish imkoniyatini yaratadi. Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn forumlar va ta’lim platformalari orqali o‘qituvchilar turli pedagogik yondashuvlarni va tajribalarni baham ko‘rishadi. Bunday platformalarda o‘qituvchilar o‘z darslarini baholash, yangi metodlarni o‘rganish va jahon miqyosida bo‘layotgan pedagogik yangiliklarni kuzatib borishlari mumkin.

Raqamli texnologiyalar, o‘qituvchilarga o‘quvchilar bilan aloqada bo‘lishda yordam beradi. Telefonlar, elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa raqamli platformalar orqali o‘qituvchi o‘quvchilarga tezda javob bera oladi, ularning savollariga javob beradi va darsga oid materiallarni yuboradi. Bu, o‘z navbatida, darslarga tayyorgarlik ko‘rish va o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchilarning funksional savodxonligini oshirishda raqamli texnologiyalarning roli beqiyosdir. Zamonaviy texnologiyalar, o‘qituvchilarga o‘z pedagogik bilimlarini yangilash, samarali darslar tashkil etish va o‘quvchilar bilan aloqada bo‘lish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, bu texnologiyalar o‘qituvchilarga ta’limni moslashtirish, o‘quvchilarni faol jalb qilish va ta’lim jarayonini interaktiv qilishda katta yordam beradi. Shu bois, o‘qituvchilar raqamli texnologiyalarni o‘z ish faoliyatiga keng joriy etishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anderson T. (2011). *The Theory and Practice of Online Learning*. Athabasca University Press.

2. Bates A. W. (2015). *Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning*. Tony Bates Associates Ltd.

3. Enhancing learning and teaching through the use of digital technology a digital learning and teaching strategy for Scotland (2016)

4. Selwyn N. (2016). *Education and Technology: Key Issues and Debates*. Continuum.

Nozimaxon MAMADJANOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, p.f.f.d., (PhD)

BOSHLANGICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O‘QITISHDA FONETIK-GRAMMATIK INTERFERENTSIYAGA OID QIYINCHILIKLAR VA BARTARAF ETISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda fonetik-grammatik interferentsiyaga oid qiyinchiliklari va aniqlangan qiyinchiliklar mavjud mashqlar va qo‘shimcha mashqlar yordamida bartaraf etish imkoniyatlari bayon etilgan. Shuningdek, Respublika umumta’lim tizimida ta’lim turli tillarda olib boriladigan maktablar uchun yagona ingliz tili darsligi yaratilganligi va ular mazmuniga juda katta e’tibor qaratilganligi hamda ingliz tilidan amaldagi darsliklar mazmunida interferentsiyani keltirib chiqaradigan omillar haqida to‘xtalib o‘tildi.

Tayanch so‘zlar. Fonetik interferentsiya, grammatik interferentsiya, til, ichki interferentsiyasi, ko‘nikma, imkoniyat.

В статье описаны трудности фонетико-грамматической интерференции при обучении английскому языку в начальных классах и выявленные трудности, которые можно преодолеть с помощью имеющихся упражнений и дополнительных упражнений. Также было отмечено, что в системе общего образования республики создан единый учебник английского языка для школ, где обучение ведется на разных языках, и большое внимание уделяется их содержанию, а также факторам, вызывающим помехи в содержании действующих учебников по английскому языку.

Ключевые слова. Фонетическая интерференция, грамматическая интерференция, язык, внутренняя интерференция, навык, возможность**.**

The article describes the difficulties of phonetic-grammatical interference in teaching English in elementary grades and the possibilities of overcoming the identified difficulties with the help of existing exercises and additional exercises. It was also mentioned that in the Republican general education system, a single English textbook was created for schools where education is carried out in different languages, with a lot of attention paid to their content, as well as factors that cause interference in the content of current textbooks from English.

Key words. Phonetic interference, grammatical interference, language, internal interference, skill, opportunity.

Xorijiy til ta’limida ikki til tizimining o‘zaro harakati mavjud emas ekan, ya’ni o‘quvchilarning “nutqi” asosan faqat sinfdagina shakllantirilar ekan, interferentsiyani bartaraf etish yoki uning yuzaga kelish ehtimolini kamaytirish juda qiyin vazifa, ammo autentik o‘quv materiallari, til sohiblarining ovozlari yozilgan audio tasmalardan, gazeta, jurnal materiallardan foydalanish, shuningdek, “tilga singib ketish” ni amalga oshiradigan o‘quv jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, ona tili va o‘rganayotgan til xususiyatlarini qiyoslab berish o‘quvchilarning nutqida interferentsiyaning ancha-muncha kamayishiga olib keladi. Xorijiy tilda yaxshi talaffuzga erishishda, o‘qituvchi birinchi navbatda nutqiy maqsadlarga rioya qiladi, chunki to‘g‘ri talaffuz mexanizmini egallash o‘zga til boyliklarini egallashning kalitidir.

Respublika umumta’lim tizimida ta’lim turli tillarda olib boriladigan maktablar uchun yagona ingliz tili darsligi yaratilgan va ular mazmuniga juda katta e’tibor qaratilgan bo‘l-

sa-da, ingliz tilidan amaldagi darsliklar mazmunida interferentsiyani keltirib chiqaradigan omillar deyarli e'tiborga olinmagan. Chunonchi, boshlang'ich sinflarda nutq faoliyatining gapirish turida o'quvchilar o'zbek tilida mavjud bo'lmagan rodlarda qiyinchilikka duch keladilar. Ayollarga nisbatan "her" (ona) so'zi o'rniga "his" (on) erkaklarga nisbatan qo'llaniladigan so'zni ishlatish holatlari ko'p kuzatiladi. Chunonchi, yuqori sinflarda ham bir-biriga o'xshash so'zlarni tinglab tushunishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Masalan, "stream" so'zini "dream" deb, "for" so'zini "four" deb yoki aksincha, "to" so'zini "two" yoki "too" deb tushunish holatlari yuzaga keladi.

Boshlang'ich sinflarda tinglab tushunishda til ichki interferentsiyasini kuzatish mumkin. Masalan, "He is a boy" gapidagi "He is" (o'zbek tilidagi "u" olmoshi) ning qisqa shakli "he's"ni "his" (uning) deb tushunishlari, "by" (da) predlogini "buy" (sotib olmoq), "bye" (xayr) deb tushunishlari yuzaga keladi.

Boshlang'ich sinflar kesimida aniqlangan fonetik-orfoepik, leksik-ogforgafik interferentiv qiyinchiliklar haqida oldindan ogohlantirish, ularning oldini olish hamda bartaraf etish uchun darslikdagi materiallarga qo'shimcha mashq va topshiriqlarni kiritish maqsadga muvofiq (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Boshlang'ich sinflarda mavjud qiyinchiliklar va interferentsiyani bartaraf etish imkoniyatlari

	Mavjud qiyinchiliklar	**Interferentsiyani bartaraf etish imkoniyati**
1.	1-sinf "Guess What 1" darsligining 0-bo'lim, 2-dars "Hello" mavzusida o'quvchilar "my" so'zining o'rniga "I" so'zini qo'llashlari.	0-bo'lim, 2-dars, 5-mashqiga qo'shimcha mashq sifatida tarjima orqali amalga oshiriladigan "My yoki I?" o'yinini tashkil etish.
2.	1-sinf "Guess What 1" darsligining 3-bo'lim, 3-dars "Who is this?" mavzusida o'quvchilar "his/her" so'zlarini bir-biriga adashtirib qo'lashlari	Darslikning 3-bo'lim, 3-dars, 7- mashqiga qo'shimcha ravishda o'qituvchi tayyorlagan rasmdagi oila a'zolarining ismlarini aytishda "his/her" so'zlarini to'g'ri qo'llash vazifasini, uyga vazifa sifatida o'quvchilar o'z oila a'zolarining ismlarini aytishga o'rganish vazifasini berish.
3.	1-sinf "Guess What 1" darsligining 6-bo'lim, 2-dars hamda 2-sinf "Guess What 2" darsligining 5-bo'lim, 2-darsida "Hozirgi oddiy zamon" mavzusi berilgan. Ushbu mavzularda fe'llarning tuslanishi o'zbek tilidan farq qilgani bois o'quvchilarga singdirishda ancha qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda.	Ushbu mavzu 1-sinfda qiyinchilik tug'dirmasligi mumkin, ammo 2-sinfga kelib, 3-shaxsga nisbatan -s, -es qo'shimchasini qo'shishda chalkashliklarga duch keladilar. Shu sababli 5-bo'lim, 3-dars, 8-mashqqa qo'shimcha sifatida 2 ta fe'l shaklidan birini tanlashga qaratilgan og'zaki va yozma mashqlarni sonini ko'paytirish maqsadga muvofiqdir.
4.	2-sinf "Guess What 2" darsligida 6-bo'lim 2-darsda ikki fe'lni yonma-yon kelganda, ingliz tilida ikkinchi fe'lning -ing qo'shimchasini olishini unutib qo'ymoqdalar. O'zbek tilida bu holat -ni qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi.	6-bo'lim 2-darsga qo'shimcha ravishda harakatni bildiruvchi so'zlar yordamida og'zaki va yozma mashqlarni taqdim etish tavsiya etiladi.

5.	3-sinf “Guess What 3” darsligi, 7-bo‘limda o‘zbek tilida mavjud bo‘lmagan “some, any” mavzusi ingliz tilida gap turlariga qarab qo‘llanilishi, o‘quvchilarda yanglishmovchiliklarni yuzaga keltirdi.	7-bo‘lim 2-dars 7-mashqiga qo‘shimcha ravishda “Jadvalga qarab “some, any” so‘zlarini qo‘llab gap tuzing” mashqini kiritish tavsiya etiladi.
6.	3-sinf “Guess What 3” darsligining 8-bo‘lim 6-darsida “ph” va “f” harflari “f” tovushini berganiligi uchun o‘quvchilar “ph” va “f” harflari bilan qo‘llanuvchi so‘zlarni yozish jarayonida chalkashtirib qo‘llashlari kuzatildi.	3-sinf “Guess What 3” darsligining 8-bo‘lim 6-dars 16-mashqiga qo‘shimcha ravishda “ph” va “f” harflari qo‘llanilgan so‘zlarning qay biri to‘g‘ri va qay biri noto‘g‘ri yozilganini aniqlashga qaratilgan vazifani berish maqsadga muvofiq.
7.	4-sinf “Guess What 4” darsligining 7-bo‘lim 2-darsida “to be” fe’lining o‘tgan zamon shakli ikki xil bo‘lganligi sababli o‘quvchilar ularni bir biriga adashtirib ishlatadilar yoki umuman tushurib qoldiradilar.	4-sinf “Guess What 4” darsligining 7-bo‘lim 2-dars 7-mashqiga qo‘shimcha ravishda “Rasmga qarab gap tuzing” mashqini taqdim etish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi jadvalda tavsiya etilgan mashqlardan namunalar keltiramiz.

1. 0-bo‘lim, 2-dars, 5-mashqiga qo‘shimcha mashq sifatida tarjima orqali amalga oshiriladigan “My yoki I?” o‘yinidan foydalanish tajriba jarayonida samarali bo‘ldi. O‘qituvchi men (I) va mening (My) so‘zlarini qo‘llagan holda o‘zbek tilida gaplar aytadi. Agar “My” so‘zi qo‘llanilsa, o‘quvchilar o‘zlarining ko‘rsatadilar. Agar “I” so‘zi ishlatiladigan bo‘lsa, o‘quvchilar qo‘llarini yuqoriga ko‘taradilar. Masalan, Men o‘qituvchiman (o‘quvchilar qo‘llarini yuqoriga ko‘taradilar), Mening ismim Malika (o‘quvchilar o‘zlarini ko‘rsatadilar).

2. 1-sinf ingliz tili darsligining “Guess What 1” darsligining 3-bo‘lim, 3-dars “Who is this?” mavzusida o‘quvchilar “his/her” so‘zlarini bir-biriga adashtirib qo‘llaydilar. Ushbu holatni bartaraf etish uchun o‘qituvchi 7-mashqiga qo‘shimcha topshiriq sifatida oila rasmini ko‘rsatish, o‘quvchilarga rasmdagi shaxslarga o‘zlariga yoqqan ismlarni “his/her” so‘zlarini qo‘llagan holda gap tuzish topshirig‘ini berish mumkin. Masalan: His name is Farxod. Her name is Muslima. O‘quvchilarga o‘z oila a’zolarining ismlarini aytishga o‘rganish vazifasini uyga vazifa sifatida berish, keyingi darslarda esa o‘quvchilarga rasmga qarab o‘z do‘stlarini tanishtirish topshirig‘ini berish hamda “his/her” so‘zlarini farqlovchi yozma mashqlar interferentsiyani bartaraf etishga qaratilgan profilaktik ishlarni amalga oshirishga va egallangan ko‘nikmani mustahkamlab borishga imkon yaratadi.

Turkiy tillarda 3-shaxs rodlarga ko‘ra ajratilmasligi bois, o‘quvchilar ular orasidagi farq-tafovutga e’tibor bermasdan qo‘llaydilar. 2-sinfda takrorlash maqsadida hamda ushbu so‘zlarning harfiy ifodasini tanishga qaratilgan mashqlarni bajartirishda “Gaplarni “her” yoki “his” so‘zlari bilan to‘ldiring”, “To‘g‘ri javobni tanlang yoki tagiga chizing” kabi mashqlardan foydalanish va interferentsiyaga e’tibor qaratish uning salbiy oqibatini bartaraf etishga yordam beradi. Shaxslarning erkak va ayoliga qarab “his/her” olmoshlarini to‘g‘ri qo‘llab, o‘quvchilarning grammatik kompetentsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda quyidagi kabi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

“Nuqtalar o‘rniga “her” yoki “his” so‘zlaridan mosini qo‘yib ayting” mashqi.

1. name is Zilola. 2. … name is Tohir. 3. …name is Zumrad. 4. …name is Fotima. 5.… name is Husan.

3. Ingliz tilida Hozirgi oddiy zamon mavzusi qiyinchilik tug‘dirmasada, 3-shaxsga nisbatan -s, -es qo‘shimchasini qo‘shishda chalkashliklarga duch keladilar. Shu sababli 5-bo‘lim, 3-dars, 8-mashqqa qo‘shimcha sifatida 2 ta fe’l shaklidan birini tanlashga qaratilgan og‘zaki va yozma mashqlarni sonini ko‘paytirish maqsadga muvofiqdir. Bunda quyidagi kabi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

“Rasmga qarab Tom haqida gap tuzing” mashqi.



“To‘g‘ri javobni tanlang” mashqi.

1. Tommy like/likes oranges.
2. Karim jump/jumps in the morning.
3. I run/runs fast.
4. You play/plays football on Sundays.

4. 2-sinf “Guess What 2” darsligida 6-bo‘lim 2-darsda ikki fe’lni yonma-yon kelganda, ingliz tilida ikkinchi fe’lning -ing qo‘shimchasini olishini unutib qo‘ymoqdalar. O‘zbek tilida bu holat -ni qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasaladi. 6-bo‘lim 2-darsga qo‘shimcha ravishda harakatni bildiruvchi so‘zlar yordamida og‘zaki va yozma mashqlarni taqdim etish tavsiya etiladi.



“Rasmga qarab gap tuzing” mashqi. Masalan, I like sweeping.

5. 7-bo‘lim 2-dars 7-mashqiga darak, so‘roq va inkor gaplari oldida “some, any” so‘zlarini qo‘llashni mustahkamlash uchun qo‘shimcha ravishda “Jadvalga qarab “some, any” so‘zlarini qo‘llab gap tuzing” mashqini kiritish tavsiya etiladi.

“Jadvalga qarab “some, any” so‘zlarini qo‘llab gap tuzing” mashqi.

Masalan, Nasiba has got some apples and oranges but she has not got any potatoes and tomatoes.

№	Names	Apples	Oranges	Potatoes	Tomatoes
1.	Nasiba	+	+	-	-
2.	Bilol	-	+	-	+

3.	**Manzura**	**+**	**-**	**+**	**-**


6. Ma’lumki, ingliz tiliga “f” tovushi bilan talaffuz etiladigan o‘zlashgan so‘zlar “ph” digrafi bilan yozilishi, qolgan so‘zlar esa “f” harfi bilan ifodalanishi belgilangan. O‘zbek tilida “f” tovushi faqat bitta “f” harfi bilan kelishi orfografik interferentsiyani yuzaga keltiradi. Shu sababli, 3-sinf “Guess What 3” darsligining 8-bo‘lim 6-dars 16-mashqiga qo‘shimcha ravishda “ph” va “f” harflari qo‘llanilgan so‘zlarning qay biri to‘g‘ri va qay biri noto‘g‘ri yozilganini aniqlashga qaratilgan vazifani berish maqsadga muvofiq.

“So‘zlar to‘g‘ri yozilganmi? Xatoni topsangiz to‘g‘ri shaklini yozib qo‘ying” mashqi.

1. fone
2. phairy
3. photo
4. family
5. fish
6. elefant


7. 4-sinf “Guess What 4” darsligining 7-bo‘lim 2-darsida “to be” fe’lining o‘tgan zamon shakli birlikdagi shaxslar uchun “was”, ko‘plikdagi shaxslar uchun “were” fe’llari qo‘llanilishi belgilab qo‘yilgan. O‘zbek tilida esa bu holat alohida so‘zlar emas, balki qo‘shimchalar orqali ifodalanganligi sababli o‘quvchilar ularni bir-biriga adashtirib ishlatadilar yoki umuman tushurib qoldiradilar. Shu bois, 4-sinf “Guess What 4” darsligining 7-bo‘lim 2-dars 7-mashqiga qo‘shimcha ravishda ushbu fe’llarni bir-biridan farqlashga qaratilgan mashqlarni taqdim etish maqsadga muvofiqdir.

“Rasmga qarab gap tuzing” mashqi.

Today	**Yesterday**
 Where are you today? I am at home.	
	









Yuqorida tavsiya etilgan mashqlar va topshiriqlar boshlang‘ich sinflardanoq fonetik, grammatik va orfografik interferensiyani bartaraf etishga imkon beradi. Bu holatda, albatta, ingliz tili o‘qituvchilarini o‘z vaqtida til interferentsiyasini aniqlab, uni oldini olish choralarini ko‘rishda tizimli faoliyatni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дмитриева В.С. Проблема межъязыковой интерференции в преподавании иностранных языков в вузе. - С.4. Электрон ресурс: http://www.filologia.su /interferencija.

2. Susannah Reed. Guess What! Level 1. Student’s Book. – Cambridge, 2022.- 101p.

3. Lucy Frino. Guess What! Level 2. Student’s Book. – Cambridge, 2022.- 101p.

4. Susannah Reed. Guess What! Level 3. Student’s Book. – Cambridge, 2022.- 101p.

5. Lucy Frino. Guess What! Level 4. Student’s Book. – Cambridge, 2022.- 101p.

Saidjon ISMAILOV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, “Kimyo va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasi dotsenti, (PhD)

KIMYO FANINI O‘QITISH JARAYONIDA TALABALARNING MUSTAQIL O‘QISH VA TADQIQOT QILISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqola kimyo fanini o‘qitishda talabalar mustaqil ta’lim olish va tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonining nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda mustaqil o‘qish va tadqiqot faoliyatini rivojlantirishning pedagogik metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati hamda talabalarning ilmiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda interfaol ta’lim vositalarining roli tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar. Kimyo fanini o‘qitish, talabalar mustaqil o‘qishi, tadqiqot ko‘nikmalari, tadqiqot faoliyati, innovatsion pedagogik texnologiyalar, ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ilmiy izlanish ko‘nikmalari, mustaqil o‘qitish strategiyalari, talabalar ilmiy faoliyati, ta’lim samaradorligi.

Данная статья посвящена изучению теоретических и практических аспектов процесса самостоятельного обучения и формирования исследовательских навыков студентов в преподавании химии. В ней проанализированы педагогические методы развития самостоятельной учебной и исследовательской деятельности, значение использования информационно-коммуникационных технологий и роль интерактивных образовательных средств в развитии научно-творческих способностей студентов.

Ключевые слова. Преподавание химии, самостоятельное обучение студентов, исследовательские навыки, исследовательская деятельность, инновационные педагогические технологии, информационо коммуникационные технологии в образовании, навыки научного поиска, стратегии самостоятельного обучения, научная деятельность студентов, эффективность образования

This article is devoted to studying the theoretical and practical aspects of independent learning and the formation of research skills in students during chemistry education. It analyzes pedagogical methods for developing independent learning and research activities, the importance of using information and communication technologies, and the role of interactive educational tools in developing students’ scientific and creative abilities.

Key words. Teaching chemistry subject, students’ independent learning, research skills, research activities, innovative pedagogical technologies, information and communication technologies in education, scientific research skills, self-learning strategies, students’ scientific activity, educational effectiveness.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida talabalarning mustaqil o‘qish, mustaqil ta’lim olish va tadqiqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifa sifatida qaralmoqda. Jahon miqyosida taraqqiy etayotgan fan va texnologiyalar, ilmiy izlanishlar natijasida yangilanayotgan ma’lumotlar oqimi talabalardan chuqur tahliliy fikrlash, bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish va ularni ijodiy tadqiq qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishni talab etmoqda. Binobarin, kimyo fani murakkab tadqiqotlarga boy sohalardan biri bo‘lib, tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirilishi talabalarning ilmiy salohiyatini oshirishda va ularning amaliy faoliyatga tayyorgarligini kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Kimyo fanining nazariy va amaliy jihatlari o‘quv jarayonini nafaqat o‘qituvchi tomo-

nidan o‘rgatiladigan ma’lumotlar bilan cheklashni, balki talabalarni mustaqil izlanishga, yangi bilimlarni kashf qilishga va mavjud bilimlarni qo‘llashga jalb qilishni taqozo etadi. Shu sababli, zamonaviy ta’lim jarayonida interaktiv o‘qitish usullari, raqamli ta’lim resurslari, hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi vositalar keng joriy etilmoqda.

O‘zbekiston ta’lim sohasida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va talabalarning mustaqil o‘qish, ta’limda tadqiqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Ma’lumki, kimyo fani nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy va eksperimental ko‘nikmalarni shakllantirishni ham talab etadi. Shu boisdan, talabalarning kimyo fanini o‘rganish jarayonida mustaqil fikrlash, ma’lumotlarni tahlil qilish, ilmiy tadqiqot olib borish va o‘zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tarzda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish bugungi ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kimyo fanini o‘qitish jarayonida talabalarni faollashtirish, ularning ilmiy-tadqiqotga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mustaqil ishlashga yo‘naltirilgan dars metodikalarini ishlab chiqish va ularni amalda qo‘llash mamlakatimiz ta’lim siyosatining ustuvor maqsadlariga xizmat qiladi. Bu jarayonda, ayniqsa, ta’limning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va interaktiv usullari muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining (2019-yil 29-oktabr, PQ-5847-sonli qarori) “Ta’lim-tarbiya tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”da ta’limda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, talabalarni mustaqil o‘qishga jalb qilish va ilmiy tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantirish asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Konsepsiyada ta’lim muassasalarida fanlararo integratsiyani kuchaytirish va o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish ustuvor vazifa deb topilgan. “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 20-aprelda qabul qilingan PQ-2909-sonli qarori oliy ta’limda mustaqil ta’limni rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalar va resurslardan keng foydalanishni qo‘llab-quvvatlaydi. Xususan, talabalarni o‘qitishda ilmiy-texnik tadqiqotlarga yo‘naltirishga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, 2020-yil 30-dekabr, PQ-4937-sonli qarorda “Fanlar akademiyasini rivojlantirish va ilmiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlar” to‘g‘risida ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash va o‘quv jarayoniga ilmiy-tadqiqot loyihalarini jalb qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi” 2020-yil 5-oktabr, PF-6079-sonli farmonda ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash orqali talabalar mustaqilligini oshirish va ularning ilmiy salohiyatini oshirish maqsad qilib qo‘yilgan. Ushbu qarorlar asosida talabalarning ilmiy izlanish faoliyatiga jalb qilinishi va ularni innovatsion fikrlashga yo‘naltirish imkoniyati kengaymoqda. Kimyo fani bo‘yicha ham zamonaviy axborot resurslari va dasturiy ta’minotlardan foydalanish takomillashtirilmoqda.

Kimyo fanini o‘qitish jarayonida talabalarning mustaqil o‘qish va tadqiqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar ta’limning sifatini oshirish va innovatsion usullarni joriy etishga qaratilib, mavzu bilan bog‘liq yondashuvlar, uslublar va ilg‘or tajribalar tahlil qilinib kelinmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda kimyo o‘qitish jarayonida talabalarning mustaqil o‘rganish faoliyatini tashkil etishning ahamiyati ko‘plab tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. Jumladan, rus psixologi V. A. Krutetskiy kimyo o‘qitish jarayonida aqliy faoliyat turlarini rivojlantirishga e’tibor qaratadi, aqliy faoliyat talabalarning analitik fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, u o‘z qarashlarida kimyo fanining mavzulari talabalarni nafaqat bilim olishga, balki izlanish olib borishga ham yo‘naltirishi zarurligi qayd etadi.

Talabalarni mustaqil faoliyatga jalb etish ularning o‘quv motivatsiyasini oshirish va mas’uliyat hissini shakllantirishning muhim omilidir. Tadqiqotchi olim B.Xung 2016-yil “Kimyo yo‘nalishi talabalarida tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishning pe-

dagogik talablari” nomli tadqiqot ishida laboratoriya amaliyoti va ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida kimyo yo‘nalishi talabalarining tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlagan.

Kimyo fanini o‘qitish jarayonida talabalarning mustaqil o‘qish va tadqiqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish bugungi ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida ushbu yo‘nalishda tahsil oluvchi talabalarning didaktik yondashuvlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashi, shuningdek, talabalarni faollashtirishga qaratilgan maxsus interaktiv metodlardan foydalanishni talab etadi.

Birinchi navbatda, talabalarni mustaqil o‘qishga yo‘naltirish uchun o‘quv dasturlarida kimyo fanining nazariy va amaliy masalalarini integratsiyalashgan holda bayon qilish muhimdir. Bunda masofaviy ta’lim platformalari, elektron darsliklar va interaktiv resurslardan foydalanish talabalarni mustaqil bilim olishga rag‘batlantiradi. Masalan, kimyo sohasidagi murakkab jarayonlarni virtual laboratoriya orqali simulyatsiya qilish talabalar uchun nazariy bilimlarni mustahkamlashda muhim vositadir.

Shuningdek, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo‘naltirilgan loyihaviy o‘quv topshiriqlari samarali natijalar beradi. Bu jarayonda talabalar o‘z mustaqil izlanishlari orqali kimyoning turli yo‘nalishlariga oid dolzarb masalalarni o‘rganadi, ma’lumotlarni tahlil qiladi va amaliy yechimlarni ishlab chiqadi. Bu faqatgina ilmiy yondashuvni rivojlantiribgina qolmay, balki ularning ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini ham oshiradi.

Pedagog tomonidan taqdim etiladigan konstruktiv fikr-mulohazalar va qayta aloqa ham muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar tomonidan mustaqil bajarilgan ishlarni baholashda sifat mezonlari asosida tahlil qilish va ularga takliflar berish talabalar motivatsiyasini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, talabalarni qiziqtiruvchi va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarga yo‘naltirish ularning ilmiy tadqiqot faoliyatiga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi.

Bundan tashqari, kimyo fanini o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli ortib bormoqda. Masalan, Google Classroom, Moodle yoki Microsoft Teams kabi platformalarda taqdim etilgan o‘quv materiallari va topshiriqlar talabalar mustaqilligini oshirishga ko‘mak beradi. Ushbu vositalar nafaqat ma’lumot almashish, balki ilmiy hamkorlikni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihat shundaki, talabalarning o‘zlashtirish darajasi va tadqiqotchilik ko‘nikmalarining rivojlanishi ko‘pincha ularning qiziqishi va motivatsiyasiga bog‘liq bo‘ladi.

Shu boisdan, o‘quv jarayonini loyihalashtirishda o‘quvchilarning qiziqishlariga mos mavzularni tanlash va o‘z bilimlarini amalda qo‘llash imkoniyatlarini yaratish talab etiladi.

O‘rganishlar davomida talabalarning mustaqil o‘qish va tadqiqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan samarali metodlarni aniqlash va amaliyotga joriy etishda quyidagi ilmiy va pedagogik usullarni qo‘lladik:

1. Nazariy tadqiqot usullari: a) adabiyot tahlili talabalarning mustaqil o‘qish va tadqiqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga doir mahalliy va xorijiy manbalar o‘rganilib, ilg‘or tajribalar umumlashtirildi. b) konseptual yondashuv kimyo fanini o‘qitish jarayonida interaktiv va innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo‘llashga asoslangan metodik yondashuv ishlab chiqildi.

2. Amaliy tadqiqot usullari: a) eksperimental tadqiqot talabalar bilan o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari orqali o‘quv jarayonida turli metodik usullar, jumladan, muammoli ta’lim, loyihaviy ishlar va laboratoriya ishlarini mustaqil tashkil qilish usullarining samaradorligi o‘rganildi. b) pedagogik kuzatish kimyo fanini o‘qitish jarayonida talabalar faoliyati bevosita kuzatilib, ularning mustaqil fikrlash va tadqiqot olib borish ko‘nikmalari baholandi.

3. Diagnostik usullar: a) so‘rovnomalar va intervyular: talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar orqali mustaqil o‘qish va tadqiqot qilishda uchra-

yotgan qiyinchiliklar aniqlandi. b) test so‘rovnomalari: talabalarning bilim darajasini, mustaqil tahlil qilish va yechim ishlab chiqish qobiliyatlarini baholash uchun maxsus test materiallari ishlab chiqildi.

4. Statistik tahlil usullari: a) ma’lumotlarni tahlil qilish: eksperiment natijalari matematik va statistik usullar yordamida qayta ishlanib, usullar samaradorligiga oid xulosalar chiqarildi.

5. Innovatsion yondashuvlar: a) axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish: elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar va masofaviy ta’lim platformalari talabalarning mustaqil ishlash faoliyatiga jalb etildi. b) muammoli va loyihaviy ta’lim: talabalarni muammoli vaziyatlar asosida tadqiqotga jalb qilish va jamoaviy hamda individual loyihalarni ishlab chiqish usullari qo‘llandi.

Kimyo fanini o‘qitish jarayonida talabalarning mustaqil o‘qish va tadqiqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish – bu nafaqat nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, balki amaliy va ilmiy-tadqiqot faoliyatida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirish imkonini beradi.

Kimyo fanini o‘qitish jarayonida talabalarning mustaqil o‘qish va tadqiqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda pedagogning o‘z ustida ishlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog mutaxassis sifatida aniq maqsad va intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirishi, uning samaradorligini oshirishi, izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o‘zlashtirishi lozim. Shuningdek, ilg‘or texnologiyalar, metod va vositalardan xabardor bo‘lish, fan-texnikaning so‘nggi yangiliklarini samarali tatbiq etish orqali talabalarning mustaqil izlanish va tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarning mustaqil o‘qish va tadqiqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlarni amalga oshirish nafaqat ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga, balki jamiyat ehtiyojlariga javob beruvchi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga ham xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlarning tizimli ravishda joriy etilishi O‘zbekiston ta’lim tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro talablarga moslashtirish uchun muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” 2019-yil 29-oktabr, PQ-5847-sonli qarori

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 20-prelda qabul qilingan PQ-2909-sonli qarori

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fanlar akademiyasini rivojlantirish va ilmiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlar” to‘g‘risida 2020-yil 30-dekabr, PQ-4937-soli qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi” 2020-yil 5-oktyabr, PF-6079-sonli Farmoni.

5. Зайцев Д. Н. Формирование приемов умственной деятельности у учащихся в процессе овладения естественнонаучными знаниями: Дис.канд. пед. наук: 13.00.01: Брянск, 2002 184 с. РГБ ОД, 61:03-13/488-0.

6. Глазкова О.В. Развитие навыков исследовательской работы студентов на занятиях лабораторного практикума по общей химии. //Интеграция образования. Науки об образовании.-2013. 44-46 с.

7. Julboyev T. A., Xolboyev O.N. Talabalarda kimyo fanidan mustaqil ta’lim olish ko‘nikmasini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati. Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirishning zamonaviy holati va istiqbollari. 27.112024. 508-512 b.

Halima TURSINBOYEVA,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti, tayanch doktorant

TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINI SAMARADORLIGI VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinflar uchun tabiiy fanlarni o‘qitishda laboratoriya mashg‘ulotlarini samaradorligi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rsatilib o‘tilgan. Shuningdek, talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun ilmiy tajribalar, laboratoriya ishlari, muammoga yo‘naltirilgan fikrlash qobiliyatini rivojlantirish maqsadga muvofiqligi haqida fikr yuritildi. Muallif laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazishdan asosiy maqsadlarini aytib o‘tgan.

Tayanch so‘zlar. Laboratoriya, amaliy mashqlar, texnologik innovatsialar, tanqidiy fikrlash, tabiiy fanlar, atrof-muhit, biologiya.

В статье показана эффективность лабораторных занятий при преподавании естественных наук для начальных классов и их специфика. Также было высказано мнение о целесообразности проведения научных экспериментов, лабораторных работ, развития навыков проблемно-ориентированного мышления для развития критического мышления у студентов. Автор изложил основные цели организации и проведения лабораторных занятий.

Ключевые слова. Лаборатория, практические занятия, технологические инновации, критическое мышление, естественные науки, окружающая среда, биология.

The article shows the effectiveness of laboratory classes and their peculiarities in teaching Natural Sciences for primary classes. It was also thought about the feasibility of developing scientific experiments, laboratory work, problem-oriented thinking skills in order to develop critical thinking in students. The author mentioned his main goals from organizing and conducting laboratory classes.

Key words. Laboratory, practical classes, technological innovation, critical thinking, natural sciences, environment, biology.

Laboratoriya mashg‘ulotlari har bir o‘quvchi, talaba uchun majburiy bo‘lib, o‘quv rejasi bilan belgilangan bo‘ladi. Laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish o‘quvchi, talabalarni tayyorlashning butun davri davomida tizimli xususiyatga ega. Laboratoriya mashg‘ulotlarining muhim jihati shundan iboratki, u nafaqat ta’lim muammolarini, balki o‘quvchi, talabaning o‘zini o‘zi rivojlantirish va o‘z-o‘zini takomillashtirish muammolarini ham hal qiladi. Tabiiy fanlar laboratoriya mashg‘ulotlarisiz qiziqarli bo‘la olmaydi. Shuning uchun nazariy bilimlarni laboratoriya mashg‘ulotlarida mustahkamlash uchun bu asosiy tayanch hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4805-son qarorida, umumta’lim maktablarda (1-6-sinflariga) tabiiy fan(Science)ni yagona fan sifati kiritish, hamda bu fanni tajriba-sinov tariqasida o‘qitishni bosqichma-bosqich joriy etish vazifalar belgilangan.

Yuqorida zikr qilingan me’yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida mamlakatimizning pedagog olimlari, metodistlar va tajribali o‘qituvchilari tomonidan “Tabiiy fanlar”ni o‘quv dasturi yaratildi.

Tabiiy fanlar umumta’lim maktablarida fan sifatida o‘qitish 1-sinfdan boshlanadi.

O‘quv materiallari – “Tabiat jismlari”, “O‘simlik va hayvonot olami”, “Sog‘ligimizni asraymiz” va “Ekologiya” mavzulariga birlashtirilgan. “Tabiiy fanlar”ning o‘qitish orqali o‘quvchilarda tabiiy savodxonlikni shakllantirish hamda barqaror rivojlanish ta’limi maqsadlari ko‘ra o‘quvchilarning ekologik muammolarning mohiyatini anglashi, tabiatdan oqilona foydalanish yo‘llari bilish, sog‘lom turmush tarziga amal qilish, shuningdek, o‘zlashtirilgan bilimlardan kundalik hayotda foydalanish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga vazifalari qo‘yilgan. O‘qituvchining asosiy ro‘li talabalarning ongida tabiiy fanlarni o‘rganish jarayonida ularning qiziqishlariga e’tibor berish va unga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirishdan iborat bo‘ladi.

Ilmiy pedagogik manbalarda o‘quvchilarning bilim tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud. B.F.Kevbrinning ta’biricha o‘quvchilarning bilim bilish faoliyatining mahsuli hisoblanadi. Mazkur natijalar o‘quvchilarning bilish faoliyatida namoyon bo‘ladi. Ular tasavvurlar, tushunchalar, nazariyalar shaklida ifodalanadi. Masalan, o‘quvchilarda shakllangan tabiiy ilmiy bilimlar tabiat, atrof-muhit haqidagi tasavvurlar, tushunchalar, nazariy yondashuvlar shaklida namoyon bo‘ladi. Ularga asoslangan holda o‘quvchilarda atrof-muhitga nisbatan munosabat shakllanadi. O‘quvchilar o‘zlarida shakllangan tasavvurlar, tushunchalar va bilimlarni turli belgilar tabiiy va sun’iy ifodalar orqali mustahkamlaydilar.

Tabiat fanlari empirik dalillar va ilmiy usullardan foydalangan holda tabiiy dunyoni o‘rganadigan keng doiradagi sohalarni o‘z ichiga oladi. Asosiy filiallarga quyidagilar kiradi:

Tabiiy fanlar bizning dunyoni tushunishimizda hal qiluvchi rol o‘ynaydi va ko‘plab afzalliklarni taklif qiladi:

O‘quvchilarda bilimlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ular tabiat hodisalarini tushunishga tizimli yondashuvni ta’minlaydi, koinot haqidagi bilimlarini oshiradigan kashfiyotlarga olib keladi.

Texnologik innovatsiyalar: ko‘pgina texnologik yutuqlar tabiiy fanlar, sog‘liqni saqlash, aloqa, transport va energiya samaradorligini yaxshilashdan kelib chiqadi.

Atrof-muhit haqida bilimlarni oshirishga yordam beradi. Tabiiy fanlar o‘quvchilarga ekologik tizimlar va inson faoliyatining ta’sirini tushunishga yordam beradi, tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha harakatlar va barqaror amaliyotlarni boshqara oladigan ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Sog‘liqni saqlash va tibbiyot haqidagi tushunchalarni shakllantirish. Bu yo‘nalish kelajakda tibbiy tadqiqotlarga hissa qo‘shib, davolash usullarini, vaksinalarni ishlab chiqishga va kasalliklarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish. Tabiiy fanlarni o‘rganish umumiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi, o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga va murakkab muammolarni mustaqil hal qilishga undaydi.

Fanlararo aloqalarni o‘rganish. Tabiiy fanlar ko‘pincha ijtimoiy va gumanitar fanlar bilan kesishadi, bu bizning jamiyat muammolari va inson xatti-harakatlari haqidagi tushunchalarni boyitadi. Umuman olganda, tabiiy fanlar taraqqiyot, barqarorlik va jamiyat farovonligi uchun zarurdir.

Amaliy mashqlar va laboratoriya ishi: amaliy mashqlar va biologiya o‘qitishda laboratoriya ishlari muhim ahamiyatga ega, chunki o‘quvchilarga biologik tadqiqotlarni o‘rgatish, laboratoriya ishlarini olib borish ilmiy ishlar usullarni o‘rganish va ularni amalga oshirishda ko‘mak bera oladi. Tajribalar va o‘quv natijalariga laboratoriya mashg‘ulotlari, o‘quvchilarga eksperimentlar o‘tkazishga imkon yaratish, natijalarni to‘plash va o‘rganish kiradi. Bu jarayon o‘quvchilarga nazariy bilimlarini amaliyotga qo‘llashga yordam beradi.

Maktablarda laboratoriya mashg‘ulotlari o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga, ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyalarni shakllantira oladi,

shuningdek boshlang‘ich sinflarda o‘quv jarayonining nazariyasi, amaliyot haqida dastlabki fikrlarga ega bo‘la olish bu esa ta’lim sifatini yanada mukammallashtirishga olib keladi. Laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazishdan asosiy maqsad:

– olingan ma’lumotlarni umumlashtirish, tizimlashtirish, mustahkamlash, muayyan mavzular bo‘yicha amaliy bilimga ega bo‘lish;

– olingan bilimlarni qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish, amaliyotda intellektual va amaliy faoliyatni yanada rivojlantirish;

– o‘z-o‘zini takomillashtirishga qaratilgan barqaror intilish, shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish: o‘z-o‘zini bilish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini hurmat qilish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va boshqarish;

– bo‘lajak o‘quvchilarda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish;

– mustaqil bo‘la olish, mas’uliyat, aniqlik, ijodiy tashabbus ko‘rsata olish kabi vazifalarni belgilab bera oladi.

Jismoniy tajriba o‘quvchilarda ilgari to‘plangan g‘oyalarni shakllantiradi, fizik hodisa va jarayonlar, o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi. Mashg‘ulot davomida o‘qituvchi rahbarligda o‘quvchilar tomonidan o‘tkaziladigan laboratoriya ishlarida mustaqil ravishda tadqiqotning maqsadni, usullari bilan tanishadilar, asbob-anjomlar bilan ishlashni o‘rganadilar, va bilimga ega bo‘ladilar. Hozirgi vaqtda o‘rganilayotgan nazariy materiallarda ta’kidlanishicha o‘quv jarayonini sifatli tashkil etishda laboratoriya ishlarni har bir mavzular ketma-ket bir biriga mos bo‘la olishi kerak.

Xulosa o‘rnida aytish kerakki, laboratoriya ishlari juda ko‘p kuzatuvlarni o‘z ichiga oladi. Ba’zi bir laboratoriya ishlari amaliy mashg‘ulotlar kabi bo‘ladi. Laboratoriya ishlari umumiy ta’lim ko‘nikmalarini ham rivojlantiradigan biologik materiallarni o‘z ichiga oladi: taqqoslash, tahlil qilish, xulosa chiqarish, baholash, o‘z fikrini ifodalash va uni asoslash, ma’lumotlarni umumlashtirish va hokozo. Biologiya bo‘yicha dastur keng o‘rganish va tirik organizmlar bilan tajriba talab qilishi kerak. Ushbu tadqiqotlar laboratoriya va sohada eksperimental tadqiqot usullaridan foydalanishni va biologiyani texnologiya va jamiyatga tatbiq etishni o‘z ichiga olishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Колесова М.С. Организация и проведение лабораторных работ по биологии / М.С.Колесова С.В.Корякина // Шадринский государственный педагогический институт, Шадринск, Россия Режим доступа: http://www.rae.ru/forum2012/pdf/2036.pdf (Дата обращения: 5.04.2017)

2. Sangirova Z.B. va boshqalar. Tabiiy fanlar O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. Toshkent-2022.

3. Sharipova D., D.P. Xodiyeva, M. K. Shirinov Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi. –T.: “Barkamol fayz media” nashriyoti, 2018-yil.

4. Tabiiy va aniq fanlarni o‘qitishda innovatsion yondashuvga asoslangan ta’lim mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari samarkand -2018

Ravshanoy EGAMOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, doktorant

SINFDAN TASHQARI ISHLARNI AMALGA OSHIRISH – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada asosiy e’tibor Finlyandiya va Eron hamda O‘zbekiston ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shaklida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan darsdan tashqari mashg‘ulotlar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar sifatini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali boyitish bo‘yicha ayrim strategik tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘zlar. AKT, sinfdan tashqari tadbirlar, o‘quv dasturi, ijtimoiy moslashuv zonasi, kasbiy moslashuv, Finlyandiya, Eron.

В статье основное внимание уделено внеклассным занятиям, которые могут быть реализованы в системе образования Финляндии, Ирана и Узбекистана в форме информационно-коммуникационных технологий. Также даны некоторые стратегические рекомендации по обогащению качества внеклассных мероприятий с помощью информационно-коммуникационных технологий.

Ключевые слова. ИКТ, внеклассная деятельность, учебная программа, зона социальной адаптации, профессиональная адаптация, Финляндия, Иран.

The main focus of the article is on extracurricular activities that can be carried out in the form of information and communication technologies in the educational system of Finland and Iran and Uzbekistan. There are also some strategic recommendations for enriching the quality of extracurricular activities through ICT.

Key words. ICT, extracurricular activities, curriculum, social adaptation zone, professional adaptation, Finland, Iran.

Jahon aholisi hozir texnologiyalar asrida yashamoqda. Har bir sohada jadal su’ratlarda o‘sish kuzatilib kelinyapti. Su o‘rinda ta’limning turli sohalari juda jadallik bilan oldinlab bormoqda. Shunday ekan har bir sinf o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqib fan darslarida ham sinfdan tashqari ishlarni amalga oshirishlari mumkin. Buning uchun o‘qituvchida aniq maqsadli, rejali, ya’ni bu mashg‘ulot orqali o‘quvchiga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadigan ish turlarini tadbiq qilishi muhim sanaladi. Texnologiya ta’limida boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni olib borishda zamonaviy va yuksak texnologiyalardan foydalanilgan holda mavzular tanlanishi muhim, bu o‘quvchilarni dunyoqarashini har tomonlama o‘stiradi va qiziqish uyg‘otadi. Har bir tanlangan mavzuni o‘ylashga, ular ustida ixtiro qilishga fikrlarini esa chuqur mulohaza etishlariga yetaklaydigan bo‘lishi zarur.

Sinfdan tashqari ishlarning asosiy xususiyati shundan iboratki, ular maktab bilan hayot aloqasini mustahkamlaydi. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish san’atkorlar, ishchilar, olimlar, dehqonlar hayoti bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. O‘quvchilar turli sohada ishlayotgan kishilar bilan tanishib, ular kabi vatanga, xalqqa xizmat qilish istagi paydo bo‘ladi.

Ta’lim olayotganlarning darsdan tashqari faoliyatini loyihalash vazifalari:

– ijtimoiy moslashuv zonasini tashkil etish va o‘qiyotganlarni ijtimoiy harakatchanligini ko‘rsatish;

– bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy moslashuvi uchun shart-sharoitlar yaratish;

– o‘qiyotganlarning mustaqil o‘qish yo‘li bilan ta’limni davom ettirishga yo‘llash;

– har bir ta’lim oluvchining qobiliyati qiziqishi va ishtiyoqini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

– o‘quvchilarni erkin vaqtdan unumli foydalanish dam olish mahoratini egallashga o‘rgatish.

Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar – bu o‘quvchida maktabdan tashqarida va o‘quv fanlari bo‘yicha tajriba olish uchun motivatsiyani saqlash va qiyinchiliklarni yaratishga qaratilgan tadbirlar. Sinfdan tashqari tadbirlar qatoriga maktab muhiti, shuningdek, maktabdan tashqari muhit kiradi. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘qituvchi tomonidan ishlab chiqilishi shart emas, lekin ular sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni rejalashtirishda asosiy va asosiy figura sifatida qaraladi. O‘quv dasturlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish ko‘plab afzalliklarga ega.

Maktablarda texnologiya darslarida sinfdan tashqari ishlarni olib borishda turli xil ertaliklar, fanlardan ko‘rgazmalarni tayyorlash kabi ish turlaridan keng foydalanish samarali bo‘ladi. Ommaviy ishning maktablarda konkurs va viktorinalar kabi turi juda qiziqarli bo‘lib, o‘quvchilarni sinfdan tashqari mashg‘ulotlarga bo‘lgan munosabatini ijobiy tarafga o‘zgartiribgina qolmay aynan bir vaqt katta tarbiyaviy imkoniyatlarga ega bo‘ladilar. Umumiy o‘rta ta’lim maktabning sinfdan tashqari ishlarida tadbirlar tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu esa doimo har bir sinfni bunday tadbirlarda ishtirok etishlari qiyin masala. Shunday ekan har bir sinf o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqib fan darslarida ham sinfdan tashqari ishlarni amalga oshirishlari mumkin. Buning uchun o‘qituvchida aniq maqsadli, rejali, ya’ni bu mashg‘ulot orqali o‘quvchiga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadigan ish turlarini tadbiq qilishi muhim sanaladi.

Texnologiya ta’limida sinfdan tashqari mashg‘ulotlar doimo yangi metod va usullarini namoyish qilishdan boshlanadi. Har bir mashg‘ulot a’zosi bu usullarni va harakatlarni takrorlash natijasida o‘rganadilar. Asosiy ishlarni ular bu metodlarni hamda usullarini mukammal bilib olgach mustaqil bajaradilar. Mashg‘ulot a’zolari har bir bajarayotgan ishlarida materiallarga ehtiyotkorlik, tejamkorlik kabi hislatlarni ulug‘lagan holda munosabat bildirishini singdirib borishida rahbarning o‘rni alohida, chunki mashg‘ulot jarayonida ish joyini doimo toza va tartibli saqlashga albatta odatlantirishi zarur. Mashg‘ulotning asosiy oldiga qo‘ygan maqsadlaridan biri bu; “O‘zing bilib oldingmi – o‘rtog‘inga ham o‘rgat” kabi shiorlar ostida o‘tkazilsa, oz fursat ichida ko‘proq natijaga erishiladi. Yakka tartibdagi mashg‘ulotlarga kolleksiyalar to‘plash, texnika bilan mustaqil shug‘ullanish, qishloq xo‘jaligi ishlari bilan shug‘ullanish kiradi.

O‘quvchilar ko‘p narsalarni faqat dars vaqtida bajara olmaydilar, bajara olgan vaqtimizda ham ulgurmaymiz, vaqt yetmaydi. Shu tufayli sinfdan tashqari ishlarni doimo tashkil etib borish ahamiyatli, shu bilan bir qatorda turli usullarda yondashishimiz ham mumkin. Mashg‘ulotlarda bajarilgan ishlarimizning ahamiyati qandayligini tushuntirilib borilsa, yanada yaxshi natijalarga erishiladi. Texnologiya darsidagi topshiriqlarni sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda davom etish ham mumkin bo‘ladi, bu esa muntazam o‘quvchini o‘z ustida ishlashini talab qiladi. O‘quvchilar har bir yangi mashg‘ulotda yani bir narsani o‘rganishni hohlaydilar, chunki ular juda qiziquvchan hamda harakatchan bo‘ladilar. Bu esa ulardan chuqur bilim va mustahkam matonatni orqali qurollantirib boraveradi, shu uchun o‘quv va sinfdan tashqari ish jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etish zarur sanaladi.

Texnologiya ta’limida boshlang‘ich sinflar olib boriladigan sinfdan tashqari ishlarni

samarali bo‘lishi o‘ta muhimdir, chunki poydevor aynan boshlang‘ich sinfda qo‘yiladi, u yillar davomida sayqallanib, rivojlanib muhim bir kasb egallashga yordamchi bo‘lib xizmat qiladi. Insonni o‘z qo‘li bilan yasagan ishlarida o‘z dunyoqarashini namoyon etadi, badiiy estetik didini yanada oshirishda yetakchi bo‘ladi. Har bir mashg‘ulot o‘z vaqtida, rejali, tartibli o‘tkazilsagina o‘quvchilarning qiziqishlari va havaslari yanada oshib boraveradi. Boshlang‘ich sinfdanoq o‘quvchilarga kelajakda to‘g‘ri kasbni tanlashlari uchun zamin yaratilsa, bu kelajak avlodimiz barkamol bo‘lib ulg‘ayishida hamda jamiyat rivojlanishida o‘z aksini ko‘rsatadi.

Finlyandiya umumta’lim maktablarida texnologiya ta’limi bir xilda va teng ravishda amalga oshirilishini taxmin qiladi. O‘qitishni amalga oshirishning aniq yo‘llari va usullari, lekin texnologiya mazmunini yaxshi taqdim etish universal mavzu guruhlari, ularni amalga oshirish o‘qituvchining o‘z talqini va professionallikka bog‘liq. Bundan tashqari, fanlarni o‘qitish fanlar tomonidan amalga oshiriladi. Eng qiyini shundaki, fanlar o‘qitilganda dars vaqt oralig‘ida o‘z joylariga ega, texnologiyani o‘qitish esa o‘qituvchini bir nechta turli fanlarga integratsiyalash orqali kiritilishi kerak.

Maktablarda mana bir necha yillardan buyon har bir o‘quv jarayonlari bo‘yicha fan oyliklari o‘tkazib kelinmoqda. Fan haftaligini o‘tkazishdan maqsad – dars va darsdan tashqari o‘tkaziladigan tadbirlarni ta’lim tarbiyadagi ahamiyati, o‘quvchilarni mazkur fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, bilim samaradorligini ko‘tarish, hozirgi zamon fan va texnikasi yutuqlari bilan doimo tanishtirib borish, o‘rganishga bo‘lgan intilishlarini o‘stirish, o‘qituvchi va o‘quvchining ijodiy hamkorligini targ‘ib etish, fan bo‘yicha o‘quv metodik ishlarni jonlantirish, o‘qituvchilar ijodiy faoliyatlarini kuchaytirish, izlanuvchan, ijodkor o‘qituvchilarni aniqlash, ularning tajribalarini o‘rganish va targ‘ibot qilish, ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan ilg‘or uslublarini takomillashtirishdan iboratdir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yangi avlodni tarbiyalash uchun mas'ul bo‘lgan ta’lim tizimi har qanday sivilizatsiyalashgan jamiyatda eng oddiy talablardan biridir. Zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan kompyuter va tarmoq ilovalari turli sohalarda keng qo‘llanilib, odamlarning ish, o‘qish va hayotini, ayniqsa, ta’limda asta-sekin o‘zgarib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, bundan buyon AKT nafaqat Axborot jamiyatining tayanchi, balki o‘quvchilarning ta’lim uslubini o‘zgartiradigan ta’lim innovatsiyalarini rag‘batlantirishning muhim katalizatori va vositasidir. Texnologiyalar evolyutsiyasining o‘sishi va yangi ma’lumotlarning kengayish tezligiga kelsak, talabalarga yangi bilimlarni ishlab chiqarish va tartibga solish imkoniyatiga ega bo‘lishlari uchun ilmiy faktlarni tahlil qilishni o‘rgatadigan usullarni o‘rgatish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 May 2022 / Volume 3 Issue 5 www.openscience.uz 1006

2. Djurayeva S.N., Turdiyeva N.S., Baxronova A.I. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi ’’ o‘quv qo‘llanma, Buxoro – 2021. 22-bet.

3. Jo‘rayev A. “Tarbiyaviy darslarni o‘tish” risolasi. – T., 2011

4. Quliyeva Shahnoza Halimovna. Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi// Buxoro – 2020

5. Mavlonova R., Normurodova B., Rahmonqulova N. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi’ // – T.: “Tib kitob” nashriyoti, 2010. 216 bet.

6. Sanaqulov X va boshqalar. Mehnat va uni o‘qitish metodikasi: Darslik / –T.: Tafakkur Bo‘stoni, 2015. - 224 bet

Dilmurod YAXYAYEV,
Uchtepa tumani, 238-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi, jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi

RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA JISMONIY TARBIYA FANINI O‘QITISHDAGI YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Maqolada rivojlangan mamlakatlarda jismoniy tarbiya fanini o‘qitishga oid zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi. Jismoniy tarbiya ta’limining uslubiy asoslari, o‘quv dasturlari, innovatsion texnologiyalar va pedagogik yondashuvlar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va yoshlarning jismoniy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini oshirishda jismoniy tarbiya fanining o‘rni yoritiladi.

Tayanch so‘zlar. Jismoniy tarbiya, rivojlangan mamlakatlar, ta’lim yondashuvlari, innovatsion texnologiyalar, pedagogika, sog‘lom turmush tarzi.

В данной статье анализируются современные подходы к преподаванию физического воспитания в развитых странах. Рассмотрены методологические основы образования в области физической культуры, учебные программы, инновационные технологии и педагогические подходы. Кроме того, освещается роль физического воспитания в формировании здорового образа жизни и повышении интереса молодежи к физической активности.

Ключевые слова. Физическое воспитание, развитые страны, образовательные подходы, инновационные технологии, педагогика, здоровый образ жизни.

This article analyzes modern approaches to teaching physical education in developed countries. It examines the methodological foundations of physical education, curricula, innovative technologies, and pedagogical approaches. Additionally, the role of physical education in promoting a healthy lifestyle and increasing youth engagement in physical activity is highlighted.

Key words. Physical education, developed countries, educational approaches, innovative technologies, pedagogy, healthy lifestyle.

Jismoniy tarbiya fanining ta’lim tizimidagi o‘rni yildan yilga ortib bormoqda. Bu fan nafaqat o‘quvchilarning jismoniy salomatligini yaxshilash, balki ularning ruhiy barqarorligini, jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda jismoniy tarbiya fani ta’limning ajralmas qismi bo‘lib, unda zamonaviy va innovatsion yondashuvlar qo‘llaniladi.

Rivojlangan davlatlar ta’lim tizimida jismoniy tarbiya faniga bo‘lgan yondashuvlar ta’lim mazmuni, pedagogik usullar va texnologiyalarni takomillashtirish orqali shakllanadi. Jumladan, AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya va Skandinaviya davlatlarida jismoniy tarbiya o‘quv dasturlari o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Mazkur mamlakatlarda jismoniy tarbiya fani faqatgina an’anaviy jismoniy mashg‘ulotlar bilan cheklanmay, balki u orqali liderlik, muloqot, stressni boshqarish kabi ko‘nikmalar ham rivojlantiriladi.

Zamonaviy jismoniy tarbiya fanini rivojlantirishda texnologik yechimlarning qo‘llanilishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda interaktiv o‘quv materiallari, mobil ilovalar va aqlli qurilmalar yordamida mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishga e’tibor qaratiladi. Bu usul o‘quvchilarga o‘z natijalarini kuzatish va jismoniy faollik darajasini oshirish imkonini beradi. Shuningdek, o‘quv dasturlarida ekologik

mas'uliyatni oshiruvchi faoliyatlar, masalan, tabiat qo'ynida sport mashg'ulotlari tashkil etishga ham katta e'tibor qaratilmoqda.

Mazkur maqolada rivojlangan mamlakatlarda jismoniy tarbiya fanini o'qitishga oid yondashuvlar batafsil tahlil qilinadi. Bunda o'quv dasturlarining mazmuni, pedagogik usullar va innovatsion texnologiyalar alohida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, sog'lom turmush tarzini shakllantirishda va yoshlarning jismoniy faollikka bo'lgan qiziqishini oshirishda jismoniy tarbiya fanining o'rni keng yoritiladi. Maqolaning asosiy maqsadi – rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish va ushbu yondashuvlarni O'zbekiston ta'lim tizimiga tatbiq qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Jismoniy tarbiya nafaqat jismoniy faollikni targ'ib etishning vositasi, balki jamiyatning ijtimoiy va ma'naviy salomatligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish O'zbekiston ta'lim tizimida ushbu fan samaradorligini oshirishga yordam beradi. Maqola davomida mazkur yo'nalishdagi ilg'or tajribalar va ularning joriy etish usullari haqida batafsil so'z yuritiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda, jumladan AQSHda jismoniy tarbiya fanining rivojlanishi, o'qitish metodlari, darsni tashkil qilish usullari va boshqa xususiyatlari haqida Abels KW., Bridges JM., Hackensmith CW., Laban R., Lonsdale C., Rosenkranz RR., Peralta LR., Bennie A., Fahey P., Lubans DR., Sallis JF., McKenzie TL., Siedentop DL., Stevens-Smith D., Weston A., Wood TD., Cassidy RF., kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

Jismoniy tarbiyaning maktab faniga aylanishi. Jismoniy tarbiya 19-asr boshlarida maktab faniga aylana boshladi. Tez orada uning inson salomatligi uchun ahamiyati tan olindi. 20-asr boshlarida shaxsiy gigiyena va jismoniy mashqlar jismoniy tarbiya dasturiga talabalarning asosiy o'quv natijalari sifatida kiritildi. Biroq sog'liqni mustahkamlashga qaratilgan eksklyuziv yondashuv pedagog Tomas Vud tomonidan juda tor doiradagi yondashuv sifatida tanqid qilindi va bu bolaning har tomonlama rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi qayd etildi. Shundan so'ng ta'lim sohasi Vudning jismoniy tarbiyaga nisbatan kengroq yondashuvini qabul qildi va o'yinlar hamda sport uchun zarur bo'lgan fundamental harakatlar va jismoniy ko'nikmalar asosiy o'quv mazmuniga aylantirildi. So'nggi 15 yil ichida jismoniy tarbiya yana o'zgarib, tana harakatlarini ularning natijalari (masalan, jismoniy faollik va sog'liq) bilan bog'lashga yo'naltirildi. Shuningdek, bolalarga sog'lom turmush tarzining ilmi va faol hayot tarzi uchun zarur ko'nikmalar o'rgatila boshlandi.

Sallis va Makkenzi tomonidan chop etilgan muhim maqolada jismoniy tarbiya "ijtimoiy, kognitiv va jismoniy ko'nikmalarni o'rgatish, harakat orqali boshqa maqsadlarga erishishni o'z ichiga olgan keng qamrovli, ammo jismoniy faol yondashuv" sifatida ta'riflanadi. Ushbu yondashuvni Siedentop ham qo'llab-quvvatlab, jismoniy tarbiya tanaviy o'qitish orqali amalga oshirilishini ta'kidlaydi. Sallis va Makkenzi jismoniy tarbiyaning ikki asosiy maqsadini qayd etadi: 1) bolalar va yoshlarni umr bo'yi jismoniy faoliyat uchun tayyorlash va 2) ularni jismoniy tarbiya mashg'ulotlari davomida faol bo'lishga undash. Ushbu maqsadlar sog'liqni mustahkamlovchi jismoniy tarbiya orqali bolalar va o'smirlarni umr bo'yi faol bo'lishga yo'naltirishni ko'zda tutadi.

Jismoniy tarbiya ta'limning bir qismi sifatida rasmiylashtirilgan ta'lim tizimida asosiy maqsad bolalarning bilim olish qobiliyatini rivojlantirish bo'lib, akademik fanlarda bilimlarni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bu maqsad o'quv muhitini, jumladan, o'tirgan holatda o'qishni maqbul va samarali deb hisoblanadi. Jismoniy tarbiya ta'limning bir qismi sifatida barcha bolalar uchun harakatni o'rganish va jismoniy faoliyat bilan

shug‘ullanish imkoniyatini beradi. Yuqorida qayd etilganidek, uning maqsadi va ta’lim tizimidagi o‘rni dastlab gigiyena va sog‘liqni saqlashni o‘rgatishga qaratilgan bo‘lsa, endilikda bolalarni jismoniy harakatning ko‘plab shakllari va foydalari, shu jumladan, sport va jismoniy mashqlar bilan tanishtirishga yo‘naltirilgan.

AQSh ta’lim tizimida jismoniy tarbiyani tushunish uchun uning yagona markazlashgan o‘quv dasturiga ega emasligini bilish muhim. O‘quv standartlari milliy professional tashkilotlar, masalan, Milliy sport va jismoniy tarbiya assotsiatsiyasi (NASPE) yoki shtat ta’lim agentliklari tomonidan ishlab chiqiladi. Barcha o‘quv dasturlar shtat standartlariga muvofiq mahalliy maktab okruglari yoki individual maktablar tomonidan qabul qilinadi. Jismoniy tarbiya ham ushbu tizim ta’sirida bo‘lib, siyosat va o‘quv dasturlari xilma-xilligiga olib keladi. NASPE va Amerika yurak assotsiatsiyasi ma’lumotlariga ko‘ra, ko‘pgina shtatlar boshlang‘ich va o‘rta maktablarda jismoniy tarbiyani majburiy o‘quv faniga aylantirgan bo‘lsa-da, 2006-yildagi 27 ta shtatdan 2010-yilga kelib 32 shtat, 18 ta shtatdan 30 shtat jismoniy tarbiya bo‘yicha imtiyozlar yoki almashtirishlar imkoniyatini taqdim etdi. Bu esa tibbiy sabablar bo‘lmagan holda o‘quvchilar jismoniy tarbiyadan voz kechish ehtimolini oshiradi.

O‘quv dasturi modellarining xilma-xilligi. AQShda o‘quv dasturlari mahalliy darajada, milliy va shtat standartlariga mos keluvchi va ular bilan uyg‘un bo‘lgan darsliklarga asoslangan holda ishlab chiqiladi. Jismoniy tarbiya turli shakllar va tuzilmalar asosida o‘qitiladi. Dars jarayonida harakat ta’limi, sport ta’limi va fitness ta’limi kabi turli o‘quv modellaridan foydalaniladi. Jismoniy faoliyatga jalb etish bo‘yicha ikki xil yondashuv mavjud. Birinchidan, fitness ta’limi dasturlari qabul qilingan joylarda o‘quvchilarni darsda jismoniy faoliyatga jalb etish samaradorligi oshadi. Ikkinchidan, boshqa o‘quv dasturlarida jismoniy faoliyat o‘quvchilarni mahorat yoki bilimga yo‘naltirishning asosiy vositasi sifatida ko‘riladi. Maktablar tomonidan tanlangan o‘quv dasturlari va o‘quvchilar shug‘ullanadigan jismoniy faoliyat darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadigan milliy miqyosdagi ma’lumotlar yetarli emas.

Harakat ta’limi. Harakat 1800-yillardan boshlab jismoniy tarbiyaning asosiy yo‘nalishi bo‘lib kelgan. Fransua Delsarte, Lizelott Diem, Rudolf fon Laban kabi olimlar bolaning o‘z tanasidan o‘zini ifoda qilish vositasi sifatida foydalanish qobiliyatiga e’tibor qaratgan. Labanning o‘zi va boshqalar tomonidan yozilgan misol sifatidagi ishlar va o‘quv dasturlari ta’riflari bunga dalil bo‘ladi. Ammo vaqt o‘tishi bilan bu yondashuv harakat qiluvchining ichki hissiyotlariga emas, balki har bir harakatning funksiyasi va qo‘llanilishiga e’tibor berishga o‘zgardi . 1960-yillarda harakat ta’limining maqsadi to‘rtta harakat konsepsiyasini uchta o‘quv domeniga (kognitiv, psixomotor va affektiv) qo‘llash edi.

To‘rtta konsepsiya quyidagilardan iborat:

• tana (harakatning asbobi sifatida);

• makon (tana harakatlanayotgan joy);

• kuch (harakatning bajarilish sifati);

• munosabatlar (tana harakatlanishi davomida obyektlar, odamlar va muhit bilan bog‘liqliklar) (Stevens-Smith, 2004).

Jismoniy faollik bilan muntazam shug‘ullanish va maktab yoshidagi bolalarning sog‘lig‘i o‘rtasida tog‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud bo‘lib, bu jismoniy faollik bevosita bolaga muhim foyda keltiradi.

Jismoniy tarbiya maktab yoshidagi bolalarning optimal salomatligi va rivojlanishi uchun maktab sharoitida jismoniy faollikning boshqa imkoniyatlari bilan bir qatorda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, yurak kasalligi, yuqori qon bosimi va diabet

kabi kattalar kasalliklari uchun profilaktika chorasi sifatida xizmat qilishi mumkin.

Rivojlangan mamlakatlarda jismoniy tarbiya fanini o‘qitishga yondashuvlar sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va bolalarda jismoniy faollikka bo‘lgan ijobiy munosabatni rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu mamlakatlarda jismoniy tarbiya fanini o‘qitishda ilmiy asoslangan strategiyalardan foydalaniladi, bunda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, jismoniy imkoniyatlari va ijtimoiy ehtiyojlari hisobga olinadi.

Jismoniy tarbiya darslari nafaqat bolalarning jismoniy rivojlanishi, balki ular orasida sog‘lom raqobat muhitini yaratish, ijtimoiy va hissiy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun ham muhimdir. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlar tajribasida jismoniy faollikning sog‘liqni saqlashdagi ahamiyati e’tirof etilib, sog‘liqni saqlashning umumiy tizimida jismoniy tarbiya asosiy omillardan biri sifatida qaraladi.

Zamonaviy yondashuvlarda faqat dars mashg‘ulotlari bilan cheklanib qolmasdan, o‘quvchilarni jismoniy faollikka jalb etuvchi ekstrakurrikulyar faoliyatlar va dasturlarni ham keng tatbiq etish kuzatiladi. Shuningdek, texnologiyalardan foydalanish orqali o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga erishiladi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, jismoniy tarbiya faniga kompleks yondashuv orqali jamiyatda jismoniy faollik madaniyatini shakllantirish, o‘quvchilarning jismoniy va psixologik salomatligini yaxshilash hamda ularning kelajakdagi hayotida sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash mumkin. Shu sababli, jismoniy tarbiya fanini o‘qitish jarayonida rivojlangan mamlakatlar tajribasini o‘rganish va milliy sharoitga moslashish o‘ta muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abels KW, Bridges JM. Teaching movement education: Foundations for active lifestyles. Champaign, IL: Human Kinetics Publishers; 2010. [Reference list].

2. Hackensmith CW.History of physical education.New York: Harper & Row; 1966. [Reference list].

3. Laban R. The mastery of movement. Plymouth: Macdonald & Evans; 1980. [Reference list]

4. Lonsdale C, Rosenkranz RR, Peralta LR, Bennie A, Fahey P, Lubans DR. A systematic review and meta-analysis of interventions designed to increase moderate-to-vigorous physical activity in school physical education lessons. Preventive Medicine. 2013;56(2):152–161. [PubMed] [Reference list].

5. Sallis JF, McKenzie TL. Physical education's role in public health. Research Quarterly for Exercise and Sport. 1991;62(2):124–137. [PubMed] [Reference list].

6. Siedentop DL. Introduction to physical education, fitness, and sport. 8th. New York: McGraw-Hill; 2009. [Reference list].

7. Stevens-Smith D. Teaching spatial awareness to children. Journal of Physical Education, Recreation & Dance. 2004;75(6):52. [Reference list]

8. Weston A. The making of American physical education. New York: Appleton-Century-Crofts; 1962. [Reference list].

9. Wood TD, Cassidy RF. The new physical education: A program of naturalized activities for education toward citizenship. New York: Macmillan; 1930. [Reference list].

10. Wood TD. The ninth yearbook of the National Society for the Study of Education (part 1). Chicago, IL: University of Chicago Press; 1913. [Reference list].

Muzaffarjon SOLIYEV,
Andijon davlat tibbiyot instituti, o‘qituvchi

UROLOGIYA YO‘NALISHI TALABALARIGA SIYDIK TOSH KASALLIKLARINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

Annotatsiya

Maqolada urologiya yo‘nalishi talabalariga siydik tosh kasalliklarining o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlari qo‘llash, nazariy va amaliy dars mashg‘ulot mobaynida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarish, navbat bilan talaba yoki o‘qituvchi rolida bo‘lish va mos ballarni to‘plash imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, pedagogik texnologiya talabalarga tanqidiy fikrlash, ularda mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratilishi kabilar keltirib o‘tilgan.

Tayanch so‘zlar. Urologiya, talaba, tayyorlash, kasbiy kompetentsiya, rivojlantirish, takomillashtirish, pedagogik, muammo, dolzarb, siydik tosh, kasallik ahamiyati, ta’lim va tarbiya jarayoni.

В статье показаны возможности применения современных педагогических технологий и методов в обучении студентов урологического профиля заболеваниям мочевыми камнями, теоретическое и практическое занятие на протяжении всего занятия каждый участник выполняет различные задания, поочередно выступает в роли ученика или преподавателя и набирает соответствующие баллы. Также упоминаются педагогические технологии, позволяющие учащимся формировать критическое мышление, логику.

Ключевые слова. Урология, студент, подготовка, профессиональная компетентность, развитие, совершенствование, педагогика, проблема, актуальность, мочевой камень, заболевание, значение, учебно-тренировочный процесс.

The article reveals to students of the urology direction the possibilities of applying modern pedagogical technologies and techniques in the teaching of urinary stone diseases, performing various tasks of each participant during the theoretical and practical lesson, alternately being in the role of a student or teacher and accumulating suitable points. Pedagogical technology has also been cited as providing students with critical thinking, opportunities to formulate logic in them.

Key words. Urology, student, training, professional competence, development, improvement, pedagogy, problem, topical, urinary stone, disease, importance, education and training process.

Mamlakatimizda hozirgi vaqtda ta’lim tizimini hamda sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, malakasini oshirish va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash borasida keng ko‘lamli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, urologiya yo‘nalishi talabalariga ham Bolonya jarayoni doirasida o‘qitishning faol va interfaol shakllari variativligini ta’minlash, kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak urolog mutaxassislarni amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish muammosini tadqiq etish dolzarb hisoblanadi. “Tibbiy kadrlarni tayyorlash, tibbiyot fanini rivojlantirish, shu jumladan, tibbiyot ilmiy va ta’lim muassasalarini xalqaro standartlar bo‘yicha sertifikatlashtirish (akkreditatsiyadan o‘tkazish) zamonaviy ta’lim dasturlari, usul va texnologiyalarini joriy etish” muhim ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrdagi PF-5590-son “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2018-yil 25-yanvardagi PF-5313-sonli “Umumiy

o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Urologiya yo‘nalishi talabalariga siydik tosh kasalliklari haqida ma’ruza so‘ngidan esse texnologiyasi orqali erishiladi. Ushbu usul– taklif etilgan mavzuga 1000 dan 5000 gacha so‘z hajmidagi insho yozilishi kerak. Esse – bu muallifning ta’kidlab o‘tadigan individual pozitsiyasidagi erkin ifoda etish shakli hisoblanadi. Esse qandaydir predmet bo‘yicha umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni o‘z ichiga oladi.

Siydik tosh kasalliklari ya’ni urolitiaz – bu turli xil endo va ekzogen sabablarga ko‘ra metabolik buzilishlar natijasida kelib chiqqan kasallik bo‘lib, u ba’zan irsiy bo‘lib, siydik tizimida tosh mavjudligi yoki toshning o‘z-o‘zidan o‘tishi bilan belgilanishini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlari qo‘llashda quyidagicha olib boriladi. Siydik yo‘llarida toshlar odatda buyraklarda hosil bo‘ladi va keyin siydik yo‘liga o‘tadi, ammo toshlar to‘g‘ridan to‘g‘ri siydik yo‘llarida paydo bo‘lishi mumkin. Tuzlarning cho‘kishi va tosh shakllanishi siydik yo‘li orqali siydik o‘tishining buzilishi yoki rivojlanish anomaliyalari (ureterosele, nerv-mushak displazi va boshqalar) yoki siydik yo‘llarida begona jismlar (stent, ligatura va boshqalar) sabab bo‘lishi mumkin). Siydik yo‘lidagi toshlarning klinik ko‘rinishi, siydik chiqarish yo‘lidagi toshning asimptomatik topilishi juda kam uchraydi va tasodifan, ultratovush yoki rentgenologik tekshiruvlar paytida boshqa sabablarga ko‘ra aniqlanadi. Eng tez-tez uchraydigan simptomlar turli darajadagi og‘riqdir: yengil, ba’zan chidab bo‘lmasgacha, o‘tkir (buyrak sanchig‘i) bo‘lishi mumkin. Odatda, buyrak sanchig‘i to‘satdan paydo bo‘ladi va 15-30 daqiqada maksimal kuchayadi, parietal qorin pardaning ta’sirlanish xususiyati tufayli ko‘ngil aynishi, shishiradi va qayt qilish bilan birga keladi.

Og‘riq xurujsimon bo‘lishi mumkin, bu toshning siydik yo‘llari bo‘ylab harakatlanishi bilan izohlanadi, doimiy yoki bitta xurujdan keyin takrorlanmaydi, kasallikning rivojlanishiga qaramay (ureterogidronefroz rivojlanishidan oldin). Siydik chiqarish yo‘llarida tosh obstruktsiyasi har qanday joyda uchraydi, lekin ko‘pincha 4 ta joydan 1 tasida uchraydi: buyrak jomi-siydik nayi segmentda, o‘rta ureter yonbosh tomirlari kesishmasida, siydik pufagidan oldingi va ustyada uchraydi. Og‘riqning lokalizatsiyasi har doim ham obstruktsiya darajasi bilan belgilanmaydi, chunki siydik yo‘li juda cheklangan miqdordagi nerv oxirlariga ega, ammo u nerv tolalari bilan ko‘p miqdorda innervatsiya qilinadi, shuning uchun siydik yo‘llarining yuqori uchdan bir qismida tosh bo‘lsa, og‘riq paydo bo‘ladi. yorg‘oqda yoki sonning ichki qismida lokalizatsiyalanishi mumkin va aksincha, siydik nayidagi pastki 1/3 qismidagi tosh belning qattiq og‘rig‘iga sabab bo‘lishi mumkin. Bolalarda siydik nayidagi tosh odatda qorin og‘rig‘i, ichaklar pnevmatozi va qayt qilish bilan namoyon bo‘ladi.

Urologiya yo‘nalishi talabalarini o‘qitishda dastlab, buyrak kasalliklarining kelib chiqish tarixidan “Bumerang” texnologiyasini qo‘llash orqali quyidagicha olib boriladi:

Mazkur texnologiya bir mashg‘ulot davomida o‘quv materialini chuqur va yaxlit holatda o‘rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo‘naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo‘lgan mavzularni o‘rganishga mo‘ljallangan bo‘lib, og‘zaki va yozma ish shakllarida amalga oshirilishi

mumkin. Texnologiya mashg‘ulot mobaynida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarish, navbat bilan talaba (yoki o‘quvchi) yoki o‘qituvchi rolida bo‘lish va mos ballarni to‘plash imkoniyatini beradi. “Bumerang” texnologiyasi talabalarga tanqidiy fikrlash, ularda mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi. Mazkur uslub talabalarga ta’lim bilan bir qatorda tarbiyaviy xarakterdagi: – jamoa bilan ishlash mahorati; – muomalalilik; – xushfe’llik; – ko‘nikuvchanlik; – o‘zgalar fikrini hurmat qilish; - faollik; – ishga ijodiy yondashish; – o‘z faoliyagining samarali bo‘lishiga qiziqish; – o‘zini baholash kabi qator sifatlarini ham shakllantirish imkoniyatini beradi.

XIX asrda ingliz vrachi R.Brayt proteinuriya, shish va yurak gipertrofiyasi belgilari asosida buyrak kasalliklarini farq qilgan va bu – Brayt kasalligi deyilgan.

1914-yilda nemis klinisti F.Folgard va patologi K.T.Far buyrak kasalliklarini necha turga ajratgan?

Javob: 3 ta guruhga ajratgan:

1) Nefrit – yallig‘lanishli kasalliklari;

2) Nefroz – nekrozli va distrofiyali kasalliklari;

3) Nefroskleroz – sklerozlanishli kasalliklari.

Zamonaviy tasnifi qanday:

Hozirgi kunda buyrak kasalliklari, a’zoning struktur-funksional birligi asosida 3 ta guruhga ajratiladi:

1) Kaptokchalar kasalliklari – glomerulopatiyalar;

2) Kanalchalar kasalliklari – tubulopatiyalar;

3) Interstitsial kasalliklar kabi tarzida talabalarning xotirasini, g‘oyalarini, fikrlarini, dalillarini yozma va og‘zaki shakllarda bayon qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.


Bemorlarning 95 foizida mikro yoki makrogematuriya aniqlanadi. Bu shilliq qavatning tosh bilan shikastlanishi bilan bog‘liq emas, balki intrapelvik bosimning oshishi tufayli fornikslarning shikastlanishi bilan bog‘liq. Agar tosh siydik nayining bo‘shlig‘ini butunlay to‘sib qo‘ysa, gematuriya bo‘lmasligi mumkin. Agar tosh siydik nayining ustyasiga yaqin joylashgan bo‘lsa soxta chaqiriqlar bilan tez-tez og‘riqli siyish kuzatiladi. Qo‘shimcha simptom – infektsiya belgilari bo‘lmaganda subfebril harorat. Postrenal anuriya ikkala siydik yo‘lidagi toshlar yoki bitta buyrakning siydik yo‘lidagi toshlar bilan rivojlanishi mumkin.

BBB jadvali

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bildim

BBB jadvali Bilaman, Bilishni xohlayman, Bildim - matn (mavzu, bo‘lim) bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borish imkonini beradi – tizimli mulohaza qilish, tarkibga ajratish ko‘nikmalarini beradi. BBB jadvalini tuzish qoidalari bilan tanishiladi. Yakka tartibda (juftlikda) jadval rasmiylashtiriladi. Quyidagi savolga javob beriladi: “Ushbu mavzu bo‘yicha siz nimani bilasiz?” va “Nimani bilishni xohlaysiz?” (Kelgusi ish uchun taxminiy asos yaratiladi). Yakka tartibda (juftlikda) jadvalning 1-2-ustuni to‘ldiriladi. Mustaqil ravishda ma’ruza matnini o‘qiydi (ma’ruzani eshitadi) Jadvalning 3-ustunini mustaqil (juftlikda) to‘ldiradi.

Quyidagi (a va b) rasmda buyrakning interstitsial kasalliklari tasvirlangan nomini ayting? (Pielonefrit makro, Mikro-diffuz leykositar infiltratsiya, abstesslar)



Har bir dars materiali uchun o‘ziga xos pedagogik texnologiya ishlab chiqiladi. Pedagogik texnologiya ishlab chiqish ancha murakkab jarayon. Pedagogik texnologiyalarni akademik guruhning o‘ziga xosligiga, avvalgi va keyin o‘qitiladigan materiallarga qarab tuzish zarur. Shu sababli pedagogik texnologiya tezisini tayyorlash ishni birmuncha yengillashtiradi, barcha mavzularga tezis ishlab chiqish unchalik qiyinmas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akilov F.A., Begaliyev U.E., Muxtarov Sh.T., Mirhamidov J.X Urologiya darslik– T.: Hilol media – 2020.– 432 b.

2. Зиямухамедов Б., Зиямухамедова С. Новая педагогическая технология. Изд-во медицинской литературы имени Абу Али ибн Сино. – Т., – 2010.–120с.

3. Кузьмина Н.В., Реан А.А. Профессионализм педагогической деятельности: методическое пособие/Междунар. Акад. наук, НИИ профтехобраз. Рыбинск.: 2013. – 54 с.

4. Сластенин В.А. идр. Педагогика Учеб. Пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. – М.: Издательский центр “Академия”, 2013. - 576 с.

Saodat MAXKAMOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, dotsent

BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINI TASVIRIY SAN’AT ASARLARINI BADIIY TAHLIL QILISHGA TAYYORLASH METODIKASI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining tasviriy san’at asarlarini badiiy tahlil qilish faoliyatiga tayyorlashning dolzarb masalalari yoritilgan. Shuningdek, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini san’at asarlarini badiiy tahlil qilishga tayyorlashda san’atshunoslik asosida kasbiy kompetentligini shakllantirish borasida tasviriy san’atning turlari muhim ahamiyat kasb etilishi haqida fikrlar bildirilgan.

Tayanch so‘zlar. Eskiz, tahlil, san’at, badiiy asar, portret, natyurmort, etyud, qoralamalar, garmoniya, ijodiy obraz, grafika, amaliy san’at.

В статье освещены актуальные вопросы подготовки будущих учителей изобразительного искусства к деятельности художественного анализа произведений изобразительного искусства. Кроме того, высказаны мнения о важности видов изобразительного искусства в формировании профессиональной компетентности на основе истории искусства в подготовке будущих учителей изобразительного искусства к художественному анализу произведений искусства.

Ключевые слова. Эскиз, этюд, наброски, гармония, художественный образ, графика, декоративно-прикладное искусство.

The article highlights topical issues of preparing future teachers of fine arts for the activity of artistic analysis of works of fine art. In addition, opinions are expressed about the importance of types of fine arts in the formation of professional competence based on art history in the preparation of future fine arts teachers for the artistic analysis of works of art.

Key words. Sketch, study, sketches, harmony, artistic image, graphics, arts and crafts

Jahonda uzluksiz ta’lim va madaniyatlarning integrallashuvi, “gibrid madaniyat”, “ommaviy madaniyat”, individualizm hodisasi milliy ta’lim modelini takomillashtirish, talaba-yoshlarni milliy an’analar ruhida tarbiyalashni dolzarb ilmiy-pedagogik muammoga aylantirmoqda. Ushbu muammoning yechimi milliy tuyg‘u va g‘ururni shakllantirishga xizmat qiluvchi tasviriy san’at vositasida talabalarning ijodkorlik va badiiy qobiliyatlarini rivojlantirishning progressiv milliy ta’lim-tarbiya, usul va vositalarini o‘qitishning innovatsion texnologiyalarini joriy etish ehtiyoji va zaruratini kuchaytirmoqda.

Tasviriy va amaliy san’at asarlari tahlili, hunarmandchilikning turli sohalari va xalq amaliy bezak san’ati turlari bo‘yicha mamlakatimizda L.I.Rempel, R.X.Toqtosh, N.Oydinov, A.A.Xakimov, N.R.Axmedova, D.R.Alimkulova, R.S.Fatxullayev, D.Muxamedova, S.Safayev, S.S.Bulatov, A.Sulaymonov, R.Xasanov, S.F.Abdirasilov, U.N.Nurtayev, O.Jamoliddinova, O.Musurmonova, M.Urazova, N.Egamberdieva, E.Yuzlikaeva, B.Imanov, A.A.Abduqodirov, N.N.Azizxodjaeva, U.Sh.Begimqulov, J.F.Yo‘ldoshev, Yu.Kruglova, I.Ridanova, V.Slastenin, N.Sayidahmedov, B.H.Xodjaev, M.Davletshinlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. U.Abdullaev, S.Abdullaev, B.Azimova, X.I.Alyaminov,

A.Amanullaev, S.K.Annamuratova, B.B.Baymetov, A.Vosiqov, J.Darmenov, N.V.Gilmanova, A.Inog‘omov, N.Kevish, J.Majidov, U.Nurtayev, B.Oripov, R.Rajabov, D.Sobirova, A.Sulaymonov, N.X.Tolipov, A.Turdaliev, S.X.Fayzulina, O.Xudoyorova, K.Gulyamov, B.Qo‘chqorov, N.D.Kultasheva, M.B.Axmedov, A.Z.Abdumavlonova, N.I.Yuldasheva, M.Hasanovalar kompozitsiya qonuniyatlari va ularni o‘qitishga oid yondashuvlar bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar. R.Axmedov, M.Nabiyev, G‘.Abdurahmonov, R.Xudoyberganov, B.Jalolov, A.Mirzayev, A.Egamovlar bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarni tizimli tayyorlash masalalari yechimi bo‘yicha o‘z mahorat maktablarini yaratganlar.

Xorijiy tadqiqotlar tajribasida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarni tasviriy san’at bo‘yicha bilimlarini takomillashtirish yuzasidan xorijlik olimlardan Van Mey, L.Botcheva, J.Shih, L.Huffman, Mijung Kim, C.Grant, W.Gudykunst, W.Deming, Y.Kim, C.Diong, M.Unland, B.Kleinerlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. A.Serbati, R.Boyasis, G.Kulanthaviel, S.Widdet, Y.Huqin, S.Hollyford kabi olimlarning ishlarida ko‘proq talabalarda badiiy-ijodiy bilimlarni takomillashtirish, kasbiy-pedagogik yetuklik, ta’lim jarayonida texnik vositalardan samarali foydalanish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish masalalariga e’tibor qaratilgan.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilariga yo‘naltirilgan yondashuv asosida talabalarning tasviriy san’at asarlarini badiiy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari, texnologiyalari va amaliy yo‘nalganlik tamoyili asosida tahliliy ijodkorlikka yo‘naltirilgan o‘qitish tizimi takomillashtirilgan. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilariga yo‘naltirilgan yondashuv asosida talabalarning tasviriy san’at asarlarini badiiy tahlil qilishga tayyorlashning didaktik asoslari (“Moodle” web sayti, elektron dasturi), innovatsion ta’lim texnologiyalari (“Klaster” tarmoqlari, “VENN” diagrammasi, “BBB” va “Rolli o‘yin” metodlari) asosida takomillashtirishga oid tavsiyalardan me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda foydalanilgan. Natijada, mazkur yondashuvlar bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining tasviriy san’at asarlarini badiiy tahlil qilishga tayyorlashning sifat va samaradorligini ta’minlagan;

Majmuaviy pedagogik tajribalar va ijodiy, amaliy topshiriqlarni loyihalash asosida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilariga yo‘naltirilgan yondashuv asosida talabalarning tasviriy san’at asarlarini badiiy tahlil qilish darajalarini baholash mezonlari (motivatsion-kognetiv, amaliy-operatsion, refleksiv-ijodiy) optimallashtirishga oid takliflar “Tasviriy san’at” fani o‘quv dasturlari mazmuniga singdirilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda foydalanilgan. Binobarin, mutaxasisslik fanlarini o‘qitish va talabalarning tasviriy san’at asarlarini badiiy tahlil qilish samaradorligining ortishiga erishilgan.

Umumta’lim maktablari ham, pedagogika oliy ta’lim muassasalari ham to‘plangan tajribani yosh avlodga yetkazish muammolarini samarali hal qila oladigan bo‘lsa: tasviriy faoliyat bilan ishlash usullarini, yangi bilimlarni yaratish usullarini badiiy ta’lim g‘oyasi zamonaviy sharoitlarda amalga oshirilishi mumkin. Eng muhimi, rivojlanayotgan dunyo haqidagi talab darajasidagi bilimlarni saqlash usullari. Shuningdek, har bir pedagog va bo‘lajak o‘qituvchi “o‘qitish” va “o‘rganish”, “tahlil qilish” jarayonlarini o‘zlashtirish uchun 3 ta omil “tasviriy faoliyatni bilish: tasviriy faoliyat bilan shug‘ullanish, badiiy asarlarni tahlil qilish, tasviriy faoliyatga o‘rgatish maqsadga muvofiqdir”, deb o‘ylaydi.

Tasviriy san’at asarlari yordamida badiiy estetik ma’lumotlar tasviriy san’at asarlarida namoyon bo‘ladi. San’at – bu badiiy ijod qilishning ikkita usuli va shaxsning ijodiy faoliyatda qanday o‘zini namoyon etishi. Har qanday faoliyat san’at bo‘lishi mumkin. San’at sezgi faniga asoslangan. Hamma narsa san’atdan boshlanadi, badiiy estetik dunyoqarash, badiiy tasviriy san’at asarlari tahlili, ijodiy jarayon, ijodiy muhit, ilhom

va hakozolar.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini san’at asarlarini badiiy tahlil qilishga tayyorlashda san’atshunoslik asosida kasbiy kompetentligini shakllantirish borasida tasviriy san’atning turlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini mutaxassislik fanlarida tasviriy san’at asarlarini badiiy tahlil qilish uslublarini rivojlantirish jarayonida quyidagi kamchiliklarning mavjudligi kuzatildi:

– talabalarning tasviriy san’at asarlarini badiiy tahlil qilish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga va rivojlantirishga ustuvor o‘rin ajratilmasligi;

– talabalarning tasviriy san’at asarlarini badiiy tahlil qilish bo‘yicha yaratuvchan ijodkorlik qobiliyatini tarbiyalash va rivojlantirishning metodologik asoslari maxsus o‘rganilmasligi;

– talabalarning tasviriy san’at asarlarini badiiy tahlil qilish bo‘yicha yaratuvchan ijodkorlik qobiliyatlarini tarbiyalash va rivojlantirishda izchil va kompleks yondoshuvga amal qilinmasligi;

– talabalarning badiiy tahlil qilish bo‘yicha yaratuvchan ijodkorlik qobiliyatini tarbiyalash va rivojlantirish istiqbolining tahlil qilinmasligi;

– talabalarning milliy va umuminsoniy, madaniy-tarixiy, intellektual, tasviriy san’at asarlari bo‘yicha tahlil qilish ijodkorligini rivojlantirish jarayoni mazmunini yangilashga e’tibor qaratilmaganligi;

– talabalarning tasviriy san’at asarlarini badiiy tahlil qilish bo‘yicha kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etishga ahamiyat qaratilmasligi kabilar.

Yuqorida aytilgan kamchiliklarni talabalarning tasviriy san’at asarlarini badiiy tahlil qilish bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantirishga tayyorlash amaliyotida nafaqat ilmiy-asoslangan nazariy-pedagogik, balki bu jarayonning nazariy-amaliy (uning xususiyatlari, tomonlari, maqsadga intiluvchanligi, kasbiy-shaxsiy mezonlari, natijalarini tahlil qilish) asoslari yetarlicha yoritilmaganligi bilan izohlash mumkin. Natijada, talabalarni tasviriy san’at asarlarini badiiy tahlil qilishga tayyorlash jarayoni mazmunini modifikatsiyalashtirishga professor-o‘qituvchilar tuzilishli-mazmunli tizimga ega bo‘lmay, ikkilanib ishonchsiz munosabatda bo‘ladi. Talabalarning tahliliy ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning tuzilmaviy-mazmuniy tizimida hissiy-psixologik, motivatsiyali, idrok etish, shakllantiruvchi hamda rivojlantiruvchi, intellektual-ijodiy, faoliyatli, ijtimoiy-tarbiyaviy, o‘ziga baho berish hamda o‘zini takomillashtirish kabi muhim komponentlari mavjud bo‘lishi kerak.

“Badiiy tahlil” tushunchasi barcha hollarda u yoki bu asarning umumiy holati, voqea yoki hodisalar mohiyatini oqilona o‘rganib, uning ijobiy tomonlarini ochib berib, jamiyatning istiqbolli kelajagiga yo‘naltirishdan iborat. Bu muammoning ijobiy yechimi talabalarning tasviriy san’at asarlarini badiiy tahlil qilish bo‘yicha qobiliyatini rivojlantirish metodikasi predmeti, tarkibi, maqsadi, vazifalarini to‘g‘ri shakllantirishga bog‘liq.

Masalan, tasviriy san’at janrlaridan portret, maishiy janrlardagi ijodiy asarlarni badiiy tahlil qilish ko’nikmalarini rivojlantirishga doir aniq jihatlarni, mashhur rassomlar ishlarini tahlil qilib ko‘rishimiz mumkin.

Maishiy janr ishlash jarayonida kompozitsiya va vizual balansni samarali qo‘llash muhimdir. Maishiy janr kompozitsiyasidagi insonlarning umumiy ta’sirini, yuz ifodasini va fon bilan uyg‘unligini ta’minlaydi. Bu jarayonda talabalar kompozitsion qoidalarni chuqur tushunishlari va ularni samarali qo‘llashlari kerak.

Tasviriy san'at asarini tahlil qilish, izohlash murakkab jarayon hisoblanib, unda assotsiativ, hayotiy va badiiy tajriba alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun badiiy asarlarni tahlilida obyektiv yondashuv bilan bir qatorda, asosli subyektiv yondashuv ham bo'lishi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar

1. Makhkamova Saodat Bakhtiyarovna (2024). the formation of visual arts skills of schoolchildren in performing sketch, composition and creative works. European journal of arts, (1), 63-66. doi: 10.29013/eja-24-1-63-66.

2. O'zbekistonda do'ppido'zlik maktablarining o'ziga xosligi va ularning amalyotdagi o'rni Fayzullayevich E conference zone, 23-28.

3. Tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qilishda rassom Kamoliddin Bexzod ijodidan foydalanish masalalari S Maxkamova journal of culture and art 1 (8), 107-114

4. The study of teaching applied decorative arts in higher education institutions through software solutions: a review of methodological literature Jr ravshanovich current research journal of pedagogics 5 (10), 106-111.

5. O'zbekiston davlat san'at muzeyi rang-tasvir kolleksiyasining elektron katalog platformasini yaratish: istiqbollari va natijalari N Kultasheva scientific journal of mathematical knowledge and applied research 1 (01), 33-36.

6. Application of geoinformation systems in the agricultural complex u nasritdinova, x sultonov, h muratov, r ankabaev, u ismatov, bio web of conferences 105, 03005

7. Nigmatjon Nozimovich Talipov. The stages of development of the art of engraving in ancient period and the middle ages // european journal of arts . 2024. №1 . c. 67 - 71. url: https://ppublishing.org/archive/publication/975-the-stages-of-development-of-the-art-of-engrav.

8. Ван Мей. методика интегративного обучения академической живописи в системе высшего художественно-педагогического образования россии и китая дисс. … канд. пед. наук. – м.: 2017. – 6 c. bennett m.j. 1998. "intercultural communication: a current perspective:. basic concepts of communication. selected readings. ed. m.j.bennett. yarmouth, maine, usa: press, inc. 1-34. grant c.a. turning on learning/ five approaches for multicultural teaching plans for race, gender and disability / c. a. grant, c. e. sleeter. – john wiley &sons, inc., 2003. – 279 p. gudykunst, william b. cross-cultural and intercultural communication. sage, 2003. deming w.e. "a system of profound knowledge," from j.f. leonard, the new philosophy for k-12 education: a deming framework for transforming america's schools, asq quality press (1996), p.31.

9. Mukumova F.X. O'quvchilarning milliy hunarmandchilikka oid kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari pedagogika fanlari falsafa doktori(phd) dissertatsiyasi. –T, 2021.

Muhabbat HAYITOVA,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, assistent
Maftuna ERMAMATOVA,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, assistent

O‘QUVCHILARNI XALQARO BAHOLASH TIZIMIGA TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada PISA (Xalqaro Talabalar Baholash Dasturi) va PIRLS (Xalqaro O‘qish Savodxonligi Tadqiqoti) kabi xalqaro ta’lim baholash dasturlarining ahamiyati, ularning asosiy xususiyatlari va O‘zbekistonda qo‘llanilishi haqida so‘z yuritilgan. Bundan tashqari, PISA dasturi 15 yoshli o‘quvchilarning matematika, tabiiy fanlar va o‘qish savodxonligi bo‘yicha bilimlarini baholashga qaratilgan bo‘lsa, PIRLS dasturi to‘rtinchi sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini o‘rganishga qaratilgan. Muallif ushbu dasturlar orqali nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasi, balki ularning bilimlarni amaliy hayotda qo‘llash qobiliyatlari ytib o‘tgan.

Tayanch so‘zlar. PISA, PIRLS, xalqaro ta’lim baholash, o‘quvchilarning bilim darajasi, o‘qish savodxonligi, ta’lim sifatini baholash, O‘zbekiston ta’lim tizimi.

В статье рассматривается важность международных программ оценки образования, таких как PISA (международная программа оценки студентов) и PIRLS (международное исследование грамотности чтения), их основные характеристики и применение в Узбекистане. Кроме того, в то время как программа PISA направлена на оценку знаний 15-летних по математике, естественным наукам и грамотности чтения, программа PIRLS направлена на изучение грамотности чтения четвероклассников. Через эти программы автор прошел не только уровень знаний учащихся, но и их навыки применения знаний в практической жизни.

Ключевые слова. PISA, PIRLS, международная оценка образования, уровень знаний учащихся, грамотность чтения, оценка качества образования, система образования Узбекистана.

The article talks about the importance of international educational assessment programs such as PISA (international Student Assessment Program) and PIRLS (international study Literacy Study), their main features and their application in Uzbekistan. Additionally, the PISA program focuses on assessing 15-year-old students ' knowledge of mathematics, natural sciences, and reading literacy, while the PIRLS program focuses on reading literacy among fourth graders. Through these programs, the author has learned not only the level of knowledge of students, but also their ability to apply knowledge in practical life.

Key words. PISA, PIRLS, international education assessment, students' knowledge level, reading literacy, education quality assessment, Uzbekistan’s education system.

Xalqaro miqyosda ta’lim sifatini baholash va taqqoslash maqsadida dunyoning ko‘plab mamlakatlari PISA (Xalqaro O‘quvchilar Baholash Dasturi) va PIRLS (Xalqaro O‘qish Savodxonligi Tadqiqoti) kabi dasturlarni qo‘llashmoqda. Ushbu dasturlar orqali maktab o‘quvchilarining bilim darajasi, o‘qish savodxonligi va matematik, tabiiy fanlar bo‘yicha kompetensiyalari baholanadi. O‘zbekistonda

ham ushbu tadqiqotlarni joriy etish orqali ta’lim tizimining samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda.

PISA (Programme for International Student Assessment) – bu OECD (Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti) tomonidan 15 yoshli o‘quvchilarning matematika, tabiiy fanlar va o‘qish savodxonligi bo‘yicha bilimlarini baholash uchun tashkil etilgan xalqaro dastur. Ushbu tadqiqot har uch yilda bir marta o‘tkazilib, o‘quvchilarning amaliy hayotda bilimlarni qo‘llash qobiliyatini aniqlaydi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) – bu to‘rtinchi sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholashga qaratilgan xalqaro tadqiqot. Ushbu dastur orqali o‘quvchilarning matnni tushunish, tahlil qilish va uni qayta ishlash qobiliyatlari o‘lchanadi.

O‘zbekistonda PISA va PIRLS tadbiqi 2021-yildan boshlab PISA va PIRLS dasturlarini joriy qilish bo‘yicha ishlarni boshladi. Buning asosiy maqsadi:

– Ta’lim tizimining xalqaro standartlarga mosligini ta’minlash

– O‘quvchilarning bilim darajasini obyektiv baholash

– Ta’lim sohasidagi zaif tomonlarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun strategiyalar ishlab chiqish

PISA va PIRLS dasturlarining asosiy xususiyatlari		
Parametr	PISA	PIRLS
Maqsadi	15 yoshli o‘quvchilarning matematika, tabiiy fanlar va o‘qish savodxonligini baholash.	4-sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash.
Baholash sohalari	Matematika, tabiiy fanlar, o‘qish savodxonligi.	O‘qish savodxonligi (matnni tushunish, tahlil qilish va qayta ishlash).
Davriylik	Har 3 yilda bir marta.	Har 5 yilda bir marta.
Ishtirokchi yoshi	15 yosh.	9-10 yosh (4-sinf).
Baholash usuli	Bilimlarni amaliy hayotda qo‘llash qobiliyati.	Matnni tushunish va tahlil qilish qobiliyati.

Ushbu dasturlar orqali O‘zbekiston ta’lim tizimi boshqa mamlakatlar bilan xalqaro taqqoslash imkonini beradi, bu esa ta’lim sifatini oshirish yo‘lida qo‘llaniladigan yangi usullarni aniqlashga yordam beradi.

PISA va PIRLS testlari o‘quvchilarning nafaqat bilimini, balki ularning mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish va amaliy qo‘llash qobiliyatlarini ham baholaydi.

Tadqiqot natijalari asosida yangi ta’lim strategiyalarini takomillashtirish ta’lim muassasalarida yangi pedagogik usullar va dasturlar joriy etiladi.

PISA va PIRLS dasturlarini joriy qilish jarayonida quyidagi qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin:

– O‘quvchilarning testlarda qatnashishga tayyorgarlik darajasi pastligi.

– O‘qituvchilarning yangi baholash usullariga moslashish qiyinligi.

– infratuzilma va resurslar yetishmasligi.

Bularni bartaraf qilish uchun:

– O‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun maxsus tayyorgarlik kurslari tashkil etish.

– Xalqaro tajribalarni o‘rganish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish.

– Maktablarni zamonaviy uskunalar bilan ta’minlash.

Natijada, PISA va PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlarini joriy etish orqali O‘zbekiston ta’lim tizimining sifatini oshirish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish imkoniyati yaratilmoqda. Bu jarayon nafaqat PISA va PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlarining O‘rta ta’lim maktablariga tatbiqi haqida tahlil qilish mumkin.

PISA va PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlari ta’lim tizimining samaradorligini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu dasturlar orqali o‘quvchilarning bilim darajasi emas, balki ularning bilimlarni amaliy hayotda qo‘llash qobiliyati ham baholanadi. Bu yondashuv an’anaviy baholash usullaridan farq qilib, ta’limning haqiqiy samaradorligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda PISA va PIRLS dasturlarini joriy qilish orqali quyidagi jihatlarda ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda:

– ta’limning xalqaro standartlarga moslashuvi: ushbu dasturlar orqali O‘zbekiston ta’lim tizimi xalqaro miqyosdagi talablarga moslashmoqda.

– o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish: testlar natijalari asosida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish va amaliy qo‘llash qobiliyatlari oshirilmoqda.

– o‘qituvchilarning malakasini oshirish: yangi baholash usullari o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik usullar bilan tanishtirib, ularning malakasini oshirishga yordam beradi.

Ijobiy tomonlari:

– Xalqaro taqqoslash imkoniyati: PISA va PIRLS natijalari orqali O‘zbekiston ta’lim tizimi boshqa mamlakatlar bilan taqqoslanadi, bu esa zaif tomonlarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi.

– o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish: testlar orqali o‘quvchilarning bilim darajasi va savodxonligi oshiriladi.

– ta’lim strategiyalarini takomillashtirish: tadqiqot natijalari asosida ta’lim sohasida yangi strategiyalar ishlab chiqiladi.

PISA va PIRLS dasturlarini joriy qilish jarayonida quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin:

– o‘quvchilarning testlarga tayyorgarlik darajasi: ko‘p hollarda o‘quvchilar testlarda qatnashishga yetarlicha tayyor emas, bu esa natijalarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

– o‘qituvchilarning yangi usullarga moslashish qiyinligi: an’anaviy usullarga o‘rgangan o‘qituvchilar uchun yangi baholash usullarini qo‘llash qiyin bo‘lishi mumkin.

– resurslar yetishmasligi: maktablarda zamonaviy uskunalar va resurslar yetishmasligi testlarni o‘tkazish jarayonini qiyinlashtirishi mumkin.

PISA va PIRLS tadbiqining afzalliklari va kamchiliklari	
Afzalliklari	Kamchiliklari
Xalqaro taqqoslash imkoniyati.	O‘quvchilarning testlarga tayyorgarlik darajasi past.
O‘quvchilarning bilimlarni amaliy qo‘llash qobiliyatini baholash.	O‘qituvchilarning yangi usullarga moslashish qiyinligi.
Ta’lim tizimining zaif tomonlarini aniqlash va ularni bartaraf qilish.	Resurslar (kompyuterlar, internet) yetishmasligi.

Ta’lim strategiyalarini takomillashtirish.	Test natijalariga ko‘ra ta’lim siyosatini o‘zgartirish vaqt talab etadi.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf qilish uchun quyidagi choralar ko‘rilishi mumkin:

– o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun tayyorgarlik kurslari: testlarda muvaffaqiyat qozonish uchun o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun maxsus tayyorgarlik kurslari tashkil etish.

– xalqaro tajibalarni o‘rganish: boshqa mamlakatlarning tajribalarini o‘rganib, ularni mahalliy sharoitga moslashtirish.

– maktablarni zamonaviy uskunalar bilan ta’minlash: maktablarni kompyuterlar, internet va boshqa zamonaviy uskunalar bilan ta’minlash.

O‘zbekistonda PISA va PIRLS tadbiqining natijalari (2021-2023)		
Ko‘rsatkich	PISA natijalari	PIRLS natijalari
O‘qish savodxonligi	O‘rtacha ball: 420 (2022)	O‘rtacha ball: 480 (2021)
Matematika	O‘rtacha ball: 390 (2022)	-
Tabiiy fanlar	O‘rtacha ball: 410 (2022)	-
Xalqaro reyting	65-o‘rin (2022)	40-o‘rin (2021)
Ishtirokchi mamlakatlar	80+ mamlakat	50+ mamlakat

PISA va PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlarini joriy qilish orqali O‘zbekiston ta’lim tizimining sifatini oshirish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish imkoniyati yaratilmoqda. Bu jarayon nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshirishga, balki mamlakatimizning kelajagini yanada yorqin qilishga ham xizmat qiladi. Kelajakda ushbu dasturlarni yanada samarali qo‘llash orqali ta’lim sohasidagi yutuqlarimizni yanada mustahkamlash mumkin.

PISA VA PIRLS tadbiqini yaxshilash bo‘yicha takliflar	
Muammo	Yechim va takliflar
O‘quvchilarning testlarga tayyorgarlik darajasi past.	O‘quvchilar uchun maxsus tayyorgarlik kurslari tashkil etish.
O‘qituvchilarning yangi usullarga moslashish qiyinlig	O‘qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari va seminarlar tashkil etish.
Resurslar yetishmasligi.	Maktablarni zamonaviy uskunalar (kompyuterlar, internet) bilan ta’minlash.
Test natijalariga ko‘ra chora ko‘rish jarayoni sekin.	Natijalarni tezroq tahlil qilish va strategiyalarni ishlab chiqish mexanizmlarini yaratish.

PISA va PIRLS kabi xalqaro ta’lim baholash dasturlari bo‘yicha tadqiqotlar olib boradigan olimlar, tashkilotlar va markazlar dunyo bo‘ylab ko‘plab. Quyida ushbu sohada faoliyat yuritadigan ba’zi taniqli olimlar, tashkilotlar va markazlar haqida ma’lumot keltirilgan:

Xalqaro tashkilotlar va markazlar:

– OECD (Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti) – PISA dasturini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi asosiy tashkilot.

Tadqiqot yo‘nalishlari: ta’lim tizimlarini taqqoslash, ta’lim siyosatini ishlab chiqish, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash (https://www.oecd.org).

– IEA (Xalqaro Ta’lim Baholash Assotsiatsiyasi) – PIRLS dasturini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi tashkilot.

– Tadqiqot yo‘nalishlari: o‘qish savodxonligi, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar (https://www.iea.nl).

– UNESCO ta’lim sohasidagi global tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlovchi tashkilot.

Tadqiqot yo‘nalishlari: ta’limning barqaror rivoji, ta’lim sifatini baholash, ta’lim tizimlarini taqqoslash (https://www.unesco.org).

– Taniqli olimlar va tadqiqotchilar:

Andreas Schleicher – OECD ta’lim va ko‘nikmalar bo‘limi direktori, PISA dasturining asoschisi.

Tadqiqot yo‘nalishlari: ta’lim tizimlarini taqqoslash, ta’lim siyosati, o‘quvchilarning bilim darajasi.

Asarlari: “World Class: How to Build a 21st-Century School System”.

Eric Hanushek – Stanford Universiteti professori, ta’lim iqtisodiyoti sohasidagi taniqli olim.

Tadqiqot yo‘nalishlari: ta’lim sifatining iqtisodiy ta’siri, ta’lim baholash tizimlari.

Asarlari: “The Knowledge Capital of Nations”

Ina Mullis va Michael O. Martin – PIRLS dasturining asosiy tadqiqotchilari, Boston Kolleji (AQSh).

Tadqiqot yo‘nalishlari: o‘qish savodxonligi, ta’lim baholash metodologiyasi.

Asarlari: PIRLS hisobotlari va tadqiqotlari.

Mamlakatlar bo‘yicha tadqiqot markazlari:

AQSH: NCES (Milliy Ta’lim Statistika Markazi) – AQShda ta’lim sohasidagi statistik ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish.

Tadqiqot yo‘nalishlari: PISA va PIRLS natijalarini tahlil qilish, ta’lim siyosatini ishlab chiqish (https://nces.ed.gov)

Finlandiya: Helsinki universiteti ta’lim tadqiqotlari markazi – Finlandiyaning ta’lim tizimi va xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha tadqiqotlar.

Tadqiqot yo‘nalishlari:ta’lim sifatini oshirish, PISA natijalarini tahlil qilish.

Singapur: NIE (Milliy Ta’lim Instituti) – Singapur ta’lim tizimi va xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha tadqiqotlar.

Tadqiqot yo‘nalishlari: ta’lim innovatsiyalari, PISA va PIRLS natijalarini o‘rganish.

O‘zbekistonda tadqiqotlar olib boruvchi tashkilotlar:

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi – PISA va PIRLS dasturlarini joriy qilish va natijalarni tahlil qilish.

Tadqiqot yo‘nalishlari: ta’lim sifatini baholash, ta’lim tizimini takomillashtirish.

PISA va PIRLS tadbiqining kelajakdagi istiqbollari	
Yo‘nalish	Tavsif
Ta’lim sifatini oshirish	PISA va PIRLS natijalari asosida ta’lim dasturlarini takomillashtirish.

Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish	Boshqa mamlakatlar bilan tajriba almashish va yangi metodologiyalarni joriy etish.
O‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish	O‘quvchilarning bilimlarni amaliy qo‘llash qobiliyatini oshirishga qaratilgan dasturlar.
Ta’limni raqamlashtirish	Zamonaviy texnologiyalarni ta’limga keng joriy etish.

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirish, xalqaro baholash jarayonlarida munosib qatnashish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rishga yo‘naltirilgan PISA, TIMSS, PIRLS xalqaro baholash dasturlari doirasidagi topshiriqlar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish, o‘qituvchi va o‘quvchilarni tayyorlash, ularning bilim, ko‘nikma va kompetentsiyalarini, shuningdek, o‘quvchilarda ijodiy va mantiqiy fikrlash hamda tegishli fan yo‘nalishlari bo‘yicha savodxonligini rivojlantirish, o‘qituvchilarga amaliy va uslubiy yordam berish maqsadida Xalq ta’limi vazirligi va A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti tomonidan Stesting elektron platformasi (https://stesting.uz) ishlab chiqildi.

Xalqaro konferensiyalar va loyihalar:

PISA va PIRLS xalqaro konferensiyalar

Maqsad: xalqaro baholash dasturlari natijalarini muhokama qilish, tajriba almashish.

Ishtirokchilar: OECD, IEA, UNESCO, milliy ta’lim vazirliklari, olimlar va tadqiqotchilar.

Ta’limni rivojlantirish Global Forumi.

Maqsad: Ta’lim sohasidagi yangi tendensiyalar va xalqaro baholash dasturlarini muhokama qilish.

Ishtirokchilar: Dunyo bo‘ylab ta’lim mutaxassislari va tashkilotlar.

PISA va PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha tadqiqotlar OECD, IEA, UNESCO kabi tashkilotlar va dunyoning taniqli olimlari tomonidan olib borilmoqda. O‘zbekistonda ham Xalq Ta’limi Vazirligi, Pedagogika Universiteti va boshqa markazlar ushbu sohada faol tadqiqotlar olib bormoqda. Ushbu tadqiqotlar orqali ta’lim tizimining samaradorligini oshirish va xalqaro standartlarga moslashtirish yo‘lida muhim qadamlar qo‘yilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Salomov A.A. Matematikaning fanlararo aloqadorlik funksiyasi asosida yuqori sinf o‘quvchilarining ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish: Dis. ped.fan.nom. – Toshkent, 1998. – 182 b.

2. Aripdjanova A.R. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining kreativ salohiyatini rivojlantirish. Avtoref.dis. ped. fan. (Phd). – Toshkent, 2017.

3. Djuraev R.H. Ta'limda interfaol texnologiyalar. – T., 2010. – 87 b.

4. To‘rabekov F.S. Bo‘lajak matematika ta'limi iqtisodchilarini tayyorlash jarayonida axborot texnologiyalarini qo‘llash metodikasi: Dis.

Ulug'bek KUBAYEV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali, katta o'qituvchi

TA'LIMDA ZAMONAVIY VIRTUAL MUHITLARNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada virtual ta'lim muhit nazariyasining asosiy tushunchalari, zamonaviy virtual ta'lim muhitlarining hozirgi holatining tahlili va ularning qo'llanilish sohalari, virtual reallik (VR) tushunchasi paydo bo'lish tarixi, virtual reallik va virtual muhit tushunchasi tariflari bayon etiladi. Shuningdek, talabalar sifatli tarzda shakllantirilgan virtual o'quv materiallaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlari haqida fikrlar yuritiladi.

Tayanch so'zlar. Virtual reallik, texnologiya, virtual ta'lim, virtual 3D ta'lim, platforma, virtual mashina, virtual xotira, virtual disk, virtual aloqa, virtual sayohat, virtual sinf.

В статье излагаются основные понятия теории виртуальных образовательных сред, анализ современного состояния виртуальных образовательных сред и области их применения, история возникновения понятия виртуальной реальности (VR), тарифы на понятие виртуальной реальности и виртуальной среды. Также предполагается, что учащиеся будут иметь доступ к качественно сформулированным виртуальным учебным материалам.

Ключевые слова. Виртуальная реальность, технология, виртуальное образование, виртуальное 3D образование, платформа, виртуальная машина, виртуальная память, виртуальный диск, виртуальное общение, виртуальное путешествие, виртуальный класс.

The article outlines the basic concepts of virtual education environment theory, analysis of the current state of modern virtual education environments and their areas of application, the history of the emergence of the concept of virtual reality (VR), the tariffs for the concept of virtual reality and virtual environment. It is also thought that students will be able to use virtual learning materials formulated in a qualitative way.

Key words. Virtual reality, technology, virtual education, virtual 3D education, platform, virtual machine, virtual memory, virtual disk, virtual communication, virtual journey, virtual classroom.

Jahonda rivojlanib borayotgan virtual reallik texnologiyalari va muhitlari jamiyatning turli sohalari bilan o'zaro innovatsion texnik integratsiyalanishi, jumladan sanoat, tibbiyot, turizm, harbiy sohada, kino va televideniya, qolaversa ta'lim sohasida ham qo'llash muhim masalalardan biridir. Shu jihatdan ma'lum sohalarda ta'lim oluvchilarning bilim faolligini oshirish, 3D texnologiyalar va virtual reallik muhitlaridan kengroq foydalanish, an'anaviy o'qitish muhitidan virtual 3D o'qitish muhitiga o'tish usul va vositalarni ishlab chiqishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda CAGR (Sompound Annual Growth Rate) ma'lumotlariga ko'ra ta'lim sohasiga VR (Virtual Realty)ni dunyo bozoriga kirib kelishi 2020-2025-yillar oralig'ida 42,5 foizga yetishi kutilmoqda. Tractica ekspertlarining prognozlariga ko'ra, virtual reallikdan korxonalar uchun global daromad 2018-yildagi 1,0 milliard dollardan 2025-yilgacha har yili 12,6 milliard dollargacha oshadi. IDC hisobotida 2024-yilga kelib, foydalanuvchilarning interfeysli o'zaro aloqalarining 50% dan ortig'i sun'iy intellektga

asoslangan AR/VRdan foydalanadi.

Dunyoda VRga sarflangan xarajatlar tufayli pandemiyadan tez chiqib, bu yilgi 12.0 milliard dollardan 2024-yilda 72.8 milliard dollargacha o‘sishi prognoz qilinmoqda. Xalqaro IDC ma’lumotlarga ko‘ra kengaytirilgan va virtual reallikni qo‘llash bo‘yicha so‘nggi besh yillik o‘sish sur’ati 54,0% (CAGR)da tashkil qiladi.

“Virtual reallik” atamasi 1970-yillarning oxirida Massachuses texnologiya institutida Jaron Lanier tomonidan o‘ylab topilgan. U 1984-yilda dunyoda birinchi virtual reallik kompaniyasini tashkil etdi. Bu atama kompyuterda yaratiladigan muhitda insonning mavjudligi g‘oyasini ifoda etadi. “Virtual reallik” atamasi keng ommaga amerikalik kinematografchilar tomonidan kiritilgan.

Virtual reallik atamasi nemis faylasufi Immanuel Kant davridan kelib chiqqan, garchi uning qo‘llanilishi texnologiyani o‘z ichiga olmagan bo‘lsada. Uning zamonaviy qo‘llanilishi 1980-yillarda Jaron Lanier tomonidan ommalashgan. Bu allaqachon juda keng qamrovli bo‘lsada, VR bilan bog‘liq bir nechta raqobatdosh atamalar hozirda keng tarqalgan.

Virtual reallikning rivojlanishida uch o‘lchovli muhit va internet texnologiyalari imkoniyatlarining rivojlanganishiga katta ta’sir o‘tkazdi. Natijada, turli sohalarda virtual reallik ishlatila boshlandi. Masalan:

– Kino olamida 1982-yil yaratilgan TRON nomli rasmli film, bu sohadagi katta qadam bo‘ldi. Hozirgi kunda virtual realliksiz bu sohani tasavvur qilish qiyin.

– 2009-yil yaratilgan virtual drama bu sohada ham kelajagi bor ekanligini anglatmoqda.

– San’at sohasida 1970-yil David Em o‘zining birinchi virtual ko‘rgazmasi bilan ushbu atamaning imkoniyatlarini ochib bergan.

– Musiqa sohasida ham elektron musiqa asboblari virtual reallik imkoniyatlarining mahsulidir;

Harbiy sohada xizmatchilarning merganlik ko‘nikmalarini shakllantirishda imitatorlar muhim rol egallagan. Harbiylar olingan ma’lumotlarni tahlil qilish va ularga baho berish uchun ham kompyuter imitatsiyasidan foydalanmoqdalar. 1990-yilda AQSHda NASAning laboratoriyasida VR tajribalari qo‘llanildi;

– Ta’lim sohasida mashq trenajyorlarini yaratishda virtual reallik texnologiyasidan foydalanilmoqda;

– Virtual kutubxonalarga va muzeylarga virtual tashrif buyurish, virtual interaktiv uch o‘lchovli ko‘rinishida ko‘rish imkonini yaratdi.

Zurich san’at universitetining Birdly Fly (qush ko‘rinishida uchish) tajribasida VR minigarniturasi orqasidan ergashgan holda foydalanuvchi virtual reallik shlemini kiyib virtual San-Fransisko ustidan virtual qanotlarini ko‘tardi. Harakat muhiti va ventilyator qo‘shimcha sensorli simulyatsiyani ta’minlaydi.

Tijorat sohasida VR shlemlari 1980-yillarda Jaron Lanierning VPL kompaniyasi tomonidan yaratila boshlangan, shu bilan birga ko‘zoynaklar va qo‘lqoplar ham keng ommaga chiqardi. 1990-yillarda VRga asoslangan video o‘yinlar o‘yin maydonchalarida va uy sharoitida paydo bo‘ldi. Bu o‘yinlar quyidagicha nom ostida bo‘lgan. Masalan: CAVE VR o‘yini 1992-yil faoliyatini boshlagan, VPL Eyephones o‘yini 1980-yil faoliyatini boshlagan, Nintendo Virtual Boy o‘yini 1995-yil faoliyatini boshlagan.

VRni namoyish etadigan turli kompaniyalar o‘zlarini qurilmalarini ishlab chiqardilar. Bular quyidagicha nom bilan ommaga chiqarildi. (Oculis Rift 2009-yildan boshlab Amerikada ishlab chiqara boshladilar, Google Cardboard 2014-yilda Cheap VR nomi

bilan, Sumsung Gear 2014-yildan boshlab Koreyada ishlab chiqara boshladilar, HTC Vive 2015-yildan boshlab, Oculist Quest 2020-yildan boshlab, Apple VR va MR shlemi 2021-yildan boshlab) o‘zlarining qurilmalarini ishlab chiqardilar.

Virtual ta’lim tushunchasi bir necha rivojlanish bosqichlaridan o‘tgan. Bizga ma’lumki elektron ta’lim, internet ta’limi, kompyuterli ta’lim, vebga yo‘naltirilgan ta’lim hamda virtual ta’lim. Informatika va axborot texnologiyalari yo‘nalishida virtual tushunchasi keng ma’noda qo‘llanilmoqda. Masalan: virtual mashina, virtual xotira, virtual disk, virtual aloqa, virtual sayohat, virtual sinf va boshqalar. Birgina ushbu sohada ham virtual tushunchasi turli shakl va ma’nolarda qo‘llanilib kelinmoqda va bir-biridan farqli ma’nolarni anglatadi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan, OTMda Virtual Learning Environments (virtual o‘quv jarayoni muhiti) orqali darslarni tashkil etish uchun an’anaviy ta’lim tizimidan xarajatlar kamroq sarflanadi. OTMda an’anaviy ta’limni tashkil etishga sarflanadigan xarajatlarni Fordxem universitetida o‘tkazilgan tadqiqot natijalaridan ko‘rish mumkin (AQSHda bitta talabaga bir o‘quv yilida 10000$ mablag‘ sarflanadi).

Amalga oshirilgan tadqiqotlar OTMda ta’lim xarajatlarining tejalishiga auditoriya va personalga sarflanadigan xarajatlarining kamayishi orqali erishiladi. Ammo virtual universitet tashkil qilishda virtual muhitning o‘rni ta’lim sifatiga ta’sir etishi mumkin. Shuning uchun konusli ta’lim texnologiyalarini taqdim etadigan virtual universitet muhitlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Virtual 3D ta’lim muhitlari uchun obyektlarni uch o‘lchovli modellari, xususan, eksteryer va interyerlarning dizayni, geometrik modellarini yaratish hamda ularning kompyuterli modellari ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi. Virtual xaritada har bir ta’lim muassasasi 3D modellariga loyiha maketi kiritilib, boshqa ta’lim muassasasiga vaqt va zamon oralig‘ida bir makondan ikkinchi makonga teleportatsiya funksiyasi yordamida o‘tish mumkinligi ko‘rsatiladi.

Xorijiy ITIning 100 ta universitet talabalari o‘rtasidagi so‘rovnomaga asosan virtual ta’lim an’anaviy kurslardagi materiallarni kompyuter materiallariga almashtirmaydi. Balki 40-50 foiz o‘quv materiallari instruktor (tyutor) tomonidan ta’minlanadi, qolganlari esa talabalar bilan hamkorlik va o‘zaro aloqa orqali, asosiy o‘quv materiallarini talabalarning o‘zlari mustaqil o‘rganadi. Bugungi kunda xorij mamlakatlarida virtual ta’limni baholab boradigan bir qator tizimlar mavjud (Vizerra, AltSpaceVR, SecondLife.com, vAcademia.com, Virbela.org, IMVU.com, Classvr.com, Sansar va boshqalar).

1-jadval.

Ta’limda virtual muhitlarini qo‘llash tizimlari tahlili

Virtual reallik muhitlari turlari	OT va dasturlash tili	Foydalanuvchilar soni(ming)	Ochiq kodli DT	Foydalanish imkoniyativa obyektlarni 3D modellariqo‘llashi	Obyektlar va teksturalar uchun oqiq formatlar	Foydalanuvchilar tomonidan dasturlashtirish imkoniyati	Foydalanish tarmoq turi	Ta’limni boshqaruvchi tizimlar bilan integratsiyasi	Avatarlardan foydalanish imkoniyati
Altspace VR	Mac OS, Windows,C#	35,000	+	Qiyin, ha	Stl,Obj, gltf	-	sotsial	-	ha

Second Life	Windows, Mac, Linux, C++	900 000	-	O‘rtacha, ha	.dae	-	sotsial	Sloodle	ha
IMVU	Windows 10, Mac OS X, Linux, Java va PHP	200 000	-	Oson, ha	fbx,dmg	-	o‘yin o‘ynash	LMS	ha
vAcademia	Windows, Mobil OS, Js	170,000	+	Qiyin, ha	Collda, Dae,Skp, Obj	+	ta’lim	Moodle	ha
Virbela	Windows, Mac, Linux and Android, C#	10,000	-	Oson, yo‘q	3ds	-	ta’lim va ko‘rgazma	-	ha
Active Worlds	Windows,OS X, Linux, C	70,000	-	Qiyin, ha	rwx	+	Shaxsiy va biznes	-	ha

Vizerra – dunyodagi birinchi virtual 3D ta’lim platformasi bo‘lib, avatar (foydalanuvchi)larga turli tarixiy joylarga Eski shahar maydoni, Makchu-Pikchu va Angkor Vatga to‘g‘ridan to‘g‘ri kompyuteringizdan virtual sayohat qilish imkonini beradi. Ushbu platforma qiziquvchan, lekin ma’lum bir manzilga sayohat qilish uchun pul sarflashni istamaydigan dangasa yigit va qizlar uchun foydalidir. Ushbu saytlarning yuqori sifatli 3D ko‘rinishlarini taqdim etishdan tashqari, unda nufuzli nashriyotlar va muzeylar tomonidan batafsil tavsiflangan audio qo‘llanmalarni ham taqdim etadi. Har bir model keng qamrovli tavsifga ega, bu har bir avatarlarga tarix, madaniyat va boshqa ko‘p narsalar kabi ko‘proq ma’lumot beradi.

IMVU – Ventures, Allegis Cyber Capital, Bridgescale Partners va Best Buy Capital kompaniyalarining investorlari tomonidan 2004-yilda asos solingan bo‘lib. 3D avatarlar bilan tanishish, suhbatlashish, yaratish va o‘yin o‘ynash uchun foydalanadilar. IMVU 2014-yilda to‘rt milliondan ortiq faol foydalanuvchiga ega edi. Hozirgi kunda faol o‘yinchilar soni 6 millionni tashkil etadi va hozirda saytda 40 milliondan ortiq mahsulotning eng katta virtual tovar katalogi mavjud.

Second Life – ijtimoiy tarmoq elementlariga ega uch o‘lchamli virtual dunyo bo‘lib, unda hozir 1 milliondan ortiq faol foydalanuvchilar mavjud. Second Life o‘z auditoriyasini kengaytirish va talabalariga ta’lim olish uchun ko‘proq interfaol imkoniyatlar taqdim etish istagida bo‘lgan pedagoglar uchun ham nihoyatda zaruriy instrument bo‘ldi. Ko‘plab universitetlar va kompaniyalar Second Lifedan ta’lim uchun foydalanib kelmoqdalar. Masalan Garvard va Oksford universitetlari. 2007-yildan Second Life xorijiy tillarini o‘rganish uchun keng ishlatib kelinmoqda. Ingliz tili (ikkinchi til sifatida) hozirgi kunda ko‘plab maktablarda o‘rganilmoqda, u ko‘proq yoshlarning interfaol ta’lim tarmoqlari sifatida qo‘llanilmoqda (Teen Grid).

Altspacevr – Microsoft kompaniyasi tomonidan 2013-yilda asos solingan bo‘lib, Bu platforma yozuvlarini yozib olish uchun ijtimoiy virtual ko‘rinishdagi muhitdir. Bugun u jonli voqealarning virtual reallikda haqiqiy takrorlanishini taklif qilishini e’lon qildi.

Sansar – San-Fransiskoda joylashgan Linden Lab firmasi tomonidan ishlab chiqilgan va hozirda San-Fransiskodagi Wookey Project firmasiga tegishli bo‘lgan ijtimoiy virtual reallik muhiti. U 2017-yil 31-iyulda keng omma uchun “Ijodkor beta” versiyasida ishga tushirildi. Platforma foydalanuvchi tomonidan yaratilgan 3D virtual maydonlarni yaratish imkonini beradi, bu yerda odamlar o‘yin o‘ynash, video tomosha qilish va virtual olamda suhbat o‘tkazish kabi interaktiv ijtimoiy tajribalarni yaratishi va fikr almashishi mumkin. Har bir real ishtirokchi avatar timsolida ifodalanadi.

VAcademia – Rossiya dasturchilari tomonidan ishlab chiqilgan ushbu muhiti uch o‘lchovli virtual ta’lim muhitidir. VRdagi virtual o‘quv auditoriya xonalari haqiqiy hayotdagi o‘quv xonasidek, o‘qituvchilar va talabalar dars mashg‘ulotida uch o‘lchovli avatar (personaj) bilan qatnashishadi, virtual mashg‘ulotlar esa an’anaviy hayotiy mashg‘ulotlar ko‘rinishida bo‘ladi. Dars mashg‘ulotlarni 3D yozib olish qobiliyatiga ega. Natijada, o‘tkazilgan sinxron darslarning aniq nusxasi bo‘lgan 3D yozuvlar olinadi. Ushbu yozib olingan mashg‘ulotlarda odatdagi darslar sifatida birma-bir yoki guruh bo‘lib kirib vizual qatnashish mumkin. Biroq, sinxron mashg‘ulotlardan farqli o‘laroq, yozib olingan darslarni tahrirlash mumkin.

Virbela – bugungi kunda tashkilotlar, uzoqdan ishlaydigan ishchilar va o‘quvchilar duch keladigan real muammolarni hal qilish uchun virtual yechimini ta’minlash uchun ishlab chiqilgan.

ClassVR – bu maktablar uchun maxsus ishlab chiqilgan, intuitiv imo-ishoralarni boshqarish, ulkan kontent kutubxonasi va o‘qituvchilarni boshqarish portali bilan jihozlangan dunyodagi birinchi to‘liq virtual va kengaytirilgan haqiqat to‘plami. Bu yerda biz maktablar, kollejlar va universitetlarning o‘qituvchilari o‘z o‘quvchilari bilan erishgan yutuqlariga asoslanib, sinfga virtual va kengaytirilgan haqiqatni yetkazish uchun eng sevimli usullardan bir nechtasi to‘planadi.

Jahonda ta’lim sohasida foydalaniladigan virtual ta’lim muhitlari, ularning imkoniyatlari, yutuq va kamchiliklari virtual muhitning asosiy tushunchalari, virtual ta’limni tashkil qilishda 3D modellarini yaratish va dasturiy vositasini ishlab chiqish, qo‘llash usullarining hozirgi holati va ularning qo‘llanilish sohalari, virtual muhitning paydo bo‘lish bosqichlari tahlil qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mikhail Fominykh learning in technology-rich environments: second life vs. Moodle. // 9th International Conference on Web-based Education (WBE), Sharm El Sheikh, Egypt, The final version is available in the ACTA Press Library http://www.actapress.com /Abstract.aspx? paperId=38403. March 15–17, 2010. pp. 3-4., DOI: 10.2316/P.2010.688-053.

2. Hale K. S. and Stanney K. M. Handbook of Virtual Environments. // 2nd Edition. CRC Press, Boca Raton, FL, 2015.

3. Tursunov S.Q., Mamarajabo M.E., Jumanazarov S.S. Ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua.// Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi. 2017 y.

4. Steven M. LaValle, Virtual Reality. // University of Illinois Copyright, Cambridge University Press 2017, 8-22 betlar.

5. Hale K. S. and Stanney K. M. Handbook of Virtual Environments. // 2nd Edition. CRC Press, Boca Raton, FL, 2015.

6. Giyosov, Ulugbek; Bhargava, Sandeep; and Nuraliev, F M. Modern technology enhanced adaptive and cognitive learning in the virtual reality environment. // Scientific-technical journal: Vol.24: Iss.6, Article https:// uzjournals.edu.uz/ferpi /vol24/iss6/12/).

Abduboqi KARIMOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali dotsenti, (PhD)

RAQAMLI TA'LIM – RAQAMLI IQTISODIYOTNING YETAKCHI HARAKATLANTIRUVCHI KUCHI

Annotatsiya

Maqolada raqamli iqtisodiyotni shakllantirishda raqamli ta'lim muhitining muhimligi ta'kidlab o'tilgan bo'lib bunda asosan raqamli ta'lim elementlarining alohida o'rini shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda qo'llanilishi hamda ta'lim imkoniyatlari tengligini ta'minlashga xizmat qilishiga e'tibor qaratilgani haqida fikrlar yuritiladi.

Tayanch so'zlar. Raqamli iqtisodiyot, ta'lim, tarbiya, iqtisodiy o'sish, ta'limiy rivojlanish, axborot texnologiyalari, kompyuter, o'quv jarayoni.

В статье подчеркивается важность цифровой образовательной среды в формировании цифровой экономики, при этом основное внимание уделяется особому месту элементов цифрового образования, а также использованию современных информационно-коммуникационных технологий в повышении качества и эффективности образования, а также тому, что они служат обеспечению равенства образовательных возможностей.

Ключевые слова. Цифровая экономика, образование, воспитание, экономический рост, развитие образования, информационные технологии, компьютер, образовательный процесс.

The article emphasizes the importance of the digital educational environment in the formation of the digital economy, with the main focus on the special place of digital education elements, as well as the use of modern information and communication technologies in improving the quality and effectiveness of education, and that they serve to ensure equal educational opportunities.

Key words. Digital economy, education, upbringing, economic growth, education development, information technology, computer, educational process.

Bugungi kunda uzluksiz glaballashuv jarayonlari jahonda raqamli iqtisodiyot keng qamrovli rivojlanish bosqichiga kirganligidan darak beradi – bu esa iqtisodiyotning raqamli texnologiyalar asosida rivojlanishiga qaratilgan zamonaviy shakli bo'lib, unda asosiy e'tibor axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va innovatsion g'oyalar hamda startaplar orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga yo'naltiriladi.


Dunyoda hayotning barcha sohalariga ta'sir ko'rsatadigan tub o'zgarishlar ro'y bermoqda. Raqamlashtirish ta'limni taqdim etish usulini tubdan o'zgartirishga harakat qilsada, biroq ko'plab muammolar hamon mavjudligicha qolmoqda: raqamli texnologiyalardan foydalanishning tengsizligi, bu turli sabablarga ko'ra ta'lim sifatiga putur yetkazadi.

Qolaversa, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda qo'llanilishi hamda ta'lim imkoniyatlari tengligini ta'minlashga xizmat qilishiga e'tibor qaratish lozim.

Busiz jamiyat oldiga qo'yilgan ulkan maqsadlarga erishish mumkin emas.


Binobarin raqamli iqtisodiyotni yanada oydinroq tassavvur etish uchun uning asosiy tashkil etuvchilari, infratuzilmasi va asosiy elementlarini eslatib o'tamiz. Uni biz

quyidagicha sxematik tarzda ifodaladik (1-rasm).



1-rasm

Bundan tashqari raqamli iqtisodiyotning kompitentlik (vakolatlilik) darajasi uchta sohaning kesishmasida joylashgandir: axborot texnologiyalari, boshqaruv va iqtisodiyot (2-rasm). (А. В. Кешелава, И.Л. Хает “Предмет цифровой экономики и роль цифровых инструментов”).



2-rasm.

Bularni inobotga olgan holda, shu sohalarning har birining tarkibiy qismlarini ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin va ularning aynan raqamli ta’limda qay darajada muhimligi hamda qo‘llanilishi misollar bilan keltiriladi:

Raqamli ta’limda raqamli iqtisodiy faoliyatining o‘rni quyidagicha:

global axborot resurslaridan keng foydalanishni ta’minlash, bu nodir nashrlar va adabiy manbalarni izlash va ulardan foydalanishni osonlashtiradi, masofaviy ta’lim formatini yo‘lga qo‘yish imkonini beradi, shuningdek, eng samarali nazariy va amaliy ishlanmalarning tez tarqalishiga yordam beradi.

Raqamli iqtisodiyot uchun trening o‘tkazish ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish axborot bilan ishlashda savodli shaxsni,

kompyuter vositalaridan foydalanuvchini tayyorlashga xizmat qiladi.

O‘quv faoliyatini axborot-metodik ta’minlashni takomillashtirish, AKT o‘qituvchilar va talabalar uchun axborot va uslubiy yordamni, shuningdek, kompyuter aloqa vositalariga asoslangan muloqot va hamkorlik imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirishi mumkin.

Ta’lim ma’lumotlarini taqdim etish qobiliyatini kengaytirish, rang, grafik, ovoz va barcha zamonaviy video jihozlardan foydalanish o‘quv jarayonida haqiqiy muhitni qayta yaratish imkonini beradi. Talabalarning o‘quv jarayoniga motivatsiyasini oshirish, o‘qitishda AKT vositalarining mavjudligi zamonaviy o‘qituvchining zamon bilan hamnafas bo‘lishidan dalolat beradi, bu esa o‘quvchilar uchun motivatsiya hisoblanadi.

Raqamli ta’lim bilan online masofaviy ta’lim boshqa-boshqa tushunchalardir. Bu yerda raqamli tushunchasi o‘z tarkibiga turli dasturlar va boshqa turdagi raqamli resurslardan samarali foydalanishni qamrab oladi. Misol uchun bu – kompyuter yoki noutbook kabi elektron vositalar yordamida auditoriyalarda bajariladigan vazifalar bo‘lishi mumkin.

Ta’limni raqamlashtirish jadal rivojlanmoqda. Buni ta’lim texnologiyalari (EdTech) bozorining kattaligi tasdiqlaydi. U tez sur’atlar bilan o‘sib bormoqda va Jahon iqtisodiy forumi ma’lumotlariga ko‘ra, uning hajmi 2025-yilga borib 342 milliard AQSh dollariga yetishi taxmin qilinmoqda.

Shunday qilib, ta’limni raqamlashtirishdagi yana bir dolzorb muhim jihatlardan quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

Media ta’lim resurslari. Onlayn media-kontent va interaktiv raqamli darsliklar tobora ommalashib bormoqda va asta-sekin klassik bilim manbalarini almashtirmoqda. U bilimlarni o‘zlashtirishni osonlashtiradigan videolar, kompyuter testlari va boshqa virtual haqiqat obyektlaridan tashkil topmoqda. Bundan foydalanishda o‘qituvchining zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalangan holda o‘quv jarayonini qura olishi muhim ahamiyatga ega.

Aloqa resurslari. Ma’lumotlarni onlayn almashish qobiliyati talabalar va o‘qituvchilar uchun juda muhim bo‘lib qolmoqda va ta’limni raqamlashtirishda katta rol o‘ynashi faktdir. Barcha onlayn kurslar uning asosida qurilgan va bu o‘zaro ta’sir usuli, albatta, kelajakdagi zamonaviy maktablarda dolzarb bo‘lib qolaveradi.

Axborot resurslari. Ular o‘quvchilarga katta hajmdagi ma’lumotlarni saqlashga imkon beradi. Internet – bu bilim olish uchun juda katta maydon, ammo uning ko‘lami ba’zan muammo bo‘lishi mumkin. Ta’limni raqamlashtirish uchun butun dunyo bo‘ylab talabalar uchun ochiq bo‘lgan tasdiqlangan ta’lim resurslariga ega bo‘lish muhimdir. Masalan, vikipediya, onlayn kutubxonalar va turli sohalardagi mutaxassislarning vebinarlari kabi ishonchli saytlar mavjudligi.

Kontent yaratish dasturlari resurslari. Bu dasturlar ham zamonaviy va qulay bo‘lganligi sababli tobora ommalashib bormoqda. Hozirgi kunda odamlar matnni qo‘lda yozishdan ko‘ra kompyuter yoki smartfonda ko‘proq yozadilar. Chizmalar va musiqalar ham elektron vositalar va dasturlar yordamida yaratiladi.

Ko‘plab mutaxassislarning ta’kidlashicha, ta’limni raqamlashtirishdan maqsad shaxsiylashtirilgan ta’lim jarayoniga o‘tish imkonini beruvchi texnologiyalardan foydalanishdir. Bunga erishish uchun davlat va jamiyat bir vaqtda va birgalikda quyidagi vazifalarni hal qilishi kerak:

Jismoniy infratuzilmani rivojlantirish, shu jumladan ma’lumotlar markazlarini qurish va o‘quv materiallarini o‘rganish uchun qurilmalarni yaratish.

Raqamli dasturlarni amalga oshirish, xususan, sun’iy intellektdan foydalangan holda o‘quv materiallarini yaratish, sinovdan o‘tkazish, ulardan foydalanish va boshqalar.

Ta’limni boshqarish tizimini, ya’ni o‘quv kurslarini boshqarish va nazorat qilish dasturlarini ishlab chiqish. Mutaxassislarning fikricha, bu ta’limni raqamlashtirish uchun sharoit yaratadi, teng va keng bilim olish imkoniyatini beradi.

Ta’lim muassasasi modelini yaratish. Bu kundalik hayotga, ish va dam olishga kiber-fizik tizimlarning ommaviy ravishda kiritilishi.

Avtomatlashtirilgan tizimdagi talabani noyob atribut, odatda raqamli kod bilan identifikatsiya qilish.

Ta’limni raqamlashtirish sohasida o‘qituvchilarning malakasini oshirish.

Qog‘oz axborot vositalaridan bosqichma-bosqich voz kechish.

Axborot texnologiyalari, boshida aytganimizdek, zarur infratuzilma asoslari va vositalarini yaratadi. Aynan ularning rivojlanishi tufayli raqamli iqtisodiyotning yaralishiga zamin yaratildi. Ko‘rinib turibdiki, aynan shu holat tufayli odamlar ongida “raqamli” komponent boshqalardan ustun turadi. Biroq, zamonaviy texnologiyalarning barcha sehrlariga qaramay, asosiy o‘zgarishlarni faqatgina IT sohasidan izlamaslik kerak.

So‘nggi yillarda ko‘plab yangi raqamli aloqa vositalari paydo bo‘ldi (biz bu atamani keng talqin qilamiz), bu bizga yangi tamoyillar bo‘yicha o‘zaro aloqalarni tashkil qilish imkonini beradi. O‘zaro ta’sir barcha darajalarda o‘zgarib bormoqda: odamlar o‘rtasida, kompaniyalar o‘rtasida, hukumat va bizness o‘rtasida, alohida fuqarolar va hukumat o‘rtasida va hokazo. Aloqa vositalariga ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, korporativ raqamli platformalar, elektron hukumat xizmatlari, hamkorlik muhitlari, kriptovalyutalar, aqlli shartnomalar va boshqalar kiradi. Keng ma’noda, hatto narsalar interneti ham aloqa vositasi deb hisoblanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov A.A. Ta’limni raqamlashtirishning nazariy asoslari. International scientific-practical conference “green economy - the economy of the future: innovations, investments and prospects” april 24, 2024. Https://doi.org/10.5281/zenodo.11039460.

2. Karimov A.A. Ta’limni raqamlashtirish jarayonlaridagi xavflar (tavakkalchiliklar). “iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda raqamli texnologiyalar: muammolar, innovatsiya va yechimlar” respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami 2024-yil 18-19-aprel.

3. Цифровизация образования: задачи, инструменты, сложности. Https://gb.ru/

4. Кешелава А. В., Хает И.Л. “тапредмет цифровой экономики и роль цифровых инструментов”.

Vasliddin SHUKUROV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali, “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrasi, assistent

TA’LIMGA OID RAQAMLI KONTENT TURLARI VA ULARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada internet texnologiyalarining ta’lim sohasidagi roli, uning rivojlanish jarayoni va milliy ta’lim kontentlarini yaratish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy ta’lim kontentlarini yaratishda internet texnologiyalarining ahamiyati va istiqbollari muhokama qilinib, VR, AI va Metaverse kabi yangi texnologiyalarning kelajakda ta’limga ta’siri yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Kontent, milliy kontent, internet, VR, AI, metaverse, ta’lim, onlayn platformalar, www, ARPANET

В данной статье анализируется роль интернет-технологий в сфере образования, их процесс развития и возможности создания национального образовательного контента. Также обсуждается значение и перспективы интернет-технологий в разработке национального образовательного контента, освещается влияние таких новых технологий, как VR, AI и Metaverse, на образование в будущем.

Ключевые слова. Контент, национальный контент, интернет, VR, AI, metaverse, образование, онлайн-платформы, WWW, ARPANET

This article analyzes the role of internet technologies in the field of education, their development process, and the possibilities of creating national educational content. Additionally, the significance and prospects of internet technologies in developing national educational content are discussed, highlighting the future impact of emerging technologies such as VR, AI, and the metaverse on education.

Key words. Content, national content, internet, VR, AI, metaverse, education, online platforms, WWW, ARPANET

Zamonaviy ta’lim jarayonini internet texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida ta’lim resurslarining ommaviyligi, ularning har kim uchun ochiqligi va qulayligi ta’minlanmoqda. Ayniqsa, ta’limga oid milliy kontentlarini yaratish va rivojlantirish jarayonida internet texnologiyalari muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Milliy kontent – bu ta’lim jarayonida o‘zbek tili va madaniyatiga mos holda ishlab chiqilgan elektron resurslar, darsliklar, video darslar hamda interaktiv platformalardir. Ular o‘quvchilar va talabalar uchun bilim olish jarayonini yanada qulay va samarali qiladi. Shuningdek ta’limga oid milliy kontentlar yosh avlodning ona tilida sifatli ta’lim olishiga va global axborot maydonida o‘z o‘rnini topishiga xizmat qiladi. Internet texnologiyalari esa bu kontentlarni ishlab chiqish, ulardan foydalanish va keng ommaga tarqatishda asosiy vosita hisoblanadi. Online ta’lim platformalari, mobil ilovalar, masofaviy kurslar hamda sun’iy intellekt asosida yaratilgan ta’lim resurslari orqali o‘quvchilar nafaqat an’anaviy darsliklardan, balki multimediya materiallari, test tizimlari va interaktiv mashg‘ulotlardan ham foydalana oladi. Shu sababli ushbu tadqiqotda ta’limga oid milliy kontentlarni yaratishda internet texnologiyalarining roli, imkoniyatlari va istiqbollari tahlil qilinadi.

Dastavval internet va unining yaratilishi, qolaversa ta’lim sohasiga ko‘rsatgan ta’sirini o‘rganib chiqsak. Bu borada esa evolutsion yondashuv zarur. Shu sababli

tarixga murojaat qlamiz.

Internet (lotincha: inter – aro va net – tarmoq) – standart internet protokoli (IP) orqali ma’lumot almashuvchi kompyuter tarmoqlarining butunjahon va omma uchun ochiq to‘plamidir.

Internet tarixini o‘rganadigan bo‘lsak 1967-yilda AQSh Mudofaa vazirligi ilg‘or tadqiqot loyihalari agentligi tomonidan ARPANET (Advanced Research Projects Agency Network) ishlab chiqildi. ARPANET – bu dunyodagi birinchi paketli uzatish texnologiyasiga asoslangan kompyuter tarmog‘idir.

ARPANET ning rivojlanishi 1966-yilda boshlangan. O‘sha davrda bir qancha standartlari ishlab chiqilgan bo‘lib tarmoqni boshqarish dasturi (NCP) xostlar o‘rtasidagi aloqani boshqarish hamda Telnet va File Transfer Protocol (FTP) ni qo‘llab-quvvatlagan. ARPANET muloqot qilish uchun paketlarni almashtirish texnologiyasidan foydalangan. ARPANETning asosiy vazifasi ilmiy-tadqiqot institutlari va harbiy tashkilotlar o‘rtasida ma’lumotlarni tez va samarali almashish imkonini yaratish edi. Shuningdek u texnologiyalarning barqarorligini tekshirish va internetga asos bo‘lgan yangi tarmoq protokollarini ishlab chiqishni maqsad qilgan. ARPANET paketlarni uzatish asosida ishlagan birinchi tarmoq bo‘lib, bu zamonaviy internetning muhim texnologik asoslaridan biri hisoblanadi. Qolaversa TCP/IP protokoli aynan ARPANETda rivojlantirilgan bo‘lib, hozirgi internetning asosiy protokoli hisoblanadi.

ARPANET rivojlanib borgan sari ma’lumotlarni uzatish samaradorligini oshirish uchun yangi protokollarga bo‘lgan ehtiyoj kuchayib bordi. Bu esa 1974-yilda TCP/IP (Transmission Control Protocol/Internet Protocol) va keyinchalik 1983-yilda DNS (Domain Name System) ning yaratilishiga olib keldi.

TCP/IP (Transmission Control Protocol/Internet Protocol) – bu internet va tarmoqlar o‘rtasidagi aloqani ta’minlovchi asosiy protokollar majmuasidir. U internetga ulangan barcha qurilmalar orasida ma’lumotlarni uzatish va qabul qilish jarayonini tartibga soladi.

DNS (Domain Name System) – bu internetdagi domen nomlarini IP-manzillarga o‘giruvchi tizimdir. U foydalanuvchilarga eslab qolish qiyin bo‘lgan IP-manzillar o‘rniga, oson yodda qoladigan veb-sayt nomlarini (masalan, google.com) ishlatish imkonini beradi.

Internet texnologiyalarining rivojlanishi insoniyat hayotiga tub o‘zgarishlar olib keldi. Ayniqsa 1989-yilda ingliz olimi Tim Berners-Li tomonidan WWW (World Wide Web) texnologiyasining yaratilishi global axborot maydonining shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynadi. Bugungi kunda WWW internetdagi asosiy xizmatlardan biri bo‘lib, u foydalanuvchilarga turli ma’lumotlarni tezkor va qulay tarzda olish, ulashish hamda o‘zaro muloqot qilish imkonini beradi.

Mazkur texnologiya ta’lim tizimida ham katta burilish yasadi. Ilgari ta’lim olish jarayoni asosan an’anaviy darsliklar va jismoniy auditoriyalar bilan cheklangan bo‘lsa, bugungi kunda masofaviy ta’lim platformalari, onlayn darslar va interaktiv o‘quv resurslari keng ommalashgan. O‘quvchilar va o‘qituvchilar istalgan joydan turib bilim olish va almashish imkoniga ega bo‘lishdi.

Bundan tashqari, WWW orqali ilmiy tadqiqotlar, elektron kutubxonalar va ta’lim resurslariga kirish imkoni kengaydi. Hozirda har qanday sohada yangiliklardan xabardor bo‘lish, ilmiy maqolalar va darsliklarni o‘qish, virtual laboratoriyalardan foydalanish mumkin.

Bugungi kunda ta’limga oid raqamli kontentlarni ishlab chiquvchi ko‘plab dasturiy ta’minotlar mavjud. Bular biz bilgan va doimiy foydalanib keladigan ofis dasturlaridan

tortib, turli test dasturlarigacha. Ammo internet texnologiyalarining rivojlanishi onlayn platformalarda ham ta'limga oid milliy kontentlarni yaratish imkoniyatini yaratib berdi. Hozirgi kunda turli onlayn platformalar o'quvchilarga ta'lim berish bilan bir qatorda sifatli raqamli ta'lim kontentlarini yaratish imkonini ham bermoqda. Quyida ta'limga oid raqamli kontentlar yaratish uchun ishlatiladigan eng mashhur internet platformalar keltirilgan:

(Massive Open MOOC Online Course) – bu keng auditoriya uchun mo'ljallangan bepul yoki pullik onlayn kurslardir. MOOClar odatda ko'plab sohalarga oid mavzularni qamrab oladi va ularga har qanday joyda, istalgan vaqtda kirish mumkin. Bundan tashqari MOOC platformalarida ta'lim kontentlarini yaratish mumkin. O'qituvchilar, universitetlar yoki ta'lim tashkilotlari MOOC platformalarida o'z kurslarini ishlab chiqish va ularga kerakli kontentni joylashtirish imkoniyatiga ega. Misol sifatida quyidagi platformalarni keltirish mumkin:

– Coursera;
– edx;
– Udemy;
– Khan Academy.

Onlayn darslar va Virtual sinflar yaratish platformalari. Bu turdagi platformalar o'qituvchilar uchun interaktiv kontentlar yaratish va ta'lim jarayonida foydalanish imkonini beradi. Bunga misol sifatida quyidagi platformalarni ko'rsatish mumkin:

– Google Classroom;
– Microsoft Teams for Education;
– Moodle;
– Zoom;

Grafik kontent yaratish platformalari. Bu platformalar raqamli darsliklar, infografikalar, taqdimotlar va interaktiv o'quv materiallarini tayyorlash uchun ishlatiladi. Misol sifatida quyidagi platformalarni keltirish mumkin:

– Canva;
– Prezi;
– Genially;
– Adobe Creative Cloud (Photoshop, Illustrator, Animate).

Video kontentlar va animatsiyalar yaratish platformalari. O'quvchilar uchun qiziqarli va tushunarli video kontentlar tayyorlashda ushbu platformalar foydalidir.

– YouTube Edu;
– Edpuzzle;
– Animaker;
– Powtoon.

Test va interaktiv mashg'ulotlar yaratuvchi platformalar. Bu platformalar interaktiv testlar, viktorinalar va baholash tizimlarini yaratish uchun ishlatiladi. Masalan:

– Kahoot!;
– Quizizz;
– Mentimeter;
– Google Forms.

Elektron kitoblar va o'quv materiallari yaratuvchi platformalar. Bu platformalar elektron darsliklar va kitoblar tayyorlash uchun ishlatiladi. Quyida shunday platformalardan ayrimlari keltirilgan.

– Google Books;
– Pressbooks;

– Storybird;

– Amazon Kindle Direct Publishing.

Internet texnologiyalarining rivojlanishi ko‘plab sohalar qatorida ta’lim tizimiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatganligini bugungi kundagi ta’lim tizimida qo‘llaniladigan turli onlayn platformalardan ham ko‘rish mumkin. Avval ta’kidlanganidek milliy ta’lim kontentlarini yaratishda yuqoridagi kabi platformalardan samarali foydalanish, sifatli va qiziqarli o‘quv materiallarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, Internet ta’lim sohasida inqilobiy o‘zgarishlar yaratdi. U masofaviy ta’lim, onlayn kurslar, interaktiv resurslar va sun’iy intellekt asosida individual o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirdi. Bilim olishni yanada qulay va ommabop qilgan bu texnologiyalar orqali har kim istalgan joyda va istalgan vaqtda o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Mamlakatimizda ham kelajakda ilm-fanning rivojlanishi ortidan ta’lim sohasida ham ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilishi bu tabiiy hol. Chunki axborot va internet texnoloiyalarining rivojlanishi shu masalani taqozo etadi. Kelajakda VR (Virtual Reality) – virtual dunyoda interaktiv ta’lim muhitini yaratish. Masalan, tibbiyotda talabalari jarrohlik amaliyotlarini virtual muhitda mashq qilishi yoki tarix darslarida qadimiy shaharlarni VR orqali sayohat qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi. Bundan tashqari AI (Artificial Intelligence) – sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish. Qolaversa Metaverse orqali talabalar va o‘qituvchilar virtual sinf xonalarida uchrashib, 3D laboratoriyalar yoki simulyatsiyalar orqali o‘rganishlari mumkin. Bu ayniqsa masofaviy ta’limda katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Internet – https://uz.wikipedia.org/wiki/Internet.

2. TechTarget and Informa Tech’s Digital Businesses Combine. (ARPANET) – https://www.techtarget.com/searchnetworking/definition/ARPANET.

3. World Wide Web - https://en.wikipedia.org/wiki/World_Wide_Web.

4. Karimov A.A. “Raqamli trasformatsiya ta’lim sifatining lokomotividir” - https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-trasformatsiya-ta-lim-sifatining-lokomotividir.

5. Karimov A.A. “Ta’limni raqamlashtirishning nazariy asoslari” - https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0024/5.19%20Karimov%20A.pdf.

6. “Raqamli texnologiyalarning yangi o‘zbekiston rivojiga ta’siri” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2023-yil. 100-102 b.

Jaxongir RAJABOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali, “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrasi, assistent

KELAJAK TA’LIMI UCHUN SUN’IY INTELLEKT USULLARI VA VOSITALARINING TA’SIRI VA OQIBATLARI

Annotatsiya

Maqolada ChatGPT va shunga o‘xshash sun’iy intellekt vositalaridan qo‘shimcha ta’lim va o‘quv jarayonida foydalanish tavsiya qilinadi. Xususan, ushbu texnologiyalarni pedagogik maqsadlar uchun optimallashtirish va moslashtirilgan versiyalarini joriy qilish zarurligini ta’kidlab o‘tilgan. Shuningdek, AI modellarining ta’lim muassasalarida bilimlarni rivojlantirishga qanday hissa qo‘shishi mumkinligi va ijodiy yondashuvlar zarurati, turli ma’lumotlar to‘plami va janrlar bo‘yicha modelni tayyorlash, inson tomonidan beriladigan ma’lumotlarning maxfiyligi va tarafkashlikni kamaytirish kabi muammolar ko‘rib chiqiladi.

Tayanch so‘zlar. NLP modellari, chatGPT, google bard, tanqidiy fikrlash, shaxsiylashtirilgan ta’lim, o‘qitishdagi tengsizlik, o‘quv jarayonida chatbotlar.

В статье рекомендуется использовать ChatGPT и аналогичные инструменты искусственного интеллекта в процессе дальнейшего обучения и обучения. В частности, подчеркивается необходимость оптимизации и внедрения адаптированных версий этих технологий для педагогических целей. Также будут рассмотрены такие вопросы, как то, как модели ИИ могут способствовать развитию знаний в учебных заведениях и необходимость творческих подходов, подготовка моделей для различных наборов данных и жанров, конфиденциальность данных, передаваемых человеком, и снижение предвзятости.

Ключевые слова. NLP модели, chatGPT, google bard, критическое мышление, персонализированное обучение, образовательное неравенство, чат-боты в учебном процессе.

The article recommends using ChatGPT and similar AI tools in further education and training. In particular, it was noted that it is necessary to optimize these technologies for pedagogical purposes and introduce adapted versions. Issues such as how AI models can contribute to the development of knowledge in educational institutions and the need for creative approaches, the preparation of a model across various datasets and genres, the confidentiality of human-supplied information, and the reduction of bias are also addressed.

Key words. NLP models, chatGPT, google bard, critical thinking, personalized learning, educational inequality, chatbots in the learning process.

Ta’lim va akademik amaliyotlar so‘nggi yillarda sezilarli o‘zgarishlarga uchradi, biroq sun’iy intellektning yaqinda keng qo‘llanilishi bu jarayonni to‘liq aks ettira olmaydi. Texnologik tadqiqotlar va mashina o‘rganish fanlarida sodir bo‘lgan jadal innovatsiyalar natijasida til modellarini ishlab chiqish va joriy etish tezlashdi.

Xususan, ChatGPT kabi generativ AI modellarining rivojlanishi raqamli kontent yaratish va matn yozish texnologiyalarining yanada takomillashishiga turtki bo‘ldi. Chuqur o‘rganish (Deep Learning) va Avtomatlashgan o‘rganish (Machine Learning) texnologiyalarining integratsiyasi natijasida audio-vizual ma’lumotlar, harakatlanuvchi grafikalar va boshqa raqamli hamda matn buyruqlarini o‘z ichiga olgan raqamli tasvirlar yaratilmoqda. Bu jarayon o‘quv ma’lumotlarini chuqur tahlil qilish hamda turli ma’lumotlar

namunalari va dizaynlarini sinxronlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Generativ AI modellar, ayniqsa ChatGPT, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyasidan foydalanib, turli dialektlarda insonga o‘xshash transkriptlarni tushunish va yaratishga qodir. Ushbu til modellariga ijodiy tarkib yaratish imkoniyati kiritilgan bo‘lib, ular qisqa satrlardan balladalar va kupletlargacha, hattoki, to‘liq ilmiy maqolalargacha bo‘lgan matnlarni ishlab chiqishga qodir. Shu bilan birga, bunday kontent veb-platformalarda keng qo‘llanilib, deyarli barcha mavzularda ishonchli tarkib yaratish imkonini beradi.

Bundan tashqari, ushbu AI modellar inson muloqotiga yaqin suhbatlarni tashkil etish xususiyatiga ega. Masalan, mijozlarni qo‘llab-quvvatlash chatbotlari yoki kompyuter o‘yinlaridagi xarizmatik syujetlar orqali foydalanuvchilar bilan interaktiv suhbatlar yaratish mumkin. Yaqinda GPT-3 modeli joriy etilib, u 175 milliard parametr va cheklovlarga ega bo‘lishi bilan avvalgi modellar bilan solishtirganda ancha rivojlangan. Brown va boshqalar tomonidan ta’kidlanishicha, GPT-3 oldingi zichroq tuzilgan til modellaridan o‘n baravar murakkabroq bo‘lib, zamonaviy kalibrlash orqali vazifaga xos va aniq xususiyatlarni samarali oshirishi mumkin.

GPT-3 asosiy NLP dvigateli sifatida ishlab chiqilgan bo‘lib, u ChatGPT ning avvalgi versiyalarini takomillashtiradi. U turli sohalarga, jumladan akademik ta’lim, muhandislik, radioeshittirish va jurnalistika, tibbiyot hamda moliya va iqtisodiyot kabi biznes yo‘nalishlariga samarali moslashishi bilan ajralib turadi.

Sun’iy intellektning umumiy ko‘rinishi

Sun’iy intellekt (AI) yoki mashina razvedkasi – bu kompyuter fanining inson tomonidan bajariladigan murakkab vazifalarni avtomatlashtirishga yo‘naltirilgan sohasi bo‘lib, mashinalar maxsus algoritmlar yordamida ma’lumotlarni tushunish, tahlil qilish va o‘rganish qobiliyatiga ega bo‘lishi uchun dasturlashtiriladi. Zamonaviy AI texnologiyalari orqali, masalan, kameralar yuzlarni avtomatik taniy oladi, kompyuterlar esa matnlarni bir tildan boshqasiga tarjima qilish imkoniyatiga ega.

AI ilmiy intizomi 1950-yillarda shakllangan bo‘lib, o‘shandan beri tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), o‘rganish, mantiqiy fikrlash va bilimlarni boshqarish kabi yo‘nalishlarda keng tadqiq etilgan. So‘nggi yillarda AI tadqiqotlari kompyuter fanidan tashqariga chiqib, psixologiya, tilshunoslik va falsafa kabi sohalarni ham qamrab olmoqda. Sun’iy intellekt hozirda ta’lim, elektron tijorat, robototexnika, navigatsiya, sog‘liqni saqlash, qishloq xo‘jaligi, harbiy texnologiyalar, marketing va video o‘yinlar kabi ko‘plab sohalarda qo‘llanilmoqda.

Eng keng tarqalgan AI ilovalariga Google kabi qidiruv tizimlari, Netflix kabi tavsiya tizimlari, Tesla kabi o‘zini o‘zi boshqaradigan avtomobillar, shuningdek, Siri va Alexa kabi ovozli yordamchilar kiradi. Umuman olganda, sun’iy intellekt ilovalari mashina o‘rganish, robototexnika, tabiiy tilni qayta ishlash, kompyuterni ko‘rish va katta ma’lumotlar kabi asosiy yo‘nalishlarga bo‘linadi.

Generativ AI turlari

Generativ sun’iy intellekt (AI) – bu murakkab va xilma-xil so‘rovlarga (masalan, tillar, ko‘rsatmalar, savollar) javoban insonga o‘xshash tarkibni (jumladan, tasvirlar va matn) yaratish uchun chuqur o‘rganish modellaridan foydalanadigan texnologiya sifatida aniqlanadi. Ushbu modellar ommaviy o‘quv ma’lumotlar to‘plami, neyron tarmoqlar va chuqur o‘rganish arxitekturasi yordamida foydalanuvchi ko‘rsatmalariga asoslangan holda turli natijalarni yaratishga mo‘ljallangan.

Generativ AI modellari turiga qarab, tasvirlar yaratish, matnni tasvirga yoki aksincha

tarjima qilish, nutq va audio sintez qilish, original video kontent yaratish hamda sintetik ma'lumotlarni ishlab chiqish kabi turli funksiyalarni bajara oladi. Ushbu modellar rivojlanishda davom etsa ham, ular asosan ikkita asosiy dizaynga asoslangan: "Generativ raqib tarmoqlar (GAN)" va "transformator modellar".

GAN modellarida ikkita asosiy neyron tarmoq mavjud: "generator" va "diskriminator". Generator foydalanuvchi kiritgan ma'lumotlar va mashg'ulot natijalari asosida yangi tarkib yaratadi, diskriminator esa ushbu tarkibni haqiqiy ma'lumotlar bilan taqqoslab, uning qanchalik real yoki to'g'ri ekanligini baholaydi.

Transformator modellarida esa "kodlovchilar (encoder)" va "dekoderlar (decoder)" ishlatiladi. Ushbu modellar foydalanuvchi kiritmalarini segmentlab, tokenlarga yoki kontent bloklariga ajratadi hamda ularni tegishli formatda dekodlaydi. Bunday yondashuv tabiiy tilni qayta ishlash va matnli AI tizimlarida, jumladan, ChatGPT kabi modellarni rivojlantirishda keng qo'llaniladi.

Oliy ta'lim uchun imkoniyatlari

Shaxsiylashtirilgan ta'lim – bu o'quvchilarning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlariga moslashtirilgan ta'lim yondashuvi bo'lib, uning maqsadi har bir talabaning o'rganish tajribasini maksimal darajada samarali qilishdir. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) modellari til shakllari, fikr-mulohazalar va o'quv jarayoni natijalarini tahlil qilish orqali ushbu yondashuvni rivojlantirishga yordam beradi. Bu orqali individual o'quvchilar uchun moslashtirilgan tarkib, faoliyat va baholashlar ishlab chiqiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shaxsiylashtirilgan ta'lim akademik muvaffaqiyat, o'quvchilarning faolligi va o'z-o'zini samarali boshqarish ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. Agar o'quv materiallari o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlariga mos keladigan tarzda taqdim etilsa, ular mavzuga chuqurroq qiziqish bildiradi va uni yanada samarali o'zlashtiradi.

NLP modellari shaxsiy ta'lim ehtiyojlariga mos keladigan tarkib yaratish orqali har bir o'quvchiga individual o'rganish tajribasini taqdim etishi mumkin. Masalan, agar talaba savolga javob bersa, model ushbu javobni tahlil qilib, talabaning tushunish darajasiga moslashtirilgan fikr-mulohazalar taqdim etishi mumkin. Bu jarayon talabaning qaysi jihatlarda qo'shimcha yordamga ehtiyoji borligini aniqlashga yordam beradi.

Bundan tashqari, NLP modellarining qayta ishlash mexanizmlari o'quvchilarning natijalari va fikr-mulohazalariga asoslangan holda individual o'quv rejalarini yaratishi mumkin. Ushbu rejalar o'quv maqsadlarini qo'llab-quvvatlash uchun qo'shimcha mashg'ulotlar, baholash usullari yoki o'quv materiallarini o'z ichiga olishi mumkin. Talabalarga ushbu moslashtirilgan rejalarni taqdim etish orqali sun'iy intellekt modellaridan foydalanish o'quvchilarga o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish va ta'lim jarayonida yanada faol ishtirok etish imkonini beradi.

Bundan tashqari, talab bo'yicha qo'llab-quvvatlash samarali o'rganishning muhim jihatlaridan biri bo'lib, ayniqsa, mustaqil yoki onlayn o'quv muhitida ta'lim olayotgan talabalar uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. NLP modellari real vaqt rejimida talabalarga muayyan tushuncha yoki muammolarni hal qilishda yordam berish orqali talab bo'yicha qo'llab-quvvatlashni ta'minlashi mumkin.

Talab bo'yicha qo'llab-quvvatlashning asosiy afzalliklari shundan iboratki, u o'quvchilarga o'rganish jarayonidagi to'siqlarni yengib o'tishda yordam beradi va materialni yaxshiroq tushunishlariga ko'maklashadi. Bundan tashqari, ushbu yondashuv talabalarga o'z-o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish va muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bo'lgan resurslar va yordamni taqdim etish orqali ularning o'z-o'zini samarador

his qilishiga hissa qo‘shadi.

NLP modellarining muhim xususiyatlaridan biri real vaqt rejimida talaba so‘rovlariga moslashtirilgan javoblar va fikr-mulohazalar taqdim eta olishidir. Masalan, agar talaba muayyan mavzu bo‘yicha savol bersa yoki javob yozsa, model ushbu kiritilgan ma’lumotni tahlil qilib, talabaning ehtiyojlariga moslashtirilgan tushuntirish yoki tavsiyalarni taqdim etishi mumkin. Bu ayniqsa o‘qituvchi yoki ustozga darhol murojaat qilish imkoniga ega bo‘lmagan onlayn ta’lim muhitida o‘qiyotgan talabalar uchun ayniqsa foydalidir.

Bundan tashqari, chatbot texnologiyalari orqali talabalar istalgan vaqtda va istalgan joyda yordam olishlari mumkin. Ular mobil qurilmalar, noutbuklar yoki shaxsiy kompyuterlar orqali tizimga ulanib, kerakli vaqtda tegishli ma’lumot va maslahatlarga ega bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu moslashuvchanlik talabalarning band jadvallarini hisobga olgan holda o‘rganish jarayonini yanada qulaylashtiradi.

Shuningdek, NLP modellarining kengaytirilgan imkoniyatlari talabalar uchun matn, audio yoki video formatlarida qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini taqdim etishi mumkin. Bu esa turli o‘quvchilarning individual ta’lim afzalliklarini inobatga olib, ularga eng samarali yordam turini taqdim etish imkonini beradi.

Oliy ta’lim uchun muammolar

ChatGPT va Google Bard kabi NLP modellarining ta’lim jarayonida keng qo‘llanish imkoniyatlari mavjud bo‘lsa-da, bir qator muhim muammolar ham mavjud. Ulardan biri – modelning aniqligi masalasidir. Tizimning natijalari asosan o‘quv ma’lumotlarining sifati, xilma-xilligi va murakkabligiga, shuningdek, foydalanuvchilar tomonidan kiritilgan ma’lumotlarning aniqligiga bog‘liq. Fuchs tadqiqotlarida oliy ta’limda kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligini ta’kidlab, talabalar tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlariga ega bo‘lishi muhimligini qayd etgan. NLP tizimlari inson tilining murakkabliklarini to‘liq tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, bu esa tushunmovchiliklar va noto‘g‘ri javoblarga olib kelishi ehtimolini oshiradi.

Bundan tashqari, modelning natijalari uning o‘qitilgan ma’lumotlar to‘plami sifatiga bog‘liq. Agar ma’lumotlar xilma-xil bo‘lmasa yoki sifati past bo‘lsa, model noto‘g‘ri yoki to‘liq bo‘lmagan naqshlarni o‘rganib, xatolarga yo‘l qo‘yishi mumkin. Ayniqsa, lingvistik noziklik, idiomatik ifodalar yoki kontekstga bog‘liq holatlarda modelning aniqligi pasayishi mumkin. Shuningdek, foydalanuvchilar tomonidan noto‘g‘ri yoki noaniq so‘rovlar kiritilishi tizimning javoblarini salbiy ta’sir qilishi mumkin. Agar talabalar o‘z so‘rovlarini aniq va tushunarli shaklda ifodalay olmasalar, model berilgan ma’lumotlar asosida optimal natija taqdim etishda qiynalishi mumkin.

Yana bir muhim muammo – NLP modellariga ortiqcha tayanish xavfidir. Bunday tizimlar shaxsiylashtirilgan ta’lim va yordamni ta’minlashi mumkin bo‘lsa-da, talabalarning tanqidiy fikrlash va mustaqil izlanish qobiliyatlarini rivojlantirishlari muhim. Chatbotlarga haddan tashqari ishonish natijasida talabalar ulardan olingan javoblarni tekshirmasdan qabul qilishlari va mustaqil tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirmasliklari mumkin. Bu esa ularda axborotni baholash, xulosalar chiqarish va ijodiy tafakkur ko‘nikmalarining sustlashishiga olib kelishi ehtimolini oshiradi.

Shuningdek, bu texnologiyalarga ortiqcha bog‘lanish mavjud noto‘g‘ri qarashlarni mustahkamlashi va ta’limdagi tengsizliklarni chuqurlashtirishi mumkin. Agar model noto‘g‘ri yoki bir tomonlama ma’lumotlar asosida o‘qitilgan bo‘lsa, u real dunyodagi noto‘g‘ri tushunchalarni aks ettiruvchi javoblarni yaratishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, ta’limdagi kamsitish va adolatsizliklarga qarshi kurashishda tizimning yetarlicha samarali bo‘la olmasligiga sabab bo‘lishi mumkin.

1-jadval.

Sun’iy intellektning ta’siri va oqibatlari

Sun’iy intellekt usullari va vositalari	Ta’siri	Oqibatlari
Mashinalarni o‘rganish (Machine Learning)	Talabalar uchun shaxsiylashtirilgan ta’lim dasturlarini yaratish imkoniyati	O‘quv jarayonining moslashuvchanligi va samaradorligi oshadi, lekin texnologiyaga qaramlik kuchayishi mumkin
Neyron tarmoqlar (Neural Networks)	Murakkab ma’lumotlarni qayta ishlash va bashorat qilish	O‘quvchilarning qobiliyatlarini aniq baholash va rivojlantirish imkoniyati oshadi
Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)	Sun’iy intellekt yordamida o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqini tushunish va tahlil qilish	Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari aniqligi oshadi, lekin insoniy muloqot kamayishi mumkin
Ta’lim chat-botlari va virtual o‘qituvchilar	24/7 yordam va tezkor javob berish	O‘qituvchilarga yuk kamayadi, lekin ijtimoiy muloqot pasayishi mumkin
Sun’iy intellekt yordamida baholash tizimlari	O‘quvchilarning bilimlarini tez va aniq baholash	Subyektiv baholash kamayadi, lekin tizimdagi xatoliklar noto‘g‘ri natijalarga olib kelishi mumkin
VR va AR texnologiyalari	Interaktiv va immersiv ta’lim muhiti yaratish	Real hayotga yaqin tajribalar berish, lekin qimmat infrastrukturani talab qiladi
Avtomatlashtirilgan kontent yaratish	Dars materiallarini AI yordamida ishlab chiqish	O‘qituvchilarning yukini kamaytirish, lekin ijodiy yondashuvga zarar yetkazishi mumkin
Talabalar xulq-atvorini tahlil qilish	O‘quvchilarning ta’lim jarayoniga bo‘lgan munosabatini baholash	Individual yondashuvni kuchaytirish, lekin maxfiylik muammolari paydo bo‘lishi mumkin

Bu muammolarni hal qilish uchun ta’lim muassasalari NLP modellaridan foydalanish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar ishlab chiqishlari kerak. Talabalarga ushbu vositalarni mustaqil ta’lim va tanqidiy fikrlashni to‘ldiruvchi qo‘shimcha resurs sifatida ishlatish o‘rgatilishi lozim. Shuningdek, muassasalar talabalarga mustaqil izlanish, muammolarni hal qilish va ijodiy fikrlashni rag‘batlantiruvchi faol o‘quv metodlariga asoslangan tajribalarni taqdim etishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UIS (2023). Data for Education - A Guide for Policymakers to Leverage Education Data - UNESCO. https://ces.uis.unesco.org/wp-content/uploads/sites/23/2024/01/Data-for-Education-final.pdf.

2. Shukurov V. raqamli iqtisodiyotda sun’iy intellektning ahamiyati-https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0,5&cluster=5333225746060917978 .

3. UNESCO (2021). Education and Technological Transformations for Human Centered Recovery: The Global Education Coalition in Action – ED/GEC/2021/04. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000379133 .

4. Nganji, J. T. Towards learner-constructed e-learning environments for effective personal learning experiences. Behav. Inf. Technol. 29:470673. doi: 10.1080/0144929X.2018.1470673.

Nilufar ALOVDDINOVA,
“Toshkent Kimyo xalqaro universiteti nodavlat oliy ta’lim muassasasi,
mustaqil izlanuvchisi

TEXNOLOGIYA FANI DARSLARIDA FANLARARO BOG‘LANISHLAR VA INTERDISSEPLINAR YONDASHUVLARNING QO‘LLANILISHI

Annotatsiya

Maqolada umumta’lim maktablarida texnologiya fani darslarida fanlararo yondashuvlarni qo‘llash o‘quvchilarda amaliy mashg‘ulot turlariga nisbatan ijodkorlik bilan yondashish va o‘zlashtirish darajasini oshirishda muhimligi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, darslarda texnologiya, tabiiy fanlar, tasviriy san’at, muhandislik, matematika kabi fanlariga doir bilim va fanga doir elementlarini birlashtirib dars jarayonini tashkil etish yuzasidan ma’lumotlar berilgan. Bundan tashqari interdisseplinar yondashuvlar asosida darslarni tashkil etish orqali o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalar shakllantirish, kasb-hunar turlariga qiziqish uyg‘otish hamda kasb tanlash bo‘yicha motivatsiyasini oshirish, ijodkorlik, jamoada samarali hamkorlik qobiliyatlarini rag‘batlantirishni rivojlantirish haqida ham yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Faol o‘quvchilar, texnologiya darslari, fanlararo va interdisseplinar yondashuvlar, kasb-hunarga yo‘naltirish, ijodkorlik, ijodiy ko‘nikmalar, zamonaviy ta’lim tizimi.

В статье рассматривается важност исползования интердиссиплинарных подходов на уроках технологии в средних школах для повышения творческого подхода учащихся к практической деятелности и уровня их освоения. Уроки содержат информатсию о том, как организоват протсесс урока, объединяя знания и элементы науки из таких предметов, как технология, естественные науки, изобразителное искусство, инженерия и математика. Кроме того, рассматриваются вопросы формирования практических навыков у учащихся путем организатсии занятий на основе междиссиплинарных подходов, формирования интереса к профессиям и повышения мотиватсии к выбору профессии, стимулирования творческих способностей и навыков эффективной работы в команде.

Ключевые слова. и понятия: активные учащиеся, уроки технологий, межпредметные и интердиссиплинарные подходы, профессионалная ориентатсия, креативност, творческие навыки, современная система образования.

This article discusses the importance of applying interdisciplinary approaches in technology lessons in general education schools to enhance students’ creativity and mastery of practical exercises. The article provides information on organizing lesson processes by integrating knowledge and elements from various subjects, including technology, natural sciences, fine arts, engineering, and mathematics. Furthermore, it highlights how interdisciplinary lesson planning fosters the development of students’ practical skills, sparks interest in different professions, enhances motivation for career choice, promotes creativity, and encourages effective teamwork and collaboration.

Key words. Active learners, technology lessons, interdisciplinary and multidisciplinary approaches, career guidance, creativity, creative skills, modern education system.

Bugungi kunda o‘quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish, kelgusida ularni ish bilan ta’minlash ijtimoiy hayotda kerak bo‘ladigan dastlabki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish masalasi ustuvor vazifalardan biri

sifatida qaralmoqda. Xususan, davlatimiz rahbarining 2023-yil 20-yanvardagi yig‘ilishida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish masalalari bo‘yicha belgilangan vazifalari hamda 2024-yil 5-fevraldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-53-sonli qarorlarida o‘quvchilarni kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ushbu jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish hamda mehnat bozori talablariga mos malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash masalalariga alohida e’tibor berilgan.

Shunday ekan bu borada ta’rif beradigan bo‘lsak “Kasb-hunarga yo‘naltirish – o‘quvchilarga muayyan kasb-hunar haqida ma’lumot berish orqali ularni shu kasbga qiziqtirish, yo‘llash jarayoni”dir. Ma’lumki, har bir o‘quvchida turlicha qiziqish bilan birga qaysidir qobiliyat yaxshi rivojlangan bo‘ladi. Shunday ekan o‘quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashda har bir o‘g‘il-qizdagi qobiliyat, qiziqish, iqtidor kabi xususiyatlarini inobatga olish, ularning tug‘ma iste’dodi, layoqatlariga qarab kasb-hunarga yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega.

Hozirda yoshlarni yaxshi bilim olish bilan bir qatorda kasb-hunar turlarini o‘rganishlari uchun ham ko‘pgina qulay imkoniyatlar bor. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarni kasb-hunarga o‘rgatish va dastlabki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish ishlari asosan texnologiya fani darslari orqali olib boriladi. O‘quvchilarda sinflar kesimida boshqa fan darsliklaridan qolishmaydigan Texnologiya fani darslik majmualarining borligi, ko‘pgina maktablarda zamonaviy jihozlangan Texnologiya fani ustaxonalarning mavjudligi, ularda tashkil etilayotgan amaliy mashg‘ulot darslarining amaliy tarzda tashkil etilishi juda quvonarlidir. Aytib o‘tish joizki, umumta’lim maktablarida o‘quv jarayonini tashkil etishda “Biznes va kasb-hunarga o‘qitish” yo‘nalishi doirasida o‘quvchilarni ishchi yoki raqamli texnologiyalarga oid kasb turlarini o‘qitishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Tahlillarga ko‘ra Texnologiya fani darslari orqali o‘quvchilarga 40 dan oshiq kasb-hunar turlari haqida dastlabki bilimlar beriladi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida texnologiya fanini o‘qitishning asosiy maqsadlari – zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanib, innovatsion va milliy xalq hunarmandchiligi usullari asosida ishlab chiqarishni o‘rgatish orqali o‘quvchilarning texnik ijodkorlik qobiliyati, kreativ ko‘nikmalarini rivojlantirish, ongli ravishda kasb-hunarga yo‘llashga oid kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat hisoblanadi.

Texnologiya fani darslarining mazmunli va qiziqarli o‘tishida, o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish, ko‘proq kasb-hunar turlari bilan tanishtirish uchun o‘qituvchi bir qancha samarali metod hamda yondashuvlardan foydalanishi katta ahamiyatga egadir. Bu o‘rinda darslik mavzularini mazmun jihatidan mos keladigan fanlarni bir-biriga bog‘lagan holda tashkil etilishi ham yaxshi natija beradi.

Texnologiya fani darslarida mavzularni fanlararo umumlashtirib tashkil etish o‘quvchilarda umumlashtirilgan bir qancha ko‘nikmalarni shakllanishida qulay vosita bo‘la oladi, bu esa mavzuga doir berilgan bilimlarni qiziqarli va tushunarli tarzda yetkazib berish imkonini beradi.

Bu o‘rinda falsafa sohasining taniqli rus mutaxassisi I. T. Kasavin “Fanlarning o‘zaro bog‘lanishi tabiiy holatidir”[1] desa, Professor A. N. Kniginning ta’kidlashicha, fanlararo tamoyil sifatida har tomonlama ko‘rib chiqilgan tahlillarga ko‘ra hech qanday afzalliklarga ega emas degan g‘oyalarni ilgari suradi. A. N. Kniginning so‘zlariga ko‘ra, fanlarning integratsiyani yangi bilimlar “fanlar o‘rtasida” emas, balki fanlar “birlashma-

[1] 2018.02.007. Касивин И.Т. Социальная философия нау-ки и коллективная эпистемология. – М.: Весь мир, 2016. – 262 с.

sida” tushunish lozim[2]. Shunday qilib, zamonaviy fanda tadqiqot tamoyillari sifatida fanlararo bog‘lanishlarning o‘zaro bog‘liqligi to‘g‘risida yagona konsensus mavjud emas.

Fanlararo bog‘lanishlar biror mavzuga doir muammoni o‘rganish pedagogikaning ilmiy-nazariy asoslarini rivojlantirish, shuningdek o‘qituvchilarning amaliy faoliyati uchun muhimdir. Fanlararo bog‘liqlik barcha fanlar bo‘yicha o‘rganishni osonlashtiradigan ilmiy g‘oyalarni tizimlashtirishni aniqlash orqali umuman fan tizimi uchun yagona uslubiy asosni yaratishi mumkin[3].

Asosan “Fanlararo tushunchasi” (yoki interdisipliner) – bu bir nechta fanlar yoki sohalar o‘rtasida o‘zaro aloqalar, bog‘lanishlar va hamkorlikni ta’minlashga qaratilgan yondashuvdir. Bunda, turli sohalardan olingan bilim va usullarni birlashtirib, yangi qarashlar, tushunchalar yoki yechimlar ishlab chiqiladi.

Masalan, texnologiya fani bilan tasviriy san’at, chizmachilik, biologiya, fizika va kimyo, matematika kabi fan sohalari birlashib, yanada chuqurroq va kompleks tahlil qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Xorijiy tajribalarda fanlararo bog‘lanishlar Interdissiplinar yondashuvlar shaklida tashkil etilishi ko‘proq rivojlangan bo‘lib, bu esa turli fan yoki yo‘nalishlar orasidagi chegaralarni buzib, ularni birlashtirib, yangi va chuqurroq bilim olish maqsadida qo‘llaniladigan yondashuvdir. Bu yondashuvlar odatda, turli fan sohalaridan g‘oyalar, usullar va tushunchalarni integratsiya qilishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuvlarda ikki yoki undan ortiq fan sohalari birlashadi va yangi bilim sohasiga yoki muammoga kompleks yondashuv bilan qaraladi.

Interdissiplinar yondashuv turlaridan foydalanib o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish vositalari fanlararo bilimlarni va ko‘nikmalarni birlashtirishga qaratilgan. Bu vositalar o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ko‘maklashadi, ularni zamonaviy kasblarga tayyorlashda samarali vosita bo‘la oladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Texnologiya” fani darslarida o‘quvchilarni kasb-hunarga o‘rgatish va yo‘naltirishda, fanlarni bir-biriga bog‘lab olib borishda interdissiplinar yondashuvlar asosida darslarni tashkil etish jarayonlari.

Umumta’lim maktablarida “Texnologiya” fani darslari orqali o‘quvchilarni kasb-hunar turlari bilan tanishtirib borish, kasbni tanlashga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari.

Texnologiya fani darslari orqali o‘quvchilarni kasb-hunarga oid ko‘nikmalarini shakllantirib borishda interdissiplinar yondashuvlarni darslarda amaliyotda qo‘llab ko‘rish, o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishdagi maqsadli natijalarini tahlil qilish, metod turlarini shakllarini rivojlantirish, tadqiqot va tahlil usullari.

Fanlararolik va interdissiplinar yondashuvlar o‘quvchilarni kasb-hunarlar olami bilan tanishtirib o‘zlariga yoqqan kasbni osonroq tanlashlarida, mos yo‘nalishni topishlariga yordam beradi.


Bundan tashqari texnologiya fanidagi fanlararo bog‘lanishlarni ikki xil ko‘rinishga bo‘lish hamda ularni shartli ravishda ichki va tashqi fanlararo bog‘lanishlar deb atash mumkin. Texnologiya fani darslarida ichki bog‘lanish deganda sinflar kesimida texnologiya faniga oid mavzularning o‘zaro bog‘lanishi, aloqadorliklari tushuniladi. Texnologiya

[2] А.Н. Книгин. Междисциплинарность: Основная проблема. Вестник Томского Государственного университета 2008 Философия. Социология. Политология №3(4)Удк 1:001; 001.8

[3] Педагогические науки. Педагогика № 15удк 373.5.1 Интердисциплинарность как принцип обучения в современном образовательном процессе Е.А. Кущина (Витебский государственный университет им. П.М. Машерова)

fani darslari bu bosqichlarda o‘zaro uzviy bog‘lanib, oddiydan murakkabga, osondan qiyinga qarab borish tamoyillar asosida olib boriladi. Texnologiya fani o‘qituvchisining vazifasi shu tamoyillarga amal qilgan holda yangi materialni oldin o‘tgan materiallar bilan bog‘lab olib borishi tushuniladi. Bu ishlar fanlararo bog‘lanishlarning ma’lum bo‘lgan uch turi, ya’ni yangi mavzuni o‘tishdan oldin, yangi mavzuni o‘tish davomida va yangi mavzuni o‘tib bo‘lgandan so‘ng bog‘lash usullaridan foydalanib amalga oshiriladi.

Tashqi bog‘lanishlar, fanlararo yondashuvlarda esa texnologiya fani darslarini boshqa fanlar bilan bo‘ladigan bog‘lanishlari tushuniladi. Texnologiya fanini umumta’lim maktablarida o‘tiladigan barcha fanlar bilan bog‘lash mumkin. Ko‘p hollarda esa texnologiya fani darslari ko‘proq tasviriy san’at, chizmachilik, fizika, matematika, kimyo, informatika, tarix, biologiya kabi fanlar bilan bog‘lanadi[4].



1-rasm. Texnologiya darslarida fanlararo bog‘lanishlar sxemasi.

Texnologiya fani darslarini boshqa fanlar bilan bog‘lanishi.

Matematika fani bilan bog‘lanishi. Texnologiya fani yo‘nalishlari bo‘yicha ko‘pgina mavzularda ham o‘lchov olish va hisoblash formulalarini tuzishda matematika fanidan olgan bilimlari kerak bo‘ladi. Masalan, servis xizmati yo‘nalishida salat, shirinlik va taomlar tayyorlash uchun kerak bo‘ladigan masalliqlar miqdorini bilish, kiyim tikish uchun qancha gazlama ketishini hisoblash, o‘lchovlar asosida andoza chizish, buyumlar yasash uchun aniq o‘lchamlar asosida ish ko‘rish uchun matematik savodxonlik ko‘nikmalari kerak bo‘ladi. Shuningdek, darsda yasash uchun berilgan buyumlarning uzunligi, eni, balandligi, yuzasi, hajmi kabi turli o‘lchamlarni aniq, qancha material sarf

[4] Karimov I.I. Qo‘qon DPI Texnologik ta’lim kafedrasi professori, p.f.n.2024-yil 6 noyabr “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida texnologiya fanini o‘qitishni takomillashtirish masalalari”, Qo‘qon davlat pedagogika instituti.


bo‘lishi va qancha sarf bo‘lishini hisoblash kabi ishlarni bajarishda ham matematikaga oid bilimlar kerak bo‘ladi.

Kimyo fani bilan bog‘lanishi. Texnologiya fani darslarida o‘quvchilarga materiallarga ishlov berish mavzulariga oid bilimlar ham beriladi. Ularning bu sohadagi bilim, ko‘nikmalarini kengaytirishda kimyoviy usulda olinadigan materiallar, jumladan, sun’iy ipak, tolalar, plastmassalar, polimerlar, plyonkalar, shisha, sun’iy kauchuk va boshqa shu kabilar haqida ham ma’lumotlar berib borish kerak bo‘ladi. Amaliy mashg‘ulot darslarida shu turdagi materiallarning olinishi va ishlatilishini moddalarning kimyoviy tarkibi va xususiyatlarini amaliy tarzda ko‘rsatib tushuntirilsa yaxshi natija beradi. Yog‘ochlarga ishlov berish texnologiyasi mavzularida ko‘p qo‘llaniladigan materiallardan yelim, bo‘yoq, lak, atseton kabi biriktiruvchi, pardoz va erituvchi materiallarning hosil qilinishi, ishlatilishi hamda ulardan foydalanishdagi sanitariya gigiena va xavfsizlik texnikasi qoidalari haqida ham alohida to‘xtalib o‘tish zarur hisoblanadi.

Tasviriy san’at fani bilan bog‘lanishi. Texnologiya fani darslarida tasviriy san’at fanining o‘rni benihoya kattadir. Chunki amaliy mashg‘ulot darslarida biror kiyimni tikish yoki biror buyumni yasashdan oldin uning xomaki tasviri yoki eskizi chiziladi va o‘quvchilarga shu asosida o‘rgatiladi. O‘quvchilar ham ana shu tasvir, eskizlarni daftariga ko‘chirib chizib oladi va ana shu rasmlar orqali o‘sha kiyim detallari yoki buyum to‘g‘risidagi m’lumotlarga ega bo‘ladi. Masalan, servis xizmati yo‘nalishida o‘quvchi qizlar tikuvchilik, modellashtirish mavzulari orqali turli kiyim va milliy liboslarni tikib o‘rganish jarayonida kiyimlar eskizlarini chizib o‘rganadilar, modellashtiradilar. Natijada fanlar o‘zaro bog‘langan holda o‘rganiladi. Aslida rasm chizish hamma o‘quvchilar uchun ham oson ish hisoblanmaydi, shuning uchun o‘qituvchi rasmlarni chizishdagi ish ketma-ketligini qismlarga bo‘lib soddaroq tarzda tushuntirishi lozim bo‘ladi.

Chizmachilik fani bilan bog‘lanishi. Yuqori sinflarda texnologiya dizayn yo‘nalishining ko‘pgina mavzularini chizmachilik fanisiz tasavvur etib bo‘lmaydi va bu juda muhim hisoblanadi. Chunki ushbu yo‘nalishda har bir buyum va detalning texnologik xaritasini tuzish hamda uni yasashdan oldin buyum chizmasini o‘qish ham kerak bo‘ladi. Shu sababli texnologiya fani o‘qituvchisi 5-sinfdan boshlab chizmachilik asboblari bilan qisman bo‘lsa-da tushunchalar berib borishi kerak bo‘ladi. Chunki, o‘quvchilarning amaliy mashg‘ulot darslarida yasagan buyumlarining sifati ko‘p jihatdan ularning chizmachilik faniga oid olgan bilim va shakllangan ko‘nikmalariga bog‘liq ekan. Shu orqali o‘quvchilarga muhandis arxitektorlik kasblari haqidagi dastlabki bilimlar ham berib boriladi.

Fizika fani bilan bog‘lanishi. Texnologiya fani amaliy mashg‘ulot darslarida turli materiallarga ishlov berishdan oldin ularning fizikaviy xossalarini bilish zarur. Masalan, metall qizdirilganda, undan issiqlik yoki elektr toki o‘tganda, metallga magnit ta’sir ettirilganda uning tarkibi o‘zgarmaydi, har qanday metall o‘ziga xos yaltiroqlikka ega bo‘ladi. Metallarning rangi o‘zgarib qolishi, metallarning issiqlik, nur o‘tkazuvchanligi, o‘tkazmasligi, sekin va tez qizishi, issiqlik ta’sirida o‘lchamlari o‘zgarishi mumkinligi, umuman olganda materiallarni fizikaviy xususiyatiga ko‘ra farqlarini bilishi kerak bo‘ladi. Bulardan tashqari, texnologiya fani darslarida materiallardan dastlabki asboblar yoki dastgohlar yordamida turli buyumlar yasashda, asboblarni sozlashda harakat turlari, kuch, bosim, quvvat, energiya, ish, ishqalanish kabi fizik tushunchalardan ham keng foydalanishga to‘g‘ri keladi. Bundan kelib chiqib texnologiya fani, asosan amaliy mashg‘ulot darslarida fizika fani bilan bog‘langan holda tashkil etilar ekan.



2-rasm. 6-sinf. Svetofor yasash va dasturlash mavzusi

Informatika fani bilan bog‘lanishi. Bugungi kunda texnologiya fani darslarida ham bir qancha zamonaviy mavzular o‘tilmoqda. Bu esa Texnologiya fani darslarini informatika fani bilan bog‘liqligini yanada kuchaytirdi desak xato bo‘lmaydi. Chunki zamon talablaridan kelib chiqib shahar va qishloqlarda yangi-yangi, kichik, o‘rta korxonalar ish boshlamoqda va shu ishlab chiqarish muassasalarida zamonaviy avtomatik boshqarish tizimlaridan foydalanishga katta e’tibor berilmoqda. Shuning uchun texnologiya fani darslarida o‘quvchilarning elektron hisoblash mashinasi va informatika fani bo‘yicha olgan bilim, ko‘nikmalarini hisobga olgan holda ularni ishlab chiqarish jarayonida qo‘llashga oid tushunchalarni berib borish lozim bo‘ladi. Bundan tashqari yoshlarimiz juda qiziqadigan soha, robototexnika mavzularini o‘rganish uchun ham o‘quvchilarda informatika faniga doir bilim va ko‘nikmalarining borligi muhim sanaladi. Aynan amaliy mashg‘ulot darslari davomida maxsus dasturlar yordamida turli qurilmalarni yasash, ularni harakatlantirish, ishga tushirish mashg‘ulotlari amaliy bajariladi. Texnologiya fani o‘qituvchisi elektrotexnika, robototexnika mavzularini tushuntirish davomida qisqacha informatika faniga doir bilimlarni berib borishi foydali bo‘ladi.

Ekologiya bilan bog‘lanishi. Texnologiya fani amaliy mashg‘ulot darslarida mavzuga qarab turli ish asboblari, turli xil xomashyo va materiallardan foydalaniladi. Fan o‘qituvchisi darslar davomida o‘quvchilarga tejamkorlik, ish asboblaridan foydalanib buyumlarga ishlov berishda e’tiborsizlik qilmaslik, pala-partish foydalanishning oqibatlari, ekologiya muammolari haqida qisqacha ma’lumotlar berib borishi hamda o‘quvchilarga ishlatish uchun qog‘oz, gazlama, yog‘och, metall, plastmassa kabi materiallarni berayotganda nima uchun bu xomashyolarni tejamkorlik bilan ishlatish zarurligi haqida hayotiy misollar bilan tushunchalar berib borishi kerak. O‘quvchilarga bu materiallarning uzoq davrlar mobaynida va qanday yo‘llar bilan vujudga kelishini hamda tabiatga qanchalik zarar ko‘rsatishini yoki bog‘liqligini gapirib o‘tish zarur.

Yuqorida aytilgan fikrlar texnologiya fanidagi fanlararo uzviy bog‘lanishlar ta’lim samaradorligini oshirishdagi muhim omil ekanligini ko‘rsatadi. Ma’lumki, bitta darsni birdaniga hamma fanlar bilan bog‘lab o‘tib bo‘lmaydi, balki o‘rganilayotgan mavzuga mos keluvchi tushuncha va ma’lumotlarni tanlab olib, zarur paytda ulardan foydalaniladi.

Shuningdek, texnologiya fani darslarida boshqa fanlar, jumladan chet tili, iqtisod kabi fanlardagi tushunchalardan ham keng foydalanish mumkin, ammo aytib o‘tilgan bu ishlarni birgina texnologiya fani o‘qituvchisining o‘zi uddalay olmaydi. Amalga oshirilishi zarur bo‘lgan ishlarni barcha fan o‘qituvchilari birgalikda amalga oshirishida yaxshi natija beradi. Buning uchun o‘quv yili boshida maktabda o‘qitiladigan fanlarning muallimlari o‘zaro kelishilgan holda yakdil bo‘lib birgalikda o‘quv rejasi tuzishlari, bajariladigan va bajarilgan ishlari yuzasidan metodik birlashmalarning yig‘ishlarida tahlillarni muhokama qilib turishlari, o‘zaro tajriba almashib borishlari samaraliroq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-53-son qarori. - https://lex.uz/ru / docs/6787995.

2. Книгин А.Н. Междиссиплинарност: Основная проблема. Вестник Томского Государственного университета 2008 Философия. Сотсиология. Политология №3(4)Удк 1:001; 001.8.

3. Alovddinova N.M. “Zamonaviy ta’lim” ilmiy-amaliy ommabop jurnali, UO‘K: 371.132 httpS://doI.oRg/10.34920/So/voL_2024_ISSUe_7_2 2024-yil №7 10-15-betlar.

4. Karimov I.I. Qo‘qon DPI Texnologik ta’lim kafedrasi professori, p.f.n.2024-yil 6 noyabr “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida texnologiya fanini o‘qitishni takomillashtirish masalalari”, Qo‘qon davlat pedagogika instituti.

5. 2018.02.007. Kasivin I.T. Sotsialnaya filosofiya nau-ki i kollektivnaya epistemologiya. – M.: Ves mir, 2016. – 262 s.

6. Педагогические науки. Педагогика № 15удк 373.5.1 Интердис-сиплинарност как принсип обучения в современном образователном протсессе е.А. Кущина (Витебский государственный университет им. П.М. Машерова).

Saida SULTANOVA,
“Alfraganus University” nodavlat oily ta’lim muassasasi,
‘‘Filologiya’’ fakulteti, katta o‘qituvchi

BADIIY TARJIMANI O‘RGATISHDA TIZIMLI VA INTEGRATIV YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Maqolada badiiy tarjima ta’limida tizimli va integrativ yondashuvlar, ya’ni ko‘nikma va faoliyat turlariga asoslangan diskursiv, kontekstual va ijtimoiy-madaniy yondashuvlar haqida alohida fikr yuritilgan. Shuningdek, badiiy matnlarni tarjima qilishda tarjimon qaysi strategiyaga amal qilishini muhimli va tarjima qilinayotgan til madaniyatiga moslashadigan xonakilashtirish strategiyasi, tarjimon muallifning uslubi va voqeligini saqlab qoladigan va natijada o‘quvchini boshqa madaniyatga kiritadigan forenizatsiya strategiyasi muhokama qilingan.

Tayanch so‘zlar. Kasbiy kompetentlik, integrativ yondashuv, lingvistik omillar, ekstralingvistik omillar, kommunikativ yondashuv, diskursiv tahlil.

В статье особое внимание уделено системным и интегративным подходам в художественном переводческом образовании, то есть дискурсивным, контекстным и социокультурным подходам, основанным на навыках и видах деятельности. Также обсуждалась стратегия одомашнивания, при которой важно, какой стратегии следует переводчик при переводе художественных текстов, и которая адаптируется к культуре переводимого языка, стратегия форенизации, при которой переводчик сохраняет стиль и реальность автора и, следовательно, вводит читателя в другую культуру.

Ключевые слова. Профессиональная компетентность, интегративный подход, лингвистические факторы, экстралингвистические факторы, коммуникативный подход, дискурсивный анализ.

The article focuses specifically on systematic and integrative approaches to artistic translation education, namely discursive, contextual and socio-cultural approaches based on skills and types of activities. Also discussed in the translation of artistic texts is the domestication strategy, which adapts to the culture of the language in which the translator follows which strategy, the forenization strategy, which preserves the style and reality of the translator author and, as a result, introduces the reader into another culture.

Key words. Professional competence, integrative approach, linguistic factors, extralinguistic factors, communicative approach, discourse analysis

Zamonaviy yondashuvlarning asosi tarjima ta’limining ikki yo‘nalishini birlashtirishda o‘z aksini topgan, ya’ni lingvistik omillarga (nutq obyekti, nutq vaziyatining shartlari, muloqotning asosiy maqsadi) qaratilgan an’anaviy yondashuv va ekstralingvistik (asl matn tilida so‘zlashadigan xalqlar madaniyatiga oid) omillarga qaratilgan kommunikativ yondashuv.

Badiiy tarjimani o‘rgatishda tizimli va integrativ yondashuvlar alohida o‘rin tutadi ya’ni malakaga va faoliyatga asoslangan diskursiv, kontekstual va ijtimoiy-madaniy yondashuvlar.

Birinchi yo‘nalish – tarjimani lingvistik transformatsiya sifatida taqdim etish, ikkinchi yo‘nalish – tarjimani semantik transformatsiya sifatida taqdim etish. Tarjimani lingvistik transformatsiya sifatida taqdim etishning mohiyati asl matnni lingvistik tahlil qilish va o‘zga tildagi ekvivalentlarni tanlay bilishdan iborat bo‘lib, bu yo‘nalish olimlar G. Yeger, J.P. Vine, J. Darbelne, A.V. Fedorov, Dj. Ketford, L.S. Barxudarov, O. Kade, V.N.

Komissarov Ya.I. Retsker, A.D. Shveytserlar tomonidan ilgari surilgan.

Tarjimani semantik nuqtai nazardan ko‘rib chiqishga asoslangan ikkinchi yo‘nalishda tarjimondan madaniyatlararo va kommunikativ jihatlarni hisobga olgan holda matnni tahlil qilish qobiliyati talab etiladi. Ikkinchi yo‘nalish kesimida olib borilgan ishlarga to‘xtalib o‘tsak, K. Rays va X. Fermeerlarning skopos nazariyasi, K. Nordning funksional yondashuvi, V. V. Sdobnikovning kommunikativ-funksional yondashuvi, A. G. Minchenkovning kognitiv-evristik tarjima modeli, Z.D.Lvovskayaning kommunikativ-funksional tarjima tushunchalari xususida so‘z yuritish ayni muddaodir. Skopos nazariyasining asosiy yo‘nalishiga ko‘ra tarjima faoliyat turi sifatida o‘z maqsadi va vazifasiga va o‘z auditoriyasiga egadir. Nazariyaga ko‘ra matn tarjimasi maqsadli ravishda, ya’ni maqsadli auditoriya ehtiyojlariga, jumladan madaniyati, qadriyatlari va odob-axloq me’yorlariga moslashtirilgan holda yaratilishi lozim. Skopos nazariyasida asl matn ekvivalentlikka asoslangan tarjima nazariyalariga qaraganda pastroq maqomga ega. Tarjimaning kognitiv-evristik modeli tarjima faoliyatini murakkab fikrlash jarayoni sifatida talqin etadi va asl matnni idrok etgan va asl matn ma’nosini saqlagan tarzda o‘zga tilda matnni yangitdan gavdalantirish g‘oyasini ilgari suradi. Z.D.Lvovskayaning kommunikativ - funksional tarjima tushunchalari xususida so‘z yuritsak olim fikricha tarjima - bu inson faoliyati bo‘lib, tarjima jarayonida ma’lumotni qayta ifodalashda nafaqat tillararo til belgilari, balki turli madaniyatlar, shaxslar, millatlar, fikrlar o‘rtasida ham to‘qnashuvlar ham sodir bo‘ladi.

Darhaqiqat sifatli tarjima mahsulotiga erishishda yuqorida qayd etilgan ikki yo‘nalish asosidagi integrativ yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi, aks holda tarjimaning sifati past bo‘lishiga olib keladi va tarjima mazmuniga putur yetadi. Badiiy tarjima jarayonida matn mazmunini saqlash lingvistik va ektralingvistik omillarga bog‘liq. Badiiy matnning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda lingvistik va ektralingvistik omillar tarjima jarayonida optimal hisoblangan tarzda tarjima jarayonini muvaffaqiyatli natijaga olib keladi. Badiiy asarda nutqning o‘ziga xosligi to‘liq bajariladi va tarjima jarayonida diskurs asosida shakllanadi. O‘quv jarayonining tashkil etilishi belgilangan maqsad bilan aniqlanadi. Matnning diskurs tahlili asosida badiiy tarjimaga o‘rgatish jarayonining asosiy maqsadi tarjimonning kasbiy mahoratini shakllantirishdir. Diskurs tahlil xususida to‘xtaladigan bo‘lsak, Grigoreva V.S. o‘z monografiyasida diskurs tahlil matn maqsadiga ko‘ra to‘rt turga bo‘linshini qayd etadi, ya’ni argumentativ, informatsion, ekspressiv va sotsial-ritual turlarga.

Badiiy matn tarjimasiga o‘rgatishda sotsial (ijtimoiy) ritual diskursning ham o‘z o‘rni borligini yuqorida ta’kidlab o‘tgan edik. Sotsial-ritual diskurs muloqotning an’anaviy (konvension) shaklida namoyon bo‘ladi. An’anaviy (konvension) shakl bu muloqotning ma’lum bir jamiyatda qabul etilgan shakli bo‘lib, turli marosimlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Marosim an’anaviy tarzda mustahkamlangan, ramziy ahamiyatga ega bo‘lgan harakatlar ketma-ketligidir. Ijtimoiy-ritual diskursning o‘ziga xos xususiyatlari bu mazmuning takrorlanishi va rasmiy muqimlikdir. Bu esa o‘z navbatida tarjimonga yengillik tug‘diradi. Tarjimon asl matndagi turg‘un iboralarni tarjima tilidagi muqim iboralarga almashtirish bilan kifoyalansa bo‘ladi. Chunki muqim iboralar kitobxonlarga yaxshi tanishdir. Muqim iboralarni tarjima qilishda dekodlash zaruriyati yo‘q, ya’ni ma’lumotni tahlil qilish va sintezlash jarayoni. Muqim iboralarni yod bilishda lingvodidaktik mashqlarning o‘rni beqiyosdir. Lingvodidaktik vazifalarni bajarish orqali tarjimon o‘zga tildagi muqim iboralarni eslab qoladi va o‘z ona tilidagi ekvivalentlari bilan tarjima jarayonida almashtira oladi.

Amerikalik tadqiqotchi Yudjin Nayda nazariyasiga ko‘ra tarjima jarayonida to‘liq ravishda aniq tarjimaga erishish mumkin emas. Nayda tarjima matni asl matnga juda yaqin bo‘lishi mumkin, biroq tafsiloti bir xil bo‘lmaydi degan g‘oyani ilgari suradi. Nayda ta’kidlashicha tarjimaning so‘zma-so‘z tarjima turidan tortib erkin ibora ishlatilishi mumkin bo‘lgan turigacha mavjud. Naydaning fikriga ko‘ra matn tarjimasini amalga oshirishda tarjimaning qanday turini tanlash uch omilga bog‘liq. Bu omillar xabarning mohiyati, muallif va tarjimonning maqsadi va auditoriya.

Darhaqiqat, badiiy matn tarjimasida Nayda tomonidan keltirilgan uch omil juda muhim. Tarjimon ma’lum bir auditoriyaga mo‘ljallangan asl matn muallifi tomonidan qo‘yilgan maqsadni tarjima matnida to‘g‘ri talqin qila oladimi va qabul qiluvchi auditoriyada ham asl matnni qabul etgan auditoriyadagi kabi taassurot uyg‘ota oladimi? Bu savolga hanuz aniq javob yo‘q, biroq ma’lum bir darajada buni tahlil etish orqali aniqlash imkoni bor. Bunday tahlil posttarjima ya’ni tarjimadan keyingi tahlil bo‘lib, tarjimaga o‘rgatish jarayonida keng ko‘lamda qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Bu tahlil bo‘lajak tarjimonlarga tarjima transformatsiyalarini qo‘llash samaradorligi va qanday strategiyani tanlash to‘g‘riligi xususida mustaqil ravishda xulosa chiqarish imkonini beradi. Shuni ta’kidlash lozimki, bugungi kunda tarjima strategiyalari, tarjima strategiyalariga o‘rgatish masalalari dolzarb masalalardan biridir. Tarjimada strategik prognozlashdagi xatti-harakatlar, usullardan xabardor bo‘lish bo‘lajak tarjimon tafakkurining diskursiv xususiyatini shakllantiradi.

Professonal tarjimonlarni tayyorlashda tarjimaning o‘ziga xos tushuncha va mohiyatlarini anglash, tegishli ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va o‘quv nazariyasinig maxsus bo‘limi tarjima didaktikasini yaratish zaruriyati katta ahamiyat kasb etadi. Tarjima maktablari sa’yi-harakatlari bilan tarjimashunoslikda didaktik tizim shakllandi va bu o‘z navbatida turli oilalarga mansub bo‘lgan tillararo muloqotni shakllantirish va ta’minlashda mukammal vazifalarni bajara oladigan professonal tarjimonlarni tayyorlash imkonini berdi.

Bugungi kunda tarjimonlarni tayyorlash jarayoniga innovatsion tarzda yondoshgan holda an’anaviy milliy ta’lim tizimi va chet el tarjima maktablari o‘rtasidagi aloqa nuqtalarini topish va yetishtirilgan tarjimon kadrlar o‘rtasida raqobatbardoshlikni nafaqat kamaytiribgina qolmay, balki oshirishga qaratilgan samarali metodini yaratish lozim.

Ma’lumki madaniyatlararo muloqotda tarjimonlar madaniyatlar vositachisi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu boisdan ular muayyan lingvomadaniy bilim, ko‘nikma, hamda malakalarga ega bo‘lishlari zarur. Mazkur bilimlar integrativ xarakterga egadir. Badiiy tarjimaga o‘rgatishda tarjimonlik faoliyati lingvomadaniyatshunoslik prizmasi (nuqtai nazari) orqali ko‘rib chiqiladi, rivojlantiriladi, hamda bo‘lajak tarjimonlarning xorijiy tildagi muloqot kompetensiyalari ya’ni lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv, strategik, ijtimoiy, bilish, anglash kabi kompetensiyalar takomillashtiriladi. Badiiy tarjimaga o‘rgatish jarayoni maqsadi C1 daraja talabalari tarjimonlik faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan professional kompetentlik bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qilishiga erishishdir.

Professonal kompetentlikga erishishda zamonaviy tarjima metodlarini o‘quv jarayoniga tatbiq eta olish, tarjima qilingan asarlarni originali bilan solishtirib tahlil qilish, tarjima tadqiqodlari metodikalaridan unumli foydalanish, qilingan tarjima sifatini aniqlash, turli janrlarga oid badiiy matnlarni leksik-semantik tahlil qilish va matndagi grammatik qonuniyatlarini aniqlay bilish, chet va ona tilidagi leksik va grammatik mutanosibliklarni farqlay olish, zamonaviy va an’anaviy usullarni o‘rgatish, tarjima matnlarini asliyat bilan qiyoslab tanqidiy tahlil qilish tamoyil va uslubiyatini bilish, tarjima jarayoniga ta’sir

etuvchi omillarni ko‘ra bilish zarur.

Badiiy tarjimaga o‘rgatish jarayoni madaniyatlararo muloqat nazariyasining ilmiy apparati, unda qo‘llanadigan asosiy yondashuvlar va qonun-qoidalari bilan tanishtirish, madaniyatlararo muloqat nazariyasi muammolari bo‘yicha mustaqil ta’lim qo‘nikma va malakalarini rivojlantirish, lingvomadaniyatshunoslikning qonun-qoidalari hamda tadqiqot birliklari bilan tanishtirish va C1 daraja talabalarining bu haqidagi bilimlarini chuqurlashtirishdan iborat. Shuni ta’kidlash kerakki, bugungi kunda madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda badiiy tarjima madaniyatararo muloqot vositalaridan biridir.

Bugungi kunda jahonda ta’limga kompetentli yondashuv asosida bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, kadrlarning kreativ kompetentligini rivojlantirish orqali ijodiy ta’lim jarayonini loyhalashtirishning zamonaviy metodik ta’minotini yaratish, talabalarda kasbiy faoliyat sohalariga yo‘naltirilgan kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek oliy ta’limning ta’lim sifatini ta’minlash jarayonidagi ijtimoiy rolini oshirish masalalari dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda. Ana shu nuqtai nazardan ilg‘or xorijiy tajribalar asosida zamonaviy professional ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, kompetensiyalarga asoslangan innovatsion ta’lim muhitini shakllantirish, interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalarini amaliyotga keng tatbiq etishda lingvodidaktik asoslar mavjudligi talabalarda bilim va ko‘nikmalarni takomillashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Kasbiy kompetentlik – kasbiy faoliyatga oid masalalarni hal etishda bilim va ko‘nikmalarni amaliy tajribada samarali qo‘llay olish qobiliyatidir. O‘quv jarayonidagi kasbiy kompetentlik talabalar tomonidan kasbiy ko‘nikma va bilimlarni muvaffaqiyatli ravishda o‘zlashtirishida pedagoglar oldiga zamon talabiga javob bera oladigan mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo‘yadi. Biz paragafimizni rossiyalik tadqiqotchi olimning quyidagi fikri bilan yakunlashni lozim topdik. Bo‘lajak tarjimonlarni kasbiy tayyorlash muammosini o‘rganayotgan xorijiy ekspertlar tarjimonlar kasbiy kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismi tarjima kompetensiyasi bo‘lib, u o‘z ichiga lingvistik kompetensiyani, ekstralingvistik omillarni, ma’lumotlarni uzatish qobiliyatini, strategik va diskurs kompetensiyalarni olishi kerakligini ta’kidlaydilar.

Badiiy matnlarni tarjima qilishda tarjimon qaysi strategiyaga amal qilishini hal qilish muhim. Biz quyidagilarga alohida urg‘u berishni taklif etgan bo‘lardik – mahalliylashtirish (domestikatsiya) strategiyasi bo‘lib, unda tarjima maqsadli til madaniyatiga moslashtiriladi va forenizatsiya strategiyasi, bunda tarjimon muallifning uslubi va realiyalarni saqlab qoladi, va natijada o‘quvchini boshqa madaniyatga cho‘mdiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, asarning badiiy-estetik o‘ziga xosligini saqlab qolish uchun tarjimon mavjud strategiyalarni uyg‘unlashtirishi zarur.

Mahalliylashtirish strategiyasi – bu asl matnning maqsadli til madaniy qadriyatlariga moslashtirilgan yondashuv, ya’ni maqsadli til madaniyati birinchi o‘ringa chiqadi va tarjima matni kitobxonga imkon qadar moslashadi, kitobxon esa matnni o‘zga madaniyatga oid mant emas, balki o‘z madaniyatiga oid matndek deb qabul qiladi. Tarjimon tarixiy va madaniy hodisalarni o‘rganilayotgan til madaniyatida mavjud bo‘lgan o‘xshash tushunchalar bilan almashtiradi va o‘ziga yanada erkin tarjima qilish imkonini beradi, natijada kitobxonga yaxshi ma’lum bo‘lgan realiyalar va tarjima matni osonlik bilan qabul qilinadi.

L. Venuti tarjimonning “ko‘rinmasligi” tushunchasiga alohida ahamiyat beradi. Uning fikricha tarjima matnidagi xorijiy elementlarning soni minimal darajaga tushganligi sababli, bunday tarjima yanada “shaffof”, ya’ni oson qabul qilinadi. O‘quvchi tarjima matnini qanchalik oson qabul qilsa, tarjimon shunchalik ko‘rinmas bo‘lib qoladi va

matn muallifi shunchalik ko‘zga tashlanadi. Shunday qilib, mahalliylashtirish strategiyasining muhim tarkibiy qismlari idrok etish qulayligi, tarjima matnining “shaffofligi” va tarjimonning “ko‘rinmasligi” hisoblanadi.

Ushbu strategiyani tanlashda tarjimon tomonidan qo‘llaniladigan transformatsiyalar modulyasiya, tavsifiy tarjima, maxsuslashtirish (specification), umumlashtirish (generalization), tushirib qoldirish (omission), qo‘shish (addition), almashtirish (replacement) va boshqalar deb hisoblash mumkin.

Forenizatsiya strategiyasi tarjimonning muallif uslubini saqlab qolgan holda va manba tilidagi matn madaniyatida mavjud xususiyatlarni ta’kidlagan holda ro‘y beradi. Asl nusxaning madaniy o‘ziga xosligi va xususiyatlari minimal miqdordagi o‘zgarishlarga uchraydi, buning natijasida asarning boshqa xorijiy madaniyatga tegishliligi yaqqol namoyon bo‘ladi va tarjima matni asl nusxa sifatida emas, balki tarjima sifatida o‘qiladi. Bu strategiyada transkripsiya, transliteratsiya va kalk kabi transformatsiyalar qo‘llaniladi.

Mahalliylashtirish va forenizatsiya strategiyalarini tarjimada sof shaklda topib bo‘lmaydi. Tadqiqotchilarning u yoki bu strategiyadan foydalanishni qo‘llab-quvvatlovchi kategoriyaliligi ularni tarjimon o‘z oldiga qo‘ygan vazifalar asosida ma’lum nisbatda birlashtirish yoki ishlatish mumkinligi haqida munozaralarni keltirib chiqardi.

Shunday qilib, ko‘plab tadqiqotchilar tarjimonning ikkala strategiyani birlashtirish istagidan iborat bo‘lgan “uyg‘unlik” mavjudligi xususida mulohaza yuritgan holda, strategiyalar bir-biridan keskin farqlansada, tarjimada bir-biriga zid bo‘lmasligini ta’kidlaydilar. Biz ham bu fikrga to‘liq qo‘shilamiz, badiiy matnni tarjima qilish strategiyasining mohiyati tarjimon faoliyatini rejalashtirishdan kelib chiqadi. Strategiyani shakllantirishda tarjimon asl nusxaning ustuvor bo‘ladigan va tarjima paytida iloji boricha aniqroq yetkazilishi kerak bo‘lgan xususiyatlarini ajratib ko‘rsatishi kerak, har bir aniq holatda strategiya va tarjima usullarini tanlash tarjimonga va u o‘z oldiga qanday global maqsad qo‘yganiga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Артемьева И.Н. Теория и практика перевода: учеб. пособие. – СПб.: РГГМУ, 2020. – 130 с.

2. Григорьева, В.С. Дискурс как элемент коммуникативного процесса: прагмалингвистический и когнитивный аспекты: монография – Тамбов: 2007. – 288 с.

3. Львовская З.Д. Современные проблемы перевода. К вопросу о периодизации переводческой мысли. М.: Издательство ЛКИ, 2014. 224 с.

4. Минченков А. Г. Когниция и эвристика в процессе переводческой деятельности. СПб: Антология, 2007. – 256 с.

5. Самигуллина А.М. Современные подходы в профессиональной подготовке будущих переводчиков // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 3.; URL: https://science-education.ru/article

6. Сдобников В.В. Перевод и коммуникативная ситуация. - М.: ФЛИНТА: Наука, 2015. - 448 с

7. Синев А.Э., Крапивкина О.А. О культурных ценностях в переводе: Доместикация vs. форенизация // European Student Scientific Journal. - 2014. - №3.

8. Федоров А.В. Основы общей теории перевода (лингвистические проблемы): для институтов и фак. иностр. яз. - М.: Изд. дом “Филология три”, 2002. - 416 с.

Dilnoza BADRIDDINOVA,
"Toshkent kimyo xalqaro universiteti" nodavlat oliy ta'lim muassasasi, "Pedagogika fanlari" kafedrasi, mustaqil izlanuvchi

BADIIY TARJIMANI O'RGATISHDA TIZIMLI VA INTEGRATIV YONDASHUVLAR MAQOLLARDA ODOB-AXLOQ VA TARBIYA TAMOYILLARINING TA'RIFI

Annotatsiya

Maqolada odob-axloq va tarbiya har qanday jamiyat hayotida muhim o'rin tutishi, insonning shaxsiy kamoloti, ijtimoiy munosabatlari va umumiy madaniyat darajasini belgilovchi asosiy omil ekanligi keng muhokama qilingan. Shuningdek, maqollar orqali odob-axloq va tarbiya tamoyillarining ta'rifi, ularning mazmun-mohiyati va bugungi jamiyat hayotidagi ahamiyati ilmiy nuqtai azardan yoritib berilgan. Muallif maqol badiiy obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so'z bo'lgani uchun undan keng foydalanilishi haqida fikrlar bildirilgan.

Tayanch so'zlar. Didaktika, nafosat tarbiyasi, an'anaviylik, zamonaviylik, empirik pedagogik tajribalar, rivojlantiruvchi maqsad.

ВВ статье широко обсуждается, что нравственность и воспитание играют важную роль в жизни любого общества, являются ключевыми факторами, определяющими уровень личностной зрелости, социальных отношений и общей культуры человека. Также в пословицах излагается определение принципов нравственности и воспитания, их содержание и значение в жизни современного общества с научной точки зрения. Автор высказывал мнение, что пословица-это мудрое слово, состоящее из художественных образных рассуждений, поэтому его широко используют.

Ключевые слова. Дидактика, воспитание утонченности, традиционализм, современность, эмпирические педагогические эксперименты, развивающая цель.

The article extensively discusses the importance of etiquette and upbringing in the life of any society, the fact that it is the main factor that determines the level of personal maturity, social relations and general culture of a person. Also, through proverbs, the definition of the principles of etiquette and upbringing, their meaning and significance in the life of today's society is illuminated from the scientific point of view Azar. It has been suggested that since the author's proverb is a wise word consisting of artistic figurative reflections, it is widely used.

Key words. Didactics, elegance education, traditionalism, modernity, empirical pedagogical experiments, developing goal.

Maqol badiiy obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so'z bo'lgani uchun unda keng foydalaniladi. Maqol tarkibini o'rganar ekanmiz, xalq og'zaki ijodining namunasi qisqa va lo'nda ixcham ma'nolarni o'zida aks ettiradigan janrligi va ularda ko'proq moddiylikdan ko'ra ma'naviy ehtiyoj muhimroq ekanini ta'kidlash joiz. Maqollar xalq og'zaki ijodi janri; qisqa va lo'nda obrazli va obrazsiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma'noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli so'zlardir. Maqollar muayyan aniq shaklga ega hisoblanadi. Odob va axloq tushunchalari odatda insonning xulq-atvori, boshqalarga munosabati va o'zini tutish qoidalarini anglatadi. Bu tushunchalar yuksak insoniy qadriyatlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Xalq maqollarida odob-axloq mavzusi juda keng qamrab olingan. Quyidagi maqollar bunga yorqin misoldir:

“Odob – yaxshi ko‘rki insonning.” “O‘zingni bil, o‘zgani hurmat qil.”

Ushbu maqollar odobli bo‘lish nafaqat insonning ichki kamoloti uchun, balki ijtimoiy muhitda hurmatga sazovor bo‘lishi uchun ham zarurligini ko‘rsatadi. Inson o‘zining ichki dunyosini boyitish va boshqalarga nisbatan hurmat bilan yondashish orqali jamiyatda obro‘ga ega bo‘ladi. Ayrim maqollarda esa insoniylik va hurmat ko‘rsatishning ijtimoiy munosabatlarga ta’siri aks ettiriladi:

“Kichikka izzat, kattaga hurmat.”, “Hurmat – olijanoblik belgisi.”

Mazkur maqollardan ko‘rinib turibdiki, axloq qoidalari avvalo oilada, so‘ngra jamiyatda mustahkamlanadi. Tarbiya avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy merosni uzviy davom ettirish vositasi bo‘lib, xalqning umumiy qadriyatlari va madaniyati tarkibiga kiradi. Maqollarda tarbiya qoidalari sodda, ammo chuqur mazmun bilan ifodalangan. Tarbiyaning boshlang‘ich asoslari oilada shakllanadi, bu esa quyidagi maqolda o‘z aksini topgan:

“Bolaga beshikkida berilgan tarbiya, toshga o‘yilgan naqshdek.”

Mazkur maqol tarbiyaning erta yoshdan boshlanishi va bu davrda berilgan tarbiyaning umrbod ahamiyatga ega ekanligini urg‘ulaydi. Bundan tashqari tarbiyada ota-ona va oilaning mas’uliyati haqida quyidagilarni ko‘rish mumkin:

“Ota onaning tarbiyasi – bolaga meros.”, “Nima eksang, shuni o‘rasan.”

Bu maqollar ota-ona mas’uliyatining naqadar muhim ekanligini ko‘rsatib, bolaga beriladigan tarbiya natijasida uning kelajagi shakllanishini ta’kidlaydi. Xalq maqollari odob-axloq va tarbiya tamoyillarini qisqa va mazmunli tarzda ifodalaydi. Ular o‘zbek xalqining ko‘p asrlik hayotiy tajribasi va falsafiy qarashlarini aks ettirgan holda bugungi zamonaviy tarbiya tizimining ham asosi hisoblanadi. Maqollarda aks etgan qadriyatlar oilada, jamiyatda va ta’lim muassasalarida yosh avlodni tarbiyalashda bebaho manba bo‘lib xizmat qiladi.Maqollarda odob-axloq va tarbiya masalalariga berilgan e’tibor xalqning axloqiy, ma’naviy darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu sababli bu boy merosni o‘rganish va uni keng ommaga yetkazish bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega. O‘zbek xalq maqollari ko‘p asrlik tajriba va dunyoqarashning muhim bir qismi bo‘lib, unda insonning kamolotga yetishishi, ijtimoiy munosabatlar va jamiyat hayotidagi o‘rni haqida chuqur falsafiy fikrlar mujassam. Maqollar xalq hayotining aks-sadosi sifatida inson ruhiyati, xulq-atvori, jamiyatga nisbatan munosabatini aks ettiradi. Shaxs kamoloti va ijtimoiy munosabatlar haqidagi maqollar mazmunida axloqiy-me’yoriy qadriyatlar, bilim, tarbiya, mehnatsevarlik va insoniy fazilatlar ustuvor o‘rin tutadi. Maqollarda insonning jamiyatdagi o‘rni, ijtimoiy munosabatlardagi axloqiy me’yorlar, bir-biriga yordam berish va o‘zaro hurmat qadriyatlari keng yoritilgan. Masalan, “El bilan maslahatli ish yomon bo‘lmaydi” maqoli ijtimoiy hayotda jamoa fikriga quloq solish, hamkorlikka urg‘u beradi. Jamiyatda insonlarning o‘zaro munosabatlari, mas’uliyati va birdamlik masalalari maqollarda quyidagicha ifodalangan:

“Birlikda – baraka, bo‘linishda – zavol”.

“Qo‘ni-qo‘shni yaxshi – mol-dunyodan afzal”.

Bu o‘rinda xalq tajribasi shuni ko‘rsatadiki, inson ijtimoiy mavjudot sifatida boshqalarga yordam berish, mehr-shafqat ko‘rsatish orqali jamiyatdagi mavqeini mustahkamlaydi. Axloqiy qadriyatlar shaxsning kamoloti va ijtimoiy munosabatlar jarayonida eng muhim element hisoblanadi. Maqollar axloqiy tarbiya berishda kuchli vosita sifatida xizmat qiladi. “Halol mehnat – yuksak baxt”.“Yolg‘on bilan yuz qizarguncha, rost bilan yuz kuysin”. Bu kabi maqollardan ma’lumki, halollik, rostgo‘ylik va odillik shaxsning ichki kamoloti hamda jamiyatdagi obro‘sini belgilovchi asosiy omillardir. Hozirgi zamonda maqollar faqatgina folklor asari sifatida emas, balki tarbiyaviy va ijtimoiy vosita sifatida

ahamiyatga ega. Maqollar orqali yoshlarga jamiyatdagi rolini anglash, mehnatsevarlik va bilimga intilishning ahamiyati, o‘zaro hurmat va birdamlik kabi fazilatlarni singdirish mumkin. “Mehnat qilgan – omad topadi” maqoli zamonaviy yoshlarni ishchanlik va harakat qilishga undaydi. Maqollarda shaxs kamoloti va ijtimoiy munosabatlar o‘rtasida o‘zaro mustahkam aloqalar borligi ta’kidlanadi. Jamiyatning rivoji har bir insonning yuksak axloqiy fazilatlari va faol ijtimoiy roli bilan bog‘liq. “Bir odam o‘qisa, yuz odam ziyoda bo‘ladi”. Ko‘pni bilgan kam bo‘lmas”. Bu fikrlar har bir shaxsning kamoloti ijtimoiy hayotning yuksalishi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Odob-axloq va tarbiya har bir jamiyatning asosiy ma’naviy boyligi hisoblanadi. Bu tamoyillar insonlar o‘rtasidagi munosabatlarda hurmat, samimiyat, va adolatni ta’minlashga xizmat qiladi. O‘zbek xalq maqollari esa ana shu qadriyatlarni yuksak saviyada ifodalab, odob-axloq va tarbiya borasidagi chuqur falsafiy qarashlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Tarbiyaning ahamiyati maqollarda keng yoritilgan. Tarbiya – avlodlar o‘rtasida madaniyat va ma’naviyatni uzviy bog‘lovchi omil hisoblanadi. “Yaxshi niyat – yarim davlat” degan maqolda esa tarbiya va yaxshi niyatning inson hayotidagi muhim roli ifodalangan. “Bolaga berilgan tarbiya – oltin xazina” maqoli esa tarbiya nafaqat oilada, balki butun jamiyatda ham muhim o‘rin tutishini bildiradi. Farzand tarbiyasi – kelajak avlod ma’naviyatining asosi, shu bois har bir ota-ona va jamiyat vakillari tarbiyaga alohida e’tibor qaratishi lozim. Maqollarda odob va tarbiya tamoyillari quyidagicha ifodalanadi: hurmat va kamtarlik: “Kattaga hurmat – kichikka izzat” maqoli har bir insonning o‘zidan katta va kichiklarga bo‘lgan munosabatini belgilaydi. Hurmat va izzat jamiyatni mustahkamlovchi asosiy qadriyatlardan biridir.

Mehnatsevarlik va halollik:

“Mehnat qilgan – omad topgan” degan maqolda halol mehnatning inson hayotidagi o‘rni va ahamiyati ochib berilgan. Bu tarbiya tamoyili yoshlarga halollik va mehnatsevarlikni o‘rgatadi. Oila va jamoatchilik qadriyatlari: “Uyda nima bo‘lsa, ko‘chada shu” maqoli oilaviy tarbiya va uning jamiyatdagi aks-sadosini ifodalaydi. Oilaviy tarbiya insonning jamiyatda o‘zini tutishi, odob va axloqining shakllanishida katta rol o‘ynaydi. Adolat va insoflilik: “Adolat qilgan – hurmat topgan” degan maqolda adolatparvarlik insoniy fazilat sifatida ko‘rsatiladi. Bu tamoyil jamiyatda tenglik va farovonlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Maqollarni tarbiya jarayonida qo‘llash – tarbiyaviy ishlarni yanada samarali qilishga imkon beradi. Farzandlarga maqollar orqali hayotiy saboqlarni o‘rgatish, ularni odob-axloq va ma’naviy qadriyatlar bilan boyitish mumkin. Misol uchun, “Aql – yog‘dirdir” maqoli bolalarga aql-idrokning hayotdagi muhim rolini tushuntirishga xizmat qiladi. Shuningdek, “Chiroyli so‘z – dilni yayratadi” degan maqol orqali yaxshi so‘zning kuchi va insonlar o‘rtasidagi samimiy munosabatlarning ahamiyati bolalarga singdirilishi mumkin. Odob va axloq har bir jamiyat hayotining muhim qismidir. Bu tushunchalar insoniy munosabatlarning asosiy me’zonlari bo‘lib, ular jamiyatning barqarorligi va taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. Maqollar esa odob va axloqni targ‘ib qiluvchi, o‘git beruvchi xalq donishmandligining boy merosidir. Ushbu maqolada maqollarning odob va axloq borasidagi qarashlari tahlil qilinadi va ularning zamonaviy jamiyat uchun ahamiyati o‘rganiladi. Maqollar xalq og‘zaki ijodining yuksak namunasi bo‘lib, asrlar davomida odamlarning kundalik hayotini, dunyoqarashini va qadriyatlarini ifodalaydi. “Odob bilan yuksal, axloq bilan bezan” kabi maqollar insonning ichki va tashqi go‘zalligini birgalikda rivojlantirishga chaqiradi. Bu esa, bir tomondan, jamiyatda insonlar orasidagi o‘zaro hurmatni kuchaytirsa, ikkinchi tomondan, insonning ichki dunyosini boyitadi. Maqollar orqali axloqiy qadriyatlar keng ommaga yetkaziladi. “Yaxshilik qil, suvga tashla, xalq

bilmasa, Xudo biladi” – yaxshilik qilishning uqaddasligini ta’kidlaydi. “Katta kichikka qarab o‘sar” – kattalarga hurmat va kichiklarga g‘amxo‘rlik qilish axloqiy burch ekanligini bildiradi. “Tilingni tiya olsang, dilingni toza saqlaysan” – tilning axloqiy fazilatlarni shakllantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Bu kabi maqollar insoniylikni, mehr-oqibatni va adolatni targ‘ib qiladi. Odob insonning jamiyatdagi o‘rnini belgilovchi muhim omildir. Odobli inson nafaqat o‘zini, balki boshqalarni ham hurmat qiladi. “Odobli yigit obro‘ topar, odobsiz yigit qashshoqlikka yo‘liqadi” – odobning inson hayotidagi muhim o‘rnini belgilaydi. “Kim odobdan yiroq bo‘lsa, unda baraka bo‘lmaydi” – odob baraka manbai ekanligini ko‘rsatadi. Bu maqollar odobning insoniy munosabatlarni yaxshilashdagi o‘rnini ochib beradi va yosh avlodni tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda texnologik rivojlanish va globallashuv sababli hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda texnologik rivojlanish va globallashuv sababli odob va axloqning qadriyatlari ba’zan unutib qo‘yiladi. Ammo maqollar bu qadriyatlarni saqlab qolish va yangi avlodga yetkazishda katta ahamiyatga ega. Ular: yoshlarni milliy qadriyatlarga sodiq bo‘lishga undaydi. Oilaviy munosabatlarda hurmat va mehrni shakllantiradi. Jamiyatdagi birdamlikni mustahkamlaydi. “Oila – kichik davlat” maqoli oilaning jamiyatdagi rolini ta’kidlaydi va oilaviy qadriyatlarni saqlashga undaydi. Maqollar odob va axloqni yosh avlod ongiga singdirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Ular bolalarni axloqiy me’zonlarga rioya qilishga va odobli bo‘lishga o‘rgatadi. “Hurmatga hurmat, qadrga qadr” – o‘zaro hurmatni rivojlantirishga chaqiradi. “Bolaga berilgan tarbiya – bu millatga qo‘yilgan poydevor” – tarbiya orqali milliy qadriyatlarni saqlashning muhimligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maqollardagi hikmatlar shaxs kamoloti va ijtimoiy munosabatlarning muhim jihatlarini ochib beradi. Ular insonni yaxshilikka, bilim olishga, mehnat qilishga undaydi va jamiyatdagi axloqiy qadriyatlarni mustahkamlaydi. Bugungi zamonda maqollarni yoshlar tarbiyasida, ijtimoiy muammolarni hal etishda samarali foydalanish, ularni yangi avlodga yetkazish milliy merosning davomiyligini ta’minlaydi. Maqollar – bu xalqning ming yillik tajribasidan olingan saboqlardir. Ular odob va axloqni targ‘ib qilish orqali insonlarning o‘zaro munosabatlarini yaxshilashga, jamiyatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda ham maqollardan foydalanish, ularni yosh avlod tarbiyasiga tatbiq etish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Chunki maqollarda ifodalangan odob va axloq qoidalari har qanday davrda o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. O‘zbek xalq maqollari odob-axloq va tarbiya tamoyillarining boy manbai hisoblanadi. Bu maqollar insonlarning ma’naviy kamolotiga xizmat qilib, jamiyatda ijobiy munosabatlarni shakllantiradi. Shu sababli, maqollarni tarbiya jarayonida qo‘llash orqali jamiyatimizning ma’naviy yuksalishiga erishish mumkin. Odob va tarbiyaning chuqur ildizlari xalqimizning boy merosida mujassamdir va bu qadriyatlarni asrab-avaylash har birimizning burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shirinov M. K. Umumiy pedagogika tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Yashil yaproq nashiryoti”, 2024. - 366 b.

2. Mutolipova M.J. Xalq pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. – T., 2015.

3. Mirzayev T. O‘zbek xalq maqollari – Toshkent, 2016.7-b

4. O‘zbek xalq maqollari – 1988. 2-jild.

5. Turg‘unpo‘latov Diyorbek Ro‘zmamat o‘g‘li. (2021). O‘zbek bolalar adabiyoti va Turg‘unboy G‘oyipov

6. Suvonqulova X. “O‘zbek xalq maqollari” “Adabiyot uchqunlari”, –T., 2014

Nafisa ABDULLAYEVA,
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti o'quv ishlari bo'yicha prorektori,
p.f.d. (DSc), professor
Muxtabar MARAIMOVA,
Toshkent shahridagi Mirobod tumani Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i, mustaqil tadqiqotchi.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORNING SELF MENEJMENT KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqola maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining self-management ko'nikmalarini rivojlantirish masalasiga bag'ishlangan. Shuningdek, tadqiqotda ushbu ko'nikmalarning nazariy asoslari, rahbarlikka ta'siri va rivojlantirish usullari tahlil qilingan. Ilmiy va amaliy tahlillar asosida muammolar va ularning yechimlari bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar. Self-management, maktabgacha ta'lim, rahbarlik, boshqaruv, vaqt menejmenti, stressni boshqarish, kasbiy rivojlanish.

Статья посвящена вопросу развития навыков самоменеджмента директора дошкольной образовательной организации. В исследовании проанализированы теоретические основы этих навыков, их влияние на руководство и методы развития. На основе научного и практического анализа даны рекомендации по проблемам и их решениям.

Ключевые слова. Самоменеджмент, дошкольное образование, руководство, управление, управление временем, управление стрессом, профессиональное развитие.

The article is devoted to the development of self-management skills of the director of a preschool educational organization. The study analyzes the theoretical foundations of these skills, their impact on leadership, and methods for development. Based on scientific and practical analysis, challenges and solutions are provided with relevant recommendations.

Key words. Self-management, preschool education, leadership, management, time management, stress management, professional development.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida rahbar kadrlarning shaxsiy va professional kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb masaladir. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim muassasasini samarali boshqarish nafaqat boshqaruv usullari va pedagogik mahoratga, balki rahbarning o'zini o'zi boshqarish (self-management) ko'nikmalariga ham bog'liqdir. Self-management tushunchasi rahbarning o'z vaqti, faoliyati, his-tuyg'ulari va rivojlanishini ongli tarzda boshqara olishi, o'zini motivatsiya qilib, professional vazifalarini amalga oshirish uchun o'ziga ta'sir o'tkaza olishi degani. Masalan, S. Kovi (1991) ta'kidlaganidek, odatda "vaqtni boshqarish" deya ataladigan mahorat aslida shaxsning o'zini boshqarishini bildiradi – ya'ni har bir insonga bir xil ajratilgan vaqtdan kim qanday foydalanishi uning o'ziga bog'liq.

Demak, maktabgacha ta’lim muassasasi direktori kabi rahbarlar uchun self-management ko‘nikmalariga ega bo‘lish o‘z vazifalarini ustuvorlik asosida safarbar etishda asosiy omildir.

Maktabgacha ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar rahbar xodimlarning shaxsiy samaradorligini oshirishni taqozo etmoqda. O‘zbekiston respublikasini rivojlantirish strategiyasida maktabgacha ta’limni yaxshilash, soha xodimlarining malakasini oshirish ustuvor vazifalardan ekani ta’kidlangan. Bugungi MTT (maktabgacha ta’lim tashkiloti) direktori nafaqat ma’muriy boshqaruvchi, balki jamoani ilhomlantiruvchi lider hamdir. U zamonaviy o‘quv-tarbiya dasturlarini joriy etish, pedagog kadrlar malakasini oshirish, ota-onalar bilan samarali muloqot qilish kabi keng ko‘lamli vazifalarni bajaradi. Bunday shart-sharoitda rahbarning o‘z-o‘zini boshqarishi ko‘nikmalari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu ko‘nikmalar rahbarga bir vaqtning o‘zida bir necha vazifalarni tizimli rejalashtirish, stressni boshqarish va o‘z maqsadlariga erishishda yordam beradi. Ushbu tezisda maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori uchun self-management tushunchasining nazariy asoslari va amaliyotdagi ahvoli o‘rganilib, mazkur ko‘nikmalarni rivojlantirish zarurati va usullari tahlil qilinadi. Avvalo, mavzuning dolzarbligi sifatida ta’kidlash joizki, samarali rahbarlik qilish uchun rahbar avvalo o‘zini boshqara olishi lozim – bu fikr xalqaro tadqiqotlarda ham uqtirilgan. Keyingi bo‘limlarda self-management nazariyalari va ularning maktabgacha ta’lim tizimidagi o‘rni yoritiladi, so‘ng sohadagi holat ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilinib, xulosa va tavsiyalar ilgari suriladi.

Menejmentga oid adabiyotlarda “o‘z-o‘zini boshqarish” tushunchasi turli nazariy qarashlarda uchraydi. Amerikalik mutaxassis P. Draker (1999) “O‘zingni boshqarish” (Managing Oneself) maqolasida zamonaviy mutaxassis o‘z faoliyati uchun shaxsan mas’ul ekani, shu bois doimiy ravishda o‘zini rivojlantirib borishi lozimligini ta’kidlaydi. Drakerning fikricha, har bir inson o‘z kuchli tomonlarini, qadriyatlarini yaxshi anglab, ulardan maksimal foydalanish orqali kasbiy o‘sishga erisha oladi – bu esa self-managementning muhim jihati hisoblanadi. Shuningdek, Stiven Kovi kabi mutaxassislar shaxsiy boshqaruvni samarali liderlikning tamal toshi sifatida ko‘rishadi. Kovining prinsipial liderlik konsepsiyasida aytilishicha, rahbar avvalo o‘zini doimiy ravishda rivojlantirishi lozim, ya’ni kundalik tashvishlar orasida shaxsiy o‘sish va qayta tiklanishni unutmasligi kerak. Shunday qilgandagina rahbar o‘z qobiliyati va bilimlarini uzluksiz oshirib boradi. Rahbarning o‘zini boshqarish ko‘nikmalari emotsional intellekt nazariyasida ham alohida o‘rin tutadi. D. Goulman (1998) ta’kidlashicha, eng samarali rahbarlar yuqori emotsional intellekt (EQ) sohibidir, uning tarkibiy qismlari – o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy anglash va munosabatlarni boshqarishdan iborat. Golmanning ta’rifiga ko‘ra, o‘zini boshqarish – bu shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qilish, xususan stressli vaziyatlarda sovuqqonlikni saqlash va tavakkalchiliklarga qaramay ijobiy kayfiyatni yo‘qotmaslik qobiliyatidir. Masalan, Golman (1998) tadqiqotida rahbarlar to‘satdan yuzaga kelgan muammoga nisbatan darhol ehtiros bilan reaksiya bildirmasdan, avvalo vaziyatni tahlil qilib, bir xulosaga kelib keyin javob berishni o‘rganishlari kerakligi ta’kidlanadi. Chunki o‘zini boshqara olmagan rahbarlar odatda hissiy impulslarga berilgan holda nojoiz qarorlar qabul qilib qo‘yishi mumkin. Shu bois, emotsional intellekt nazariyasi rahbar uchun o‘z-o‘zini boshqarishni asosiy kompetensiya sifatida belgilaydi. Psixologiya va menejment sohasida self-management qator tarkibiy elementlardan shakllanishi aytilgan. Masalan, ayrim tadqiqotchilar o‘zini o‘zi boshqarishni quyidagi komponentlardan tashkil topgan deb hisoblaydilar: o‘zini anglash (o‘z shaxsini, kuch-

li va zaif jihatlarini tanigan holda harakat qilish), o‘z-o‘zini tarbiyalash (intizomlilik va o‘z ustidan ishlash), o‘zini tashkil etish (maqsadlar qo‘yish va faoliyatni rejalashtirish), o‘z-o‘zini nazorat qilish (emotsiya va xatti-harakatlarini tartibga solish), shuningdek, vaqt menejmenti (shaxsiy vaqtni samarali taqsimlash) va o‘z-o‘zini rivojlantirish (yangi ko‘nikma va bilimlarni egallab borish) kabi jihatlar. Boshqacha aytganda, rahbarning self-management sohasida muvaffaqiyati uning o‘zini qay darajada taniy olishi, o‘zini qay darajada tarbiyalashi va tashkil eta olishi bilan chambarchas bog‘liq. Liderlik nazariyasida ham self-managementning ahamiyati qayd etilgan. Jumladan, tadqiqotchilar K. Manz va boshqalar 1980-yillarda o‘z-o‘ziga liderlik (self-leadership) konsepsiyasini ilgari surib, xodimning o‘z faoliyatiga nisbatan motivatsiyaviy ta’sir ko‘rsata olishini ta’kidladilar. Ch. Manz ta’rificha, self-leadership – bu shaxsning o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarini bajarish usuliga ta’sir o‘tkazish, ya’ni vazifalarni qayta ko‘rib chiqib, ularni ijro etishga nisbatan munosabatini shunday o‘zgartirishi kerakki, natijada shaxsiy samaradorlik oshsin. Bu qarash self-management tushunchasini yanada kengaytiradi, chunki nafaqat vaqt va resurslarni boshqarish, balki ishga bo‘lgan ichki munosabat va ma’noni ham boshqarish lozimligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, A. Bandura (1986)ning ijtimoiy-kognitiv nazariyasida o‘z-o‘zini tartibga solish (self-regulation) tushunchasi muhim o‘rin tutib, insonning o‘z xatti-harakatini kuzatishi, baholashi va tegishlicha tuzatish ta’kidlanadi. Bularning barchasi rahbarning o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalari nazariy asosini boyitadi.

Jahondagi ko‘plab tadqiqotlar samarali liderlikka erishishda o‘zini boshqarish ko‘nikmalari muhim ekanini tasdiqlamoqda. Masalan, salomatlik boshqaruvi sohasida olib borilgan bir tadqiqot xulosasiga ko‘ra, “samarali rahbar bo‘lish uchun self-management ko‘nikmalari o‘ta zarur”, bu ko‘nikmalarga rahbarning vijon (kelajak tasavvuri) va karizma, halollik, o‘zini anglay olish, muloqot mahoratlari, o‘zgarishlarni oldindan his etib boshqara olish, vaqt menejmenti, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar va yangi bilimlarni tez o‘zlashtirishga ishtiyoq kabi jihatlar kiradi. Boshqa so‘z bilan aytganda, lider avvalo o‘zi namuna bo‘la olishi, jamoa kutayotgan xislatlarni o‘z tabiatida mujassam etgan bo‘lishi lozim. Mazkur ilmiy qarashlar maktabgacha ta’lim tizimi rahbarlari uchun ham o‘ta dolzarb: bolalar bilan ishlovchi jamoani boshqarayotgan direktor yuksak axloqiy fazilatli, muloqotga ochiq, stressga chidamli va doimiy o‘rganishga tayyor bo‘lsagina, muassasa faoliyatini samarali yo‘naltira oladi. Milliy darajada ham ushbu mavzuda tadqiqotlar yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, I. Qurbonov (2022) maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga doir uslubiyatni takomillashtirish bo‘yicha tadqiqot o‘tkazgan. Uning ta’kidlashicha, muvaffaqiyatli MTT rahbari uchun zarur besh asosiy kompetensiya qatoriga o‘z-o‘zini rivojlantirish va kutilmagan vaziyatlarda mustaqil to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyati ham kiradi. Ya’ni direktor doim o‘z ustida ishlab, kasbiy muammolarni mustaqil hal etishga qodir bo‘lmog‘i lozim. Tadqiqot doirasida Qurbonov rahbarlar malakasini oshirish kurslarida kouching (murabbiylik) metodini qo‘llash orqali tinglovchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirish va loyiha ishlarini bajarishga o‘rgatishni taklif qiladi – bu usul rahbarlarning boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Ko‘rinib turibdiki, milliy tadqiqotlar ham self-management ko‘nikmalarini rahbar professional kompetensiyasining ajralmas qismi sifatida e’tirof etmoqda.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarining o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalari qay darajada rivojlangan? Ilmiy manbalar va amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘pgina hollarda direktorlar bunday ko‘nikmalarga ehtiyoj sezadi. Avvalo, muassasa rahbarining

ish kunlari juda serqirra va zichligi bilan ajralib turadi. Bolalar bog‘chasi direktori bir kunda o‘nlab vazifalarni hal etishi kerak bo‘ladi: tarbiyachilar faoliyatini muvofiqlashtirish, bolalar xavfsizligini ta’minlash, ota-onalar murojaatlari, hujjat yuritishi, sanitariya talablari va h.k. Bunday sharoitda samarali faoliyat yuritish uchun direktor o‘z vaqtidan oqilona foydalanish, ustuvor vazifalarni belgilash, delegatsiya qilish kabi self-management elementlarini qo‘llashi lozim. Ammo amaliyotda barcha rahbarlar bu borada yetarlicha bilim va ko‘nikmaga ega emas. Ayrim rahbarlar tabiiy tarzda o‘zini tashkil etishga mohir masalan, kunlik rejalar tuzib ishlaydigan, o‘z vaqtida hamma ishni bajaradigan direktorlar bor. Lekin ko‘p hollarda rahbarlar vaqt tanqisligi va ish ko‘lamidan aziyat chekishadi. Bir tazqiqotda aniqlanishicha, bolalar muassasasi direktorlarining ko‘pchiligi kun davomida o‘z vazifalarini bajarish uchun me’yordan ziyod – 10 soat va undan ortiq vaqt ishlashga majbur bo‘lib qolmoqda, shuningdek, ish yukining katta qismini uyga ham olib ketishlarini qayd etishgan. Bu, albatta, xavotirli belgidir, zero ish kunlari cho‘zilib ketishi rahbarning ruhiy va jismoniy charchashiga olib keladi. Ko‘p ishlashning o‘zi emas, balki noto‘g‘ri tashkil etilgan ish kuni bu muammoni keltirib chiqaradi ya’ni direktor o‘zini ayamasdan, tanaffuslarsiz ishlasa, barcha mayda vazifalarni shaxsan bajarishga urinsa, natijada asosiy strategik vazifalarga vaqti qolmasligi mumkin.

Mutaxassislar ta’kidlashicha muammolardan biri – stress va og‘ir bosim ostida ishlashdir. Maktabgacha ta’lim muassasasini boshqarish jarayonida kutilmagan holatlar tez-tez yuz beradi (masalan, xodimlarning bir kunda ishga chiqmasligi, bola kasal bo‘lib qolishi, ota-onalardan tushgan da’volar va h.k.). Bunday paytda direktordan tezkor va o‘rinli qaror chiqarish talab etiladi. Agar rahbarning stressni boshqarish, o‘zini bosish ko‘nikmasi sust bo‘lsa, u asabiylikka berilgan holda noto‘g‘ri qaror qabul qilishi mumkin. Ilmiy adabiyotda ta’kidlanishicha, stressning “tugallanmagan sikli” organizmda yig‘ilib qolsa, insonni qisqa fursatda toydirib qo‘yadi. Bir kunlik og‘ir vaziyatni hal etgach, rahbar o‘zidagi hissiy zo‘riqishni chiqarib yuborishi, tin olishi lozim; aks holda, bu to‘planib, stress tugamay davom etishi mumkin. Afsuski, ayrim rahbarlar muammoni hal etishlari bilan darhol keyingi vazifaga o‘tib ketishadi va shu tariqa o‘z tanasidagi stress reaksiyasini yetarlicha yumshatmaydilar. Bu esa uzoq muddatda sog‘liqqa ham, ish sifatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimiz maktabgacha ta’lim tizimida rahbarlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ba’zi choralar amalga oshirilmoqda. Jumladan, MTT rahbar va pedagog kadrlari uchun maxsus qayta tayyorlash kurslari va seminarlar yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ular doirasida zamonaviy menejment, jamoani boshqarish, axborot texnologiyalaridan foydalanish kabi mavzular qamrab olinayotir. Ayrim o‘quv dasturlarida rahbarning shaxsiy samaradorligini oshirishga doir mavzular (masalan, ish vaqtini rejalashtirish, stress-menejment, effektiv muloqot) ham kiritilgan. Bu ezgu tashabbuslar self-management ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli innovatsiyalarni joriy etish orqali rahbarlarni qo‘llab-quvvatlashga e’tibor qaratilmoqda: masalan, maxsus onlayn platformalar orqali metodik materiallar, maslahatlar taqdim etilib, rahbar va tarbiyachilarning o‘z ustida ishlashi uchun sharoit yaratilmoqda. O‘zbekistonda ishlab chiqilgan “mtt-metodik.uz” raqamli platformasi shular jumlasidandir – u orqali maktabgacha ta’lim xodimlari tezkor ravishda yangi innovatsiyalarni o‘zlashtirish, o‘zaro tajriba almashish va masofaviy o‘quvlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Aks holda aytganda, ushbu platforma rahbar va pedagoglarning o‘zini o‘zi rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, milliy miqyosda rahbarlar faoliyatini baholash va metodik qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish

borasida ishlar olib borilmoqda. Maktabgacha ta’lim vazirligi huzurida rahbar kadrlar uchun attestatsiya va qayta tayyorlash talablari kuchaytirilgani kuzatilmoqda. Bu talab va mexanizmlar direktorlarni o‘z bilim va ko‘nikmalarini doimiy yangilab borishga undamoqda. Masalan, har 5 yilda o‘tadigan attestatsiya jarayonida rahbarning faqat nazariy bilimi emas, balki amaliy menejment ko‘nikmalari ham sinovdan o‘tadi – bu esa ularni o‘z-o‘zini tayyorlashga majbur etadi. Yana bir ijobiy tomon – so‘nggi paytlarda rahbarlar o‘rtasida turli norasmiy tarmoqlar shakllanib bormoqda. Misol uchun, ayrim hududlarda bog‘cha mudiralari Telegram guruhlarda birlashib, kunlik ishlar yuzasidan maslahatlar va hujjat namunalarini o‘rtoqlashmoqda. Bunday hamjamiyatlar ham direktorning o‘zini boshqarishida yordamchi vosita bo‘lishi mumkin, zero u kundalik vazifalarga sarflanadigan vaqtni tejashga yordam beradi (tayyor namuna hujjatlar, boshqa rahbarlar tajribasi).

Ilmiy adabiyot va amaliy holat tahlili shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarida self-management ko‘nikmalarini rivojlantirish borasida quyidagi muammolar mavjud: vaqt menejmenti bo‘yicha bilim va ko‘nikma kamchiliklari – rejalashtirish va ustuvor vazifalarni belgilashda ba’zi rahbarlar qiynaladilar, bu esa ortiqcha vaqtini mayda ishlarga sarflashga olib keladi. Stressni boshqarish ko‘nikmalari yetarli emasligi – ish zichligi va mas’uliyati yuqori bo‘lgan soha rahbarlari uchun stressni boshqarish o‘rgatilmagan holda qolmoqda, natijada ba’zida tadbirkorlik qobiliyati tushib ketishi mumkin. O‘z-o‘zini rivojlantirishga vaqti va imkoniyati kamligi – kundalik yuklamalar sabab direktorlar o‘z malakasini oshirishga, kitob o‘qishga yoki treninglarda qatnashishga yetarlicha vaqt ajrata olmasliklari mumkin. Buni ba’zi mutaxassislar “workism” – ishni butun hayot mazmuniga aylantirib yuborish holati deb ataydilar. Workism natijasida rahbarda ish-hayot muvozanati buzilishi, faqat ish haqida qayg‘urib, shaxsiy sog‘liq va rivojlanishni chetga surib qo‘yishi kuzatiladi. Ta’kidlash joizki, bir talay direktorlar o‘z hayotida aynan mana shunday holat yuzaga kelganidan nolishadi – ular uzoq soatlab ishlashadi va uyga qolgan vaqtda ham ish haqida o‘ylashadi, bu esa ularni ruhiy jihatdan toydirishi mumkin. Yasinding ushbu tahlildan ko‘rinib turibdiki, maktabgacha ta’lim muassasalari rahbarlarining self-management ko‘nikmalarini rivojlantirish sohasida bir qancha kamchilik va imkoniyatlar mavjud. Kelgusi bo‘limda mazkur muammolar yechimiga qaratilgan xulosa va tavsiyalar bayon etiladi.

Nazariy va amaliy tahlil asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori uchun self-management (o‘zini o‘zi boshqarish) ko‘nikmalari juda katta ahamiyatga ega. Bugungi tizimdagi islohotlar va talablar sharoitida direktor nafaqat muvofiqlashtiruvchi va nazoratchi, balki ta’lim jarayonining lideri sifatida maydonga chiqmoqda. Bunday lider o‘z jamoasiga namuna bo‘lishi uchun eng avvalo o‘zini o‘zi tartibga sola oladigan, o‘z ustidan ishlay oladigan shaxs bo‘lishi kerak. Self-management ko‘nikmalari yuqori bo‘lgan rahbar o‘z vaqti va resurslarini samarali boshqaradi, stressli vaziyatlarda ham mas’uliyat bilan qaror chiqaradi, jamoa bilan muloqotda empatiyani saqlaydi hamda shaxsiy va professional o‘sishni doimiy davom ettiradi. Nazariy manbalar (Goulman, Kovi, Draker va boshq.) bu ko‘nikmalarni samarali rahbarlikning negizida turishini tasdiqlaydi; xalqaro tadqiqotlar self-management yetishmovchiligi rahbarlik samaradorligini pasaytirishini ko‘rsatadi. Milliy darajada esa, maktabgacha ta’lim rahbarlarining o‘z-o‘zini rivojlantirishiga e’tibor qaratilayotgan bo‘lsa-da, amalda hali bu borada salmoqli kamchiliklar mavjud. Ushbu xulosalardan kelib chiqib, maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlariga self-management ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi tavsiyalar beriladi:

1. Malaka oshirish dasturlarini takomillashtirish: rahbar kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash kurslariga self-management mavzusini alohida modul sifatida kiritish zarur. Bu modul doirasida vaqt menejmenti, stress-menejment, emotsional intellekt, ish-hayot muvozanati, o‘z-o‘zini motivatsiya qilish kabi mavzular qamrab olinishi lozim. Tinglovchilar amaliy mashg‘ulotlar orqali (treninglar, rolik o‘yinlar, keys-tahlil) o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini mustahkamlaydilar. Masalan, kurs davomida har bir direktor o‘z haftalik ish rejasini tuzib chiqishi, ustuvor vazifalarni ajratishi va muammolarni hal etish strategiyasini ishlab chiqishi tavsiya etiladi. Shuningdek, Goulman ta’kidlaganidek, rahbarlarga o‘z emotsiyalari va xatti-harakatlarini kuzatib borish, refleksiya qilish o‘rgatilishi zarur – buning uchun maxsus 360 darajali baholash usulini joriy etish mumkin (hamkasblar, xodimlar va rahbarning o‘zi berilgan so‘rovnoma orqali uning faoliyatini baholashi). Bunda aniqlangan “soqov zonalar” ustida keyinchi mashg‘ulotlarda ish olib boriladi.

2. Kouching va mentorlikni joriy etish: amaliyotda tajriba qilgan bolalar bog‘chasi mudiralari va yosh rahbarlar o‘rtasida mentorlik aloqalarini o‘rnatish foydalidir. Har bir yangi tayinlangan direktorga tajribali mentor biriktirilib, u o‘zining vaqtni boshqarish, jamoani rag‘batlantirish, inqirozli vaziyatlarni yengib o‘tish borasidagi tajribalarini o‘rgatishi mumkin. Bunday norasmiy o‘quv jarayoni orqali yosh rahbarlar o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini hayotiy misollarda o‘rganadilar. Shuningdek, hududiy maktabgacha ta’lim bo‘limlari qoshida “Direktorlar klubi” kabi doimiy ishlaydigan guruhlar tashkil etish mumkin. Ularda haftada bir bor uchrashuv yoki onlayn konferensiyalar uyushtirilib, rahbarlar o‘z yuzaga kelgan muammolarini muhokama qilishadi, birgalikda yechim izlashadi. Mutaxassislar ta’kidlaganidek, rahbarlar bir-biri bilan faol muloqotda bo‘lsalar, o‘z muammolarining o‘ziga xos emas, balki umumiy ekanini anglaydi va birgalikda yengilroq yechim topishadi. Shu bois, direktorlarni yakkalanib qolmasliklari uchun professional hamjamiyatga jalb etish o‘ta muhimdir.

3. Ish-hayot muvozanatini qo‘llab-quvvatlash: maktabgacha ta’lim tizimida rahbarlar uchun ish va shaxsiy hayot muvozanatini saqlashga ko‘maklashuvchi siyosat va madaniyatni shakllantirish zarur. Ta’lim boshqarmalari va muassasa jamoalari darajasida “sog‘lom ish muhiti” me’yorlarini joriy etish tavsiya etiladi. Masalan, tashkilotda barcha xodimlar, jumladan direktor uchun ham, belgilangan me’yordan ortiq ishlashni taqiqlash, dam olish kunlarida xizmat burchi bilan bezovta qilmaslik kabi qoidalar joriy etilishi mumkin. Shu bilan birga, jamoada stress va ruhiy holat haqida ochiq gaplashish madaniyatini oshirish kerak: rahbar va tarbiyachilar stressni yengish usullarini bir-biri bilan baham ko‘rsinlar, o‘z muammolarini erkin ifodalay oladigan muhit yaratish lozim. Bunda rahbarning o‘zi namuna bo‘lishi darkor – u o‘z xodimlariga g‘amxo‘rlik qilishi, ularni o‘zini ehtiyot qilishga undashi kerak. Masalan, xodimlarning hissiy holatiga e’tibor qaratgan rahbardan ular ham o‘rnak olishadi. Natijada, jamoada sog‘lom psixologik muhit shakllanadi, bu esa bevosita tarbiyaviy ishlar samaradorligiga ijobiy ta’sir qiladi.

4. Shaxsiy rivojlanish rejasi: har bir maktabgacha ta’lim muassasasi direktoriga o‘zi uchun shaxsiy rivojlanish rejasini tuzish tavsiya etiladi. Bu reja yillik yoki yarim yillik muddatni qamrab olib, unda rahbar o‘z ustida ishlash uchun maqsad va vazifalarni belgilab boradi. Masalan, chet tilini o‘rganish, menejment bo‘yicha ma’lum bir kitobni o‘qib chiqish, ma’lum bir ko‘nikma bo‘yicha treningda qatnashish, sog‘lom turmush tarzi yuritish (sport bilan shug‘ullanish, kunlik rejimga rioya qilish) kabi bandlar kiritilishi mumkin. Reja amalga oshirilishi yuzasidan har oy yakunida o‘ziga hisobot

berish, erishilgan yutuqlar va kamchiliklarni tahlil qilish odatga aylansa, direktorning self-management ko‘nikmalari bosqichma-bosqich mustahkamlanib boraveradi. Bu borada Kovining “doimiy o‘rganish” tamoyili juda mos keladi – samarali rahbar o‘zining intellektual, jismoniy, ijtimoiy va ma’naviy qobiliyatlarini muntazam charxlab borishi kerakligini unutmasligi lozim.

5. Axborot va metodik resurslar: rahbarlar uchun mo‘ljallangan maxsus qo‘llanmalar, elektron manbalardan foydalanish tavsiya etiladi. Jumladan, Stiven Kovi, Piter Draker, Daniel Goulman asarlari rahbarning o‘zini boshqarishi mavzusida dunyoda e’tirof etilgan manbalardir. Ularning asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish va targ‘ib etish kerak. Shuningdek, mahalliy mutaxassislar tomonidan tayyorlangan “Menejment va liderlik” bo‘yicha qo‘llanmalarga self-management bo‘limi kiritilishi lozim. Internetdagi xalqaro ta’lim yetakchilariga oid vebinarlar, maqolalardan foydalanish ham tavsiya etiladi. Bular orqali direktor o‘z bilim doirasini kengaytiradi, o‘zini boshqarish borasida yangi usul va layfhaklarni o‘rganib boradi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori uchun self-management ko‘nikmalarini rivojlantirish – bu yakka shaxsning emas, butun ta’lim jamoasining muvaffaqiyatiga xizmat qiladigan jarayondir. Zero, o‘zini samarali boshqara olgan rahbar jamoani ham samarali boshqara oladi. O‘z vaqti, bilimi va energiyasini to‘g‘ri taqsimlay olgan rahbar bolalar ta’limi sifati va tarbiyasiga ko‘proq e’’tibor qarata oladi, innovatsiyalarni tezroq joriy eta oladi. Shu ma’noda, mazkur mavzudagi tadqiqotlar va amaliy sa’y-harakatlar davom ettirilib, har bir rahbarda “avvalo o‘zimni boshqara olay, keyin jamoani” degan qadriyatni shakllantirish lozim. Mazkur tezisda berilgan tavsiyalar shu jarayonga ko‘maklashadi, deb umid qilamiz. Xulosa qilib aytganda, self-management ko‘nikmalariga ega direktor – bu o‘z muassasasining haqiqiy yetakchisi va taraqqiyotga yetaklaydigan drayveri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PQ-4477-sonli qarori – Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyasi.

2. Covey, S. R. (1989). The 7 Habits of Highly Effective People. Free Press.

3. Goleman, D. (1998). Emotional Intelligence. Bantam Books.

4. Boyatzis, R. (2008). Competencies in the 21st Century. Journal of Management Development.

5. Kabat-Zinn, J. (1990). Full Catastrophe Living. Dell Publishing.

6. Drucker, P. (2001). The Effective Executive. HarperBusiness.

7. Heifetz, R. (1994). Leadership Without Easy Answers. Harvard University Press.

8. Pink, D. H. (2009). Drive: The Surprising Truth About What Motivates Us. Riverhead Books.

9. Bekmuratov, A. (2020). Maktabgacha ta’limda boshqaruv samaradorligi. Toshkent: Fan nashriyoti.

10. Qurbonov, I. (2022). Maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish. Toshkent: Ta’lim nashriyoti.

11. Manz, Ch. (1986). Self-Leadership: Toward an Expanded Theory of Self-Influence Processes. Academy of Management Review.

12. Bandura, A. (1986). Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. Prentice Hall.

Elbek OCHILOV,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, “Jismoniy madaniyat va sport” kafedrasi mudiri, dotsent, (PhD)

DZYUDOCHILARNING MUSOBAQA JARAYONIGA PSIXOLOGIK TAYYORLASH

Annotatsiya

Maqolada dzyudochilarning musobaqa jarayoniga psixologik tayyorgarligi va uning muvaffaqiyatga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, sportchilar musobaqalar davomida qiyinchiliklar va stressga duch kelishishi, psixologik tayyorgarlikning sportchilarni stressdan xalos qilish, jismoniy va ruhiy holatni muvozanatda saqlash, qaror qabul qilish va motivatsiyani oshirishdagi roli ko‘rib chiqiladi. Muallif psixologik tayyorgarlikni oshirish uchun qo‘llaniladigan turli metodlar, masalan, vizualizatsiya, tasavvurlar mashqlari, stressni boshqarish va o‘zini tahlil qilish texnikalari, motivatsiyani oshirish mashqlari va boshqa psixologik yondashuvlar haqida ham so‘z yuritib o‘tgan.

Tayanch so‘zlar. Dzyudo, psixologik tayyorgarlik, stressni boshqarish, qaror qabul qilish, motivatsiya, vizualizatsiya, psixologik texnikalar, sport, ruhiy tayyorgarlik.

В статье анализируется психологическая готовность дзюдоистов к соревновательному процессу и его влияние на успех. Также будет рассмотрена роль психологической подготовки в снятии стресса у спортсменов, поддержании баланса физического и психического состояния, принятии решений и повышении мотивации спортсменов во время соревнований. Автор также упомянул различные методы, используемые для улучшения психологической подготовки, такие как визуализация, упражнения на воображение, методы управления стрессом и самоанализа, упражнения для повышения мотивации и другие психологические подходы.

Ключевые слова. Дзюдо, психологическая подготовка, управление стрессом, принятие решений, мотивация, визуализация, психологические техники, спорт, психическая подготовка.

The article analyzes the psychological preparation of judokas for the competition process and its impact on success. The role of psychological fitness in relieving athletes of stress, maintaining physical and mental state in balance, decision-making, and increasing motivation are also examined as athletes face challenges and stress throughout competitions. The author has also mentioned various techniques used to increase psychological readiness, such as visualization, imagination exercises, stress management and self-analysis techniques, motivation enhancement exercises, and other psychological approaches.

Key words. Judo, psychological preparation, stress management, decision-making, motivation, visualization, psychological techniques, sport, mental preparation.

Dzyudo – dunyodagi eng mashhur jang san’ati va sport turlaridan biri bo‘lib, u jismoniy va psixologik tayyorgarlikni mukammal birlashmasini talab qiladi. Dzyudochi musobaqalarda o‘zining texnikasi, kuchi va tezligini namoyish etish bilan birga, ayni paytda kuchli psixologik chidam va ruhiy barqarorlikni ham saqlashga majbur. Dzyudochi uchun musobaqaga psixologik tayyorgarlik juda muhim, chunki musobaqalar jarayonida sportchi nafaqat jismoniy holatini, balki ruhiy holatini

ham nazorat qilishi kerak. Shuningdek, musobaqa stressi, raqib bilan qarama-qarshi kurashda qaror qabul qilish va motivatsiyani saqlash kabi omillar dzyudochi muvaffaqiyatining asosiy tarkibiy qismlaridir.

Psixologik tayyorgarlik orqali dzyudochi o‘zining emotsional holatini boshqarishi, stressni kamaytirishi va musobaqalar davomida o‘zining eng yaxshi imkoniyatlarini ko‘rsatishi mumkin. Sportchining ruhiy tayyorgarligi unga o‘ziga ishonchni, musobaqa jarayonida tez va to‘g‘ri qarorlar qabul qilishni, shuningdek, jismoniy va ruhiy holatini uyg‘unlashtirishni o‘rgatadi. Shunday qilib, psixologik tayyorgarlik nafaqat sportning texnik va jismoniy tomonlarini, balki sportchining muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan psixologik kuchni ham rivojlantiradi.

Tadqiqotda sportchilarni musobaqalarga psixologik tayyorlashning samarali usullari tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologiyasi sifatida eksperimental o‘rganish va tahliliy yondashuvlar qo‘llanildi. So‘rovnomalar yordamida murabbiylar va sportchilardan psixologik tayyorgarlik jarayonida qaysi metodlar qo‘llanilishini va ularning samaradorligini bilib olishga harakat qilindi. Tadqiqotning asosiy maqsadi dzyudochilarda psixologik tayyorgarlikni rivojlantirishga qaratilgan metodlarni o‘rganish, bu metodlarning samaradorligini o‘lchash va ularning sportchi muvaffaqiyatiga qanday ta’sir qilishini aniqlash edi.

Kechikkan vaqtlarda psixologik tayyorgarlik dzyudochilar uchun katta ahamiyatga ega. Tursunov (2018) o‘zining “Sportchilarda psixologik tayyorgarlik” kitobida psixologik tayyorgarlik metodlarini tahlil qiladi va uning sportchilarning muvaffaqiyatiga ta’sirini o‘rganadi. Uzoq vaqt davomida psixologik tayyorgarlik bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazgan Shuhratov (2017) “Musobaqa jarayonida sportchilarning psixologik holati” asarida stressni boshqarish va motivatsiyani oshirish usullarini batafsil tushuntiradi.

Tadqiqot davomida dzyudochilarning psixologik tayyorgarligini oshirishga qaratilgan usullarni qo‘llashda sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Vizualizatsiya va stressni boshqarish mashqlari yordamida sportchilarning musobaqalar davomida hissiy va ruhiy holatlari barqarorlashtirilgan. Shuningdek, motivatsiya oshirish va o‘zini tahlil qilish mashqlari sportchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirdi. Bu metodlarning samaradorligi musobaqalarda yaxshi natijalar ko‘rsatgan sportchilarning tajribalari orqali tasdiqlandi. Masalan, vizualizatsiya metodini qo‘llagan sportchilarning texnik ko‘nikmalari aniqroq bo‘lib, qaror qabul qilish tezligi oshdi. Stressni boshqarish mashqlaridan so‘ng sportchilarning musobaqalar davomida emotsional holati sezilarli darajada yaxshilandi, bu esa natijalarni yaxshilashga olib keldi. Psixologik tayyorgarlik usullari:

– vizualizatsiya – bu psixologik tayyorgarlik usuli sportchining musobaqaga tayyorlanish jarayonida mental tasavvurlarni ishlab chiqishga yordam beradi. Sportchi raqibni tasavvur qilgan holda, kurashni va musobaqa jarayonini o‘z boshida qayta ko‘rsatadi. Bu usul sportchining ishonchini oshiradi va stressni kamaytiradi.

– stressni boshqarish mashqlari – dzyudochining psixologik tayyorgarligida stressni boshqarishning alohida o‘rni bor. Musobaqalar davomida sportchilar ba’zan haddan tashqari stress va xavotirni boshdan kechiradilar. Bu holatda sportchilarga diqqatni jamlash, chuqur nafas olish mashqlari, meditatsiya kabi usullar yordamida stressni kamaytirish o‘rgatiladi.

– motivatsiyani oshirish – dzyudochilarning musobaqalarda motivatsiyasi ularning muvaffaqiyatga erishishida muhim rol o‘ynaydi. Motivatsiyani oshirish uchun sportchilarga o‘z maqsadlarini aniq belgilash, ijobiy fikrlar va ishonchni rivojlantirishga yordam beradigan psixologik mashqlar o‘tkaziladi.

– o‘zini tahlil qilish va o‘zgarishlar – o‘zini tahlil qilish texnikalari orqali sportchi

o‘zining psixologik holatini va xarakterini yaxshilashga yordam beradi. Bu metod sportchiga o‘zining kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilishga imkon beradi.

– emotsional barqarorlik – dzyudochining emotsional barqarorligi musobaqa jarayonida juda muhimdir. Sportchilarga o‘z hissiyotlarini boshqarish va yuqori darajada faoliyatni davom ettirishda yordam beradigan texnikalar taqdim etiladi.

Bundan tashqari, psixologik tayyorgarlikning muvaffaqiyatga ta’siri, ayniqsa, yuqori darajadagi musobaqalarda, aniq ko‘rinadi. Raqib bilan kurashda o‘zining psixologik holatini saqlay olgan sportchilar raqiblaridan ustun keldi. Psixologik tayyorgarlikning asosiy maqsadi sportchining stressni boshqarish qobiliyatini oshirish va musobaqa vaqtida uning psixologik barqarorligini ta’minlashdir. Bu holatda stressga qarshi kurashish, motivatsiyani oshirish va emotsional barqarorlikni rivojlantirish muhim omillardir.

Dzyudochilarning musobaqa jarayoniga psixologik tayyorgarligi ularning muvaffaqiyatga erishishidagi muhim omildir. Psixologik tayyorgarlik metodlari, shu jumladan, vizualizatsiya, stressni boshqarish, motivatsiyani oshirish va o‘zini tahlil qilish, sportchilarning psixologik barqarorligini saqlashda va yuqori natijalarga erishishda katta yordam beradi. Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, psixologik tayyorgarlikning samarali qo‘llanishi sportchilarning musobaqa jarayonida o‘zini boshqarish va raqibga qarshi kurashish qobiliyatini yaxshilaydi. Shunday qilib, dzyudochilarda psixologik tayyorgarlikni oshirish metodlari ularning umumiy sport muvaffaqiyatlarini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

O‘rganilgan metodlar va psixologik tayyorgarlik usullari, shuningdek, sportchilarning psixologik salomatligini ta’minlash va stressni boshqarishda katta ahamiyatga ega. Bu jarayonni professional darajada amalga oshirish orqali dzyudochilarning musobaqalarda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlari ortadi. Shuningdek, musobaqa jarayonidagi muvaffaqiyat sportchining umumiy hayotida ham ijobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin, chunki psixologik tayyorgarlik hayotdagi stressli vaziyatlarga qarshi turishga yordam beradi.

Shu bilan birga, psixologik tayyorgarlik metodlarini doimiy ravishda rivojlantirish va sportchilarga ularni samarali ravishda o‘rgatish muhimdir. Bu o‘z navbatida, dzyudochilarning psixologik darajasini yuqori saqlash, musobaqalarda o‘zining eng yaxshi shaklini namoyish etish va ularga muvaffaqiyatli kelajak qurishda yordam beradi. Bu jarayon sportchilarni o‘z qobiliyatlarini to‘liq ochishga va yuqori darajali raqobatda muvaffaqiyatga erishishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tursunov A. (2018). Sportchilarda psixologik tayyorgarlik. – T.: Ma’rifat.

2. Shuhratov M. (2017). Musobaqa jarayonida sportchilarning psixologik holati. Tashkent: Olimpiya.

3. Zohidov B. (2019). Dzyudo va uning psixologik aspektlari. – T.: Sport press.

4. Qodirov A. (2020). Sportchilarda motivatsiyani oshirish. – T.: Fizkultura.

5. Karimov R. (2017). Psixologik tayyorgarlikning sportdagi o‘rni. Tashkent: Sport nashriyoti.

Zamira QODIROVA,
"Alfraganus University" nodavlat oily ta'lim muassasasi, "Xorijiy filologiya" kafedrasi, o'qituvchi

TA'LIMDA INNOVATSION METODLAR – MILLIY VA XORIJ TAJRIBASI

Annotatsiya

Maqolada innovatsiya va ta'lim, ularga xorijlik va O'zbekistonlik olimlar tomonidan berilgan ta'riflar keltirilgan. Shuningdek, ta'lim berishda turli xil usullar ya'ni, metodlar mavjudligi, innovatsion yondashuv, dars mashg'ulotlarida ta'lim metodlari va innovatsion metodlardan foydalanish, innovatsion taraqqiyot yo'lida kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish yuzasidan fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Tayanch so'zlar. Innovatsiya, ta'lim tizimida innovatsiya, innovatsion jarayonlar, bilim, ta'lim metodlari, innovatsion metodlar, innavatsion yondashuv, metod, aktiv metod, passiv metod, interaktiv metod, pedagogik yangilik, pedagogik faoliyat.

В статье представлены инновации и образование, а также определения, данные им зарубежными и узбекскими учеными. Также высказаны мнения о наличии различных методов в обучении, то есть инновационного подхода, использовании методов обучения и инновационных методов на уроках, всесторонней поддержке творческих идей и креативности молодежи, являющейся наследниками нашего будущего на пути инновационного развития, совершенствовании системы оценивания на основе зарубежного опыта, международных критериев и требований.

Ключевые слова. Инновация, инновация в системе образования, инновационные процессы, знания, методы обучения, инновационные методы, инновационный подход, метод, активный метод пассивный метод, интерактивный метод, педагогическая инновация, педагогическая деятельность.

The article presents innovations and education, as well as definitions given to them by foreign and Uzbek scientists. Also, opinions are expressed on the availability of various methods in teaching, that is, an innovative approach, the use of teaching methods and innovative methods in lessons, comprehensive support for the creative ideas and creativity of young people, who are the successors of our future on the path of innovative development, improvement of the assessment system based on foreign experience, international criteria and requirements.

Key words. Innovation, innovation to the educational system, innovative processes, knowledge, educational methods, innovative methods, innovative approach, method, active method, passive method, interactive method, pedagogical innovation, pedagogical activity.

Har bir davlatning ertangi kuni va kelajagi fuqarolarining intellektual salohiyatiga, madaniyati, bunyodkorligiga va ta'limga bo'lgan e'tiboriga tayanadi. Zero, eski ta'lim-tarbiya asosida yangi jamiyat qurib bo'lmagani kabi mamlakatimiz kelajagi, shubhasiz, kadrlar tayyorlash masalasiga bevosita bog'liq hisoblanadi. Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi".

Pedagog innovatsion faoliyatining eng muhim va markaziy masalasi o'quv jarayonini samarali va sifatli tashkil etishdan iborat. Ta'limda innovatsiyani, shu jumladan,

o‘qitishning zamonaviy, interaktiv va ijodiy uslublarini keng joriy etilishi bugungi kunda juda tez sur’atlarda rivojlanmoqda. Ta’lim tizimini boshqarish organlari har yili ta’lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga va bugungi kun talablariga mos keladigan kadrlarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Olib borilayotgan amaliy harakatlar talabalarning yutuqlarga erishishiga hamda olg‘a intilishiga bo‘lgan ehtiyojni muayyan darajada yuzaga keltirishi hamda ularning kasbiy qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga e’tibor qaratilmoqda.

Pedagogik nuqtayi nazardan esa, zamonaviy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan innovatsion jarayonlar, avvalo, inson faoliyatining barcha sohalarida raqamli texnologiyalardan faol foydalanish bilan bog‘liq va birinchi navbatda ta’limning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgandir. Shu munosabat bilan talabalarning kasbiy innovatsion faoliyati tubdan boshqacha ma’no kasb etadi. Innovatsion faoliyatning mohiyati va mazmuni shundan iboratki, talabalar uchun ta’lim sohasidagi har qanday yangilik o‘qituvchi tomonidan amalga oshirilgandagina yuzaga chiqadi. Ya’ni, ta’lim jarayonida talabalarni obyektdan subyektga aylantirish, birinchi navbatda, o‘qituvchining kasbiy kompetentligiga bog‘liqdir.

Ta’lim berishda turli xil usullar ya’ni, metodlar mavjud. O‘qituvchi qay uslubda dars bermasin maqsadiga yetish imkonini izlaydi, bu borada, ta’lim metodlari va innovatsion metodlardan foydalanadi. Ta’lim metodlari shu vaqtga qadar o‘zining samarasini ko‘rsatib kelmoqda va dars mashg‘ulotlar yangicha uslublarda olib borilishi yanada yaxshi natijalarga erishish uchun izlanishlar, yangilanishlar davom etmoqda. Ma’lumki innovatsion faoliyatda pedagogik yangiliklar: o‘qitishning yangi usul va metodlarining yaratilishi, qo‘llanishi o‘quv jarayonining samarali va sifatli tashkil etilishini yaratib beradi. Pedagogik yangilik-pedagogik faoliyatda ilgari ta’lim jarayonida noma’lum bo‘lgan o‘zgarishlarni kiritish orqali ta’lim va tarbiyaning nazariya va amaliyotini boyitish va uni rivojlantiruvchi omilidir. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining samarasini oshiradi, pedagoglarning erkin fikrlash jarayonini shakllantiradi, ularda bilim olishga ishtiyoqi va zavqini oshiradi, bilimlarini mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda mustaqil foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi.

“Innovatsiya” atamasi lotincha “novatio” so‘zidan olingan bo‘lib, “yangilanish” yoki“o‘zgarish”, “in” qo‘shimchasi esa lotinchadan “yo‘nalishida” deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit “Innovatio” ko‘rinishida tarjima qilsak – “o‘zgarishlar yo‘nalishida” deb izohlanadi.

“Innovatsiya” tushunchasi o‘zining yangi hayotini “innovatsion kombinatsiyalar”ni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o‘zgarishlar natijasida XX asrning boshida Avstriyalik iqtisodchi Y.Shumpeterning ilmiy ishlarida boshlagan. Shumpeter 1900-yillarda iqtisodda ushbu terminni ilmiy qo‘llashga kiritgan dastlabki olimlardan hisoblanadi. Innovatsiya – tadbirkorlik ruhi bilan motivatsiyalangan ishlab chiqarish omillarining o‘zgarishi (yangi kombinatsiyalar). Maqsad – yangi tovar turlari, yangi ishlab chiqarish usullari, yangi xomashyo manbalari joriy qilish va foydalanish, yangi bozorlar va ishlab chiqarishni tashkil qilishning yangi shakllarini o‘zlashtirish (monopolizatsiya maqsadida qayta tashkil qilish). U o‘zining “ijodiy halokat” nazariyasi asosida innovatsion jarayonlarni o‘rganib chiqdi va tadbirkorlarning faoliyatini yangi mahsulot va xizmatlarni yaratishda mavjud narsalardan foydalanishni boshqa zamonaviy usullar sifatida ko‘rib chiqishni taklif qildi.

Umuman innovatsiya tushunchasiga olimlar turlicha fikr bildirganligi uning keng tushuncha ekanligini ko‘rsatadi. Jumladan, “Innovatsiya – bu aniq vaziyatda mutlaqo

yangi narsa, biz buni anglaganimizda foydalanishimiz mumkin”, “Innovatsiya – bu innovatsion, ishlab chiqarish, institutsional moliyaviy, ilmiy-texnik va boshqa sohalardagi yangilikdir”, “Innovatsiya-kapitalni yangi texnika yoki texnologiyaga, ishlab chiqarishni tashkil qilish, mehnat, xizmat ko‘rsatish va boshqaruvning yangi shakllariga, jumladan, yangicha nazorat va hisob shakllari, rejalashtirish va tahlil usullariga kiritishdan olingan, moddiy tus olgan natijadir”, “Innovatsiya – g‘oyalar va ixtirolardan amaliy foydalanish orqali o‘z xislatlari bo‘yicha eng yaxshi bo‘lgan mahsulot va texnologiyalar yaratishga olib keladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayon; innovatsiya iqtisodiy foydaga yo‘altirilgan holda uning bozorda paydo bo‘lishi qo‘shimcha daromad keltirishi mumkin.” – deb ta’riflar berilganligi buning dalilidir. Bu fikrlardan anglash mumkinki bugungi kunda ta’lim tizimida innovatsiya kiritib borish zaruriyati mavjud.

Zamonaviy ta’limning dolzarb muammosi “ijtimoiy raqobatbardoshlik”dir. Bu tushuncha o‘zida kasbiy yetuklikni, malaka oshirish imkoniyatiga egalikni, shaxsning ta’lim olganlik darajasi, innovatsiyalarni qabul qila olish qobiliyati, kasbiy faoliyat sharoitini qiyinchiliklarsiz o‘zgartira olish va mehnatning yanada foydaliroq turiga o‘ta olish qobiliyatini, ijtimoiy mavqeyini va bilim darajasi bilan belgilanuvchi ijtimoiy mobilligini o‘zida mujassamlashtiradi. Ya’ni, zamonaviy sharoitlarda raqobatbardosh mutuxassisning shakllanishi faqatgina ta’lim jarayoniga muammoli va metodik yo‘naltirilgan, umumiy innovatsion jarayonlarning talablariga javob beradigan, dastur va konsepsiyalar bilan asoslangan innovatsiyalarni jalb etish orqaligina amalga oshiriladi.

Ta’limda dars jarayonida pedagog inovatsion metodikalardan foydalanish o‘quvchilarda hamkorlik qilish kompetensiyasini ham shakillantiradi. Nazariy ma’lumotlarni yetarlicha o‘zlashtira olmagan o‘quvchilarda oddiy dars shakli va tushuntirishdan ko‘ra o‘quvchi tassavurida nazariy ma’lumotlar osonlik bilan qabul qilinadi. Dars jarayonida inovatsion metodikalar orqali mavzuni mustahkamlashda ba’zan bir necha hattoki, butun auditoriyani ma’lumatlarni qabul qilish va mustahkamlash jarayoniga qiziqarli tarzda jalb qila olish xususyati bilan hozirgi kunda o‘z ahamiyatliligi va ko‘lamini tezlik bilan kengaytirmoqda. Shu bilan birgalikda dars jarayonida innovatsion metodikalardan samarali foydalanish o‘qituvchining dars jarayonini o‘quvchilarga yetkazib berish jarayonini samarasini oshirish bilan birgalikda o‘qituvchining ko‘p qirrali faoliyatini rang-baran qilishda, balki o‘quv jarayonini jadallashtirish, bilim olish amaliyotini faollashtirish, o‘quvchilar ishtiyoqini kuchaytirish va jadallashtirishga samarali xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prezident Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. https://www.xabar.uz/siyosat/prezident-shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlisga-murojaatnomasi

2. Балабанов И. Инновационный менежмент. Санкт-Петербург, 2001.

3. Жуманиёзова М. Инновацион фаолият - таъли м сифатининг кафолатидир. // j.Uzluksiz ta’lim. - T., 2004 - № 6 – Б.89

4. Инновации: теория, механизм, государственное регулирование: Учебн. пособие /Под ред. Ю.В. Яковца. – М.: РАГС, 2000.

5. Инновации: теория, механизм, государственное регулирование: Учебн. пособие /Под ред. Ю.В. Яковца. – М.: РАГС, 2000.

6. Кулагин А. Оценка и самооценка научной организации. Инновационная экономика. 2011 г. Ст. 54-55

Suxrob RAXIMOV,
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali, “Ingliz tili” kafedrasi, o‘qituvchi

TIBBIYOT INSTITUTI TALABALARINING INGLIZ TILIDAGI LEKSIK-KOMPETENSIYALARINI INTERAKTIV TEXLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLSHTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy ta’lim tizimida interaktiv texnologiyalarning o‘sib borayotgan roli va ularning tibbiyot sohasidagi talabalarning leksik-kompetensiyasini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ingliz tilini o‘rganishda interaktiv texnologiyalarning samaradorligi, ayniqsa tibbiy atamalarni o‘rganish va amaliy klinik vaziyatlarda tilni qo‘llashda virtual simulyatsiyalar, onlayn platformalar va mobil ilovalar yordamida talabalarga taqdim etilayotgan imkoniyatlar tahlil qilinadi. Bundan tashqari, xorijiy tajribalar, masalan, AQSh, Buyuk Britaniya va Yevropa davlatlarida interaktiv texnologiyalarni tibbiyot ta’limiga joriy etishning muvaffaqiyati ko‘rsatilgan.

Tayanch so‘zlar. Interaktiv texnologiyalar, tibbiyot ta’limi, leksik-kompetensiya , virtual realitet (VR), onlayn platformalar, mobil ilovalar, tibbiy simulyatsiyalar.

В статье освещается растущая роль интерактивных технологий в современной системе образования и их значение для развития лексико-компетентностных способностей учащихся в области медицины. Также будет проанализирована эффективность интерактивных технологий в изучении английского языка, особенно в изучении медицинских терминов и применении языка в практических клинических ситуациях, а также возможностей, предлагаемых студентам с помощью виртуального моделирования, онлайн-платформ и мобильных приложений. Кроме того, зарубежный опыт показывает успех внедрения интерактивных технологий в медицинское образование, например, в США, Великобритании и европейских странах.

Ключевые слова. Интерактивные технологии, медицинское образование, лексико-компетенция, виртуальная реальность (VR), онлайн-платформы, мобильные приложения, медицинские симуляции

The article highlights the growing role of interactive technologies in the modern educational system and their importance in the development of lexical competence of students in the field of Medicine. The effectiveness of interactive technologies in learning English is also analyzed, especially the possibilities offered to students using virtual simulations, online platforms and mobile applications when learning medical terms and applying the language in practical clinical situations. In addition, the success of foreign experiments, such as the introduction of interactive technologies into medical education in the United States, United Kingdom and European states, has been demonstrated.

Key words. Interactive technologies, medical education, lexical competence, virtual reality (VR), online platforms, mobile applications, medical simulations.

Zamonaviy ta’lim tizimida texnologiyalarning o‘sib borayotgan roli, xususan, tibbiyot sohasidagi talabalarning leksik-kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida beqiyos ahamiyatga ega.

Interaktiv texnologiyalar tibbiyot ta’limida leksik-kompetensiyani rivojlantirishda samarali vosita sifatida e’tirof etilmoqda. Ingliz tilini o‘rganishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, global tibbiyot ilmi bilan bo‘lgan aloqalarni kuchaytirish va yangi avlod mutaxassislarini tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi. Ingliz tilini o‘rganish, tibbiyot talabalari uchun nafaqat akademik yondashuvni, balki professional muloqotda tilni qo‘llashni ham talab etadi. Bu jarayonni interaktiv texnologiyalar yordamida yanada takomillashtirish mumkin. Tibbiyot talabalari uchun ingliz tilidagi tibbiy atamalarning to‘g‘ri va aniq ishlatilishi, bemorlar bilan muloqot, ilmiy maqolalarni tahlil qilish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishda virtual simulyatsiyalar, onlayn platformalar va mobil ilovalar katta yordam beradi. Xorijda, masalan, AQSh, Buyuk Britaniya va Yevropa davlatlarida tibbiyot ta’limida ingliz tilidagi interaktiv texnologiyalarni joriy etish samarali sinovdan o‘tkazilgan. Virtual realitet (VR) texnologiyalari yordamida talabalar tibbiy jarayonlarni va murakkab jarrohlik amaliyotlarini xavfsiz va nazorat ostida sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, ingliz tilida tibbiy atamalarni o‘rganish jarayonini onlayn kurslar va mobil ilovalar orqali mustahkamlash ham talabalar uchun o‘quv jarayonini yanada samarali qiladi.

Tibbiyotda ingliz tili juda muhim bo‘lib, bu tilda ilmiy muloqot qilish va xalqaro miqyosda ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurati mavjud. Interaktiv texnologiyalar yordamida ingliz tilida tibbiy atamalarni o‘rganish, talabalarni nafaqat so‘z boyligini oshirishga, balki ularni klinik vaziyatlarda tilni qanday ishlatishni o‘rgatishga yordam beradi. Masalan, virtual bemorlar bilan muloqot qilishda talabalar ingliz tilidagi tibbiy atamalardan to‘g‘ri foydalanishni o‘rganadilar. O‘zbekistonda ham tibbiyot ta’limida ingliz tilini o‘rganish va leksik-kompetensiyani takomillashtirishda interaktiv texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. VR texnologiyalari yordamida talabalar ingliz tilidagi tibbiy atamalarni o‘rganish, interaktiv simulyatsiyalar orqali murakkab klinik holatlarni sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Shu bilan birga, onlayn platformalar va mobil ilovalar orqali talabalar ingliz tilidagi tibbiy atamalarni o‘rganish jarayonini moslashtirishi va mustahkamlashi mumkin. Shu tarzda, interaktiv texnologiyalar ingliz tili o‘rganish jarayonini yanada samarali qilish va tibbiyot ta’limida leksik-kompetensiyani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, xalqaro miqyosda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga yordam beradi.

Xorijiy tajribalar asosida, tibbiyot ta’limida interaktiv texnologiyalarni qo‘llashning samaradorligi haqida olib borilgan izlanishlar, aynan bunday metodlarning ta’lim sifatini oshirishga yordam berishini ko‘rsatadi. 2020-yilning boshlarida butun dunyo COVID-19 pandemiyasi bilan yuzlashdi, bu ta’lim tizimlarida kutilmagan va jiddiy o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. COVID-19 pandemiyasi, o‘z navbatida, tibbiyot ta’limining yangi talablarga moslashishini talab qildi. Tibbiyot talabalari uchun zamonaviy texnologiyalarni o‘rganish va ulardan samarali foydalanish nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi. Virtual simulyatsiyalar, onlayn diagnostika platformalari, tibbiy simulyatorlar kabi interaktiv texnologiyalar yordamida talabalarga bemorlar bilan muloqot qilishda kerakli leksik-kompetensiyalarni o‘zlashtirish imkoniyati yaratildi. Bunday metodlar pandemiya sharoitida ta’lim jarayonining uzluksizligini ta’minladi va talabalarni amaliyotga tayyorlashni davom ettirdi.

Dunyoning ilg‘or ta’lim tizimlari, xususan, Yevropa, Shimoliy Amerika va Osiyo davlatlarida tibbiyot talabalari uchun interaktiv texnologiyalarni o‘qitish jarayoniga keng joriy etish, ularning leksik-kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan metodikalarni

samarali sinovdan o‘tkazdi. Bu metodikalar talabalarga faqat tilni o‘rgatish emas, balki ularni real klinik vaziyatlarda tilni ishlatish orqali bilimlarni amaliyotga tadbiq qilishga imkon yaratadi. Virtual o‘qish muhiti, interaktiv trenajyorlar va onlayn diagnostika tizimlari orqali tibbiyot talabalari o‘z bilimlarini tez va samarali sinab ko‘rishlari mumkin, bu esa ularning til ko‘nikmalarini takomillashtirishga yordam beradi. Ilg‘or davlatlar, xususan, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Yaponiyada tibbiyot ta’limida interaktiv texnologiyalarni qo‘llash sohasida bir qancha muvaffaqiyatli metodikalarni ishlab chiqqan. Janubiy Koreya tibbiyot ta’limida VR va AR texnologiyalarini qo‘llashda yetakchi hisoblanadi. Bu texnologiyalar orqali talabalar turli tibbiy vaziyatlarni, masalan, jarrohlik amaliyotlari yoki bemorlar bilan muloqot qilishda ingliz tilida atamalarni to‘g‘ri ishlatish kabi simulyatsiya qilishi mumkin. Bunday texnologiyalar talabalarga tilni o‘rgatishda interaktiv va amaliy yondashuvni taqdim etadi. Singapurda tibbiyot ta’limida ingliz tilini o‘rgatishda “massive open online courses” (MOOCs) va interaktiv o‘quv platformalar keng qo‘llaniladi. Masalan, “Coursera” yoki “edX” platformalaridagi tibbiyot va til kurslari talabalarga ingliz tilida tibbiyot sohasidagi muhim leksikani o‘rgatadi, bu esa global tibbiyot jamiyatida muvaffaqiyatli ishlash uchun zarur. Shvetsiyada “gamification” (o‘yin asosidagi ta’lim) yondashuvi tibbiyot ta’limida ingliz tilini o‘rgatishda muvaffaqiyatli qo‘llanilgan.

O‘quvchilarga tibbiy sohada o‘yinchilik elementlari (masalan, testlar, tanlovlar, jamoa ishlarini baholash) yordamida ingliz tilidagi maxsus terminologiyani o‘rganish imkoniyati beriladi. Bu yondashuv talabalarga motivatsiya va faol o‘rganish jarayonini yaratadi. Yaponiyada tibbiyot talabalari uchun sun’iy intellekt (AI) asosida yaratilgan o‘quv tizimlari ingliz tilidagi leksik-kompetensiyani rivojlantirishda samarali foydalaniladi. AI tizimlari talabalarga grammatik xatoliklarni aniqlashda, tibbiyot tilida to‘g‘ri atama va iboralarni tanlashda yordam beradi. Shu bilan birga, AI orqali virtual bemorlar bilan ingliz tilida muloqot qilish tajribasi ham oshirilmoqda. Kanadada tibbiyot talabalari uchun ingliz tilini o‘rgatishning integratsiyalashgan yondashuvi ishlatiladi, bunda tibbiyot fanlari va til o‘rgatish o‘quv dasturlari birlashtiriladi. Bu modelda talabalar tibbiy ma’lumotlarni ingliz tilida o‘rganish bilan birga, shu sohada leksik-kompetensiyani ham rivojlantiradilar.

Bu tizimda ilmiy ishlar, ma’ruzalar va amaliyotlar ingliz tilida o‘tkaziladi. Fransiyada flipped classroom (aks ta’lim) modeli tibbiyot ta’limida ingliz tilini o‘rgatish uchun qo‘llaniladi. Ushbu modelda talabalar yangi mavzuni avval onlayn ravishda o‘rganib, darslarda o‘z bilimlarini amaliyotda sinab ko‘rishadi. Bu yondashuv ingliz tilidagi tibbiyot terminlarini o‘rganishga yordam beradi, chunki talabalar darsda real hayotiy vaziyatlarga tayyorlanadilar.

O‘zbekistonda tibbiyot ta’limida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash tobora jadal rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga, mamlakatda tibbiyot ta’limining sifatini oshirish va talabalarning leksik-kompetensiyasini rivojlantirishda yangi texnologiyalarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda VR va AR texnologiyalarining tibbiyot ta’limida qo‘llanilishi yangi boshlanayotgan jarayon. O‘zbekistonda tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida ingliz tilidagi tibbiy leksikani o‘rganish uchun bir qator innovatsion usullar qo‘llanilmoqda. O‘zbekistonning tibbiyot ta’limi muassasalarida o‘quv jarayonini rivojlantirish maqsadida onlayn platformalar, masalan, Moodle yoki Google Classroom kabi tizimlar orqali talabalarga ingliz tilidagi tibbiy atamalarni o‘rganishga imkoniyat yaratish. Bu platformalar o‘z ichiga onlayn testlar, interaktiv darsliklar va bemorlar bilan muloqot simulyatsiyalarini oladi. Tibbiyot ta’limi muassasalarida talabalar

murakkab klinik holatlar, jarrohlik operatsiyalar va boshqa tibbiy amaliyotlarni virtual muhitda sinab ko‘rish imkoniyatiga ega. Virtual realitet (VR) va kengaytirilgan realitet (AR) texnologiyalaridan foydalanish, talabalar uchun xavfsiz va samarali treninglar o‘tkazish imkonini beradi. Bu o‘quv jarayonida ingliz tilidagi atamalardan foydalanish ko‘nikmalarini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ingliz tilidagi tibbiy leksikani o‘rganishga yordam beradigan mobil ilovalar ham keng tarqalmoqda. Bu ilovalar yordamida talabalar o‘z bilimlarini tezkor tarzda mustahkamlashlari mumkin. Masalan, Quizlet yoki Anki kabi ilovalar orqali talabalarga ingliz tilidagi tibbiy atamalarni o‘rganish va qayta ko‘rib chiqish imkoniyatlari taqdim etiladi. O‘zbekistonning ba’zi tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida ingliz tilini o‘rganish bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etilgan. Bu kurslar zamonaviy texnologiyalar asosida interaktiv darsliklar, video darslar va amaliy mashg‘ulotlar yordamida talabalar uchun eng samarali tarzda o‘tkaziladi.

Toshkent tibbiyot akademiyasida talabalariga anatomiyani o‘rgatishda VR texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha sinov dasturlari mavjud. Talabalar 3D modellar yordamida tananing turli qismlarini virtual tarzda ko‘rib, atamalarni o‘rganishadi. Bunday texnologiyalar O‘zbekistondagi tibbiyot ta’limi tizimida innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. O‘zbekistonda VR yordamida simulyatsiya o‘quv jarayonlari o‘tkazishga harakat qilinmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalari, shuningdek, tibbiyot ta’limida leksik-kompetensiyani rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. AI tizimlari yordamida talabalar o‘z bilimlarini real vaqtda baholashlari mumkin. O‘zbekistonda bu texnologiyalarni joriy etish uchun ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlar hamkorlik qilib, AI asosidagi testlar va diagnostika dasturlarini ishlab chiqishmoqda. AI tizimlari tibbiy atamalarni va diagnostika bilimlarini o‘rgatishda samarali yordam berishi mumkin.

O‘zbekistonda onlayn ta’lim tizimlari jadal rivojlanmoqda, shu jumladan tibbiyot sohasida ham. Toshkent tibbiyot akademiyasi va boshqa yirik universitetlar tibbiy o‘quv materiallarini onlayn platformalarda taqdim etishmoqda. Masalan, “Tibbiyot onlayn” platformasida talabalar tibbiy atamalar, diagnostika va muolajalar bo‘yicha interaktiv video darslar, testlar va turli xil o‘quv materiallarini o‘zlashtirish imkoniyatiga ega. O‘zbekiston tibbiyot ta’limida interaktiv metodlarni kengaytirishga intilmoqda. Shu bilan birga, onlayn kurslar, videodarslar va interaktiv testlar talabalarga murakkab tibbiy kontseptlarni o‘zlashtirishda yordam beradi.

Tibbiyotda simulyatsiya texnologiyalarini qo‘llash O‘zbekistonda tibbiy ta’limini yangilashda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Mobil texnologiyalarni ta’limda qo‘llash O‘zbekistonda tibbiyot fakultetlarida ham keng tarqalmoqda. Tibbiy atamalarni o‘rganish uchun maxsus mobil ilovalar ishlab chiqilmoqda. Masalan, “Tibbiyot Lug‘ati” yoki “Medik Test” kabi mobil ilovalar yordamida talabalar o‘z bilimlarini mobil qurilmalarda interaktiv tarzda baholashlari mumkin. O‘zbekistonning ba’zi tibbiyot fakultetlarida gamifikatsiya elementlari orqali talabalarga ingliz tilidagi tibbiy atamalarni o‘rganish va tibbiyot bilimi bo‘yicha testlarni o‘tkazish imkoniyati yaratildi. Bunday yondashuv o‘qitish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Zamonaviy tibbiyot ta’limida interaktiv texnologiyalarni qo‘llash talabalarning leksik-kompetensiyasini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonning ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar va innovatsion yondashuvlar, shu jumladan, tibbiyot ta’limida raqamli va interaktiv texnologiyalarni keng joriy etish, talabalarning tibbiy atamalarni o‘zlashtirishini sezilarli darajada yaxshilamoqda. Virtual realitet, simulyatorlar, onlayn platformalar va sun’iy intellekt tizimlari yordamida talabalarga

nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantirish imkoniyatlari yaratilmoqda. Shu bilan birga, bu texnologiyalar pandemiya davrida ta’lim jarayonining uzluksizligini ta’minladi va talabalarni klinik vaziyatlarda muhim leksik kompetensiyalarni o‘zlashtirishga yo‘naltirdi. Xorijiy tajribalar tibbiyot ta’limida interaktiv texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo‘llash jarayonlari, ushbu metodlarning ta’lim sifatini oshirishga yordam berishini ko‘rsatdi. O‘zbekiston uchun ham bu yondashuvlarni kengaytirish, tibbiyot sohasidagi mutaxassislar tayyorlashda xalqaro miqyosda raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. Mirziyoyev, Yangi O‘zbekiston – yangi ta’lim: Ta’limni raqamlashtirish va innovatsiyalarni joriy etish. Nutq, 2020-yil.

2. Sh. Mirziyoyev, O‘zbekiston yoshlarini ta’lim va ilm-fan sohasida ilg‘or xalqaro tajribalar asosida tayyorlash. Nutq, 2019-yil.

3. Bates M.J., & Medical S.A.P. Education: Theory and Practice. Cambridge University Press. 2016.

4. Cook D. A., & Artino A. R. Motivation and Emotion in Medical Education: Understanding the Role of Learning and Teaching in Medical Training. Springer. 2016.

5. Cook D. A., & Triola M. M. Virtual patients: a critical literature review and proposed next steps. Medical Education, 43(4), 270-278. 2019

6. Harden R. The Assessment of Competence in Medical Education. Medical Teacher, 22(2), 93-101. 2000.

7. Issenberg S. B., McGaghie W. C., Petrusa E. R., & Gordon D. L. Simulation Technology for Health Care Professional Education. Journal of the American Medical Association, 294(9), 1120-1128. 2005

8. Norman G. Interpretation and Use of Medical Education Research. Medical Education, 46(6), 512-522. 2012.

Sevara XAKIMOVA,
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, tayanch doktarant

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI RAHBARLARINING FAOLIYAT SAMARADORLIGI MEXANIZMINI DIVERSIFIKATSION YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, boshqaruv tuzilmasi faoliyatini tizimli tashkil etish, ilg'or xorijiy tajribalar asosida har jihatdan zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish funksyalari haqida to'xtalib o'tilgan. Shu bilan birgalikda "Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti" baholash mezoni asosida faoliyat samaradorligini baholash va ularning reytingini shakllantirish g'oyasi haqida ham fikr mulohazalar berilgan.

Tayanch so'zlar. Diversifikatsiya, indeks, reyting, globallashuv, modernizatsiyalash, metakompetensiyalar, kompetensiya, variativ, boshqaruv, menejment, klaster, transfer.

В статье рассматриваются радикальные структурные реформы системы дошкольного образования в нашей стране, системная организация деятельности управленческой структуры и функции управления современными дошкольными образовательными учреждениями на основе передового зарубежного опыта. Также представлены идеи по оценке эффективности деятельности и формированию их рейтинга на основе критериев оценки "Современное дошкольное образовательное учреждение".

Ключевые слова. Диверсификация, индекс, рейтинг, глобализация, модернизация, метакомпетенции, компетенции, вариативность, управление, менеджмент, кластер, трансфер.

This article discusses the radical structural reform of the preschool education system in our country, the systematic organization of the management structure's activities, and the functions of managing modern preschool educational institutions based on advanced foreign experiences. It also presents ideas on evaluating the effectiveness of activities and shaping their rankings based on the "Modern Preschool Educational Institution" assessment criteria.

Key words. Diversification, index, rating, globalization, modernization, metacompetencies, competencies, variability, management, management, cluster, transfer.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, boshqaruv tuzilmasi faoliyatini tizimli tashkil etish, ilg'or xorijiy tajribalar asosida har jihatdan zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishga katta e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimining samarali faoliyat ko'rsatishi, eng avvalo, yuksak malakali rahbar kadrlar faoliyati bilan belgilanadi. Shu boisdan pedagogik jamoani boshqarish, ta'limning yuqori ko'rsatkichlariga erishib borishda ta'lim tashkilotlari rahbarlaridan "boshqaruv" malakalariga ega bo'lib borishni talab qiladi.

Boshqaruv faoliyati – ta'lim tashkiloti rahbarlarining boshqaruv faoliyatini ikkita subyektning, ya'ni rahbar bilan ta'lim tizimining o'zaro bog'liq faoliyati sifatida qarash mumkin. Bunday holatda rahbarning boshqaruv obyekti boshqarish va o'zini-o'zi

boshqarish kabi zaruriy xususiyatlarga ega bo‘lgan ta’lim tizimi hisoblanadi, turli xil ta’sirlar asosida boshqarilayotgan ta’lim tashkiloti ham o‘z o‘rnida boshqaruv natijalariga va boshqaruv subyektiga ta’sir ko‘rsatadi.

Joriy yilda maktabgacha ta’limning uzluksizligi va uzviyligini ta’minlash, maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish, sohada faoliyat yuritayotgan xususiy sektor vakillarini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash, ta’lim jarayoniga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-152-sonli Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmonga muvofiq 2024-2025-yillarda maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra, 2026-2027-o‘quv yilidan boshlab:

– “maktabgacha ta’lim tashkilotlari tomonidan maktabgacha ta’limni boshqarish axborot tizimida bolaning rivojlanish xaritasini yuritish amaliyotini joriy qilish;

– maktabga tayyorlov guruhlarini tamomlagan bolalarga ularning rivojlanish xaritasi asosida bir yillik maktabga tayyorlovdan o‘tganlik haqida elektron sertifikat berishni yo‘lga qo‘yish;

– maktabgacha ta’limning davlat ta’lim dasturi doirasida ishlab chiqilgan elektron resurslar, audiovizual mahsulotlar va o‘quv-metodik materiallarni maktabgacha ta’limni boshqarish axborot tizimida joylashtirish hamda ushbu materiallardan erkin va bepul foydalanish imkoniyatini yaratish;

– maktabgacha ta’limni boshqarish axborot tizimida ota-onalar uchun shaxsiy kabinet yaratish va unda bolaning rivojlanish xaritasi ma’lumotlarining joylashtirilishini ta’minlash ” kabi bir qancha chora-tadbirlar belgilab qo‘yilgan. Ushbu chora tadbirlar ijrosi amalga oshirilishi kuchli nazoratga olinishi ta’kidlangan.


Shuningdek, ushbu Farmonda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining reytingini shakllantirish haqida ham vazifa va topshiriqlar belgilangan. Ma’lumki, maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini baholash va ularning reytingini shakllantirish keng qamrovli raqobatbardosh muhitni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori, o‘rinbosari hamda pedagog xodimlardan kreativlik, birdamlik, yangi g‘oyalarga ochiqlik, xorij tajribalarini o‘rganib amaliyotga joriy qilish, variativlik, klasterli yondashuv asosida faoliyatni olib borishni talab qiladi. O‘zaro raqobat bor bo‘lgan tizimda yuksalish, yangiliklarga intilish hamda “eng zo‘ri” bo‘lish kayfiyati yuqori bo‘ladi.

Xalqaro tajribalarni o‘rganib, tahlil qilganimizda shuni ko‘rishimiz mumkinki, mamlakatning Global indeks reytingidagi o‘rni fan, ixtirochilik va texnologiyalar transferini rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish, inson kapitali va kadrlar salohiyatini rivojlantirish bilan uzviy bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda milliy va xalqaro maydonda ta’lim tashkilotini boshqarishni xalqarolashtirish, globallashuvi va modernizatsiyalash asosida faoliyatni yanada sifatini oshirish, boshqaruv samaradorligini kuchaytirish, kadrlar kompetentligini rivojlantirish va boshqarishning (HRM) zamonaviy ekotizimlarini yaratish, rahbar va pedagog kadrlarning innovatsion va tadbirkorlik kompetentligini rivojlantirish, ularda mehnat bozoridagi o‘zgaruvchan tendensiyalarga tezkor moslashish imkonini beruvchi metakompetensiyalar (soft skills)ni qaror toptirishni innovatsion boshqarishning yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqadigan bo‘lsak, maktabgacha ta’limda boshqa-

ruvni zamon talablari asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotini boshqarish ko‘p omilli jarayon bo‘lib, uning bir qismi tashkiliy tuzilma, ta’lim tashkilotining umumiy madaniyati, rahbarning strategiyasi va taktikasi hisoblanadi. Boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishda, maqsadlarni belgilashda ta’lim tashkilotlari rahbarlari bugungi kunda davlatning ta’lim siyosatini, tarbiyalanuvchilar va ularning ota-onalari ehtiyojlarini hisobga olgan holda harakat qila olishlari kerak. Ta’lim va tarbiya sifatinini ta’minlashda ta’lim tashkiloti xodimlarini oqilona boshqarish, ta’lim jarayoniga tashqi va ichki muhitga mos ravishda o‘zgartirishlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, normativ-huquqiy, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va psixologik omillar asos hisoblanadi. Zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining idoraviy qurilish normalarini qayta ko‘rib chiqish talab qilinadi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlarining bugungi kundagi ish faoliyati samaradorligini oshishida ham kasbiy, ham shaxsiy sifatlarini rivojlantirish alohida o‘rin tutadi. Zamonaviy so‘z bilan aytganda, direktorlarning kasbiy kompetensiyalari zamon talabiga mos ravishda takomillashib, rivojlanib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida tashkilotda zamonaviy innovatsion muhit, direktorlarning ishlash koeffisentining oshishi hamda xodimlar o‘rtasida raqobatbardosh jarayonni kuchaytiradi. Ushbu jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, direktorlarning zamonaviy kasbiy kompetensiyalari quyidagicha keltirilgan:



1-rasm. MTT tashkiloti direktorlarining zamonaviy kasbiy kompetensiyalari

Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, rag‘batlantirish, yetakchilik, boshqarish, nazorat qilish funksiyalariga ega. U menejer va rahbarning vakolatlarini mohirona birlashtirishi kerak. Bunda:

maktabgacha ta’lim tashkilotlari binolarini zamonaviy, energiya tejamkor, ekologik toza qurilish materiallaridan foydalangan holda qurilishiga alohida e’tibor qaratish;maktabga tayyorlov guruhlarini tamomlagan bolalarga ularning rivojlanish xaritasi asosida bir yillik maktabga tayyorlovdan o‘tganlik haqida elektron sertifikat berishni yo‘lga qo‘yish[1].

Shu bilan birgalikda, maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilish va takomillashtirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini davlat tomonidan boshqarishning samarali tizimini yaratish hamda uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini qurish-ta’mirlash ishlarini tashkil etish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, hududlarni obodonlashtirish, sanitariya-gigiyena talablariga rioya etilishini ta’minlash borasidagi vakolatli davlat organlarining faoliyati ayniqsa muhim.

[1] Kalmuratov T.N. Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini boshqarish funksiyalari. “Maktabgacha ta’lim sifatini oshirish muammolari va yechimlari” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.

Yuqorida keltirilgan fikr mulohazalardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, ta'limni qaysi bir bo'g'ini bo'lishidan qat'iy nazar unda faoliyat olib borayotgan rahbarning bilimi, ko'nikmasi va malakasiga e'tibor qaratish va uni o'z o'rniga qo'yish tizimni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Rahbar boshqaruv kompetensiyaga ega bo'lishi va rahbar shaxsiga qo'yilgan talablarni puxta bilishi muhim. Rahbarning boshqaruv kompetentligining yuqori bo'lishi ta'lim sifatini oshirishga va xodimlar o'rtasida ishga bo'lgan mas'uliyatning ko'tarilishiga zamin bo'ladi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimini boshqarish funksiyasini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar, ta'lim sifatini oshirish va innovatsion muhitni yaratish maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishda qo'yiladigan talablardan bo'lmoqda. Innovatsion yondashuv asosida tizimda ishlayotgan xodimlarni bilim, ong va tafakkur sohalarida islohotlarni amalga oshirishga tayyorlash, rivojlantirish bo'yicha onlayn va oflayn o'quv kurslari tashkil etilmoqda.

Ushbu yangi sharoitda maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlari orasida kadrlar portfelining banki strategiya, innovatsiya va raqamlashtirishning mohiyatini tushunadigan, ta'minlay oladigan islohotlarni amalga oshirish va ularning fikrini o'zgartirishga qaratilmoqda. Innovatsion yondashuvlar asosida boshqaruvni shakllantirish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotida ko'proq xorijiy va mamlakatimiz olimlarining tadqiqotlari tajribalarni o'qib o'rganishimiz kerak. Chunki kadrlar malakasiga qo'yiladigan talablar zamonaviy mehnat bozori doimiy va tez o'zgarib turadi. Bu qo'shimcha va mustaqillikni talab qiladi. Ta'limni to'liq raqamlashtirish kerak. Bunday holda, raqamli kontent platformalar yoki mobil ilovalar orqali dars rejalari, onlayn taqdimotlar, animatsiyalarni taqdim etish tinglovchilarga onlayn darslar, video instruktorlar yaratilishi kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqaruv kadrlarining ish samaradorligini oshirish, kasbiy ko'nikmalarini yanada rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan bo'lib hisoblanmoqda. Ushbu vazifalarning ijrosini ta'minlash uchun kadrlar malakasini oshirish, innovatsion kasbiy muhitni yaratish, boshqaruv kompetentligini, izchilligini ta'minlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyayev 2024-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-152-sonli Farmoni.

2. Mirsoliyeva M.T. "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusidagi dissertatsiya ishi // – T., 2019. 17-18-38-40 b.

3. Hamdamova Mahzuna Tursunovna. (2023). Formation of Student Management Culture as A Pedagogical Problem. Eurasian Scientific Herald, 24,49–52. https://geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/4913.

4. Kalmuratov T.N. Davlat xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini boshqarish funksiyalari. "Maktabgacha ta'lim sifatini oshirish muammolari va yechimlari" mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.

5. http://www.lex.uz.

Zulayho DJURAYEVA,
“Rahbar ayollar maktabi” o‘quv dasturi tinglovchisi

MAKTABGACHA TA’LIM SIFATINI NAZORAT QILISH VA BOSHQARISHNING MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, uning asosiy tarkibiy qismlarining o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotida sifat menejmenti jarayonini modellashtirish bo‘yicha subyektlar faoliyatining algoritmi bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘zlar. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari, idrok etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kasbiy bilimlar, individual xodimlarni boshqarish darajasi.

В статье рассматривается определение специфики управления качеством образования в дошкольных образовательных организациях, особенности его основных компонентов. Также даны рекомендации по алгоритму деятельности субъектов по моделированию процесса управления качеством в дошкольной образовательной организации.

Ключевые слова. Дошкольные образовательные организации, восприятие, современные педагогические технологии, профессиональные знания, уровень управления отдельным персоналом.

The article reflects on the identification of the peculiarities of the management of the quality of education in preschool educational organizations, on the peculiarities of its main components. Also, recommendations on the algorithm of the activities of the subjects for modeling the process of quality management are given in the preschool educational organization.

Key words. Preschool educational organizations, perception, modern pedagogical technologies, professional knowledge, the level of individual personnel management.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti – bu ta’lim xizmatlari sifatini baholashga alohida yondashuvni talab qiladigan tizim, chunki u baholash faoliyatining ma’lum bir prinsipini aks ettiradi va shu bilan ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini ta’lim sifatiga yo‘naltiradi. Innovatsiyalarni izlash va o‘zlashtirish natijasida maktabgacha ta’lim tizimidagi tub o‘zgarishlar munosabati bilan maktabgacha ta’lim sifatini baholash tizimida ham sezilarli o‘zgarishlar yuz beradi. Ta’lim sifatini davlat nazorati ta’lim xizmatlari iste'molchilarining zamonaviy talablarining bajarilishini va ta’lim tashkilotlari faoliyatida sifat menejmentining zamonaviy tamoyillarini to‘liq amalga oshirishni to‘liq ta’minlay olmaydi, shu jumladan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida so‘nggi o‘zgarishlar munosabati bilan umumiy sifat menejmenti nuqtai nazaridan har qanday ta’lim tashkiloti umumiy manfaatlar bilan birlashtirilgan va muayyan o‘zaro ta’sir muhitini ifodalovchi sheriklar (manfaatdor tomonlar) guruhining teng huquqli a’zosi sifatida qaralishi kerak. Bunday sheriklar, yetkazib beruvchilar va iste'molchilar (mijozlar) bilan bir qatorda, o‘z xodimlarini ham o‘z ichiga oladi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyati sifatini yaxshilash muammosi har qachongidan ham dolzarbdir. Ta’lim tizimini, xususan, maktabgacha ta’limni modernizatsiya qilish yuqori malakali o‘qituvchilarni talab qiladi. Hozirgi vaqtda ta’limni

modernizatsiya qilish, uchinchi avlod standartlarini joriy etish jarayoni davom etmoqda, bu esa yangi bilimlarni, ta'lim tashkilotlarida sifat menejmentiga yondashuvlarni talab qiladi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagilarni ta'minlash kerak:

1) maktabgacha ta'limning innovatsion yondashuvi, iste'molchilar ishtirokida ta'lim xizmatchilarining sifati va talab qilinishini baholash mexanizmlari;

